

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URMANOVA LOLA AKBAROVNA

RUS MUSIQASI TARIXI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun darslik

Bilim sohasi:	100000 – ta'limga
Ta'limga sohasi:	140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo'nalishi: 5141000-musiqiy ta'limga

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ilmiy – metodik kengashining «28» iyun 2007 yildagi - № - 12 qarori bilan
nashrga tavsiya etildi.

L.O'rmanova. Rus musiqasi tarixi

Taqrizchilar: Q.Mamirov – pedagogika fanlari nomzodi, professor.
Yu.M.Nosirova – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Muharrir: O.A.Ibrohimov - san'atshunoslik fanlari doktori, professor.

Mazkur darslik XIX -XX asr boshlarida jahon musiqa madaniyatida jahonshumul shonshuhratga ega bo'lgan asarlar yaratilishi bilan mashxur bo'lgan rus musiqa madaniyatining eng yorqin davriga bag'ishlangan.

Ushbu darslikda atoqli rus kompozitorlarining shaxsiy ijodiy qiyofasi va musiqa madaniyati tarixida egallagan o'rni va ahamiyatining eng muhim va e'tiborga molik ma'lumotlar qayd etilgan.

Darslik oliy maxsus ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Ushbu darslik rus musiqa madaniyatining eng sermahsul va yorqin davri - XIX - XX asr boshlarida yashab, jahon musiqa madaniyatida o'chmas iz qoldirgan kompozitorlar hayoti va ijodiga bag'ishlanadi.

Darslik mazmunidan shu davrlarda yashagan kompozitorlarning ijodi, ularning rus musiqa madaniyati tarixida egallagan o'rni va ahamiyatini belgilaydigan ko'plab qiziqarli ma'lumotlar o'rinni olgan.

Musiqa madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashib borish jarayonlarini o'rganish - musiqa tarixi kursining asosiy vazifalaridan biridir. Musiqa tarixi darsligida, birinchi navbatda, musiqiy ijod hamda musiqiy-uslubiy tadrijiyot masalalari, shu bilan bir qatorda, musiqa madaniyatining boshqa muhim tomonlari ham yoritib berilgan. Muallif rus musiqa madaniyatining eng nodir durdonalariga sharh berishga harakat qilgan. Albatta, bunda tarixiy sharoitlarni, ularning yuzaga kelishi sabablarini e'tiborga olgan holda, musiqiy olam, musiqiy ta'lim va bilim orqali san'at olamiga kirib borilishi lozim bo'ladi.

Musiqa tarixi haqida nashr etilgan ko'plab amaliy materiallarda muhim tarixiy voqealar, noyob rus musiqiy asarlari yoritib berilgan. Darslikda o'rganilayotgan kompozitor tomonidan yaratilgan musiqiy merosning musiqa madaniyatining shakllanishidagi ahamiyati beqiyosdir. Ulug' rus musiqa madaniyatida munosib o'rinni olgan noyob memuar asarlarda iste'dodli kompozitorlar o'zlarining falsafiy, estetik, man'aviy dunyoqarashlarini, tarixiy voqealarga o'z munosabatlarini yaqqol namoyon etganlar. Ular musiqani yorqin ideallar, insonlarning ozodligi va baxti uchun kurashning samarali vositasi deb hisoblar edilar.

Musiqa tarixi darsligining asosiy vazifalaridan yana biri – bu rus musiqasining jahon musiqasi miqyosida egallagan o'rnini ko'rsatib berishdir. Muallifning fikricha, rus musiqasining rivojlanish davrini jahon musiqasining rivojlanishi tarixidan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi.

G?arb madaniyatining rivojlanishi rus madaniyatining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko'pgina rus kompozitorlari yaratgan ijod namunalarini rus musiqasining yuksak madaniyatga ega bo'lgan G?arbiy Evropa mamlakatlari darajasiga olib chiqdi.

Ma'naviyat va ma'rifatning qaysi bir sohasini olmaylik, zamonaviylikka intilish rus xalqining uzoq o'tmishiga borib taqaladi va ushbu ma'lumotlar tarix zarvaraqlari orqali bizgacha etib kelgan.

Musiqa, ayniqsa XIX asr rus madaniyatining rivojlanishida salmoqli o'rinni tutadi va shuning bilan alohida e'tiborga molikdir. 1812 yildagi Vatan urushining Rossiya g'alabasi bilan tugashi, dekabristlar qo'zg'oloni hamda rus podshosi tomonidan krepostnoy - dehqonlarga ozodlik va huquqlar berilishi muhim tarixiy voqeasi bo'ldi. Rossiya tarixidagi bunday muhim voqeasi va hodisalar jamoatchilik fikrining rivojlanishiga hamda rus san'atining gullab-yashnashiga ta'sir etmay qolmadi. Ayniqsa, 1812 yildagi Vatan urushi davrida sodir bo'lган voqealar va bu urushda rus xalqining ulkan g'alaba qozonishi rus musiqasini yanada yuksak cho'qqilarga ilhomlantirdi, uni jahonga tanitdi. Muallif rus musiqasi tarixining XIX asrga tegishli klassik davrini va XX asrga o'tish davrini tarixiy materiallar asosida yoritib beradi. Bu davrda rus musiqasi jahonshumul badiiy ahamiyatga ega bo'ldi hamda Evropaning yirik milliy kompozitorlik maktablari o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

Bu davrlar oralig'ida ijod qilgan rus kompozitorlari ijodiga xos bo'lган chuqur tipologik chizg'ilar ularning asarlari aniq va ravshan aks etgan, ya'ni bu asarlarda faqat ularga xos bo'lган betakror qirralar namoyon bo'ladi.

Adabiyotlarda etarli ma'lumotlar berilmaganligi, binobarin, muallif imkoniyatlari cheklanganligiga qaramasdan, musiqa namunalarini tahlil qilish va ularga ta'rif berish zarur talab darajasida amalga oshirildi. Muallif o'z bilimi va salohiyatini ushbu darslikni yaratishga bag'ishlab, talabalarni rus kompozitorlarining betakror, nodir musiqiy asarlari bilan tanishtirishga va olingen bilimlarini hayotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Mashhur kompozitorlarning musiqiy asarlardan berilgan namunalar esa nafaqat

talabalarning bilimini boyitishda, balki ularning estetik didini shakllantirib, ma'naviy boy, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega.

Darslikda romanslarning ruscha nomlanishi qavs ichida berilgan, chunki har bir romansning dastlabki so'zлari uning nomiga muvofiq keladi.

Talabalar egallagan bilimlarini mustahkamlab va takomillashtirib borishlari uchun, muallif yangi axborot texnologiyalaridan ham imkon qadar samarali foydalangan. Muallif tomonidan darslikka kiritilgan musiqiy ilovada rus kompozitorlari asarlarining elektron varianti ham taklif etiladi.

XIX ASR BIRINCHI YARMIDA RUS MUSIQA MADANIYATI

XIX asr rus musiqa madaniyatida har tomonlama rivojlanish davri bo'ldi. Aynan shu davrda M.I.Glinka, A.S.Dargomijskiy, M.A.Balakirev, A.P.Borodin, M.P.Musorgskiy, N.A.Rimskiy-Korsakov, P.I.Chaykovskiy kabi buyuk kompozitorlar ijod qilib, o'lmas asarlar yaratdilar. Rus mumtoz musiqiy madaniyatning keyingi rivoji A.K.Glazunov, A.K.Lyadov, S.I.Taneev, A.S.Skryabin, S.V.Raxmaninov kabi kompozitorlarning ijodi bilan bevosita bog'liqdir. Ularning ijodida muhim ahamiyat kasb etgan mashhur musiqiy asarlarning yaratilishi XIX asr yakuni - XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Zero bu davrda ham rus musiqa madaniyatining rivojlanishi jadal sur'atlarda jo'shqin kechdi. Bu jarayon bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarda davom etib, yangi ijodiy sohalarni o'z ichiga qamrab oldi. Ayni paytda musiqiy-tanqidiy va estetik fikrlar gurkirab o'sdi.

XIX asrning birinchi yarmiga xos madaniy yangiliklar o'sha davr ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar va voqealar rivoji bilan chambarchas bog'liq. San'atning g'oyaviy-estetik va mazmuniy rivojlanish yo'nalishlari faqat Rossiyadagina emas, balki G?arbiy Evropada ham sodir bo'lgan keskin va murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda yuzaga keldi. XVIII asr oxirida sodir bo'lgan farang inqilobidan so'ng o'zini Farangiston imperatori deb e'lon qilgan Napoleon Birinchining tajovuzkor siyosati sababli qator Evropa mamlakatlarining iqtisodiy-siyosiy rivojlanishida birmuncha murakkab vaziyat yuzaga keldi.

1812 yildagi Vatan urushida barcha rus xalqi yurt himoyasi uchun oyoqqa turdi. Mash'um urush butun jamoatchilikni chuqur iztirobga soldi, rus xalqining ilg'or vakillarida insoniy tuyg'ularni, o'z-o'zini anglash, qolaversa, fuqarolik hissini kuchaytirdi. Bosqinchi Napoleon ustidan qozonilgan buyuk g'alaba ezilgan rus xalqini yanada ruhlantirdi. Xalq noroziligi, dehqonlar harakati kuchaygan bir vaqtida huquqsiz va mazlum xalqning qudratli kuchimi, mamlakatda ziddiyatli, notinch vaziyat yuzaga kelayotganini anglagan eng ilg'or ijtimoiy qatlam - zodagon sinf vakillari orasida muxoliflik kayfiyatlari paydo bo'la boshladi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan voqealari rivoji tarixda va keyinchalik ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim o'rinni egallagan dekabristlar harakatiga kuchli «turtki» berdi. Dekabristlar harakati rus san'ati tarixida chuqur iz qoldirdi, ilg'or g'oyalar, xususan, rus jamiyatida ko'plab iqtidor sohiblarining ijodiy o'sishi uchun ham zamin hozirladi.

Shu zaminda ulug' rus shoiri A.S.Pushkinning ijodiy faolligi oshdi. Dekabristlar qo'zg'oloni arafasida Pushkin o'zining «Boris Godunov» nomli ilk realistik xalqchil tragediyasini, Griboedov esa «Aqlililik balosi» komediyasini yaratdi. Qolaversa, dekabristlar qo'zg'oloni tufayli jamiyatda ko'tarinkilik kayfiyati yuzaga keldi, ijodiy faollik ortdi, she'riyat janri misli ko'rilmagan darajada gurkirab o'sdi.

XIX asr boshlarida ijod etgan kompozitorlar teatr janri sohasida ko'plab asarlar yaratdilar. Ilk musiqali teatr janri asarlarini K.Kavosning «Ko'rinmas shoh», «Pahlavon Ilya» nomli ertak operalari va vatanparvarlik ruhidagi «Ivan Susanin» operasi, V.A.Ozerovning «Edip Afinada» va «Fingal» nomli fojiaviy (O.A.Kozlovskiy musiqasi) asarları, S.A.Dyagterevning «Minin va Pojarskiy» oratoryalari tashkil etgandi. Bu davrda vodevil* janriga oid engil musiqali komediylar ommalashdi. Bu borada A.A.Shaxovskiyning «Shoir kazak» pesasi (K.Kavos musiqasi) birinchi rus vodevili hisoblanadi.

XIX asrning I yarmida balet janri ham rivojlandi. Asrning boshida ustuvorlik qila boshlagan bu janrda mualliflar ertak, hajviya va afsonaviy syujetlar asosida baletlar yaratdilar.

*Vodevil – naqoratli musiqa jo'rligida ijro etiladigan «qoidalar komediysi»ning bir turi.

XIX asr davomida rus baleti Titov, Davidov, Antonolini, Kavos va Sholtislarning oddiygina partituralaridan tortib, to Chaykovskiyning «simfonizmli» baletlariga qadar tadrijiyot yo'lini bosib o'tdi.

Rus kompozitorlarining cholg'u musiqasi asosan «uy» sharoitidagi ijrochilik faoliyati bilan bog'liq edi. Yirik hajmdagi asarlardan A.Alyabevning kontsertli uvertyurasi va bir qismdan iborat simfoniyasi ajralib turadi. A.Gurilyovning ijodi fortepiano uchun turli janrdagi asarlari bilan alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning sonatalari va «24 prelyudiya va fugalar»i musiqa san'atida muhim o'rinni egallagan edi. Bu davrda variatsiya janri, cholg'u ansambllar uchun kvartetlar va boshqa janrdagi asarlar ham yaratildi.

Rus musiqa san'atining rivojlanishida krepostnoylardan chiqqan yirik musiqachi ziyolilar - D.N.Kashkin va S.A.Dyagterovlarning xizmatlari kattadir. Pushkin davrida bir qator iqtidorli kompozitorlar, xususan, N.A. va N.S.Titovlar, M.L.Yakovlev, M.Yu.Vielgorskiy, A.P.Esaulov va I.I.Genishta, A.N.Verstovskiy, A.A.Alyabev, A.E.Varlamov, A.L.Gurilyov kabi kompozitorlar o'z ijodlari bilan e'tibor qozondilar.

A.Verstovskiy musiqa tarixida «sahna» (teatr) kompozitori, romantik operalar muallifi sifatida iz qoldirdi. U o'zining mashhur «Askold qabri» operasiga yangi mavzularni va ta'sirchan musiqiy-dramatik vositalarni kiritgan edi.

XIX asrning 20-yillarida rus mumtoz musiqasining asoschisi M.I.Glinka o'zining ijodiy yo'lini boshlaydi. U o'zining sermahsul ijodi bilan rus musiqasini yangi bosqichga ko'tardi. Rus musiqa madaniyatida bu davrni «Glinka davri» deb ham atadilar. M.I.Glinka rus mumtoz simfoniyasi, operasi va romansiga asos soldi. U o'zining keng dunyoqarashi, xalqparvarligi va o'z zamonasining ijtimoiy hayotidagi faol ishtiroki bilan boshqa kompozitorlardan ajralib turardi.

1830-yillarning ikkinchi yarmiga kelib rus musiqasi «sahnasi»da mashhur rus kompozitori A.S.Dargomijskiy ijodi yuksaldi. Glinkaning yosh zamondoshi va yaqin izdoshi bo'lgan Dargomijskiyning ijodida XIX asrning 40-60 yillariga xos tanqidiy realizm oqimi o'z aksini topdi.

Rus shoirlari ijodi bilan hamohang tarzda rus lirik romansi ham ilgariladi. M.I.Glinka, A.A.Alyabev, A.N.Verstovskiy kabi iste'dod egalari o'zlarining ijodlari bilan ijtimoiy-madaniy hayotning oldingi qatorida bo'ldilar. A.N.Verstovskiy o'zining romantik operalari bilan tomoshabinlar orasida muvaffaqiyat qozondi. A.A.Alyabev esa psixologik romans-monolog janrida barakali qalam tebratdi.

XIX asrning boshlarida Evropada paydo bo'lgan romantizm badiiy yo'nalishi tez sur'atlarda rivojlanib keng quloch yoydi va, shu jumladan, Rossiyada ham bir qadar yoyildi. Romantizm yo'nalishda yaratilgan musiqiy asarlarda jamiyatda hukm surayotgan tengsizlikka, ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan norozilik kayfiyatları o'z ifodasini topgan edi. Insoniyatning shaxs ozodligi va inson ma'nnaviy kuchining erkinligi haqidagi orzu-umidlari buyuk ingliz shoiri Ch.Bayronning ijodida barq urdi. «Romantizmning jangovarligi» g'oyalari jahon musiqa san'atining yirik namoyandalari - F.Shopen, R.Shuman, G.Berlioz, R.Vagner, F.List kabi mashhur kompozitorlarning ijodida yorqin ifodalandi.

Romantizm badiiy-uslubiy yo'nalishi yosh shoir A.S.Pushkin va uning zamondoshlari bo'lgan dekabrist-shoirlar K.F.Rileev, V.K.Kyuxelbekker, A.I.Odoevskiy, A.A.Bestujevlarning ijodida «fuqarolik mavzulari» ko'rinishida muhim o'rinni egallaydi. San'at asarlarida badiiy shakl, uslub va vositalar yordamida milliy ozodlik kurashi g'oyalaring ifodalanishi rus san'atining rivojida ayniqsa katta ahamiyat kasb etdi. Romantiklar o'zlarining ijodlari bilan har bir inson o'ziga xos fe'l-atvorga ega bo'lish huquqiga ega, degan fikrni himoya qilib chiqdilar.

A.S.Pushkin davrida yashab o'tgan kompozitorlarning ijodida romantizm estetikasining aynan shu tomonlari ko'proq aks ettirilgan bo'lib, bu hol ularga musiqa tili va uslubini boyitishga muhim asos bo'lgandi.

Romantizm davriga xos eng sara asarlarda, Glinka va Alyabevning romanslarida, Verstovskiy operalarida, Varlamovning ehtirosli lirikasida biz xalq turmushi, fe'l-atvorlari tasvirlanganligini va ularda inson qalbiga kirib borish hissiyoti borligini ko'ramiz. Bu davrda rus kompozitorlari romantizm estetikasining sub'ektivizmlash tuyg'ularni bo'rttirib ko'rsatish, «favqulodda» bo'lgan narsalarga intilish kabi salbiy ko'rinishlarini engib, boshqa zamondosh shoirlar kabi voqelikni har tomonlama va haqqoniy aks ettirishga intildilar.

Rus musiqasining rivojlanishiga A.S.Pushkinding ijodi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Uning tarixiy drama kontseptsiyasi M.I.Glinkaga «Shoh uchun hayot» («Ivan Susanin») nomli qahramona xalqparvarlik mavzusidagi operasini yaratishiga yo'l ochdi. A.S.Pushkinding tom ma'noda xalqchil bo'lgan «Ruslan va Lyudmila», «Suv parisi» nomli asarlari hamda M.I.Glinka va A.S.Dargomijskiylarning shu mavzularga asoslangan operalari rus mumtoz operasining keyingi rivojlanish yo'llarini belgilab berdi. A.S.Pushkinding lirik she'riyati esa rus mumtoz romanslariga asos soldi.

XIX asr o'rtalariga kelib rus mumtoz musiqasi chuqur mazmun va mukammal badiiy shaklning yaxlitligi namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrdagi sezilarli o'zgarishlar ayniqsa opera janrida kuzatildi: 1. Endilikda u bir syujet atrofida birlashgan, alohida-alohida musiqiy asarlar zanjiri tarzida emas, balki yagona mavzuga ega bo'lgan yaxlit va monolit shakldagi musiqiy dramatik asardir. 2. Sahnalashtirilgan asarlarning dramaturgik (rivoj) o'zagi sifatida «to'qnashuv» omili ilgari suriladi.

M.I.Glinka o'zining «Ivan Susanin» (1836) operasida Vatan tarixini, «Ruslan va Lyudmila» (1842) operasida esa afsonaviy doston manzaralarini ochib berdi. Uning zamondoshi A.S.Dargomijskiy esa «Suv parisi» nomli operasida ijtimoiy tengsizlik mavzusini, oddiy inson fojasini xalqchil uslubda tasvirlaydi.

M.I.Glinkaning simfonik ijodida, xususan «Kamarincha» va «ispancha uvertyura»larida rus dasturli musiqasiga poydevor qo'yildi. Simfoniya rivojlanishining ushbu tamoyillari keyinchalik P.I.Chaykovskiy hamda «Qudratli to'da» kompozitorlarining ijodlarida munosib davom ettirildi.

XIX asr musiqiy madaniyatida qoloq did va taqlid qilishga qarshi kurash bilan bog'liq murakkab jarayonlar jadal kechayotgan edi. Hali konservatoriylar, davlatga qarashli bo'lgan kontsert tashkilotlari yo'q edi. Dvoryan zodagonlari musiqa bilan shug'ullanish dvoryanlarga munosib emas, deb hisoblar edilar. Poytaxt teatrлari esa asosan italiyalik gastrolchilar bilan to'lib, rossiyalik iste'dodlarga nisbatan bepisand munosabat hukmron edi.

Shunga qaramay kontsert va teatr hayoti rivojlanishda davom etdi. Universitetlar, litseylar, pansionlar musiqa markazlariga aylanib bordi. 1802 yilda Peterburgda filarmonik jamiyat tuzilgan bo'lib, uning kontsertlarida I.Gaydn, L.Betxoven, G.Berlioz asarlari yangradi. Xor bilan shug'ullanadigan tashkilotlar orasida saroy huzuridagi kapella va graf Sheremetev xorini tilga olib o'tish mumkin.

Dvoryanlarning oliv nasab anjumanlarida, universitetlar va litseylarda pianinochi D.N.Kashkin, qo'shiqchi E.S.Sandunova, skripkachi G.A.Rachinskiy, irland pianinochisi va kompozitori J.Fild, pianinochi Mayer va boshqa chet ellik skripkachi va violonchelchilar ishtirokida kamer kontsertlar uyushtirilar edi.

Violonchel sozandası M.Vielgorskiy, pianinochi I.I.Genishta va A.L.Gurilyovlarning ijrolari muvaffaqiyatli bo'ldi. 1840-yillarda F.List, G.Berlioz, Robert va Klara Shuman kabi qator chet ellik musiqachilarning ham kontsertlari rus madaniyatida chuqur iz qoldirdi.

Milliy musiqa madaniyatining murakkab shakllanish jarayonida uy sharoitlarida o'tkazib kelingan oilaviy ijrochilikning ham ahamiyatini alohida tilga olib o'tish zarur. Fortepiano, arfa, skripka, gitara kabi musiqa cholg'ulari ijrochiligi keng tarqala boshlanadi. Rus xalq qo'shiqlari yakkaxon (solo), duet shaklida ijro etilardi, qo'shiqlarning kuy mavzulariga esa variatsiyalar to'qilgan.

M.I.Glinka davriga tegishli bo'lgan musiqa maktabining ijodiy tamoyillari V.F.Odoevskiy, A.N.Serov, V.V.Stasov kabi musiqiy tanqidchilar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

XIX asrning boshi - romans janrining rivojlanish davridir. Rus romanschiligining rivojlanishiga rus she'riyati, ayniqsa A.S.Pushkinning ijodi katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi musiqiy uslubining ijodkorona yangi ohanglar va kuylarning yaratilishida o'sha davring rus maishiy romanslari «laboratoriya»si vazifasini o'tadi. Rus va ukrain kuylari, ruscha va g'arbiy evropacha raqs ritmlari, vokal musiqasidagi nutq va deklamatsiya ohanglari, ba'zi «italyanizm»lar, keng tarqalgan nemis va farang musiqasiga xos bo'lgan kuy-navolar – bularning barchasini o'sha davrdagi rus maishiy romanslarida uchratish mumkin edi.

Shu davrga xos romanslar musiqasining asosiy belgilari sifatida quyidagi chizgilar ko'zga tashlanadi: kuya seksta intervaliga ko'proq e'tibor berilishi; kuya ohang to'xtalmasi usullaridan keng foydalanish; musiqaga ta'sirchanlik kirituvchi, hayajon bag'ishlovchi quyi registrdan foydalanish; «dramalashtirish» vositalari sifatida rechitativ va deklamatsiya usullarining kiritilishi; garmonik minorning ustunligi; bir-biriga yaqin tonalliklarga og'ishmalar; kayfiyat o'zgarishini namoyish qilish uchun major va minor ohangdoshlarini taqqoslash; kyatarilgan IV pog'onadan keng foydalanish; maishiy turmush raqslari, ayniqsa vals, mazurka, polonez, serenada ritmlarini qo'llash; gitara va arfa cholg'ulariga xos figuratsiyalardan foydalanish; lo'lilar ijrochilik uslubining keng tarqalishi va h.k. Romanslar ko'pincha band shaklida yozildi.

Bu davrda romantizm yo'naliشining ballada janrida ham o'zgarishlar yuz berdi. A.N.Verstovskiy, A.A.Alyabev va A.E.Varlamovlar qalamiga mansub ajoyib balladalar paydo bo'ldi. Dramatik monologning erkin uslubida yaratilgan ballada o'zining murakkabligi bilan ajralib turgan.

A.N.Verstovskiy, asosan, balladalar ijodkori hisoblanadi. Uning A.S.Pushkin so'zlariga yozilgan «Qora shol ro'mol» («Chernaya shal») va V.Jukovskiy so'zlariga bastalangan «Skaldning uch qo'shig'i» («Tri pesni Skalda»), «Bechora go'yanda» («Bedno'y pevets») kabi balladalar o'z vaqtida juda mashhur bo'lib, omma orasida edi.

XIX asrning birinchi yarmida xalq musiqasiga taqlid sifatida yuzaga kelgan va xalqchil uslubdan ijroga mo'ljallangan «rus qo'shig'i» janri musiqa sohasida juda keng tarqalgan janrlardan bo'ldi. A.Alyabev, A.Gurilev, A.Varlamovlarning ijodida bu janr muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning «rus qo'shiqlari» mazmun jihatidan boy va turli-tumandir.

A.S.Pushkin davrida romansning maxsus ko'rinishi bo'lgan va mazmunan mushohada yuritish, chuqur xayolga cho'mish kabi usullar ustunlik qilgan, elegiya turi shoir va kompozitorlar ijodida muhim o'rin egallaydi. Falsafiy, xalqparvar mazmunga boy A.S.Pushkin elegiyalari juda ko'p kompozitorlarning e'tiborini o'ziga tortgan. I.I.Genishtaning Pushkin so'ziga bastalagan «Kun yog'dusi so'ndi» («Pogaslo dnevnoe svetilo») elegiyasi juda mashhur asarga aylandi. Navqiron Glinkaning Baratinskiy so'ziga yozilgan «Havasimni keltirma» («Ne iskushay») elegiyasi ham betakrorligi bilan e'tiborga sazovordir. Safarlarda, salt yurishlarda musiqa shinavandalari kuylaydigan vatanparvarlik, qahramonlik fazilatlari madh etilgan rus vokal ijodiyotida alohida o'rinni egallagan.

XIX asrning ikkinchi choragida rus musiqiy madaniyatining rivojlanishi jarayoni A.Alyabev, A.Varlamov va A.Gurilevlar ijodida alohida ko'zga tashlanadi. Bu kompozitorlar rus romansini rivojlantirish yo'lida sermahsul ijod qilganlar.

A.A.ALYABEV
(1787 - 1851)

XIX asrning birinchi yarmida maishiy musiqaning bir vaqtning o'zida ham qo'shiq, ham romans nomini olgan musiqa namunalari keng tarqalgan edi. Bunda aytimlarning ikki xil nomlanishi jo'rnavoz cholg'ularning qo'llanishi bilan izohlanadi.

Aleksandr Aleksandrovich Alyabev Tobolsk shahrida tug'ildi. U aslzoda dvoryan oilasiga mansub bo'lib, ko'pgina mashhur zamondoshlari kabi bolaligidan har tomonlama keng va chuqur bilim oladi. O'spirinlik davridanoq uning ijodiy iqtidor sohibi ekanligi ko'zga tashlanadi. U 1812 yilda ko'ngilli bo'lib gusarlar polki safiga xizmatga kiradi, ko'plab janglarda ishtirok etib, yarador bo'ladi va harbiy xizmatlari uchun turli nishonlar bilan taqdirlanadi.

A.A.Alyabev 1823 yilda Moskvaga ko'chib keladi. U A.N.Verstovskiy va F.E.Sholts bilan birga Katta teatrning ochilishiga bag'ishlab «Ilhomlar ijodi» nomli muqaddimaga musiqa yozadi. 1825 yilda Alyabev nohaq qotillikda ayblanib, butun haq-huquqi va dvoryanlik unvonidan mahrum etiladi, hamda Sibirga surgun qilinadi. Bunday shavqatsiz xukmnинг chiqarilishiga uning dekabristlar doirasiga yaqin bo'lganligi sabab bo'lsa kerak. Uch yildan keyin Alyabev Tobolsk shahriga yuboriladi. Bu erda u simfonik orkestr va xor jamoasiga boschchilik qilib, dirijyor va pianinochi sifatida faoliyat yuritadi. Iste'dodli kompozitor sog'ligi yomonlashganiga qaramay, ijod bilan shug'ullanishini davom ettiradi. U rus romans janriga vatanparvarlik, ozodlikka intilish mavzularini olib kiradi. Uning ijodida A.S.Griboedov, A.S.Dargomijskiy hamda dekabrist-shoirlar bilan bo'lgan muloqotlari katta o'rinn tutgan edi.

A.A.Alyabev kamer-cholg'u musiqasi rivojiga ham o'z hissasini qo'shgan. Bu janrda uning birinchi va uchinchi torli kvarteti, fortepiano uchun a-moll triosi, fortepiano va skripka uchun sonatasi alohida o'ringa ega.

Shuningdek, u damli cholg'ular uchun kvartet va kvintetlar, turli xil cholg'ular uchun pesalar va variatsiya turkumlarini, «Oydin tun yoki uy ajinalari», «Bo'ron», «Edvin va Oskar», «Baliqchi va suv parisi», «Ammalat-bek» kabi romantik operalar, 2-3 opera - vodevilllar yaratdi.

U umri davomida rus, ukrain, kavkaz, O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqlari va kuylarini yig'di hamda ularni aranjirovka qilib nashrga tayyorladi. Ijodining so'nggi yillarda kompozitor jo'rsiz xorlar turkumidan «Turli qo'shiqlar to'plami» ustida ishlaydi. Afsuski, uning ko'p asarları sahnalashtirilmay, qo'lyozma holida qolib ketdi.

Glinka hamda Dargomijskiylarning zamondoshi bo'lgan Alyabev, o'zining eng sara asarlarida ana shu kompozitorlarning ijodiy tamoyillariga yondashdi. Uning iste'dodi ayniqsa elegiya, ballada, romans - monolog janrlarda yorqin namoyon bo'ldi.

A.A.Alyabevning «Bulbul» nomli romansi tinglovchilar tasavvurida san'at ahlining ko'plab avlodlari tomonidan hozirgi vaqtgacha katta muvaffaqiyat bilan ijro etilib kelinmoqda.

A.A.Alyabevning ijodiy faoliyatida «rus qo'shiqlari» va romans-monologlari alohida o'rinnutadi. Dekabrist-shoir A.A.Delvig so'zlariga yozgan mashhur «Bulbul» nomli qo'shiq muallifi Alyabev rus vokal musiqasiga romantik oqimni olib kirdi.

Nozik didli ijodkor A.A.Alyabev A.S.Pushkinning so'zlariga ko'plab musiqa bastalagan birinchi kompozitorlardandir. Masalan: «Men sizni sevardim» («Ya vas lyubil»), «Uyg'onish» («Probujdenie»), «Qish yo'li» («Zimnyaya doroga») va boshqalar shular jumlasidan. Yolg'izlik, quvg'inlik, sarson-sargardonlik mavzusi I.I.Vetter so'zlari bilan bog'liq «Irtish», I.I.Kozlov so'zlari «Oqshom bongi» («Vecherniy zvon») kabi romans-monologlar uning ijodida alohida o'rinn egallaydi. XIX asrning 40-yillarda yaratilgan asarlarida u ijtimoiy mazmundagi syujetlarga murojaat qiladi: N.P.Ogarev so'zlariga bastalangan «Mayxona» («Kabak»), «Kulba» («Izba»), «Qishloq qorovuli» («Derevenskiy storoj»), P.Beranje so'zlariga yaratilgan «Ojiza» («Nihaya») kabi qo'shiqlarida xaq-huquqlari toptalgan mazlumlarning qiyofasi tasvirlangan.

Bu qo'shiqlar keyinchalik Dargomijskiyning «Isitmajon» («Lixoradushka»), Musorgskiyning «Kalistrat», «Gopak», «Trepak» kabi novatorlik asarlarining yaratilishiga ham muhim zamin bo'ldi.

A.A.Alyabev doim tinglovchilarning qalbiga etib boradigan ta'sirchan vositalarni topishga va ularni yangilashga intildi. U vokal kuylarining so'zdosh unsurlarini rivojlantirdi, garmoniya va fakturuning ta'sirchanlik ahamiyatini oshirdi, romansning fortepiano partiyasiga mustaqil ma'nno berdi.

«Bulbul» romansning kuyi hayratlanarli tarzda mantiqqa ega bo'lib, juda ifodali, yorqin va oddiy, kuy boshi va naqoratga ega band shaklida yozilgan. Kuy o'zgaruvchanlarga – re-minor-fa-major, do major va yana re minor ladlari kiritilgan. Barcha modulyatsiyalar tabiiy va rang-barang sodir bo'ladi. Gitara jo'rligida kuylanish xususiyatiga ega bo'lgan bu kuy dillarni junbushga keltiradi:

«Bulbul» romansi Moskva Katta teatrining mashhur opera qo'shiqchisi P.A.Bulaxov tomonidan ilk bor ijro etilganidan boshlab, Rossianing barcha shaharlari bo'y lab keng tarqaldi. Bu qo'shiq xalq orasida tez ommalashdi va «xalq qo'shig'i» degan nomga sazovor bo'ldi. Musiqachilar esa uning kuyiga moslab har xil aranjirovkalar yaratdilar. Masalan: M.I.Glinka «Bulbul» mavzusida fortepiano variatsiyalarini, F.List esa uning fortepiano transkriptsiyasini yaratadi.

Kompozitor 1832 yildan 1834 yilgacha bo'lgan davrda Kavkazda, Orenburgda va Moskva guberniyalarida yashaydi hamda kavkaz, boshqird, qirg'iz, turkman va tatar xalq qo'shiqlarini qog'ozga tushiradi, ukrain folklorshunos olimi M.A.Maksimov bilan hamkorlikda «Ukrain qo'shiqlarining ohanglari» deb nomlangan to'plamni tuzib, nashrdan chiqaradi. Alyabev vokal kamer musiqasiga sharqona yo'nalishdagi mavzuni, musiqiy rivojlanish va jo'rnavozga sharq musiqasiga xos bo'lgan ritmlarni, garmonik shakllarni birinchi bo'lib kiritgan rus kompozitorlaridan edi. Alyabevning romanslari va qo'shiqlari nafaqat kompozitorning og'ir sinovlarga va romantik sarguzashtlarga boy bo'lgan shaxsiy hayoti va taqdirini, balki o'sha davrga xos erkinlik va baxtga bo'lgan tashnalik va xavotirlikni, izlanish va intilishlarni ham aks ettirgan.

Asosiy asarlar ro'yxati

Opera: «Oy tuni yoki uydagilar» (1823), «Ammalat-Bek» (1847), «Bo'ron» (30-yillar), «Sehrli tun» (1839, tugallanmagan).

Opera-vodevil: «Yangi o'yin yoki teatr kurashi» (1822), «Qishloq faylasufi» (1823).

Balet: «Sehrli nog'ora yoki sehrli nay tergovi» (1827).

Sinfoniya: Beshta bir qisqli simfoniya, sakkizta uvertyura, to'rtta variatsiyali turkum, alohida cholg'u va orkestr uchun asarlar ham uning qalamiga mansubdir.

Vodevillar musiqasi: 20 ta

Cholg'u ansambllar: 3 ta torli kvartet, 2 ta fortepiano trio, 4 ta kvintet, turli cholg'ular uchun variatsiyalar.

Qo'shiqlar: (150 ta), shu qatorda «Bulbul», «Oqshom jarangi», «Irtish», «Qashshoq ayol»; vokal ansambllar, jo'rsiz xorlar.

A.E.VARLAMOV

(1801 - 1848)

XIX asrning birinchi yarmi vokal lirikasida ajoyib kompozitor va mohir qo'shiqchi, pedagog va dirijor Aleksandr Egorovich Varlamov ijodi rus musiqasi tarixida alohida o'ringa ega. A.E.Varlamov Peterburg saroy kapellasidi direktori, kompozitor D.S.Bortnyanskiyning qo'lida shug'ullanadi, saroy kapellasida qo'shiqchilik qilib, musiqiy ta'lim oladi. U kapella va filarmonik jamiyatning qo'shma kontsertlarida qo'shiqchilik san'ati asoslarini egallaydi, jahon klassik durdonalari bilan tanishadi.

1819 yilda A.E.Varlamov Gollandiyadagi rus saroyi kapellasining qo'shiqchilariga o'qituvchi etib tayinlanadi. Bu erda uning xor dirijyori, kamer qo'shiqchi va gitarachi sifatidagi ijodiy faoliyati boshlanadi. 1823 yilda Peterburgga qaytib kelgach, u teatr maktabida ashula o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. 1832 yildan boshlab, Moskvada imperator teatrлari kapelmeysteri yordamchisi lavozimini egallaydi hamda «musiqa kompozitor» unvoniga sazovor bo'ladi. Shu paytdan e'tiboran Varlamovning ijodida yuksalish davri boshlanadi. U juda qisqa davr ichida moskvalik san'at ziyolilari davrasiga kirishga muvaffaq bo'ladi. Uning ilk yaratgan romans va qo'shiqlari tez orada shinavandalar orasida muvaffaqiyat qozonadi.

A.E.Varlamov 1833-1835 yillarda «Musiqa albomi» nomi bilan romanslari va qo'shiqlari to'plamini hamda Rossiyada birinchi bo'lgan vokal pedagogikasi bo'yicha «Qo'shiqchilikning to'liq maktabi» (1840) nomli metodik qo'llanmasini nashr qiladi.

A.E.Varlamov iqtidorli qo'shiqchi, kantilena ustasi, chirolyi tenor sohibi, o'tkir zehnli va chuqur mulohaza yurituvchi interpretator ham bo'lgan. Keyinchalik esa, ovozini yo'qotgach faqirona hayot kechirishga majbur bo'ladi. 1848 yilda kompozitor o'pka sili kasalligidan vafot etadi.

A.E.Varlamov har xil janrlarda o'z kuchini sinab ko'rdi. U yigirmata spektakllarga musiqa yozdi, uning vokal nomerlari badiiy boyliklar deb hisoblandi.

A.E.Varlamov rus musiqa tarixiga romans janrining mohir ustasi sifatida kirdi. Uning romanslarida rus xalq qo'shiqlarining obrazi qatorlari, ularning intonatsion ohangi va laddagi xususiyatlari o'z aksini topgan. Vokal san'atini chuqur bilishi unga rus kantilenasining yorqin namunalarini, erkin quyilib keladigan, keng nafasda ijro etiladigan kuy namunalarini yaratish imkonini berdi. A.E.Varlamovning ijod uslubiga qo'shiqchi-lo'lilarning ijro usullari katta ta'sir ko'rsatdi.

A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, A.N.Pleshcheev, A.A.Fet, N.G.Tsiganov, A.V.Koltsov va boshqa rus shoirlarining she'rлari matniga A.E.Varlamov tomonidan 200 ta romans va qo'shiqlar yaratilgan.

A.E.Varlamov «rus qo'shiqlari»ni asosan ikki yo'nalishda – so'lim lirik va jo'shqin raqs usulida yozgan.

So'lim qo'shiqlarda – ohanglar sahiyligi, vokal kuyining mayinligi, rus xalq qo'shiqchiliginin ijrochilik usullari kuyni turli xil variantlarda rivojlantirish, bo'g'lnlarni kuylab aytish his etiladi. Masalan, shu usullarni «Eh, sen vaqt, vaqtgina» («Ax, to` vremya, vremechko»), «Nega barvaqt, maysajon» («Chto to` rano, travushka») qo'shiqlarida eshitamiz.

Ikkinci turga jo'shqin va faol ritmdagi quydagi qo'shiqlar kiradi: «Ko'cha bo'ylab bo'ron supurar» («Vdol po ulitse metelitsa metyot»), «Uchib kelgan bulbul bo'lib» («Solovem zaletno'm»).

O'ziga xos raqs usullari bilan ajralib turadigan shahar folklori Varlamovning «Tongda uni o'yg'otma» («Na zare to` eyo ne budi»), «Sen kuylama, bulbul» («To` ne moy, solovey»), «Qizil sarafan» («Krasno`y sarafan») nomli romanslariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. A.Gurilyovning «Qo'ng'iroqcha» («Kolokolchik»), A.Alyabevning «Bulbul» romanslari qatorida A.Varlamovning «Qizil sarafan» ham xalq boyligiga aylandi.

A.E.Varlamovning kuyiga ravonlik, kuychanlik, diapazonning kengligi, kuyining ohista (variantli) rivojlanishi xosdir. Variantli usuldan «Qizil sarafan» qo'shig'ida juda yorqin foydalilanigan. Bunda qo'shiqnинг «Menga qizil sarafan tikma, oyijon» («Ne shey to` mne, matushka, krasno`y sarafan») kuy tuzilmasi turli iboralar asosida rivojlanib boradi:

Aslida xalq kuyi negizida ishlangan bu romans-qo'shiqda, shahar romansining ta'siri sezilib turadi. Qo'shiq 3-qismli repriza shaklda yozilgan. So'zlar mazmunidan kompozitsiyaning «dialog» shakli kelib chiqadi: - onaning o'z qizi bilan qizlarning taqdiri hamda uning erkinligi, turmushga chiqishi bilan tugashi mavzusidagi suhbatdan iborat.

Ajoyib darajada ohista eshitilib yangraydigan kuy dastlab «Ne shey to` mne, matushka...» iborasidan kelib chiqadi, keyinchalik uning lad, ritm va ohang variantlari yuzaga keladi. Jumladan, dialogda qiz izhorlari major ladida, ona javoblari esa minorda yangraydi, ijro sur'ati ham shunga monand o'rtacha tezlikdan sokinlikka qarab o'zgaradi. Qo'shiq yorug', sokin kayfiyatga ega.

A.E.Varlamovning «Yolg'izlik» («Odinochestvo»), «Tog' cho'qqilar» («Gorno`e vershino`») romanslari ruhan M.I.Glinka va A.S.Dargomijskiylarning mungli elegik lirikasiga yaqindir. Uning «Eslatish» («Napominanie»), «Qayg'u» («Grust») nomli dramatik monologlari, «Otni egarlayman» («Osedlayu konya») balladasi, M.Yu.Lermontovning qalamiga mansub «Oqarib ko'rinar tanho elkan» («Beleet parus odinokiy») she'riga jo'shqin romanslari bilan rus lirikasida yaratgan an'analari keyinroq A.S.Dargomijskiy, P.I.Chaykovskiy va S.V.Raxmaninovlar ijodida o'z aks-sadosini topadi. A.E.Varlamov musiqa tarixida rus qo'shiqchiligi maktabining asoschisi sifatida ham munosib o'rniga ega bo'ldi.

Asosiy asarlar ro'yxati

Balet: «Sultonning erkaligi yoki qullarni sotuvchi» (1834), «Ayyor bola va odamxo'r» (1837).

Teatr tomoshalarga musiqasi: «Ermak», «Gamlet» va boshqalar.

Romans va qo'shiqlar: (200 ga yaqin), shu qatorda «Qizil sarafan», «Tongda uni uyg'otma», «Bo'ron ko'chani yoqalab supuradi», «Yolg'iz elkan oqarib ko'rinati».

Vokal ansamblari, xorlari, dramatik spektakllar uchun yozgan musiqalari egallaydi.

Kitob: «Kuylashning to'liq maktabi» (1840).

A.L.GURILYOV (1803 - 1858)

Aleksandr Lvovich Gurilyov - kompozitor, skripkachi, pianinochi va pedagog. Rus kuyining asl tabiatini, uning nazokati, ohanglarning bir-biriga uzviy ulanib kelishi Gurilyov ijodining eng muhim asoslari bo'lib qoladi. U Varlamov kabi rus kantilenasining mumtoz namunalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Aleksandr Lvovich Gurilyov Moskvada, krepostnoy musiqachi oilasida tug'ildi. Musiqiy ta'limini otasining rahbarligida olgan kompozitor, keyinchalik J.Fild va I.Genishtalar qo'llarida ham dars oladi. Yoshligidan boshlab, graf Orlovning krepostnoy orkestrida skripka va alt cholg'ularida chalgan.

28 yoshida otasi bilan birga krepostnoy qullikdan ozod bo'lgach, yosh musiqachi o'z umrini sevimli kasbiga bag'ishlaydi va sekin-asta, kompozitor, pianinochi hamda pedagog sifatida mashhur bo'la boshlaydi. Qiyin moddiy sharoit va og'ir ruhiy kasallik sababli, hayotining oxirgi yillarda uning ijodiy faoliyati bir oz murakkab vaziyatda kechadi. Lekin, shunga qaramay, taniqli kompozitor ko'p ijod qildi va ajoyib musiqiy asarlar yaratdi.

A.L.Gurilyovning asosan fortepiano uchun yozilgan asarlaridan tashkil topgan ijodiy merosida turli janrlar keng o'rinni olgan. Xususan, kichik pesalar, Donitsettining «Lukretsiya Bordjia» operasi mavzulariga yozgan kontsert fantaziyalari, Glinkaning «Shoh uchun hayot» operasi mavzulariga yozgan fantaziyasi, Alyabevning «Bulbulim mening, bulbulim», Varlamovning «Tongda uni o'yg'otma» romanslari va rus xalq qo'shiqlari mavzulariga variatsiyalari, polonez, ikkita vals, beshta mazurka va boshqa asarlari shular jumlasini tashkil etadi.

Musiqiy asarlarida turfa garmonik usullardan foydalanishi, fortepiano yozuv texnikasini erkin egallaganligi pirovardida A.L.Gurilyov musiqa shinavandalari orasida iqtidorli kompozitor va nozik didli mohir pianinochi sifatida tanilgan edi.

Kompozitorning avlodlarga qoldirgan bebahonan ijodiy merosi «Rus qo'shiqlari» va «47 saralangan rus qo'shiqlari» deb nomlangan eng asil rus xalq qo'shiqlarini o'z ichiga olgan to'plamlardan iborat.

1830-40-yillardagi A.L.Gurilyov ijodi namunalari rus musiqa tarixiga xalq qo'shiqchilik san'atining ajoyib yodgorliklari sifatida kiritiladi. Yaratgan ko'pgina qo'shiqlar xalq qo'shiqlariga aylandi. Gitara yoki fortepiano jo'rning ijro etiladigan bu qo'shiqlar, lo'lilar xorlari va dehqonlar tomonidan hayotga keng tadbiq etildi.

A.L.Gurilyovning M.Yu.Lermontov, A.N.Koltsov, I.Makarov, N.P.Grekov va boshqa rus shoirlari she'rlariga yozgan qo'shiq va romanslari ham el orasida shuhrat qozongan.

Kompozitorning «Qo'ng'iroqcha», «Eshiladi ko'kqanot qaldirg'och» qo'shiqlari ta'sirchan elegik kayfiyat bilan yo'g'rilgan bo'lsa, «Onajonim-azizim» («Matushka-golubushka»), «Qiz qayg'usi» («Grust devushki») va «Sarafancha» («Sarafanchik») kabi ashulalarida jozibali, yoqimtoy rus qizlarining qiyofalari o'z ifodasini topgan.

Elegik qo'shiq-romans uslubining klassik namunasi sifatida N.P.Grekov so'zlariga yozilgan Eshiladi ko'kqanot qaldirg'och («Vetsya lastochka sizokro'laya») qo'shig'ini tilga olish mumkin. Kuyning oktava, seksta, septima intervallarga ko'tarilishlar bilan to'lqinsimon chizig'i, kadans davralardagi mayin xromatizmlar, ohista vals harakatlari musiqaga alohida nazokat bag'ishlaydi:

A.L.Gurilyov she'r misralariga mos bo'lgan kuyni chuqur his etgan. Uning musiqiy asarlariga xos matn va kuy yaxlitligi shuning bilan izohlanadi. I.Makarov so'zlariga yozilgan «Qo'ng'iroqcha» qo'shig'ida uzoq yo'l va «izvoshchining qayg'uli qo'shig'i» qiyofasini kompozitor o'ziga xos tarzda, (asta-sekin diapazon kengayib boriladi, vals harakatlari) g'amgin orqali yoritib beradi.

A.L.Gurilyovning «Qo'ng'iroqcha»sida qo'shiq va romanslarga xos bo'lgan chizgilar o'z aksini topgan bo'lib, unda xalq ashulachiligi va kamer janrining nozikligi yaqqol namoyon bo'ladi. Nafislik, musiqiy matn unsurlarining mufassal ravishda rivojlanishi, jo'rnavozlikning mukammaliligi asnosida asar fakturasini mahorat bilan ko'r kamblashtirilgan. Kuy alohida kuychan -

ohang xalqachalaridan tuzilgan bo'lib, matnning har bir shoirona tizimi musiqada - sezura yoki lyuft - pauza bilan ajralganligi bilan oson esda qoladi:

A.L.Gurilyovning eng yaxshi romanslari M.I.Glinka va A.S.Dargomischiyning lirkasiga hamohangdir. M.I.Glinkaning ijodiy ta'sirini biz ohanglarning tuslanishi, yuqori sakrama va uni to'ldiradigan tipik davralardan foydalanishida sezamiz.

«Mening qayg'umni tushunmaysiz» («Vam ne ponyat moye pechali»), «Ichki musiqa» («Vnutrennyaya muzo'ka»), «Hijron» («Razluka») nomli romanslari A.L.Gurilyov lirk istedodining eng jozibali tomonlarini yorqin ochib beradi.

A.A.Alyabev, A.E.Varlamov va A.L.Gurilyovlar o'z ijodlari bilan rus romanschiligining istiqbolli yo'lini belgilab berishdi.

Asosiy asarlar ro'yxati

Romans va qo'shiqlar: (88 ta), shu qatorda «Qo'ng'iroqcha», «Ayriliq», «Ham zerikarli ham g'amgin», «Men sizni sevardim».

Fortepiano uchun asarlar: (30 ga yaqin), Donitsettining «Lukretsiya Bordjia» operadan mavzularga kontsertli fantaziysi; Alyabev va Varlamov romanslar mavzulariga variatsiyalar, transkriptsiyalar, Glinka «Ivan Susanin» opera mavzusiga kontsertli fantaziysi, 2ta vals, 5 ta mazurka.

Qayta ishlangan: «47 ta tanlangan xalq qo'shiqlari».

Nazorat uchun savollar.

XIX asrning 1-yarmida Rossiyada hukm surgan ijtimoiy-siyosiy muhitni tasvirlab bering. Evropa va rus romantizmining xususiyatlarni ta'riflang.

Teatr va cholg'u musiqasi haqida so'zlab bering.

A.S.Pushkin asarlarining rus musiqasi rivojiga ta'siri haqida so'zlab bering.

Opera janrining vujudga kelishi haqida gapiring.

Rus romansiga xos asosiy xususiyatlarni sanab o'ting.

A.A.Alyabevning ijodiga tavsif bering.

A.E.Varlamovning ijodi haqida so'zlab bering.

A.L.Gurilyovning ijodiy faoliyati haqida so'zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar.

- XIX asrning 1-yarmida mavjud bo'lган musiqa san'atida qanday janrlar asosiy o'rinnlarni egallagan, ular qaysi san'at turi bilan bog'liq bo'lган?

- XIX asrning 1-yarmida vokal janri keng taraqqiy topdi. Ularning orasida lirk romanslar va rus qo'shiqlari janri mashhur edi. A.Alyabev, A.Varlamov va A.Gurilyovning ijodiga mansub bo'lган rus qo'shiqlaridan birini ijro etib, uning jo'rлиги va undagi musiqiy obrazlarini tahlil qilib bering.

M.I.GLINKA
(1804-1857)

Musiqani xalq yaratadi,
biz san'atkorlar esa,
unga faqat sayqal beramiz.
M.I.Glinka

Mixail Ivanovich Glinka - rus mumtoz musiqasiga asos solgan buyuk kompozitor. Uning rus musiqasi tarixida tutgan o'rnini A.S.Pushkinning rus adabiyotiga qo'shgan hissasi bilan qiyoslash mumkin. Rus tanqidchi-adabiyotshunosi Belinskiyning aytishicha, Glinka, Pushkin singari, «nafis insoniy tuyg'ularni ravon shakl bilan uyg'unlashtira olgan». Shoir va kompozitorning mana shu xususiyati uning ijodini haqiqiy mumtoz badiiy ijod namunasiga aylantirdidi, u chuqr ichki haqiqat va keng mazmunning yorqin, qat'iy va mukammal shakl bilan mushtarakligiga asoslanadi.

M.I.Glinka serqirra iste'dod sohibidir. U o'z ijodida rus xalqi hayotining turli tomonlari va qiyofasini yoritib berdi. Glinkani haqli ravishda rus mumtoz operasi va romansining yaratuvchisi, rus mumtoz simfonizmining asoschisi deb ayta olamiz. Glinka ijodining yuksak tarixiy ahamiyati shu bilan ham belgilanadiki, unga chuqr milliylik xos bo'lib, ayni paytda u boshqa xalqlarning ruhiyat olamini ham idrok etish qobiliyatiga ega edi. Xususan, Sharq, Italiya, Ispan mavzulari uning ijodida haqiqiy qiyofada «jonlanadi».

Romantizm avj olgan davrda Glinkaning ijodi ham gullab-yashnadi. Unga romantiklarning milliy o'ziga xoslik kontseptsiyasi yaqinroq edi. Shunday bo'lsa-da, lekin Glinkani tom ma'noda romantik deb bo'lmaydi. Bu uning ajoyib va go'zal «Ruslan va Lyudmila» operasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Romantizmga xos belgilar – shaxsga ortiqcha e'tibor, atrof-muhitga ishonchsizlik bildirish, his-tuyg'ularni ehtirosli va jo'shqin ifodalash unga begona. U klassitsizmning alohida belgilari bo'lgan mahobatli shaklga va ko'tarinki uslubga intilishni o'zida mujassam etdi. Uning ideal obrazlari umumiyl manfaatlarni o'z manfaatlaridan ustun qo'yadi. Glinkaning ijodi milliy cheklanganlikdan uzoq bo'lsa-da, u klassitsizmga ham, romantizmga ham mansub emas. Lekin u romantizmdan ilg'or fazilatlarni – kundalik hayot go'zalligini ko'ra bilishni meros qilib oldi. Rus musiqasi tarixida birinchilardan bo'lib, u atrofdagi voqelik qiyofasini nafis, ravon va mukammal badiiy shakkarda tasvirlab, haqiqat va go'zallik birligining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.

M.I.Glinka rus musiqasining realizm davrini ochib berdi. U haqqoniylikka va oddiylikka intilib, umumiylik va o'ziga xoslikni aniq musiqiy obrazlarda ifoda etdi. Rossiya musiqashunoslari Glinka ijodini o'rganish asnosida keng miqyosli musiqiy-estetik muammolarni ilgari surdi. Uning ijodini tahlil qilish asosida musiqa to'g'risidagi professional adabiyot paydo bo'ldi. Glinkaning asarlari tarixiy, estetik, musiqiy-ijodiy nuqtai-nazardan o'rganildi. V.F.Odoevskiy, A.N.Serov, V.V.Stasov, G.A.Larosh, P.P.Veynmarn, N.F.Findeyzen, N.D.Kashkin, A.N.Rimskiy-Korsakov, B.V.Asafev, D.D.Shostakovich, V.V.Protopopov, T.N.Livanova va boshqa ko'plab tadqiqotchilar uning ijodi asosida musiqa teatri va musiqa ijrochiligi, opera dramaturgiyasi muammolariga, simfonizm tamoyillariga, musiqa tili xususiyatlariga bag'ishlangan ko'plab tanqidiy maqolalar yozdilar.

Hayoti va ijodiy yo'li. M.I.Glinka 1804 yil 20 may (1iyun)da Smolensk gubernyasining Novospassk qishlog'ida dunyoga keldi. U kasbiy musiqa bilan birinchi marta bolaligidayoq tanishdi. Uning amakisiga tegishli krepostnoy dehqonlar orkestri rus qo'shiqlarini, mumtoz pesalar va raqslarni ijro etardi. Glinka fortepiano va skripkada chalishni juda erta boshladи.

M.I.Glinka mukammal o'rta ta'limni 1818-1822 yillarda Peterburgdagi Pedagogika bilim yurti qoshidagi pansionda oldi. Yosh Glinkaning ta'limida uning murabbiylaridan Sh.Mayer katta o'rin tutadi, u bo'lajak kompozitorga pianizmdan saboq berish bilan birga, dastlabki kompozitorlik tajribasini orttirishga ham yordam berdi.

1825 yil 14 dekabrida ro'y bergan qonli dekabristlar qo'zg'oloni Glinka xotirasida o'chmas iz qoldirdi, uning qalbida o'z xalqiga yuksak ishonch va Vatanga xizmat qilish istagi mustahkamlandi. Shundan keyin Glinka ijodga sho'ng'ib ketadi – bu davrda uning kompozitorlik iste'dodi yaqqol namoyon bo'ladi. Uning birinchi ijodiy tajribasi fortepiano uchun variatsiyalar, uvertyular va kamer musiqasi chizgilari bo'lsa, keyinchalik «Xavasimni keltirma» («Ne iskushay»), «Bechora go'yanda» («Bedno'y pevets»), «Yonimda kuylama, go'zal» («Ne poy, krasavitsa, pri mne») kabi yirik romanslari hamda «Ravon vodiy bo'ylab» («Sredi dolino' rovno'ya») deb nomlangan xalq qo'shig'iga variatsiyalar dunyo yuzini ko'rdi. Ayni paytda uning pianinochi va qo'shiqchi sifatidagi ijrochilik mahorati ham o'sib boradi. XIX asrning 20-yillari oxiriga kelib uning nomi dunyoga tanildi. U atrofidagi ijobiy muhitni chanqoqlik bilan o'ziga singdiradi. Pushkin, Griboedov, Jukovskiy, Mitskevichlar bilan yaqinlashadi, ular ta'sirida kompozitorning estetik qarashlari va ijodiy g'oyalari shakllanadi. U simfoniya va opera adabiyotini chuqur o'rganib, o'z mahoratini muntazam oshiradi. Lekin Glinka bu bilan qoniqa olmasdi, chunki uni G?arb musiqa hayoti o'ziga ostanrabodek tortardi. U 1830 yilda Italiyaga sayohat qiladi, Milanda yashaydi, Neapol, Rim, Venetsiyani ko'radi. Keyin Avstriya va Germaniyaga yo'l oladi. Italiyaning opera madaniyati va mumtoz cholg'u ijrochiligi bilan qiziqadi – ulardagi ijroning ravon erkin va mukammallik mujassamligi uni o'ziga rom qiladi.

Italiya mavzulariga yaratilgan fortepiano variatsiyalari uning Italiya san'atiga bo'lган katta qiziqishidan dalolat beradi. Xorij safarida kompozitor G?arbiy Evropa erishgan eng katta yutuqlar bilan tanishadi. Italiyada G.Berlioz, F.Mendelson, V.Bellini, G.Donitsettilar bilan samimiyy munosabatlari o'rnatadi, bell canto san'atini amalda o'zlashtiradi. Betxoven, Kerubini, Veber operalarini, G?arbiy Evropa klassiklarining simfonik musiqasini tinglaydi. Bularning barchasi uning dunyoqarashini kengaytirib, uni yangi maqsadlar sari etaklaydi.

M.I.Glinka Berlinga kelib, u erda musiqa nazariyachisi Zigfrid Denden saboq oladi, uning boshchiligidida o'zining nazariy bilimlarini tartibga keltiradi hamda polifonik yozuv texnikasini mukammal o'zlashtiradi.

Italiyada M.I.Glinka mashhur asarlar yaratadi. «Patetik trio» (Fortepeiano, fagot va klarnet uchun), 1832; «Venetsiya tuni» («Venetsianskaya noch»), «G?olib» («Pobeditel») romanslari shular jumlasidandir. Uning tugallanmagan uvertyura-simfoniyasida «Kamarincha»ning simfonik g'oyalari belgilana boshlangan edi.

O'z dunyoqarashi va bilimlarini kengaytirgan Glinka o'z oldiga rus operasini yaratishni maqsad qilib qo'yadi. U 1834 yilda vataniga qaytgach, milliy operani yaratishga kirishadi va («Ivan Susanin») «Shoh uchun hayot» operasi ustida ish boshlaydi. U katta qahramonlik haqida opera yaratishni orzu qiladi. Bunday asar mavzusini unga Jukovskiy taklif etgan. Kompozitor ruhiy ko'tarinkilik bilan ijodga kirishsa-da, ammo librettoning yo'qligi tufayli ancha qiynaladi. Matnni yozish saroyga yaqin shoir G.F.Rozenga topshirilgan edi. Glinka musiqiy vositalar orqali xalq fojiasining asosiy mazmunini – o'z hayotini vatan uchun qurban qilgan dehqonning buyuk jasoratini ko'rsata oldi.

Opera premerasi 1836 yil 27 noyabrda bo'lib o'tdi. Pushkin, Gogol, Odoevskiyalar asarga yuqori baho berib, uni buyuk tarixiy voqe, deb atadilar. Ammo oliy tabaqaga tegishli «musiqasevarlar» boshqacha fikrda edilar. Ular operani «aravakash musiqasi» deb kamsitishdi. Pushkin esa Glinkani oldinda katta muvaffaqiyatlar kutayotganini bashorat qiladi.

M.I.Glinka o'zining ilk opera asari bilan, rus musiqasi san'atida klassik davrni ochib berdi. Uning ijodida ham yangi davr – ijodiy yuksalish davri boshlandi. Uning san'ati o'z vatandoshlari va chet ellik muxlislar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

M.I.Glinka «Ruslan va Lyudmila» nomli yangi opera ustida ish boshlaydi va bir vaqtning o'zida N.K.Kukolnikning «Knyaz Xolmskiy» fojiasiga musiqa bastalaydi, «Peterburg bilan vidolashuv» («Proshanie s Peterburgom») romanslar turkumining yaratilishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Bu davrda yozilgan romanslardan «Shubha» («Somnenie»), «Tungi ko'rik» («Nochnoy smotr»), «Yodimdadir ajib onlar» («Ya pomnyu chudnoe mgnovene»)ni aytib o'tish mumkin.

«Ruslan va Lyudmila» operasi Pushkinning shu nomli poemasi mavzusiga asoslangan. Shoир vafotidan sal ilgari ikkovi bo'lg'usi opera haqida, poema syujetini yangicha talqin etish imkoniyati hususida suhabat olib borgan edilar. Afsuski, shoирning bevaqt o'limi tufayli bu ijodiy hamkorlik amalga oshmay qoldi.

1842 yil 27 noyabrida «Ruslan va Lyudmila» operasining premerasi bo'lib o'tdi. Unda imperator va saroy ahli spektakl tugamasidanoq zalni namoyishkorona tark etishdi, lekin musiqashunos tanqidchilar operaga yuqori baho berdilar.

1840-yillarga kelib M.I.Glinka etuk san'atkor darajasiga erishadi va bu davrda uning estetik qarashlari ham etarlicha shakllanib bo'lgan edi. Ammo atrofidagi noqulay muhit uning yuksak rejalariga to'sqinlik qila boshlaydi. Saroy kapellasidagi kompozitorlik lavozimi uni qoniqtirmaydi. Zero, kapelladagi salbiy muhit – hasad va fitnalar uni ijoddan chalg'itar edi. Bundan tashqari, oilaviy turmushi ham xavas qilgudek emasdi. Uning rafiqasi M.P.Ivanova erining ijodiy qiziqishlaridan ancha yiroqda edi. Shu bois Glinka zodagonlar bilan aloqani butkul uzib, 1844 yili yana xorijga – Frantsiya va Ispaniya tomon yo'l oladi.

Parijda Glinka asarlari kontserti katta muvaffaqiyat bilan o'tadi. Kompozitor Ispaniyada ikki yil yashaydi. Bu erda u xalq raqslari yozuvlaridan foydalanim, uvertyuralar yozishga kirishadi. U ispan tilida bemalol so'zlasha olardi. Bu unga ispan ohanglarining mazmun-mohiyatini tushunishda qo'l keldi. Natijada Glinka xalq qo'shiqchi va gitara chilardan kuylar yozib oladi, ispan ritmlari va xalq musiqa cholg'ularini o'rganadi. Shu tariqa 1845 yilda «Aragon ovi» uvertyurasi dunyo yuzini ko'rди. 1848 yilda Rossiyaga qaytib kelganidan so'ng esa «Madrid tuni» uvertyurasini tugallaydi. Shu yoldayoq «Kamarincha» simfonik fantaziyasini ham yoza boshlaydi.

M.I.Glinka umrining so'nggi yillarini Peterburg, Varshava, Parij va Berlinda o'tkazadi. Kompozitorning Rossiyadagi xonardonida shoirlar, qo'shiqchilar, yozuvchilar, kompozitorlar, aktyorlar, yosh musiqachilar tez-tez to'planib turishardi, ular orasida M.A.Balakirev, musiqashunos tanqidchilar – A.N.Serov va V.V.Stasovlar ham bor edi.

M.I.Glinka 1857 yilda Berlinda vafot etdi. Keyinroq uning xoki Peterburgga olib kelinib Aleksandrovo-Nevskiy qabristoniga dafn etildi va uning qabri ustiga haykal qo'yildi. O'sha yili tanqidchi Stasov Glinkaning ijodiy yo'li haqida ocherk yozdi.

Ijodining tavsifi. M.I.Glinkaning ijodiy yo'li uning «Qaydlar» nomli asarida o'z aksini topgan bo'lib, unda kompozitor o'z ijodini to'rt davrga ajratadi:

1. Bolalik va yoshlik davri, ijodiy tamoyillarining shakllanish davri (1830 yilgacha).

Mahoratga erishish davri (1830-1835 yillar).

Asosiy davr (1844 yilgacha).

Kechki davr (1845-1857).

«Qaydlar»ni o'qirkamiz, kompozitorning kamtarin, o'ziga nisbatan talabchan, samimiy va haqiqatgo'y inson ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

M.I.Glinka G?arbiy Evropa musiqiy madaniyati yutuqlarini o'ziga singdira olib, yuksak mahoratga erishdi, o'zining estetik qarashlarini yuksak darajada shakllantirdi va bu g'oyalari uning ijod uslubini belgilab berdi.

Kompozitor ijodining negizini rus xalq musiqasi tashkil etadi. Uning ijodi bir ko'rinishda vazmin tuyulsa-da, biroq unga katta ichki ehtiros, ohangdorlik, variatsion rivojlanish xos. Bu belgilarni kompozitor jahon musiqasi madaniyatida to'plangan ifodali vositalar bilan uyg'unlashtirdi va rus mumtoz musiqasining o'ziga xos milliy uslubi va tilini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa rus klassik maktabining keyingi rivoji uchun muhim poydevor edi.

M.I.Glinka rus kompozitorlaridan birinchi bo'lib jahon musiqasi san'atida eng murakkab rus operasi janrni yaratgan kompozitordir. Uning musiqasini belgilovchi omil bu kuy bo'lib, u o'zining ohangdorligi, ravonligi bilan ajralib turadi. Uning musiqasiga seksta va geksaxordli ohanglar, ladning kvintadan tonikaga tomon pasayib boruvchi davralari xos bo'lib, vokal va cholg'uchilik asarlari o'zining ohangdorligi va uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Tovushlarning ravonligi, kuyning ravshanligi xalq polifoniyasining tub an'analariga xos. Glinkaning polifonik tafakkuriga uyg'un bo'lgan tovush erkinligi, uning tovushlarni farqlash

texnikasi, ikki va uch ovozlilikning tiniqligiga bo'lgan e'tibori – bularning barchasi xalq ko'povozlilik uslubi bilan payvastadir. Glinka variantli rivojlanish usulini mukammal egallaydi. Uning polifoniyasi ba'zan klassik namunalarga ham o'xshab ketadi, hamda o'z mustaqilligi bilan ajralib turadi. Kompozitor G?arbiy Evropacha klassik shakllar – fuga, kanon, taqlid, harakatchan kontrapunkt dan foydalansa-da, lekin ular «milliy» ko'rinish kasb etadi. Glinkaning variantli-kuychan rivoj usulini keyinchalik P.I.Chaykovskiy, S.V.Raxmaninov va ko'plab keyingi avlod kompozitorlari ham qo'llaydilar.

M.I.Glinka o'ziga xos lad davralaridan, lad o'zgaruvchanligidan, rus xalq qo'shiqchiligining ladlari – miksolidiy, major va tabiiy minordan foydalani, shoirlarga xos tarzda rus xalq koloritini yaratadi.

Opera ijodi. «Ivan Susanin» («Shoh uchun hayot») operasi. Glinka rus musiqasida opera janrining ikki turini yaratgan bo'lib, shulardan biri: «Ivan Susanin» nomli xalq tarixiy musiqali dramasi bo'lsa, ikkinchisi «Ruslan va Lyudmila» nomli epik ertak janrida yozilgan operadir.

Bu asarlar rus opera janrining rivojlanish yo'lini belgilab berdi. «Ivan Susanin» dramasi Glinka ijodidagi etuklik davrini ochib berdi. Uning mavzusi Jukovskiy tomonidan taklif etilgan bo'lib, tarixiy voqe – 1612 yilda polyaklar Rossiyani bosib olgan paytda Ivan Osipovich Susanin ismli oddiy dehqonning qahramonona jasorati unga asos qilib olingan. Moskva bosqinchilardan ozod etilganiga qaramasdan, polyak otryadlaridan biri Domnino qishlog'iqa bostirib kiradi. Ivan Susanin ularga yo'l ko'rsatishga «rozilik» berib, dushmani changalzor o'rmonga adashtirib olib boradi va ular bilan birga o'zi ham nobud bo'ladi. Ushbu asarda Glinkaning rus xalqi vatanparvarligidan qanchalik ilhomlanganini ko'rish mumkin. Vatanga muhabbat g'oyasi opera mavzusiga chuqur singdirilgan. Ziddiyatning izchil rivojlanishi musiqaviy kompozitorda to'liq o'z aksini topadi.

Opera uvertyura bilan boshlanadi. Uvertyura operani tashkil qiluvchi mavzular asosida qurilgan bo'lib, o'zida operaning asosiy g'oyasini umumlashtiradi. U muqaddimali sonata-allegro shaklida yozilgan. Bosh partiya (sol minor) – III-ko'rinish oxiridagi xalq xorining tashvishli, shiddatli mavzusidir. Unda xalqning vatanparvarlik ehtiroslari ko'rsatib berilgan. Yondosh partiya esa Vanya mavzusi «Qushchaning onasini o'ldirganlarida» - («Kak mat ubili u malogo ptentsa») asoslangan. Ekspozitsiyadayoq mavzular tafovuti berilgan - mazurka ohanglaridagi uch hissali o'lchovda kelgan bog'lovchi partiya polyaklarni tasvirlaydi. Xuddi shu mavzu operada polyaklarning Susanin kulbasiga kirib kelishi sahnasida ham eshitiladi. Bu bilan operaning avj qismlaridan biriga «arka» tashlanadi. Kodada ziddiyatlar yanada keskinlashadi – asosiy partianing tashvishli motivlari «ustunli»akkordlarga o'tadi – ular Susanining o'rmonda polyaklarga bergen javobi sifatida yangraydi. Keyin esa mazurkali iboralar polyaklarning tahdidi sifatida yangraydi. Bu iboralar kuchayib boradi, ammo uch hissalilik ikki hissalilikka almashinadi va bu qo'ng'iroqlar jarangiga qo'shilib ketadi. Bosh partianing mavzusi sol majorda g'olibona jaranglaydi. Shu tariqa uvertyurada butun opera rivojining tasviri berilgan.

Opera 4 parda va xotimadan iborat. 1-pardada rus xalqiga va operaning bosh qahramonlariga ta'rif beriladi. Bular – Ivan Susanin, uning qizi Antonida, asrandi o'g'li Vanya, Antonidaning qaylig'i – askar Sobinin, xalq. 1-parda mahobatli xor sahnasi – muqaddima (introduktsiya) bilan boshlanadi. Introduktsiyada ikki xor – erkaklar va ayollar xori bir necha bor almashinib kuylaydi.

Erkaklar xorining mavzusi dehqonlar va askarlarning epik-qahramonlik harakteridagi qo'shiqlariga yaqin. Bunda rus san'atida birinchi marta yorqin ifodalangan rus musiqasi yuksak qahramonlik ruhini ochib beradi.

Ikkinci xor – ayollar xori ohangi dastlab orkestrda yangraydi, keyinroq esa vokal partiyasida paydo bo'ladi. Jonli, quvnoq kuy qishloq qizlarining bahorgi uyg'onishiga bag'ishlangan xorovod qo'shiqlarini eslatadi:

Introduktsiyaning asosiy ohangli obrazlari o'zaro ziddiyatli ko'rinishga ega. Shu tarzda introduktsiyada xalq ommasining turli qiyofalari - irodasi va samimiyligi, mardonavor matonati va ona-tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat ochib beriladi.

Xor introduktsiyasidan so'ng Glinka boshqa bir asosiy qahramon – Susaninning qizi Antonidaning musiqiy portretini ifoda etadi.

Antonidaning ariyasi ikki qism – kavatina va rondodan iborat. Sekin va o'ychan kavatina rus lirik qo'shiqlari ruhida berilgan. Nozik kavatina jonli, nafis rondo bilan almashinadi. U ham qo'shiq xususiyatiga ega.

Antonida Susaninga javoban kuylaydi. Bu - operadagi bosh obrazning ekspozitsiyasidir. Susaninning rechitativlari Glinka uslubiga xos. Ular kuychan, keng intervallardagi silliq o'tishlarga, alohida bo'g'lnlardagi kuylarga boy.

Sahnada operaning yangi qahramoni – Bogdan Sabinin paydo bo'ladi. Sabinning asosiy fazilati – jasurlik va mardonavorlikdir. Bu hol askar qo'shiqlari ruhida ishlangan, ravon va aniq ritmli ehtirosli qo'shiq iboralari yordamida ochib berilgan.

1-sahna finali marsh sur'atida berilgan va vatanparvarlik zavqiga to'la.

2-parda birinchi pardadan farqli o'laroq, oddiy bo'lib, unda dehqonlar o'rnini sahnada polyak qirolining qal'asida bazm qurayotgan panlar egallaydi. To'rtta raqs – polonez, krakovyak, vals va mazurka katta raqs syuitasini hosil qiladi. Sinkopalangan ritm tufayli, krakovyakning asosiy mavzusi egiluvchanligi bilan ajralib turadi; 6G`8 o'chovidagi vals nihoyatda nafis, ikkinchi hissadagi sinkopa uni mazurkaga yaqinlashtiradi va unga «polyakcha» tarovat bag'ishlaydi, valsning orkestrovkasi benihoya nozikligi va tiniqligi bilan ajralib turadi.

Polonez mag'rur, bayramona va jangovar yangraydi. Uning ohanglari fanfaralar chaqiriqlarini eslatadi, erkin kuy va jarangliakkordga ega mazurkani operaning boshqa bo'limlarida ham uchratamiz.

Polonez va mazurka:

M.I.Glinkadan oldin raqs chiqishlari operaga faqat qo'shimcha divertismen sifatida kiritildi va sahnada kechayotgan voqealarga ularning bevosa aloqasi yo'q edi. Glinka birinchi bo'lib raqslarga muhim dramaturgik mazmun beradi. Ular endi qahramonlarga obrazli ta'rif berish vositasiga aylanadi. 2-pardadagi «polyakcha» ko'rinishlar rus mumtoz balet musiqasiga asos soladi.

3-pardani shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: birinchisi -dushman bosqinidan oldingi davr va ikkinchisi – ular paydo bo'lganidan keyingi payt. Birinchi qismda sokinlik va yaxshi kayfiyat hukmron. Bu erda Susaninning xarakteri oilaning mehribon otasi sifatida ochib beriladi.

Parda Susaninning asrandi o'g'li Vanyaning qo'shig'i bilan boshlanadi. Qo'shiq jo'nligi va oson kuylanishi bilan rus xalq qo'shiqlariga yaqin turadi. Qo'shiq oxirida unga Susaninning ovozi qo'shilib duetga aylanadi. Duetda marsh ohanglari ustunlik qiladi, unda ota va o'g'ilning vatanparvarlik tuyg'ulari o'z aksini topgan.

Keyingi navbatda xor va Susanin, Antonida, Vanya va Sabinin kvarteti keladi, ular tinchlik va osoyishtalik kayfiyatlariga yo'g'rilgan. Kutilmaganda polonez mavzusi yangraydi – dramatik keskin sahna boshlanadi – polyaklar bostirib keladi. Susanin bilan polyaklarning so'zlashuvi yuz beradi. Ota qiziga qarab vidolashuv kuyini kuylaydi. Keyingi sahna – qizlar xori. Bu she'riy sahna keyingi lavhaga – Antonida romansi bilan almashinadi.

IV-pardada polyaklarning paydo bo'lishi operaning kulminatsiyasi hisoblanadi. Bu erda opera bosh qahramonining taqdiri hal bo'ladi. Sahna qorong'u tunda qorli o'rmon bo'ylab ketayotgan polyaklarning xori bilan boshlanadi. Polyaklarga ta'rif berish uchun Glinka mazurka ritmlaridan foydalanadi. Bu erda mazurka o'zining jangovar va shijoatli ruhidan mahrum bo'lib, uning mayus ohanglari polyaklarning tushkun kayfiyatini, halokatning muqarrarligini ifodalaydi. Noturg'unakkordlar (orttirilgan uchtovushlik, kamaytirilgan septakkord) va orkestrning xira tembrlari zulmat va g'amginlik tuyg'ularini yanada bo'rttiradi.

Qahramon qiyofasining asosiy qirralari hayotining hal qiluvchi damlarida, o'lim oldi ariyasida va keyingi rechitativ monologda ochib beriladi. Qisqacha kirish rechitativi «haqiqatni angladilar» («Chuyut pravdu») Susanin obraziga xos bo'lgan keng, vazmin va dadil ohanglarga asoslangan. Bu Glinka ijod etgan rechitativlarning eng mukammal namunalaridan biridir. «Mening tongim otadi» («To' vzoydesh, moya zarya») ariyasida esa chuqr qayg'uli mushohada kayfiyati hukmron suradi:

Susanin o'ziga xos jasurlik, ko'tarinkilik va ruhiy matonatni saqlab qoladi. Bunda melodramatizmga o'rinni yo'q. Susanin ariyasi – Glinkaning xalq qo'shiqlariga ilg'or yondashuvining yorqin namunasidir. Bu erda rus xalq qo'shiqchiligining ohanglariga asl fojiaviylik singdirilgan musiqa namunasi paydo bo'ladi. Odoevskiy «Glinka shu paytgacha bo'limgan xarakterni yaratdi, xalq kuyini fojia darajasiga ko'tardi», degan so'zlari aynan shu ariyaga tegishlidir. Opera Moskvadagi Qizil maydonda xalqning tantanasini ko'rsatish bilan yakunlanadi.

Epilog 3 bo'limdan iborat:

1. Birinchi bayondagi «Shon-sharaflar» xori.
2. Vanya, Antonida va Slobodnichayevlar sahnasi va triosi – «Oh, men bechoraga emas...» («Ax, ne mne, bednomu...») xor bilan.

Final – «Shon-sharaflar» xorining yangi bayoni va yakuni.

Xor mavzusida ohangdorlik va harakat belgilari birlashgan. Uning barcha obrazlari xalqning bir maromda qadam tashlab safda yurishini ifodalaydi:

Simfonik ijodi. Simfonik orkestr uchun Glinka oz miqdorda musiqiy asarlar yozgan. Ularning qariyb barchasi bir qismli uvertyuralar yoki fantaziyalar janriga kiradi. Asosiyalar - «Kamarincha», ispan uvertyuralari «Aragon ovi» va «Madrid tuni», «Vals-fantaziya»si va «Knyaz Xolmskiy» nomli tragediya musiqasidir. Ammo ularning tarixiy ahamiyati benihoya muhim bo'lidan, bu asarlarni rus klassik simfonizmining asosi, deb hisoblash ham mumkin.

Simfonik rivojning yangi tamoyillari Glinka estetikasining umumiy printsiplariga asos solgan. Musiqiy tilning ravon va xalqchilligi, umumlashma dasturlik xususiyati – uning simfonik uvertyuralariga xos muhim belgilardir. Glinka uvertyuraning zinch, aniq va qisqa shaklini o'ylab topdi. Har birining alohidagi shakli betakror, yangi bo'lib, ayni paytda ular umumiy badiiy kontseptsiya bilan birlashtirilgan. «Kamarincha» ikki mavzuli variatsion shaklda, «Aragon ovi» - sonata shaklda, «Vals-fantaziya» esa rondo shaklida yaratilgan. Bu asarlarning barcha kompozitsion xususiyatlari musiqiy materialning harakteriga asoslangan.

Bular ichida «Kamarincha» alohida o'ringa ega. Glinka ikki mavzuga asoslanib shoirona simfonik fantazisini yaratdi. Birinchi mavzu – «Baland tog'lar, tog'lar ortidan» eshitiladigan ulug'vor to'y qo'shig'idan iborat bo'lsa, ikkinchi mavzu esa sho'x va jozibali kamarincha kuyidir:

Mavzular bir qarashda farqli bo'lsa-da, ular ichki o'xshashlikka ham ega. Ularning umumiyligini subdominantadan tonikaga qarab pastlab boruvchi harakatlar birlashtirib turadi. Fantaziyada mavzular navbatma-navbat ko'rinishi, har biri variatsion shaklda beriladi. Birinchi mavzu polifonik usullarda rivojlanadi, ikkinchi mavzu – nafis naqshga ega bo'lgan cholg'uchilik variatsiyasi tusini oladi. Kompozitor mavzularning birikib ketish usulidan foydalanmaydi, u xalq ijrochiligidagi xos bo'lgan ovozosti va variatsion rivojni qo'llaydi. Keskin pauzalar, dissonanslar, organ punktlari va boshqa shu kabi yumoristik ko'rinishga ega bo'lgan holatlar alohida taassurot qoldiradi.

Romans ijodi. M.I.Glinka o'zining butun ijodiy hayoti davomida romans janriga muntazam murojaat qiladi. Kompozitor tomonidan 70dan ziyod romanslar yozilgan. Ularda muhabbat, qayg'u, shodlik, ruhiy hayajonlar kabi turli hissiyotlar mujassamlashtirilgan. Ayrim romanslarda tabiat va maishiy hayot ko'rinishlari tasvirlanadi. Glinka ijodi zamonasiga xos maishiy romanslarining barcha turlarini qamrab oladi: «rus qo'shig'i», elegiya, serenada, ballada; maishiy raqlar - vals, mazurka va polka. U boshqa xalqlarning musiqasiga xos bo'lgan janrlarga, jumladan, ispan bolerosi va italyan barkarollasiga ham murojaat etadi.

Romanslarning shakli ham turlicha: oddiy band shakli, uch qismli shakl, rondo; murakkab shakl - bunda uzlusiz dramatik rivojning yagona chizig'i bilan bog'langan turli lavhalarning o'zaro almashinuvi ro'y beradi.

Kompozitor o'z romanslarida jami 20ta shoirning she'rlaridan foydalangan. Glinka musiqada turli mualliflarning she'rlariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'z uslubi yaxlitliliginini saqlagan holda aks ettira oldi. U romans musiqasida avvalo matnning umumiy kayfiyatini va obrazini gavdalantiradi. Romans mazmunini gavdalantirishning asosiy vositasi barcha

unsurlarining yaxlitligi bilan ajralib turadigan, alohida rechitativli tasviriy intonatsiyaga ega bo'lgan, keng nafasli kuy hisoblanadi.

M.I.Glinkaning ayniqsa oxirgi yillardagi romanslarida, fortepiano partiyasi katta o'ren tutadi. Uning romanslari ko'pincha turli kayfiyatga hamda voqealari muhitiga olib kiradigan muqaddima qismlari bilan boshlanadi. Glinkaning vokal partiyalari, uning ovoz tabiat imkoniyatlarini mukammal bilishini namoyon etadi.

Kukolnik so'zlariga yozilgan «Shubha» («Somnenie»), «Qonda istak olganda alanga» («V krovi gorit ogon jelanya»), hamda etuk ijodiy davrida Pushkinning so'zlariga yozgan «Yodimdadir ajib onlar» («Ya pomnyu chudnoe mgnovene») nomli romanslari xalq ichida keng tarqalgan. Kompozitor «Yodimdadir ajib onlar» romansida melodik umumlashtirish usulidan foydalangan. Bunda boshlang'ich musiqiy ibora butun kuy rivojiga asos bo'lib xizmat qiladi:

M.I.Glinka romanslarining garmonik tili murakkab emas, biroq ularda alohida o'zgacha garmonik chizgilar (pasaytirilgan VI pog'ona va ko'p miqdorda subdominantali garmoniyalar) yuzaga keladi.

M.I.Glinka ijodining ahamiyati. Glinka operalari rus opera janrining rivojlanish yo'lini belgilab berdi. Uning operalariga xos bo'lgan musiqiy dramaturgiya tamoyillari, xalq-milliy mavzularini ishlab chiqish usullarini va obrazlar qatorini yaratishi, kelgusida rus klassik-kompozitorlarining ijodiga asos bo'lib xizmat qildi.

M.I.Glinkaning birinchi «Ivan Susanin» nomli operasi jahon musiqa madaniyatiga qo'shgan katta hissasi bo'ldi. Keyingi davrda ijod qilgan kompozitorlar, xususan Musorgskiy «Boris Godunov» va «Xovanhina» operalarida, Rimskiy-Korsakov rus tarixiy mavzularda yozgan «Pskovlik qiz», «Shoh qallig'i», «Ko'rinnmas shahar Kitej to'g'risidagi afsona» operalarida va Borodin «Knyaz Igor» operasida shu ijodiy yo'ldan foydalanganlar. Glinka G?arbiy Evropa musiqiy madaniyatini chuqur o'rganib, o'zining mahoratga boy estetik qarashlarini va o'z yo'nalishini yaratadi. U xalq ko'rinishlari vositasida rus klassik musiqiy tilini yaratib berdi va natijada rus musiqasi klassik maktabining rivojlanishiga asos soldi. Kompozitor o'zining fuga, kanon, imitatsiya, kontrapunktlarini europacha klassik shaklda yozgan bo'lsa-da, ularning barchasi o'ziga xos milliy rus jilosiga ega edi. Uning bu usulini Chaykovskiy va Raxmaninovlar ijodlarida qo'llashgan.

M.I.Glinka ikkita yirik klassik operani yaratdi. Xalqning qaxramonligi, jasorati aks etgan musiqiy drama hamda epik - xalq yo'nalishidagi ertak - opera shular jumlasidan. M.I.Glinkaning operalari, butun ijodiy faoliyati turli davrlarda tanqidchilar tomonidan ko'p marotaba o'rganib chiqilgan. Serov va Stasov kabi musiqa tanqidchilari «Ruslan va Lyudmila» operasini milliy musiqiy epos sifatida tan olishadi. Kompozitorning «Ivan Susanin» operasi - rus musiqiy madaniyatning yuksak namunasi bo'lib, opera san'atining eng jozibador, xalqchil va keng rivojlangan shakli deb tan olingan. Glinka o'zining boy ijodi bilan opera va simfonik musiqiy yo'nalishlardan tashqari, kamer-vokal hamda rus klassik musiqasiga ham asos soldi.

Asosiy asarlar ro'yxati

Opera: «Ivan Susanin» («Shox uchun xayot», 1836) va «Ruslan va Lyudmila» (1842).

Simfonik orkestr uchun asarlar: simfoniya B dur (tugallanmagan), 2 ta uvertyura, g-moll, D dur, (1822-1826); 2 ispancha uvertyuralar – «Aragon ovi» (1845) va «Madridagi tun» (1851), vals- fantaziya (1845), «Kamarinch» (1848), 2 ta rus mavzulariga simfoniyasi (1834, V.Ya.Shebalin tomonidan 1937 yilda tugallangan va cholg'ulashtirilgan), Kukolnikning «Knyaz Xolmskiy» tragediyasiga musiqasi.

Kamer cholg'u ansambllar: goboy, fagot, valtorna, 2 skripka, violonchel, kontrabas cholg'ulariga septet (1823); 2 ta torli kvartet, (1824, 1830); fortepiano, klarnet va fagot uchun «Patetik trio» (1832).

Romanslar: (80 ta), vokal ansambllar, xorlar.

Kitob: «Qaydlar» («Qo'lyozmalar»), «Cholg'ulashtirish haqida ma'lumotlar».

Nazorat uchun savollar

1. M.I.Glinkaning ijodiy yo'li haqida so'zlab bering.

2. M.I.Glinkaning opera dramaturgiyasini tavsiflab bering.
3. M.I.Glinkaning uvertyuralariga qaysi simfonik tamoyillar asos qilib qo'yilgan?
4. M.I.Glinkaning romanslari haqida so'zlab, ayrim namunalarini ijro etib bering.
5. M.I.Glinka ijodining rus musiqa madaniyatidagi ahamiyati haqida so'zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar

- M.I.Glinka lirik iqtidorining eng yaxshi tomonlari A.S.Pushkinning she'rlari asosida yozilgan romanslarda namoyon bo'lgan. Shu romanslarni sanab o'ting, hamda ulardan bir-ikkitasini kuylab bering.
- M.I.Glinkaning qaysi simfonik asarida uning polifonik uslubi variatsionlik va variantlilik printsiplari ko'proq yoritilgan?
- M.I.Glinkaning qaysi operasida uvertyura mavzulari o'zining keyingi rivojini topgan? Uvertyura qaysi shaklda yozilgan? Ushbu operada har xil sahnalarda va har xil variantlarda uchraydigan bosh partiyaning asosiy iborasi qanday nomlangan? Uning tuzilishini ko'rsatib bering.
- M.I.Glinkaning «Ivan Susanin» operasidagi qaysi xorlarda vatanparvarlik mavzusi o'zining kelgusi rivojini topib, tasdiqlanadi?
- «Ivan Susanin» operasining II-sahnasida berilgan raqslarda polyaklar qanday mavzular bilan tasvirlangan? Shu mavzulardan qaysi biri operaning kelgusi rivojida ham o'zgarishsiz qoladi?
- M.I. Glinkaning «Qaydlar»ini o'qib chiqing va rus xalq musiqasiga nisbatan uning munosabatini belgilaydigan fikrlarini ajratib oling.
- M.I. Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasidan «Chernomor marshi»ni tinglang. Chernomorning sehrli qiyofasi qaysi cholg'ular va ifodali musiqiy vositalar yordamida ochib berilgan?

A.S.DARGOMIJSKIY

(1813 – 1869)

Musiqa ohangi to'g'ridan-to'g'ri
so'zni ifodalab berishini istayman.
Haqiqatni istayman.

A.S.Dargomijskiy

Aleksandr Sergeevich Dargomijskiy - M.I.Glinka ijodining muhim tamoyili va kompozitor g'oyalarining ilk davomchisidir. Uning dunyoqarashi va estetik tamoyillarining shakllanishi XIX asrning 30-40 yillariga to'g'ri keladi. Bu davr rus madaniyatining adabiyot, tasviriy san'at va musiqa sohalarida eng yuqori cho'qqilarga intilayotgan, tez rivojlanayotgan va kompozitorlar yangi yo'nalishlarda qizg'in ijod qilayotgan davr edi. Shu davr san'ati namoyandalarining ijodini «xo'rlanganlar va xaqraratlanganlar»ga nisbatan hamdardlik va zolimlarga nisbatan nafrat mavzulari birlashtirgan.

Ushbu oqim san'atda «tanqidiy realizm» nomini oлган. Musiqa sohasida A.S.Dargomijskiy tanqidiy realizmning ilk vakili hisoblanadi. Ijtimoiy, g'oyaviy, badiiy sohalarda yuz berayotgan katta o'zgarishlar uning ijodida ham o'z aksini topdi. Kompozitorning ijodiy faoliyati o'sha davrga xos bo'lgan ilg'or g'oyalar bilan chambarchas bog'liq ekanligi uning birinchi asarlaridan ko'rinish turadi.

A.S.Dargomijskiy o'z ijodida yoritgan mavzulari bilan A.S.Pushkin, N.V.Gogol, M.Yu.Lermontov kabi zamonasining ilg'or adiblariga yaqindir.

A.S.Dargomijskiyga M.I.Glinkaning ijodi beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Glinkaning ijodiy faoliyati tamoyillarini o'ziga singdirib oлган Dargomijskiy, ularni o'ziga xos uslubda qo'llaydi. M.I.Glinka xalqni yaxlit bir tan deb ko'rsatadi va o'z kahramonlari orqali umummilliylar harakterning alohida belgilarni ifoda etadi. Dargomijskiy esa o'z zamonasini barcha qaramaqarshiliklari bilan birga haqqoniy tasvirlaydi. U asarlarida (knyaz, dehqon, askar, amaldor) kabi turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarni ko'rsatadi va ularning fe'l-atvorlarini yorqin bo'yqlarda ochib beradi.

A.S.Dargomijskiy dunyoqarashining shakllanishida va ajoyib asarlarining dunyoga kelishida A.S.Pushkin ijodi ham alohida o'rinn tutgan. Kompozitorning butun ijodiy faoliyati ulug' rus shoiri ijodi bilan uzviy bog'liqdir.

Zamonasining ilg'or san'at vakillari bo'lgan M.A.Balakirev to'garagining a'zolari A.S.Dargomijskiyni «Musiqa haqiqati o'qituvchisi» deb ataganlar. Kompozitorning ijodiy tamoyillari rus musiqa san'atining keyingi rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Hayoti va ijod yo'lli. A.S.Dargomijskiy 1813 yil 2 (14) fevralda Tula guberniyasining Troitsk qishlog'ida tug'ildi. 1817 yil oxirida uning oilasi Peterburgga ko'chib o'tadi. Kompozitorning keyingi hayoti va ijodiy faoliyati ushbu shahar bilan bevosita bog'liq kechdi. Savodini u asosan oilasida chiqardi. Kompozitorning ota-onasi o'z farzandlarida hayotga nisbatan mulohazali munosabatni, ziyraklik, maqsad sari intilish va tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqealarga, hodisalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lism kabi xususiyatlarni tarbiyalab, ularda san'atga, adabiyotga muhabbat tuyg'ularini uyg'otishga intiladilar.

A.S.Dargomijskiy olti yoshidan musiqa asoslarini o'rgana boshlaydi. Fortepiano ijrochiligi bo'yicha ilk saboqni unga birinchi ustoz - mashhur pianinochi A.T.Danilevskiy beradi. Keyinchalik Dargomijskiy krepostnoy skripkachi P.G.Vorontsovdan skripkada chalishni va qo'shiq kuylashni o'rganadi. 10 yoshidanoq Dargomijskiy rondo, romans va variatsiyalar yaratadi. Uning bolalikda yaratgan «Melanxolik vals» va «Kazachok» nomli asarlari alohida e'tiborga molikdir.

Shuningdek, atoqli venalik mashhur pianinochi F.Shoberlexner olib borgan mashg'ulotlar ham fortepiano ijrochiligi sirlarini egallashida Dargomijskiy uchun oliy maktab vazifasini o'taydi. Uch yil davom etgan mashg'ulotlar jarayonida F.Shoberlexner shogirdi pianino

ijrochiligi sirlarini egallash bilan birga, musiqiy tasavvuri va didi ham sezilarli darajada rivojlandi. 1831 yilga kelib, Dargomijskiy pianino ijrochiligi san'atida a'lo natijalarga erishadi.

Mumtoz an'analarni o'rganishida Dargomijskiy bilan uning yana bir ustozi – qo'shiqchi B.Tseybix shug'ullandi.

Shunday qilib Dargomijskiy 1830-yillarning boshiga kelib umumiyligi ta'limdi to'liq o'zlashtirib oldi. U mahoratli pianinochi, skripkachi va ashulachi ham edi. Keyinchalik barcha taniqli qo'shiqchilar undan ta'limga oladilar va doimo uning maslahatlaridan foydalanadilar.

Bu vaqtga kelib, Dargomijskiy ko'plab skripka, fortepiano uchun asarlar, romans va kvartetlar yaratdi, ularning ba'zi romanslari va fortepiano uchun pesalari nashr etildi. Albatta, bu asarlarda uning kompozitorlik texnikasi hali mukammal emasligi sezilib turardi. Zero, kompozitsiya asoslarini Dargomijskiy mustaqil o'rgangan edi. Keyinchalik u ko'p ishlab, xalq musiqasini hamda mumtoz musiqani o'rganib, boshqa kompozitorlar bilan yaqindan ijodiy muloqotlarda bo'lib, bu borada ham yuksak kasbiy mahoratga erishadi.

A.S.Dargomijskiy 1834 yilda Davlat g'aznaxonasiga devonxona amaldori, 1836 yilda kollej kotibi etib tayinlanadi. 1843 yilda esa maslahatchi lavozimidan iste'foga chiqadi.

A.S.Dargomijskiyning hayoti va ijodida 1835 yildagi Glinka bilan tanishuv katta voqeа bo'ldi. Ularning yoshlari orasida 9 yil farq bo'lsa-da, bu ikki yosh musiqachini mustahkam do'stlik rishtalari bog'laydi. Dargomijskiy «Ivan Susanin» nomli birinchi rus operasi yaratilishining guvohi bo'ladi. U ishtiyoq bilan yaratilayotgan sahnalarini, ariyalarni qo'shiqchilar va orkestr sozandalari birgalikda o'rganadi. Glinka qiyofasida u katta tajribaga ega, ko'p narsani biladigan va san'atda o'z yo'llini tanlab olgan iqtidorli ijodkorni uchratgan edi.

A.S.Dargomijskiyning Glinka bilan uchrashuvi uning kompozitorlik mahorati asoslarini jiddiyroq o'rganishiga va katta ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga «turtki» bo'lib xizmat qildi.

XIX asrning 30-40 yillari - Dargomijskiyning ijodiy faoliyatida birinchi bosqich hisoblanadi. 1839 yilda u farang yozuvchisi V.Gyugoning «Parij avliyo ona ibodatxonasi» romani syujeti asosida «Esmeralda» operasini yaratdi. Opera faqat 8 yildan so'ng katta qiyinchiliklar bilan sahnalaشتiriladi. Imperator teatri rahbarlari vatan san'atiga shunday bee'tibor edilar.

«Esmeralda» operasidan so'ng, Dargomijskiy ko'plab romanslar, qo'shiqlar, ariya va duetlar, trio va kvartetlarini, keyinchalik opera-baletga aylantirilgan, «Vakx tantanasi» nomli kantatasini yaratadi.

A.S.Pushkinning so'zlariga bastalagan «Men sizni sevardim» («Ya vas lyubil»), «Tungi zefir» («Nochnoy zefir»), «Qonda istak alanga olganda» («V krovi gorit ogon jelanya»), «O'n olti yosh» («Sheftnadtsat let») va boshqa romanslar guruhini yaratish jarayonida u yuksak badiiy mahoratga erishadi. 1830-yillarning oxirida, u «Bolero» nomli birinchi simfonik pesasini yaratadi. Qirqinchi yillarning boshida kompozitor o'z uyida doimiy ravishda o'tkaziladigan musiqiy yig'inlarga ko'p vaqtini ajratardi. Dargomijskiy Peterburgda qo'shiqchilik sohasida tan olingan o'qituvchi bo'lgani uchun, u o'z atrofiga iste'dodli qo'shiqchilarni to'playdi. Kelgusida ulardan ko'pchiligi taniqli san'atkor bo'lib etishadi. Musiqiy kechalarda rus kompozitorlaridan asosan Glinka va Dargomijskiylarning musiqiy asarlari ijro etilardi. Qo'shiqchilarning ijrochilik mahorati haqida Dargomijskiy: «Rus musiqasi bizda ortiqcha takallufsiz, sodda va bama'ni ijo etiladi», deb yozgan edi.

Kompozitor umrining oxirigacha shogirdlari bilan bo'ladigan mashg'ulotlarni to'xtatmaydi. Dargomijskiy o'zining musiqiy ijodida va tarbiyaviy faoliyatida Glinka an'analarni rivojlantirishga intiladi. O'zi yozgan operalarni sahnalaشتirishda partiyalarni qo'shiqchilar bilan birgalikda o'rganar, ijrochilarga badiiy, haqqoniy, oddiy va ifodali kuylashni o'rgatardi.

Uning romans va qo'shiqlari to'plami birinchi bor 1843 yilda nashrdan chiqadi. Romanslar kompozitorga katta shuhrat keltiradi, endilikda u xalq orasida ham, yuqori tabaqa zodagonlar doirasida ham alohida hurmatga ega bo'ladi.

A.S.Dargomijskiy 1844 yilda xorij safariga chiqadi. U Leyptsig, Vena, Bryussel, Parij kabi shaharlarda bo'ladi. Chet elga borishdan asosiy maqsadi dunyo madaniyati va musiqasining

markazi bo'lgan Parijni ko'rish edi. Xorijda u ko'plab musiqachilar va kompozitorlar bilan yaqindan tanishadi; opera, teatr va kontsertlarga boradi. Xorijiy musiqa madaniyati haqida bildirgan fikr-mulohazalari uning tiniq tanqidiy aql sohibi ekanligidan, qarashlarining etukligidan va mustaqilligidan dalolat beradi.

A.S.Dargomijskiyda xorij safari vaqtida vatan tuyg'usi yanada kuchayadi, unda o'z vataniga qaytish, rus musiqasini rivojlantirish istagi paydo bo'ladi. 1845 yilda kompozitor vataniga qaytib keladi. Kompozitor ijodidagi ikkinchi bosqich - realist-san'atkor sifatidagi etuklik bosqichi shu davrlardan boshlanadi. A.S.Dargomijskiy A.S.Pushkin syujeti bo'yicha, o'sha vaqtarda jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy adolatsizliklarni fosh etuvchi, «Suv parisi» nomli operasini yaratishga kirishadi. Ayni paytda A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov she'rlarining mavzulari asosida romanslar ham yozadi. M.Yu.Lermontov she'rlariga yozilgan romanslar Dargomijskiy ijodiga tanqidiy yo'nalish beradi. «Ham zerikarli, ham g'amgin», «Ma'yusman» va boshqa ko'plab romanslari tanqidiy yo'nalishda yaratilgan romanslar qatoriga kiradi.

1853 yilda Dargomijskiy asarlari asosida tashkil etilgan katta kontsert ilg'or rus musiqiy jamoatchiligi vakillari va tinglovchilar olqishiga sazovor bo'ldi.

A.S.Dargomijskiyning kompozitor sifatida tan olinishi unga ijodiy kuch-quvvat bag'ishlaydi. U buyuk rus xalqining serqirra ruhiy olamini ochib beradigan va milliy ruhga ega bo'lgan musiqiy asarni yaratish uchun o'zini mas'ul deb hisoblaydi. Shu asnoda u «Suv parisi» operasi ustida katta ko'tarinkilik bilan ish boshlaydi va uni 1855 yilda yozib tugatadi. Opera ilk bor 1856 yilda sahnalashtiriladi, ammo tomoshabinlar va tanqidchilar orasida muvaffaqiyat qozona olmaydi. Dargomijskiyni atoqli musiqashunos-tanqidchi A.N.Serov himoya qilib chiqadi. Uning «Suv parisi» bo'yicha olib borgan tahlili hozir ham bu opera haqida yozilgan asarlarning eng sarasi bo'lib qolmoqda.

A.S.Dargomijskiyning «Suv parisi» operasini ma'lum ma'noda Glinka boshlagan ijodiy ishning davomi deb atash mumkin. Opera Peterburg teatrining sahnasiga jamiyatda inqilobiy vaziyat yuzaga kelayotgan va hukumat hammaga ma'lum bo'lgan masalada jamiyatga yon bosib, krepostnoylikni bekor qilishga majbur bo'lgan bir vaqtda chiqadi. Shu yillarda kompozitorga xos realistik tamoyillarining shakllanish jarayoni yakuniga etadi, ularga tamal toshi qo'yiladi, bu jarayon uning yaqinlariga va qarindoshlariga yozgan qiziqarli va mazmunli xatlarida aks etgan.

Kompozitorning hayoti va ijodi 1850-yillarning oxiri «Uchqun» nomli hajviy jurnaldagi faoliyati bilan bog'liq. Shu davrlarda u «Qari kapral» va «Chuvalchang» kabi ijtimoiy fosh qiluvchi ajoyib qo'shiqlarni yaratadi.

Uning orkestr uchun «Jodugar kampir», «Kazachok» va «Chuxon fantaziyasi» p'esalari 60-yillarga taaluqlidir.

Xuddi shu davrda kompozitor Rus musiqiy jamiyatini qo'mitasining a'zosi sifatida ma'rifiy faoliyat bilan ham shug'ullanadi, Rus musiqiy jamiyatining (RMJ) Peterburg bo'linmasiga rais etib saylanadi. U Rossiyyadagi birinchi konservatoriya nizomini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

A.S.Dargomijskiy 1864 yilda yana xorij safariga jo'nab ketadi. Endi u Leyptsig, Parij, London va Bryussel kabi shaharlarda bo'ladi. Bu safar uning vatanidan tashqarida ham mashhur ekanligini ko'rsatadi. Uni Bryusselda alohida hurmat bilan kutib olishdi. Bu erda uning «Suv parisi» operasiga uvertyurasi va «Kazachok» simfonik p'esasi ijro etiladi.

Kompozitor 1865 yilda Peterburgga qaytib yana «Suv parisi» operasini sahnalashtiradi. 1860-yillarda yangi voyaga etgan, demokratik kayfiyatdagi yoshlar operani katta qiziqish bilan qabul qildi. Shu tariqa vatanida ham to'liq e'tirofga sazovor bo'lgan edi.

Bu yillarda Dargomijskiy M.A.Balakirev to'garagining a'zolari bilan yaqin munosabatlar o'rnatdi. M.A.Balakirev, S.Kyui, A.P.Borodin, N.A.Rimskiy-Korsakov, musiqiy tanqidchi V.V.Stasovlar kompozitor uyining doimiy mehmoni edilar. Ular Rimskiy-Korsakovning asarlarini birgalashib to'rt qo'lda chaladilar, Dargomijskiyning yangi - «Tosh mehmon» operasini ham shunday ijro etishgandi. Kompozitorning bu so'nggi asari tugallanmay qolgan. Dargomijskiy 1869 yil 5-yanvarda og'ir yurak xastaligi sababli olamdan o'tadi va M.I.Glinka bilan yonma-yon dafn etiladi.

A.S.Dargomijskiy ijodiy faoliyatining badiiy tamoyillari. A.S.Dargomijskiyning kelajak avlodga qoldirgan ijodiy merosi katta bo'lmasa-da, u musiqa olamiga yangi mavzular, obrazlar, badiiy tamoyillar olib kirganligi bilan e'tiborga loyiq. Shu omillar ham sabab, rus musiqa madaniyatining keyingi rivojida uning ijodi katta ahamiyatga ega.

A.S.Dargomijskiy katta g'oyaviy ahamiyatga ega bo'lган san'atga intilardi. «Musiqa ohangi to'g'ridan-to'g'ri so'zni ifodalab berishini istayman. Haqiqatni istayman», - deb yozgan edi kompozitor. U musiqada haqiqat, avvalo, so'z va nutq ohangini aniq va ishonarli tarzda etkazib berishdan iborat, deb tushunar edi. Dargomijskiyning ijodiy etuklik davrida musiqiy tilning barcha unsurlari ushbu talabga bo'yundirilgan edi. Kompozitor musiqa navolarida inson qalbi kechinmalarini turli ko'rinishlarda ifodalaydi. U qalb tuyg'usini umumiylashmasdan, tuyg'ularning paydo bo'lishini va rivojlanishini uzlaksiz jarayon sifatida ko'rsatib beradi. Dargomijskiy o'z qahramonlari misolida serqirra obrazlarni yaratdi. Kompozitor rechitativga, so'zga «intonatsiya berish» uslubiga qarab, inson xarakterini va uning qaysi ijtimoiy doiraga mansubligini aniqlardi. Uning musiqiy portretlari yorqin va ishonarli bo'lib, qahramonlarining ruhiy holatini juda noziklik bilan va maxorat bilan ochib beradi.

Obrazlar xarakterlarini tasvirlashga nisbatan yangicha yondashuv musiqiy ifodalilikning yangi vositalaridan foydalanishga olib keldi. Uning vositalaridan biri – bu yangi nutq ohanglari bilan boyitilgan kuylanuvchan, shaxsiylashtirilgan rechitativ. Dargomijskiyning asarlarida xalq musiqasiga, ko'proq shahar qo'shig'iga va maishiy mavzudagi romanslarga yaqinlik sezilib turadi, shuningdek asl xalq kuylari ham uchraydi.

Asarlarining garmonik tili tonallik rejalarining harakatchanligi bilan ajralib turadi. Deklamatsion-nutqiy intonatsiyalar qo'shiq shakllari bilan birlashib kuyning yangi turini hosil qiladi.

Romans va qo'shiqlari. A.S.Dargomijskiy tomonidan yuzdan ziyod romans va qo'shiqlar, juda ko'plab vokal ansamblari yaratilgan. Romanslarda yangi uslub, yangi musiqiy til shakllanadi. Romans janrida kompozitor o'zini buyuk novator va istedodli san'atkor sifatida namoyon qildi.

A.S.Dargomijskiyning ilk to'plamidan joy olgan qo'shiq va romanslarida, Glinka romanslarining ta'siri bilinib turgan bo'lsa-da, kompozitorning o'ziga xos uslubiy belgilari ham sezilib turadi. Uning vokal uslubi ifodali mazmuni bilan, melodramatizmning yo'qligi, ifodaviy vositalarning tanlab ishlatalishi bilan ajralib turadi. U vokal asarlarida «rus qo'shig'i», vodevil bandlari, maishiy lirik-romans ohanglari kabi ifoda vositalariga suyanadi. Dargomijskiy ba'zi bir kompozitsiya usullarini hamda sharqona, ispancha, yuksak-lirik mazmundagi romans turlarini yaratishni Glinkadan o'zlashtirdi.

Kompozitor, sevimli shoiri A.S.Pushkinning she'rlariga ko'plab romanslar yaratadi. Shu qatorida uning «Qonda istak olganda alang», «Tungi zefir» nomli she'rlariga Glinka kuylar bastalagan.

1840-yillarda kompozitor ijodida ijtimoiy ahamiyatga ega mavzular va syujetlarga qiziqish paydo bo'ldi. U barcha harakatlarini so'z va tovushning uyg'un qo'shilib ketishiga qaratadi.

Kompozitor uslubining o'ziga xos xususiyati A.S.Pushkin she'ri mavzusiga yozilgan «Men sizni sevardim» («Ya vas lyubil») nomli ilk romansida yaqqol namoyon bo'lган:

Romans elegiyaga o'xshash belgilarga ega bo'lib, u band shaklida yozilgan. Uning kuyi yagonalikka ega bo'lib, qisqa iboralardan tuzilgan. Bu har xil ko'rinish va tuzilishdagi iboralar, so'zlarining ma'nosiga qarab pauzalar bilan ajratilgan. Ohangdor va vazmin kuy birinchi oktava «re» tovushidan boshlanib, kengayib boradi va band oxiriga kelib eng yuqori nuqtaga-ikkinchini oktavaning «do» tovushiga etib boradi. Kuyni sokin, arpedgio shaklidagi akkordlar davom ettirib boradi.

M.Yu.Lermontov ham Dargomijskiyning sevimli shoirlaridan edi. M.Lermontovning «Ma'yusman», «Ham zerikarli, ham g'amgin» she'rlariga yozgan lirik monologlari eng yaxshi romanslardan hisoblanadi. Bu liriko-dramatik romanslarning vokal partiysalarida ifodali, kuychan deklamatsiya tasvirlanadi. Ularda kuy matnga bog'liq holda aniq bo'laklarga bo'linib, alohida patetik tuyg'u va ohanglar ravshan ta'kidlangan.

«Mayusman» asari lirik mushohadagi monologdir. Silliq va alohida qismlarga ajratilgan deklamatsion xarakterdagi kuy matndagi nutq intonatsiyalari bilan boyitilgan:

Silliq va alohida qismlarga ajratilgan kuy muqaddima va xulosaga o'xshash yagona jo'rlik fakturasi vositasida birlashadi. Romans yaxlit holda, bevosita rivojlansa-da, uning shakli reprizasiz uch qismlidir.

Kompozitor «Ham zerikarli, ham g'amgin» romans-monologining «Ma'yusman», «Sen meni tezda unutasan» («To` skoro menya pozabudesh») va boshqa romanslarida lirik chizgini davom ettiradi.

A.S.Dargomijskiy Koltsovning so'zlariga «Aqlsiz, ongsiz» («Bez uma, bez razuma»), xalq so'zlariga «Bezgakkina» («Lixoradushka»), A.S.Pushkinning so'zlariga «Tegirmonchi» («Melnik») nomli romanslarini «xalq qo'shig'i» ruhida yozadi.

A.S.Dargomijskiyning ijtimoiy - fosh etuvchi xususiyatli qo'shiq va romanslari kompozitor vokal ijodining yuqori cho'qqilaridan biridir. Ularda o'tkir hajv yangraydi. Bu romanslar oddiy odam haqida. Bunda u asosan «Uchqun» to'garagi a'zolarining, ayniqsa Kurochkinning matnlaridan foydalanadi. Ularda mazmunning ahamiyati naqoratli band shaklning oddiyligi bilan birikib ketadi. «Chuvalchang» va «Titulyar maslahatchi» qo'shiqlarida oddiy vositalar bilan amaldorlar muhitidagi «mayda» odamning xushomadgo'yligi, lagabardorligi yorqin obrazlarda ifodalab berilgan.

«Chuvalchang» qo'shig'ida ikkita qarama-qarshi ohang: amaldor o'zi haqida gapirayotganida - xushomadgo'y, lagabardor va graf haqida gapirayotganida - zavq-shavqni yorqin ifodalab beradigan ikkita ziddiyatlri ohanglardan foydalangan.

Shoir P.I.Veynberg so'zlariga yozilgan «Titulyar maslahatchi» qo'shig'ida obrazlarni tafovutli taqqoslash usuli yanada aniqroq berilgan. Hajviy hikoyada muallif tilidan voqeanning ikki ishtirokchisi - kamtarin faxriy unvonli maslahatchi va uni g'azab bilan siltab tashlagan general qizining qiyofasi tasvirlanadi. Boshidanoq, ularning obrazi ziddiyatli ohanglarda tasvirlanadi: «on bo'l titulyarno'y sovetnik» so'zleri takrorlanuvchan tovushlarda muloyim va hadiksiragan ohangda beriladi, «ona bo'la generalskaya doch» so'zleri keskin, jur'atli ohanglarda yangraydi. Jumla faol kvarta sakramasi bilan boshlanib, keyin kvinta diapazonida kengroq, yangraydi. «Poshyol titulyarno'y sovetnik» so'zlarida ritm o'zgarib, raqs tushayotgan qadamlarni tasvirlaydi, yanada kuyylanuvchan kuy bir muncha shikasta tus oladi – chunki inson haqorat va rad qilingan edi.

Farang shoiri P.Beranje so'zlariga yozilgan «Qari kapral» dramatik qo'shig'i mavjud ijtimoiy tizimga g'azabli ayblov sifatida yangraydi. Bunda biz dramatik monolog sahnasini ko'ramiz - bir vaqtlar ofitserni haqorat qilgani uchun o'lim jazosiga hukm qilingan keksa askarning musiqiy hikoyasi bu - qo'shiq naqoratli band shaklida yozilgan. Biroq band shakli to'g'ridan-to'g'ri rivojlanish bilan boyitilgan. Har bir band yangicha yangraydi. Askar o'rtoqlariga murojaat qilib hayoti haqida, o'z alamlari haqida so'zlaydi, o'tmishini, o'z uyini eslaydi. Keksa kapralni ta'riflagan asosiy musiqiy mavzu naqoratda berilgan bo'lib, barcha ko'rinishlarda u marsh ritmida, mardonavor va lo'nda, qat'iy ohangda yangraydi. «Qari kapral» qo'shig'i 1858 yilda yozilgan bo'lsa-da, hozirga qadar o'zining fojiali mazmuni bilan tinglovechilarga chuqur ta'sir qiladi. Inson ruhiyatining yorqin ochib berilishi va ijtimoiy yo'naltirilganlik bu «dramatik qo'shiqni» rus vokal musiqasining noyob durdonalaridan biriga aylantirdi.

Opera ijodi. «Suv parisi» operasi. Dargomijskiy o'zining «Suv parisi» operasi bilan rus klassik musiqasi tarixida yangi sahifani ochib berdi. Bu opera - rus xalq maishiy musiqali drama janrida yaratilgan birinchi asardir.

Opera syujetini kompozitorga A.S.Pushkin taklif qilgan edi. Dargomijskiy drama mazmuniga qator o'zgartirishlar kiritadi va Pushkinning asarida bo'limgan voqealarning yakuni tasvirlangan sahnani (knyaz halokati) qaytadan yozadi.

«Suv parisi» operasining mazmuniga ijtimoiy ziddiyat asos qilib olingan. Operaning qisqacha mazmuni:

I – parda.

Dnepr daryosi qirg'og'ida joylashgan tegirmon. Tegirmonchining qizi Natasha sevgilisi Knyazni kutmoqda. U Knyazning muhabbatidan qanday foyda olish mumkinligi borasida otasi berayotgan pand-nasihatlarni parishonxotir eshitmoqda. Uzoqda Knyaz ko'rindi. Natasha quvonib uni qarshi oladi, ammo Knyaz mayus. U zodagon oiladan bo'lган qizga uylanayotganini aytgani kelgan. Knyaz qizga sevgisi evaziga qimmatbaho sovg'alar berib, undan qutilib ketishga urinib ko'radi. Knyaz ketganidan keyin, umidini yo'qotib, ilojsiz qolgan Natasha, o'zini Dnepr suviga tashlaydi.

II – parda.

Mahobatli koshonada Knyazning dabdabali to'yi bo'lyapti. Mehmonlar yoshlarni tabriklashmoqda. O'yin-kulgu avjiga chiqqan vaqtida, o'zini suvga tashlagan qiz haqida qayg'uli kuy eshitiladi. Hamma hayajonda. Knyaz Knyaginyani o'pishga intilganida, yana ayol nolasini eshitiladi va to'y tantanalarini ishtirokchilari sarosimaga, tushkunlikka tushishadi.

III – parda. 12 yildan so'ng.

1-ko'rinish: Knyaz uyida uning xotini yolg'izlikdan azob chekmoqda. Knyaz undan sovgan. Knyazning Dnepr qirg'og'ida qolganini eshitib, knyaginiya o'z yaqinlaridan biri Olgani olib, Knyazni qidirishga jo'naydi.

2-ko'rinish: Tun. Dnepr qirg'og'ida suv parilarini raqsga tushib, qo'shiq aytishmoqda. Knyaz paydo bo'ladi. U uzoq yillar avval o'zi bo'lган joylarni pushaymonlik bilan eslaydi va avvalgi muhabbatni xotiralari uning qalbini junbushga keltiradi. Shu vaqtida aqldan ozgan Tegirmonchining vahimali gavdasi paydo bo'ladi. U to'satdan, qizini qaytarib berishini talab qilib, Knyazga tashlanadi. Etib kelgan ovchilar Knyazni qutqarib qoladilar.

IV - parda.

1-ko'rinish: Suvosti saroyi. Suv parilarining malikasi (Natasha) Knyazni haliyam sevadi, ammo undan qasos olish niyatida. U qiziga, Suv parisiga Knyaz to'g'risida so'zlab beradi va otasini daryoga aldab boshlab kelishni topshiradi.

2-ko'rinish: Xotiralar Knyazni yana Dnepr qirg'og'iga etaklaydi. Paydo bo'lган Suv parisi uni daryo tubiga chorlaydi. Knyaginiya va Olga Knyazni ushlab qolishga harakat qiladilar, biroq Suv parisining chorlovi ustun keladi. Suv parilarining yovuz kulgusi ostida Knyaz suv ostiga g'arq bo'ladi.

«Suv parisi» lirik-dramatik ko'rinishdagi maishiy operadir. Uning markazida inson hayotidagi ikir-chikirlar ortida yashiringan va ichki dunyosida kechayotgan oddiy drama yotadi. Kompozitorning asosiy vazifasi - qahramonlarining ichki dunyosini, qalb ehtiroslarini va harakterlarini atroficha aks ettirishdan iborat edi.

Opera sonata shaklida yozilgan bo'lib, uvertyura bilan boshlanadi. Uvertyura operadagi dramatik harakatning rivojlanishini aks ettirmaydi, balki operaga umumiy tavsif beradi.

«Suv parisi» dramaturgiyasiga xos belgi - bu dramatik qarama-qarshilikning to'g'ridan-to'g'ri rivojlanishidir. Har bir ko'rinishda dramatik rivojlanish, bir qator kulminatsion vaziyatlar orqali, shiddatli va yo'naltirilganlik tusini oladi. Operaning dramatik jihatdan muhim lavha - Tegirmonchi ariyasi bilan boshlanadi, bunda dastlabki dramatik holat ochib beriladi. Dargomijskiyning novatorligi opera obrazlari dramaturgiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Glinka ishtirok etuvchi shaxslarni musiqiy chizgilarda ko'proq umumlashtira olgan bo'lsa, Dargomijskiy dramaturgiyasiga to'g'ridan-to'g'ri rivojlanish va alohida musiqiy «portretlarning» yaxlitligi xos.

Operaning asosiy qahramoni - Natasha birinchi pardada nozik, chin yurakdan sevadigan, mehribon qiz sifatida namoyon bo'lsa, operaning oxirida hukmdor va qasoskor Suv parisi timsolida gavdalanadi. Birinchi bor uning qiyofasi 1 – pardanining lirik tertsetida ochib beriladi. 1 – parda operada juda muhim o'ringa ega: bu sahnada obrazlar ekspozitsiyasi drama syujetining tuguni (konflikt), uning rivoji va echimi beriladi.

Tertset uchala ishtirok etuvchi shaxsning - Natasha, Knyaz, Tegirmonchi - g'amgin kayfiyatini ifodalaydi.

Natashaning partiyasi mazmuni va kayfiyatiga ko'ra turli xil kuylardan iborat bo'lib, ular qizning ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Natashaning obrazi ayniqsa «Oh, o'tib ketdi u damlar, oltin damlar» («Ax proshlo to vremya, vremya, zolotoe») ariyasida yorqin ochib berilgan:

Uch qisqli ritm va gitaraga xos fakturasining jo'rliji, nafis navoli kuy (fa - minor) shahar lirik romansi janriga juda yaqin. Bu bilan obrazning xalqchilligi ta'kidlanadi. Dargomijskiy qahramon ayol ruhiy holatining barcha qirralarini ochib beradi. Knyaz Natashani ovutishga harakat qiladi. Natashaning ruhiy holatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni polka ritmida ijro etilgan engil, yorug' va jonli kuy aks ettiradi.

Knyaz bilan Natasha dueti Dargomijskiyning novatorlik uslubi namunalaridan hisoblanadi. Musiqa uzlusiz rivojlanib boradi. Qahramonlarning ruhiy holatlaridagi o'zgarishni temp va ritmning, orkestr fakturasining almashinuvlari, tonalliklardagi og'ishmalar va modulyatsiyalar namoyish qilib beradi. Duetda Knyazning xudbinligi va irodasizligiga Natasha obrazidagi yangi qirralar, uning mehr-muhabbati hamda fe'l-atvorining teran boyligiga qarshi qo'yiladi.

Natashaning fe'l-atvorini ta'riflashda maishiy intonatsiyalarga yaqin bo'lган romans tipidagi kuylar bilan bir qatorda yorqin dramatik rechitativdan foydalaniladi. Bu ikki unsurdan foydalanish «Suv parisi» operasining butkul vokal tiliga xos.

Ajralish sabablarini endi tushunayotgan Natasha va Knyaz duetidagi o'tkir dramatik keskinlik tasvirlash uchun Dargomijskiy ifodali rechitativdan foydalanadi. «Endi men hammasini tushundim. Sen uylanasan? Sen uylanasan!» so'zлari aytilganda bir maromdagи sokin kuy so'zlashuv intonatsiyasiga o'tib boradi. «Sen uylanasan» - birinchi iborada sarosima, umid va ilinj eshitilsa, ikkinchi iborada – nafrat tuyg'ulari aks etadi.

IV – pardada berilgan katta ariyada g'am-anduh chekayotgan nozik qiz suv osti sultanatining sovuqqon va qasoskor hukmdori sifatida namoyon bo'ladi. Bu ariyada birinchi pardadagi partiyaning romans ohanglari eshitiladi, biroq ular endi o'zining yumshoq, lirik harakterini yo'qotgan.

Natasha partiyalariga bunday umumiy ohang bo'yoqlar berish orqali kompozitor uning obrazining butunligi va yaxlitligini ta'minlashga erishadi.

Operaning yana bir asosiy ishtirokchisi – Tegirmonchi, Natashaning otasidir. Bu obrazning rivojlanish jarayoni ham asarda to'liq ochib berilgan. I – pardada quvnoq, qiziqchi Tegirmonchi, IV - pardada u umuman boshqa ko'rinishda paydo bo'ladi – aqldan ozgan vajohatli ota ko'rinsada, tomoshabinlarning qalbida hamdardlik tuyg'ularini o'yg'otadi. Kompozitor Natasha partiyalarining mavzulariga umumiy intonatsion ranglar berish orqali uning musiqiy obrazini yaxlit tasvirlashga erishgan bo'lsa, tegirmonchi partiyalarida - tanlab olingen o'ziga xos musiqiy unsurni izchil davom ettirish usulidan foydalanadi.

Jo'shqin raqs ritmlari dastlab Tegirmonchi fe'lining kulgili tomonlarini tasvirlashga yordam bergan bo'lsa, keyinchalik, aqldan ozish va telbalik sahnasida, voqealarning rivojiga fojiaviylik tusini beradi.

Tegirmonchi tomonidan 1-pardada ilk bor ijro etilgan ariya -qahramonning fe'l-atvorini yoritib, unga tavsif beradi.

Ariyaning musiqasi dehqonlar qo'shiqlarining mavzusiga yaqin. Raqs ritmi va aniq ritmik chizgilar orqali Tegirmonchining harakatchanlik, ochiq ko'ngillilik xususiyatlari ochib beriladi. Otaning goh erkash, goh g'azab, goh achchiqlanish his - tuyg'ularini ifoda etayotgan so'zlariga bog'liq holda musiqa ritmi ham o'zgarib boradi:

III-pardada Tegirmonchi o'zini qarg'aga aylanganday his qilayotgan, aqldan ozgan telba ota sifatida namoyon bo'ladi. Damli mis cholg'ularning jarangdor va «qo'rqinchli» xitoblari unga jo'r bo'ladi. Eng shiddatli sahna – bu Tegirmonchining Knyaz bilan uchrashuv sahnasidir. Rechitativ luqmalar qari Tegirmonchining junbushga kelgan hissiyotlarini yoritib, uning ichki holatini ifodalaydi.

Knyazning unga kim qarab turganligini so'rab, bergan savoliga javoban – Tegirmonchi ajoyib va latif kuyni kuylaydi. Unga insонning ishtiroki bir muddat aql-xushini qaytaradi.

Knyaz va Knyaginyani tasvirlashga Dargomijskiy boshqacha yondashadi. Ularning obrazlar tasviri passiv, murakkab echimga ega emas, balki tugallangan lirik tipdagi ariyalarda berilgan. Knyaginyaning musiqiy tili shahar romanslarining mavzusiga yaqin bo'lib, «yoysi» opera ariyasi bilan ifodalangan. Knyaz - bo'shang, irodasiz va ta'sirchan hayolparast sifatida ko'rsatilgan. Kompozitor uning ushbu holatini «Beixtiyor ushbu g'amgin qirg'oqlarga» («Nevolno k etim grustno'm beregam») kavatinasi va rechitativ usuli orqali yorqin tasvirlab beradi:

Kompozitor opera musiqiy tilida milliylikni, rus xalq qo'shiqlarining umumiyligi ohangdor tuzilishini qayta tiklashda asosan asl rus xalq kuylaridan (m-n, Natashaning Dnepr malikasiga murojaatida - «Oh, go'zal qiz» nomli xalq qo'shig'i mavzusidan, Suv parisi Knyazni chorlashini tasvirlashida - «Shoxdor echki kelmoqda» nomli bolalar ashulasining kuyidan) foydalanadi.

Operaning maishiy asosi xor chiqishlaridan iborat. Operaga xalq qo'shiqlari asl matnlarining kiritilishi uning xalqona bo'yog'ini kuchaytiradi. Kompozitor «Sovchijon» («Svatushka»), «Ex, sen yurak», «Chetan devor, chirmalgin» («Zapletisya, platen»), «Biz tog'da pivoni qanday tayyorlagan edik» («Kak na gore mo' pivo varili»), «Yorug' xona ichidagidek» («Kak vo gornitse-svetlitse») kabi xalq qo'shiqlari matnlaridan foydalanadi.

«Chetan devor, chirmalgin» xori operaning umumiyligi mavzusiga xalq ohanglarining kiritilishiga hamda xalq qo'shiqlarining opera to'qimasiga singib ketishiga yorqin misol bo'ladi.

«Suv parisi» - yangi usulda yaratilgan operadir. Bu operaning markazida oddiy inson dramasi yotadi, qahramonlari – xalq ichidan chiqqan oddiy insonlar obrazlari bo'lib, operaning o'zi – lirik-psixologik, maishiy ko'rinishga ega bo'lgan musiqali dramadir.

M.I.Glinkaning ikki operasi kabi «Suv parisi» ham rus musiqasi tarixida klassik opera namunasi sifatida namoyon bo'ldi va kelgusida bu operalardan milliy opera maktabi etishib chiqdi.

A.S.Pushkin syujeti asosida «Tosh mehmon» operasini yaratishda esa Dargomijskiy boshqa ijodiy yo'lni tanlaydi. A.S.Pushkin asarida bu safar u biron-bir so'zni ham o'zgartirmaydi. Zero kompozitor sahna harakatining rivojiga bo'ysundirilgan yangi tipdagi opera yaratishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Biz operada kompozitor asosan rechitativga tayanadi va ariya, duet, trio kabi musiqiy chiqishlardan voz kechadi. A.Pushkinning she'riga muvofiq, kuyli rechitativ turli xil harakterga ega bo'lgan nutq ohanglarini, ishtirokchilarning nutq xususiyatlarini xaqqoni ravishda ko'rsatib beradi. Keskin dramatik harakterga ega bo'lgan joylarda so'zlashuv kuyga solinadi.

Opera 1868 yilda A.S.Dargomijskiyning uyida o'tkaziladigan an'anaviy kechalardan birida ilk bor ijro etiladi. Ma'lumki, kompozitor operani yakuniga etkazib ulgurmagan. Muallif vasiyatiga ko'ra, operani Kyui yozib tugatadi, Rimskiy – Korsakov cholg'ulashadiradi.

A.S.Dargomijskiy ijodining ahamiyati. Glinka an'analarining davomchisi, ijtimoiy fosh etish mavzularni birinchi bo'lib ko'tarib chiqqan Dargomijskiy o'zining ijodiy faoliyati davomida ko'plab satirik va hajviy qo'shiqlarni, lirik-dramatik asarlarni yaratadi. Uning vafotidan so'ng yashab ijod qilgan kompozitorlarning asarlarida Dargomijskiyning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Xususan, Chaykovskiy ijodida psixologik musiqiy drama va lirik-dramatik romanslar janri o'zining keng rivojini topgan, xarakterli so'zlashuv va ijtimoiy portret san'ati sohasida esa Musorgskiy Dargomijskiy ijodining bevosita davomchisi hisoblanadi.

Rus musiqasi tarixida Dargomijskiy kompozitor-realist, «musiqiy haqiqatning buyuk o'qituvchisi» sifatida qoldi.

Asosiy asarlar ro'yxati

Opera: «Esmeralda» (1847), «Suv parisi» (1856), «Tosh mehmon» (1866).

Opera-balet: «Vakxning tantanasi» (1848);

Orkestr uchun – «Chuxon fantaziysi» (1867); 2 ta kvartet, vokal ansamblar va xorlar;

100 ga yaqin romanslar va qo'shiqlar, shu qatorda «Ham zerikarli ham g'amgin», «Biz faxr bilan ajralishdik», «Titulyar maslaxatchi», «Chuvalchang», «Qari kapral».

Nazorat uchun savollar.

1. A.S.Dargomijskiyning hayoti va ijodiy yo'li haqida so'zlab bering.
2. Kompozitor ijodiy faoliyatining birinchi davri - XIX- asrning 30 – 40-yillari haqida so'zlang.
3. A.S.Dargomijskiy ijodining etuk davriga tavsif bering.
4. A.S.Dargomijskiy tomonidan musiqiy asarlarga kiritilgan yangi ta'sirchan vositalar haqida so'zlab bering.
5. «Suv parisi» operasidagi musiqiy obrazlar dramaturgiyasining novatorlik xususiyatlarini sanab o'ting.
6. «Tosh mehmon» - yangi tipdagi opera.
7. Rus musiqasi rivojlanishida A.S.Dargomijskiy ijodining ahamiyati.

Ijodiy topshiriqlar

- A.S.Dargomijskiyning «Chuvalchang», «Keksa kapral», «Titulyar maslahatchi» nomli musiqiy asarlarini qanday belgilar o'zaro birlashtirib turadi? Har bir asarda qanday musiqiy usullar yordamida o'ziga xos tasviriy obrazlar yaratilganini yoritib bering.

- A.S.Dargomijskiyning «Tosh mehmon» operasi kompozitor vafotidan so'ng sahnalashtirilgan edi. Ushbu opera nechanchi yilda sahnalashtirilgan? V.V.Stasov va P.I.Chaykovskiy bu asar haqida qanday fikr bildirishgan?

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA MUSIQA MADANIYATI

XIX asrning ikkinchi yarmida rus musiqasi san'ati yanada yuksaldi hamda evropada etakchi musiqiy madaniyatlardan biriga aylandi.

Bu davrga kelib Rossiya ijtimoiy hayotida muhim voqealar bo'lib o'tdi. Jumladan, 1861 yilda krepostnoylik huquqi bekor qilindi va bu hol demokratik o'sishni vujudga keltirdi. San'atning qariyb barcha sohalariga buyuk ijodkorlar o'z g'oyalari va obrazlarni olib kirdilar. Xalqning ozodlik va erksevarlik g'oyalaridan chekkada turgan biror-bir madaniy jabha qolmagan edi, deb aytish mumkin. 1860-yillar rus adabiyoti, teatri, tasviriy san'ati va aniq fanlar gullab-yashnagan davr bo'ldi.

Musiqa sohasida etishib chiqqan bir qator kompozitorlar yangi shakl va janrlar yaratdilar va musiqiy ifoda vositalar imkoniyatini yanada kengaytirdilar.

Musiqa hayotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Musiqa tobora keng doiradagi muxlislar va tinglovchilar mulkiga aylana bordi. 1859 yilda Peterburgda, keyinchalik 1860 yilda Moskvada Rus musiqa jamiyatasi (RMJ) tashkil etildi. Jamiat nizomida ko'rsatilganidek, Rus musiqa jamiyatining maqsadi - «Rossiyada musiqiy ta'larning keng tarqalishiga ko'maklashish, musiqa san'atining barcha sohalari rivojlanishiga yordam berish hamda qobiliyatli rus san'atkorlarini (ijodkorlarni va ijrochilarni) va musiqa fanlari o'qituvchilarini rag'batlantirish»dan iborat edi. Rus san'atini targ'ib va tashviq qilish bilan shug'ullanuvchi musiqa jamiyati tomonidan tashkil qilingan kontsertlarda faqat rus kompozitorlarining asarlari ijro etilar edi, shu sababli rus san'atkorlari kontsertlar berish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

1862 yilda Peterburg shahrida birinchi rus konservatoriysi ochildi. Unga direktor etib taniqli pianinochi, kompozitor, dirijyor, musiqiy jamoat arbobi Anton Grigorevich Rubinshteyn tayinlandi. 1866 yilda Moskvada ochilgan konservatoriya esa, Anton Grigorevichning akasi, yuqori malakali ziyoli musiqachi, pianinochi, dirijyor, pedagog va musiqiy jamoat arbobi Nikolay Grigorevich Rubinshteyn direktor etib tayinlandi. M.A.Balakirevning tashabbusi bilan 1862 yili bepul o'qitiladigan musiqa maktabi ochildi. Bu davrga kelib mashhur to'da to'garagi tashkil topdi.

To'garakning barcha a'zolari ijodiy kuchga to'lgan, yosh va navqiron edilar. Balakirev 29 yoshda, Borodin 32 Musorgskiy 26 Kyui 31 yoshda edilar, ularning orasidagi eng navqironi Rimskiy-Korsakov esa endigina 21 yoshga to'lgan edi.

Dastlabki paytda to'garak ishtirokchilarining ijodiy o'sish jarayonida M.A.Balakirevning xizmati juda katta bo'ldi. Balakirev ular uchun daho, tashkilotchi va ustoz edi. N.A.Rimskiy-Korsakovning fikriga: «Hamma narsaga o'zining noyob va cheksiz musiqiy istedodi va amaliy faoliyati bilan erishgan Balakirev rahbarlik qilar edi». Undagi ulkan iroda, hammaga ham nasib etmaydigan musiqiy ma'lumot, jo'shqin g'ayrat-bularning bari uning to'garagi a'zolariga ta'sirini belgilab bergen shaxsiy xislatlardir. Balakirevning shogirdlar bilan mashg'ulot olib borish usullari ham o'ziga xos edi. U simfoniyalar, uvertyuralar, skertso, opera parchalarini va h.k. yaratish uchun topshiriqlar berar, albatta, nazorat qilar va diqqat bilan ularni tahlil qilar edi. Balakirev o'z to'garagidagi do'stlariga mustaqil ta'lim olish zarurligi haqidagi g'oyani ham singdirib borardi.

Mahoratlari pianinochi, nota o'qish bilimdoni, g'oyat go'zal improvizator... U bir lahzada barcha kamchiliklarni, shakllarni va modulyatsiyalarni anglab olar edi. Yosh, navqiron, chaqqon, yonib turuvchi ko'zlar va chiroyli soqol sohibi, qat'iy, ishonarli hamda to'g'ri so'zlovchi, har bir daqiqada fortepiano ortida go'zal improvizatsiyalarni yaratishga tayyor turuvchi, o'zi bilgan har bir taktni xotirasida muhrlab oluvchi, ijro etilgan ijod namunalarini tezda yodida olib qoluvchi, u hech kimda uchramaydigan, odamlarga ta'sir etuvchi joziba egasidir.

M.P.Belyaev bizni o'zining shaxsi, san'atga vafodorligi va uning pullari, shunchaki pul sifatida emas, balki u tomonidan eng buyuk va beg'araz maqsad uchun qo'llanilgan vosita sifatida jalb etardi, bu esa uni yangi musiqachilar to'garagining o'ziga ohangrabo kabi tortadigan markaziga aylantirdi.

Yosh kompozitorlarga M.A.Balakirev qatorida V.V.Stasov ham raxnamolik qilgan edi. «Qudratli to'da» jamiyatni a'zolarining safdoshi va ularni doimo ilhomlantruvchisi V.V.Stasov – nihoyatda faol, tinib-tinchimas shaxs bo'lган. Musiqashunos tanqidchi, san'atshunos olim, tarixchi, ko'plab kompozitor va rassomlarning yaqin do'sti hamda yordamchisi V.V.Stasovning to'garak ishlarida ishtiroki, birinchi navbatda, kompozitorlarning umumiy badiiy tarbiya topishida, ular ijodining g'oyaviy yo'nalghanlishini belgilashda namoyon bo'lar edi. Stasov ko'pincha kompozitorlarga syujet taklif qilar, hamda ularni ishlab chiqishga va yaratilgan asarlarni har tomonlama muhokama qilishga ham yordam berar edi. U o'zi bilgan tarixiy ma'lumotlarni boshqa kompozitorlarga ham ma'lum qilar hamda bor kuch-g'ayrati bilan ular ijodini targ'ib-tashviq qilishga intilardi. Stasov birinchi bo'lib matbuotda chiqish qilib, jamoatchilik e'tiborini «Qudratli to'da» to'garagiga a'zo kompozitorlarning ijodiga qaratadi. Stasov yangiliklarni va ilg'or g'oyalarni bir ko'rishdayoq farqlay olardi va jaholat, hasadgo'ylikka nisbatan shavqatsiz edi.

M.A.Balakirevchilar to'garagining yig'ilishlari doimo jonli ijodiy muhitda o'tar edi. Keyinchalik Stasov o'zining xotiralarida ularni: «Bu kichkina majlislarda hukm surgan ajoyib, badiiy kayfiyatga hech narsa teng kelmas edi, hamma o'zi bilan, o'zining ishi bilan chuqur band bo'lган, ijod ilhomni bilan qamrab olingen rassom kabi tabiatida mavjud o'sha ajoyib shoirona muhitni olib kelar edi... Ijodiy kuchlar uchun naqadar katta yangilik edi! Fantaziya, ilhom, she'riyat va musiqiy tashabbusning naqadar nafis tantanasi!», deb yodga oladi. Balakirev to'garagining a'zolari tez-tez A.V.Grigorovich, A.F.Pisemskiy, I.S.Turgenev kabi yozuvchilar hamda rassom I.E.Repin, haykaltarosh M.A.Antakolskiy bilan uchrashib turishardi.

«Qudratli to'da»ga kirgan kompozitorlar o'z ijodiy faoliyati bilan yorqin ijodkor shaxs sifatida tanildi, har birining ijod yo'li alohida e'tiborga loyiqdir. To'garakning a'zolari mustahkam do'stlik rishtalari bilan bog'langan bir guruh musiqachilarning g'oyaviy yaxlitligi, o'z zamonasining o'zaro hamnafas jangovor hamdo'stligi, ijodiy jamoaviyligi bilan ham o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. San'atning barcha sohalarida faoliyati bir-biriga yaqin ijodiy xamdo'stliklar, to'garaklar, jamiyatlar tashkil etilgan edi. Bunday ijodiy hamdo'stlik tamoyillari rassomchilik sohasiga, keyinchalik «sayyor» rassomchilikka asos solgan «Badiiy artel» faoliyatida, adabiyot sohasida esa - «Zamondosh» qayd daftari ishtirokchilari guruhining faoliyatida ham o'z ifodasini topadi. «Qudratli to'da» kompozitorlari o'zlaridan oldingi davrga mansub rus madaniyati oqimlarining bevosita davomchilari sifatida tarix sahnasiga chiqishdi. Ular o'zlarini Glinka va Dargomijskiylarning izdoshlari deb hisoblashar edi.

Kompozitorlarni ijodi o'ziga xosligi bilan birga, Glinka boshlab bergen ishni davom ettirishi, bevosita xalq san'ati bilan uzviy bog'liq holda rus musiqasini yaratishi kabi mushtarak maqsadlari ham birlashtirib turar edi. Ular xalq qo'shiqlarini sinchiklab o'rganishdi. Shu bilan birga, musiqa tilini yangi, yorqin ifoda vositalari bilan boyitib, rus operasi hamda simfonik va kamer musiqasi rivoji uchun yangi yo'llar ochib, dovyurak novatorlar sifatida ham faoliyat ko'rsatishdi.

«Qudratli to'da» jamiyatining tashkil etilishi hamda rivojlanishi bir nechta bosqichda kechdi:

1-bosqich – Balakirev rahbarligida hamdo'stlikning tashkil etilishi;

2-bosqich – jamiyatning san'at vazifalariga nisbatan bir xil qarashlar va intilishlar yaxlitligida birdamlikning gullab yashnashi;

3-bosqich - ijodiy g'oyalar umumiyligining pasayib borishi va har bir kompozitorning o'z ijodkorligining yorqin namoyon bo'lishi.

«To'da»chilar va Chaykovskiy estetikasidagi mushtaraklik - xalq qo'shig'iga bo'lgan munosabatlarida hamda xalq ijodining rus kasbiy musiqasi rivojiga bo'lgan salmoqli ta'sirini va ahamiyatini anglab etganliklarida namoyon bo'ladi. M.A.Balakirev, N.A.Rimskiy-Korsakov va P.I.Chaykovskiy xalq qo'shiqlari to'plamlariga mualliflik qiladilar. «To'da»chilar ijodida dehqonlar qo'shiqchiligidagi tayanish xos bo'lsa, Chaykovskiyga – shahar qo'shig'i va rus maishiy romansiga asoslanish xosdir. Barcha kompozitorlarning ijodi namunalarida boshqa xalqlarning musiqasi ham o'z aksini topgan. Xalqchilik, milliylik va haqiqiy hayotni haqqoni tasvirlash - «Qudratli to'da» a'zolari ijodining asosiy tamoyillaridan biridir.

Rossiya podsholik hukumati G?arbiy Evropa teatrлari ta'sirini va mavqeini har tomonlama ta'minlab qo'yan edi: italyan truppalar opera sahnalariga monopol ravishda egalik qilishardi, milliy san'at vakillari erisha olmaydigan turli xil imtiyozlar chet ellik antreprenyorlarga berilgan edi. «Qudratli to'da» kompozitorlari «milliy» musiqa rivojlanishidagi to'siqlarni hamda tanqidchilar tomonidan yog'dirilayotgan ta'na va malomatlarni engib, milliy san'atni rivojlantirish borasidagi ishlarini sabot bilan davom ettiradilar.

«Qudratli to'da» yaxlit ijodiy jamaa sifatida 1870-yillarning o'rtasiga qadar faoliyat ko'rsatadi. Shu vaqtida to'garak ishtirokchilari hamda ularning yaqin do'stlari yozgan xatlarida va kundaliklarida to'garakning sekin-asta tarqalib ketayotgani haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Bu borada A.P.Borodinning fikri haqiqatga juda ham yaqin edi. U 1876 yilda qo'shiqchi L.I.Karmalinaga yozgan xatida shunday fikr bildiradi: «...Faoliyat rivojlangani sayin bir kishiga xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlar mакtabdan ham, insонning boshqalardan meros qilib oлган narsalaridan ham ustunlik qila boshlaydi. ... va nihoyat, aynan bir kishining ham, turli davrlarda, turli vaqtarda rivojlanishiga doir bo'lgan ayrim qarashlari va didi ham o'zgarib boradi. Bularning barchasi noiloj tabiiy holdir».

Ilg'or musiqiy kuchlarga rahbarlik qilish vazifasi N.A.Rimskiy-Korsakov zimmasiga o'tadi. U konservatoriyada o'sib kelayotgan yosh avlodga tarbiya beradi, 1877 yildan boshlab musiqa maktabida dirijyorlik qildi va dengiz boshqarmasining musiqiy xorlari inspektori sifatida ishlay boshlaydi. 1883 yildan boshlab u Saroy qoshidagi kapellada pedagogik faoliyat yuritadi. «Qudratli to'da» namoyandalarining ichida birinchi bo'lib hayotdan ketgan M.P.Musorgskiy edi. Uning hayotining so'ngi yillari juda og'ir kechgan. Zaiflashib borayotgan sog'lig'i, moddiy etishmovchiliklar, tushkunlik kayfiyati hamda begonalik his-tuyg'ularini keltirib chiqargan edi. M.P.Musorgskiy 1881 yilda vafot etadi. 1887 yilda A.P.Borodin ham to'satdan vafot etadi. Shu paytdan boshlab «Qudratli to'da» kompozitorlarning yo'llari ajralib ketadi. M.A.Balakirev his-tuyg'ularga berilib, N.A.Rimskiy-Korsakovdan batamom uzoqlashadi, odamlarga ham qo'shilmay qo'yadi, S.A.Kyui esa ist'edodli zamondoshlaridan allaqachon orqada qolgan edi. Birgina V.V.Stasov hayotda qolganlarning har biri bilan avvalgi munosabatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi.

«Qudratli to'da» guruhi kompozitorlarining ijodi jahonning buyuk musiqiy yutuqlari qatoridan o'rIN olgan. Musorgskiy, Borodin va Rimskiy – Korsakovlar rus mumtoz musiqasining asoschisi Glinkaning musiqiy merosiga tayangan holda o'z asarlarida vatanparvarlik g'oyalarini yorqin gavdalantirib, xalqning qudratli kuchini sharaflab kuyladilar va ajoyib rus ayollarining musiqiy qiyofalarini yaratdilar. Glinkaning simfonik ijod sohasida erishgan yutuqlarini davom ettirib, Balakirev, Rimskiy - Korsakov va Borodinlar orkestr uchun yozilgan dasturiy va nodasturiy asarları bilan jahon simfonik musiqasi xazinasiga ulkan hissa qo'shadilar. «Qudratli to'da» kompozitorlari o'z musiqalarini ajoyib hamda go'zal xalq kuyi ohanglari asosida yaratdilar. Ular o'z asarlarida nafaqat rus musiqiy ijodiyotga bo'lgan ulkan qiziqishlarini va

hurmatlarini namoyon qilishadi, balki ularning asarlarida ukrain va polyak, ingliz va hind, chek va serb, tatar, fors, ispan va ko'pgina boshqa jahon xalqlarining musiqiy mavzulari ham mohirona uyg'unlashgan.

«Qudratli to'da» kompozitorlarining ijodi musiqiy san'atning buyuk namunasidir; shu bilan birga, ularning ijodiy merosi keng tinglovchilar doirasi uchun ham juda qadrli va tushunarlidir. Bu ulkan musiqiy merosning o'lmas qadr-qiyomi ham shunda. Kichkina, lekin, qudratli ijodiy kuchiga ega bo'lган jamoa tomonidan yaratilgan musiqa - o'z san'ati bilan xalqqa sidqidildan xizmat qilish, haqiqiy ijodiy do'stlikning va qahramonona badiiy mehnatning yuksak namunasidir.

XIX asrning 60–70-yillarida o'lmas musiqiy asarlar yaratildi: M.P.Musorgskiyning «Boris Godunov» va «Xovanhina», A.P.Borodinning «Knyaz Igor», N.A.Rimskiy - Korsakovning «Pskov ayoli», P.I.Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin» operalari, Borodin va Chaykovskiyning simfoniyalari. 1876 yilda Chaykovskiyning «Oqqush ko'li» baletining yaratilishi rus baleti klassik davri boshlanishga asos bo'ldi. 1870-yillarda kontsert janrida ham klassik davri boshlanadi. Yana Chaykovskiy 1874 yilda fortepiano va orkestr uchun Birinchi kontsert, 1878 yilda skripka va orkestr uchun kontsertlarni yaratdi. Vokal va fortepiano turkumlari ham ilk bor ahamiyatli o'rinni egalladi. Cholg'u kvartetining klassik rivojlanishi davrining boshlanishi ham 70-yillarga tegishli. Chaykovskiyning birinchi kvarteti 1871 yilda, Borodinning birinchi kvarteti esa, 1879 yilda yozilgan.

1860-70 yillarda ko'p janrlı rus musiqasida opera, dasturiy simfonik janri va romans janrlari ajralib turadi. Bu davrga xos bo'lган musiqiy-estetik muammolar aynan shu janrlarda mujassamlashgan edi. Glinka va Dargomijskiylar ijodida yuzaga kelgan tarixiy, epik, lirik - maishiy operalarning deyarli barcha ko'rinishlari rivojlandi.

M.P.Musorgskiyning «Boris Godunov» va «Xovanhina» asarlari XIX - asr tarixiy opera janri rivojining cho'qqisi hisoblanadi. Rimskiy-Korsakovning «Pskov ayoli» opera-dramasini ham tarixiy yo'naliishga oid deb aytish mumkin, chunki asarda Olga va shoh Ivan Grozniylarning shaxsiy dramasi erkin Pskov taqdiri bilan bog'lanib ketadi. Borodin yaratgan «Knyaz Igor» tarixiy epik operasi ham Glinkaning asarlarida ko'zga tashlanadigan ijodiy an'analar yo'lidan boradi.

Lirik opera janri ham o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

A.G.Rubinshteynning «Iblis» operasi mazmunan maishiy janr va dramatik-psixologik yo'naliishlarni o'zida mujassam qilgan. A.N.Ostrovskiy syujetiga yozilgan A.N.Serovning «Dushman qudrati» operasi opera-qo'shiq janriga xosdir. N.A.Rimskiy-Korsakovning «May oyidagi tun» operasida lirik va fantastik mavzular namoyon bo'ladi. M.P.Musorgskiy «Sorochinskagi yarmarka», Chaykovskiyning «Temirchi Vakula» operasi lirik - komediya janrida, P.I.Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin» operasi lirik-psixologik drama janrida mahorat cho'qqisini egalladi. P.S.Dargomijskiyning A.S.Pushkin dramatik asariga yozilgan «Tosh mehmon» novatorlik operasiga xos bo'lган kuyli rechitativ keyinchalik, izdosh kompozitorlar asarlarining musiqiy tilida o'z rivojini topdi.

Ushbu yillar kompozitorlarning ijodida romans - qo'shiqlar, romans - monologlar, romans - elegiyalar, balladalar va qo'shiqlar keng o'rin egallaydi. Shuningdek, hajviy, ijtimoiy – ayblov harakteriga ega bo'lган romanslar ham katta ahamiyatga molik. Musorgskiyning ovoz va fortepiano uchun yozilgan «Rayoq» asari, «Unutilgan» («Zabo'to'y») nomli fojiaviy balladasi, «Ajal qo'shiq va raqlari» («Pesni i plyaski smerti») qo'shiqlar turkumi o'sha davrlardagi rus musiqiy hayotiga nisbatan o'tkir hajviya sifatida yangradi. Uning ijodida turkumning yana boshqa ko'rinishlari ham paydo bo'ladi. Masalan, «Bolaliknoma» turkumida – bolalarga xos his - tuyg'ular va taassurotlar olami haqida, «Quyoshsiz» («Bez solntsa») qo'shiqlar turkumida esa - yolg'izlik, tanholik haqidagi mavzular yoritilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus musiqasida simfonianing axamiyati tobora o'sadi. Ko'pincha operalarda simfoniya unsurlarini uchratamiz, bu xususiyat ayniqsa, Rimskiy-Korsakov va Chaykovskiy operalariga tegishlidir.

Simfonik janrlar orasida etakchi o'rinni simfoniya janri egallaydi. Chaykovskiy va Borodin ikki tipdagi-liriko-dramatik va epik rus milliy simfoniyasining asoschilaridir. Chaykovskiy simfoniyalarning rivoji tafovut kuchlarning o'zaro keskin to'qnashuvi va asosiga quriladi. Bu sifat ayniqsa, uning 4,5 va 6-simfoniyalarda yorqin ifodalanadi. Borodinning simfoniyalarida rang-barang qarama-qarshiliklar kuzatiladi.

Evropa romantik dasturiy musiqasining salmoqli qismi rus kompozitorlarning dasturiy simfonik musiqa janridagi asarlari tashkil etadi. Bular qatoriga fantaziyalar kiradi.

Shu yillarda simfonik poemaning ikki xil turi rivojlanadi: shulardan biri yorqin ma'noga ega manzarali hikoya sifatida, ikkinchisi esa psixologik drama sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi turiga Rimskiy-Korsakovning «Sadko» nomli simfonik asari, ikkinchi turiga esa Chaykovskiyning «Gamlet», «Romeo va Julietta» uvertyura – fantaziyalari, «Bo'ron», «Francheska da Rimini» simfonik fantaziyalari dasturli asarlarini kiritish mumkin.

Epik xarakterdagи romanslarning yaratilishi ham shu davrlarga tegishli bo'lib, Borodinning «Qora o'rmon qo'shig'i» («Pesn tyomnogo lesa») romans-afsonasi, «Uyqudagи knyaz qizi» («Spyahaya knyajna») ertak-romansi shular jumlasidandir.

Lirik poema xarakteriga ega bo'lган romansni biz Chaykovskiy ijodiga oid ko'plab asarlar talqinida uchratamiz. A.G.Rubinshteynnинг «Fors qo'shiqlari» («Persidskie pesni») lirik turkumiida sharqona qiyofalarni, sharqona musiqiy uslubiyotga xos bo'lган usullarini ko'ramiz; S.Kyui esa o'zining ijodiy faoliyatida romansni tinglovchilarga lirik miniatyuralar sifatida taqdim qiladi.

Asarlarning musiqiy tili bu - dehqon va shahar qo'shiqlari maishiy romanslar, maishiy raqs janrlari, F.Shubert va F.Shumannning romantik qo'shiqlari va nutq turlari ohanglarining qayta ifodalanishidir.

Bu davrlarda kamer-cholg'u janri sohasida ham ahamiyatga molik bo'lган ko'pgina yangi asarlar yaratiladi. Bularga fortepiano uchun dasturli miniatyuralar, noktyurn, romanslari va fortepiano turkumlari kiradi. M.P.Musorgskiyning rassom V.A.Gartman qalamiga mansub suratlardan olgan tassuroti ostida yozilgan «Ko'rgazmadagi manzaralar» turkumi va Chaykovskiyning rus tabiat mavzusidagi shoirona «Yil fasllari» turkumi ham ushbu janrga tegishli bo'lган noyob musiqiy meros hisoblanadi.

A.P.Borodin va P.I.Chaykovskiyarning ijodidagi torli kvartet janri - rus kompozitorlarining musiqiy mavzulikni rivojlantirishda erishgan muvaffaqiyatlarni aks ettiradi.

Ushbu davrga oid janrlarning rivojlanishida musiqiy fikrning simfoniyalashtirilishi, shuningdek janrlarning yaqinlashuvi va o'zaro singib ketishi xosdir. Bu xoslik, ayniqsa, kantata va oratoriya janrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu janrlari aslida bu davrga xos bo'lmasada, oratorianing xususiyatlari, ifoda printsipi sifatida, rus operasiga hamda ommaviy xor sahnalariga chuqur kirib boradi va simfoniyalarning finalida o'z aksimi topadi. Opera va simfoniya janrlarining o'zaro yaqinlashuvi, Chaykovskiyning ijodida, ayniqsa, kamer-vokal va opera janrlarining bir-biriga ta'sirida, shuningdek, romans-qo'shiqlar teatrga xos bo'lган ifodaviylikni, chizgilarni o'ziga singdirib olishida kuzatiladi.

XIX-asrning II-yarmida yashab, ijod qilishgan rus kompozitorlari, o'z asarlarida ilg'or intilishlarini ifoda qilganlari holda, rus musiqa madaniyatining mustahkamlanishi, rivojlanishi kabi umumiy maqsad sari turli yo'llardan bordilar. Milliylikni N.A.Rimskiy-Korsakov o'z ijodida barkamollikka erishdi. «Qorqiz» asarida kompozitorning opera uslubi to'liq shakllanib bo'ladi va mustahkamlanadi. 1881 yilda A.P.Borodinning ikkita kvarteti dunyo yuzini ko'rdi, keyinchalik u Uchinchi simfoniyasi ustida ish boshladi. U buyuk kompozitor M.P.Musorgskiy vafotidan ta'sirlanib, o'zining «Olis Vatan qirg'oqlari uchun» (Pushkin she'ri) romansini yaratadi. M.A.Balakirev «Tamara» nomli simfonik poemasini yakunlaydi. S.Kyui va V.V.Stasovlar musiqashunos-tanqidchi sifatida ijodiy faoliyatlarini davom ettirdilar.

1880-yillarda «Belyaev to'garagi»ning faoliyati keng rivojlandi. Mitrofan Petrovich Belyaev – taniqli o'rmon sanoatchisi va musiqa ixlosmandi bo'lib, ayniqsa rus musiqasining shinavandasasi sifatida mashhur edi. O'sha zamonning qariyb barcha eng iste'dodli musiqachilarini birlashtirgan ushbu musiqiy hamjamiyatning g'oyaviy markazida N.A.Rimskiy-Korsakov turgan

edi. U bilan birga A.K.Glazunov va A.K.Lyadov ham to'garakning o'zagini tashkil qilishardi. V.V.Stasov ham ularga birikdi. Belyaev tashkil qilgan nashriyot bir necha o'n yilliklar davomida rus kompozitorlarining ko'plab asarlarini nashr etdi. Belyaev kompozitorlar asarlari uchun saxiy haq to'lab, eng yaxshi kamer musiqiy asar uchun, rus musiqasining barcha janrlarida eng yaxshi asar uchun, M.I.Glinka nomidagi tanlovlarni uyushtiradi. Shuningdek, «Rus simfonik kontsertlari» va «Rus kamer oqshomlari» kechalarini tashkil qiladi. Ularni o'tkazishdan maqsad – rus jamoatchilagini, tomoshabinlarni milliy musiqa bilan tanishtirish edi.

Shu yillarda A.K.Glazunov, A.K.Lyadov, S.I.Taneev, A.S.Arenskiy, V.S.Kalinnikov, M.M.Ippolitov - Ivanov kabi yosh kompozitorlar avlodi etishib chiqdi. Ulardan ko'pchiligining ijodi keyingi o'n yilliklarda gullab yashnadi. XX-asrga yaqin bo'lgan 90-yillarda navqiron A.N.Skryabin va S.V.Raxmaninovlarning ijodiy faoliyati boshlanadi.

Ushbu davr kompozitorlarining ijodida quyidagi mavzular va badiiy qiyofalar bosh o'rinnegallagan edi.

Birinchidan, fojiaviy mavzular kuchaydi. Bu hol ko'proq P.I.Chaykovskiyning ijodida sezilarlidir.

Ikkinchidan, insonda mavjud go'zal xislatlarning ibtidosi bo'lmish estetikaning engilmasligiga bo'lgan kuchli ishonch ustuvor edi. Bu Rimskiy-Korsakovning «Shahrizoda» simfonik syuitasida, «Ispan kaprichchiosi»da, «Arafasidagi tun» operasida, Chaykovskiyning «Uyqudag'i go'zal» baletida va «Iolanta» operasida, Glazunovning To'rtinch simfoniyasida, Taneev va boshqa bir qator kompozitorlar tomonidan yaratilgan musiqiy asarlarda o'zining komil aksini topadi.

Uchinchidan, chuqur ijtimoiy muammolardan chetga chiqish holati kuzatiladi. Alovida janrlarning funktsiyalari va siyosiy salmog'i ham o'zgaradi.

Chaykovskiy mavzular ko'lamenti muttasil kengaytirib operalar yozishda davom etadi. Uning «Orlean qizi» (1879), «Mazepa» (1883), «Cherevichki» (1887), «Afsungar qiz» (1887), «Piki xonim» (1890) nomli operalari shular sirasiga kiradi. Oxirgi «Iolanta» operasi 1891 yilda yozilgan edi. Rimskiy-Korsakovning ijodida urg'u ko'proq simfonik janrlarga beriladi; bular, «Shahrizoda» (1887), «Yorug' bayram» (1888) va «Ispan kaprichchiosi» (1887). 1990 - yillarning boshida Rimskiy-Korsakov yana opera janrida ijod qilishga qaytadi va «Mlada» (1891), «Arafasidagi tun» (1894), «Sadko» (1895-96), «Shoh qaylig'i» (1898) operalarini yaratadi. Lyadov va Glazunov opera janrida ijod qilishmaydi. Taneev 90 - yillarning o'rtasida qadimgi syujet asosida «Oresteya» opera-oratoriyasini yaratadi. Chaykovskiy qalamiga mansub «Iolanta» va Raxmaninovning «Aleko» operalari kabi «kichik shakl»dagi operalar ham paydo bo'ladi.

Kantata janriga nisbatan qiziqish qayta tiklanadi – Chaykovskiyning «Moskva», Taneevning – «Ioann Damaskin» kantatalari muhimligi bilan ajralib turadi.

Musiqa madaniyatining o'sishi 80 - 90 yillarda ham davom etdi. Turli shaharlarda Rus musiqa jamiyatining bo'linmalari ochiladi. Rus musiqasini ommaviylashtirishda M.P.Belyaev tomonidan ta'sis etilgan rus simfonik kontsertlari muhim markazlar sifatida katta ahamiyatga egadir. Moskva va Peterburg shaharlarida pianinochi va dirijyor P.A.Shostakovskiy tomonidan tuzilgan filarmonik jamiyatlar paydo bo'ladi. Filarmonik jamiyatlar qoshida musiqali - drama o'quv yurtlari ochiladi. Taniqli metsenat, san'at ishqibози va jonkuyari Savva Ivanovich Mamontov xususiy opera tashkil etadi. Mamontov o'zining asosiy e'tiborini davlat sahnalarida qo'yilmayotgan rus operalarini sahnalashtirishga qaratadi. Matontov operasida mashhur qo'shiqchi N.I.Zabela-Vrubel va iqtidorli F.Shalyapinlar kuylashgan. Bu erda S.V.Raxmaninov o'zining dirijyorlik faoliyatini boshlagan. Teatrda yirik rassomlar I.E.Repin, K.A.Korovin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, V.A.Vasnetsovlar samarali ijod qildilar. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida rus operasining yuksak badiiy darajaga ko'tarilishida yarim asrdan ziyodroq Mariinka teatrida dirijyorlik qilgan, mashhur dirijyor va kompozitor E.F.Napravnikning faoliyati ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

1990-yillarda rus musiqasining tanqidchisi va tadqiqotchisi N.F.Findeyzen Peterburgda yangi «Rus musiqiy ro'znomasi» nomli jurnal nashrini uyushtiradi.

XX asrning boshlariga xos bo'lgan musiqa turli avlodga mansub qator kompozitorlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Rimskiy – Korsakovning «O'lmas Kashchey» va «Oltin xo'rozcha» kabi so'nggi operalari birinchi o'n yillikda yaratilgan edi. Bu davrda Balakirev 2-simfoniyasini, Glinka haykalining ochilishiga bag'ishlab yozgan kantatasini, romanslarini va fortepiano uchun turkum asarlarini yozadi. A.K.Glazunov, A.K.Lyadov va S.I.Taneevning va I.F.Stravinskiylar tomonidan ham ko'pgina jahongashta asarlari shu davrda yaratilgan.

Shu yillarda A.I.Skryabin va S.V.Raxmaninovning ijodi to'liq etuklikka erishdi. Bu davr - jamoatchilik harakatining o'sishi hamda ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar davri edi. Har bir kompozitor o'zining musiqiy asarlarida o'ziga xos uslubda ushbu davr ijtimoiy kayfiyatini aks ettiradi. Masalan, Skryabinning asarlarida yuksak g'oyalarga bo'lgan intilish ehtirosli shiddat sifatida namoyon bo'lgan. Bu g'oya – birlashish hamda inson irodasiga, uning tuganmas ruhiy imkoniyatlarga bo'lgan ishonchdan iborat edi. Skryabin va Raxmaninov o'z his-tuyg'ularini mahorat bilan ifoda etsalar-da, lekin ular yaratgan qiyofalar bir-biriga sira o'xshamaydi. Skryabinning «Ilohiy poema»si («Bojestvennaya poema»), «Zavq poemasi», «Prometey» asarlari ko'tarinki romantik ruhi bilan yo'g'rilgan bo'lib, o'zining buyuk iroda bilan dunyonni o'zgartira oladigan qahramon shaxsini ifodalaydi. Raxmaninov tashvishli – dramatik, fojiali – hayajonli musiqiy qiyofalarni yaratadi. U yillarda pianinochi, kompozitor N.K.Metner tanila boshlaydi, I.F.Stravinskiyning yorqin iste'dodi ham tez avj oladi.

Shuningdek, shu davrlarda baletni simfoniyalashtirish sohasidagi ijobiylar o'zgarishlarda Chaykovskiyning ijodi muhim o'rinni tutadi va katta ahamiyatga ega. XIX-asrning 80-90 yillari oralig'ida uning «Uyqudagi go'zal» (1889) va «Qarsildoq» (1891) baletlari, «Manfred», Beshinchisi va Oltinchi simfoniyalarini yaratiladi.

Opera cho'qqisi sifatida Chaykovskiyning o'ziga xos uslubda inson va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar muammosini yoritib chiqqan «Piki xonim» psixologik opera-tragediyasi yaratiladi. Ushbu opera musiqasida namoyon bo'lgan kompozitorning simfonik tafakkuri, Oltinchi simfoniyasining (1893 yil) yaratilishiga olib keladi.

Ushbu davrning musiqa asarlarida polifonikaning ahamiyati o'sib bordi, bu hol ko'proq Taneevning musiqasida namoyon bo'ldi. Shuningdek, garmonianing va orkestr ovralarning rangdorligi kuchaydi. Bu rangdorlik ayniqsa Rimskiy - Korsakovning asarlarida o'z aksini topdi.

N.A.Rimskiy - Korsakovning oxirgi operalari rus opera klassikasining yorqin davrini yakunlaydi. Ushbu janr sohasida kompozitorlarning yosh avlodni bo'lmish S.I.Taneev va S.V.Raxmaninovlar o'z faoliyatini olib bordilar. Taneev 1894 yilda «Oresteya» operasini, Raxmaninov esa bir aktli operalarini («Hasis bahodir», «Francheska da Rimini») yaratdilar.

S.V.Raxmaninov 1900 yillarda ko'pgina yorqin va muhim asarlar yoritdi; fortepiano va orkestr uchun Ikkinchisi kontsert (1901).

«Bahor Kantatasi» (1902), 2-simfoniya (1907).

«O'limlar oroli» simfonik poemasi (1909), fortepiano va orkestr uchun Uchinchi kontsert (1909), or 23 premodiylar.

XX asr boshida simfonik janrlarda bir qancha asarlar paydo bo'ldi. A.K.Glazunov sakkizta monumental simfoniyalarini, A.N.Skryabin uchta simfoniyasini, shu jumladan «Ilohiy poemasi»ni, Skryabinning oxirgi asari - bu «Prometey» poemasidir.

A.N.Skryabin, S.V.Raxmaninov va N.K.Metnerlarning ijrochilik faoliyati fortepiano san'atini yuqori darajaga yuksaltirdi.

N.K.Metner va A.N.Skryabinning ijodida shu davrning asosiy fortepiano janrlaridan biri bo'lgan g'arbiy evropacha romantik sonata vujudga keladi.

S.V.Raxmaninovning fortepiano yozuviga xos harakterli sifatlari fortepiano va orkestr uchun yaratilgan kontsertlarida to'liq ifodasini topgan.

S.I.Taneevning «Ioann Damaskin» va «Psalmani o'qigandan so'ng» kantatalari, S.V.Raxmaninovning «Bahor» kantatasi va «Bonglar» poemasi kabi asarlar katta badiiy qimmatga ega.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan biz ushbu davr rus musiqasining gullab yashnagan davri ekanligini ko'ramiz.

Nazorat uchun savollar.

XIX asrning 60-70 yillarida Rossiya musiqiy hayotida yuz bergan voqealar haqida so'zlab bering.

«Qudratli to'da» ijodiy to'garagi haqida ma'lumot bering.

XIX asrning II-yarmi rus musiqa san'atida qanday janrlar rivoj topdi?

Simfonik janrlar haqida so'zlab bering.

Kamer-vokal va kamer-cholg'u janrlari haqida gapiring.

Opera janrining turlari va rivoji haqida so'zlab bering.

XIX asrda ijod qilib o'tgan rus kompozitorlarining A.S.Pushkin asarlariga yozgan operalarini sanab o'ting.

XX asr boshida qaysi kompozitorlar ijod qildilar va qanaqa janrlar rivoj topdi?

Ijodiy topshiriqlar.

- Hayotda sodir bo'ladigan ayrim hodisalar, kompozitorlar ijodiy yo'lining uzilishiga sabab bo'lgan. Tugallanmay qolgan asarni ularning zamondoshlari tugatganlar, ularning xolisona xizmatlari tufayli asarlar tugallanib dunyo yuzini ko'rgan va butun jahon e'tiborini qozongan. Qo'yidagi asarlar kimlar tomonidan tugallangan?

A.P.Borodinining «Knyaz Igor» operasi;

M.P.Musorgskiyning «Xovanhina» operasi;

M.P.Musorgskiyning «Boris Godunov» operasi;

M.I.Glinkaning rus mavzulariga yozgan ikkita simfoniyasi;

- Qaysi kompozitor «Qat'iy uslubning harakatchan kontrapunkti» nomli fundamental ish muallifi? U qanday musiqiy asarlarni ijod etgan?

- Rus kompozitorlaridan qaysi biri musiqa vositalari yordamida turli xil holatlarni, o'zgaruvchan dengizning goh maftunkor sokin holda, goh esa juda qudratli, shiddatli holatda tasvirlashning beqiyos ustasi sanalgan?

M.P.MUSORGSKIY
(1839-1881)

Men xalqni yagona g'oya bilan ruhlangan
buyuk shaxs sifatida idrok etaman
Bu mening vazifam, men uni operada
echishga harakat qildim.

M.P.Musorgskiy

Modest Petrovich Musorgskiy - o'z davriga xos yorqin hayot kechirgan rus kompozitoridir.

V.V.Stasovning iborasiga ko'ra, u o'zining asarlarida «ruslarning hayotini, fe'l-atvorlarini, munosabatlarini, ularning og'ir qiyinchiliklar va xo'rliklar ummonini ko'rsatib, «Qudratli to'da» guruhiga kirgan kompozitorlar qatorida alohida o'rinn egalladi. M.P.Musorgskiy «Ijodkor o'z ijodi bilan salbiy hodisalarga nisbatan hukm chiqarishi zarur», deb hisoblar edi. U musiqaning ijtimoiy ahamiyatini adabiyotning axamiyatiga tenglashtirishni, adabiyot va musiqani ozodlik g'oyalari bilan birlashtirishni istardi. Asarlarining asosiy mavzusi – xalq qashshoqligi, uning nochorligi, shu bilan birga - xalqning bukilmas irodasi, baxt xaqidagi orzularidan iborat.

M.P.Musorgskiyning san'at haqida bildirgan fikrlari o'zining ijodiy faoliyati bilan uyg'undir. «San'at - maqsad emas, balki odamlar bilan suhbatlashish vositasidir», - deb yozadi u. Musorgskiy ijodining diqkat markazida ham xalq (obrazi) siymasi turadi.

Biyuk kompozitor dramaturg - ruxshunos sifatida o'zining operalarida har bir insoning shaxsiyatini, uning qalbini chuqur ko'ra bilishini namoyish etadi. Ijtimoiy nohaqlikni ko'tara olmaydigan Musorgskiy o'z asarlarida atrof-muhit haqiqatini fosh etadi. «Seminarist» qo'shig'ini senzura tomonidan ijro etilishga ruxsat berilmaganida, u shunday deb yozgan edi: ...«Seminaristning ta'qiqlanishi musiqachilar «o'rmon butazorlaridagi bulbullardan va oyga uvillovchilardan insonlar jamiyati a'zolariga aylanayotganlaridan guvohlik beradi va agar meni butunlay taqiqlaganlarida ham, men tosh maydalashdan to'xtamas edim».

Xalq hayotiga qiziqishi, insonlarga nisbatan mehr-muhabbati, kompozitorning ijodiy qiyofasini belgilab, uni xalq san'atkori darajasiga ko'tardi. U rus xalqining tarixini, jahon adabiyoti durdonalarini yaqindan bilgan, xar tomonlama chuqur ta'lif olgan ma'rifatli inson edi.

Hayoti va ijodiy yo'li. Modest Petrovich Musorgskiy 1839 yilning 9 (21) martida Pskov guberniyasining Karevo qishlog'ida pomeshchik oilasida dunyoga keldi. Ilk yoshidan rus qo'shiqlari, rivoyatlari, xalq ertaklari hamda rus dehqonlarining turmush tarzi va rus tabiatini muhitida, dehqonlarning bolalari bilan qadrdon do'st bo'lib, o'sib ulg'aydi. Qishloq hayoti bolada chuqur taassurot qoldiradi va ushbu taassurot keyinchalik kompozitorning ijodida o'z aksini topadi.

Iqtidorli bolaning musiqiy mashg'ulotlari erta boshlandi. Onasi birinchi uestozi sifatida unga fortepiano chalish sirlarini o'rgatdi. O'sha paytdanoq Musorgskiy fortepianoda badiha mashqlari qilardi. 1849 yilda Musorgskiyning oilasi Peterburgga ko'chib o'tgandan so'ng bo'lajak kompozitorning mashg'ulotlari pianinochi A.Gerke boshchiligidagi davom etdi, u Musorgskiyning musiqa yaratishda birinchi namunalarini rag'batlantirdi. Bilimlarga boy bo'lagan va tarbiyalangan Musorgskiy 13-yoshida frantsuz va nemis tillarida erkin gaplashar hamda lotin tilini ham bilardi.

1852 yilda Musorgskiy gvardiyachi zabitlar maktabiga o'qishga kirdi. 1856 yilda bu maktabni tugatib, ikki yil davomida Preobrajensk polkida leyb-gvardiya zebiti sifatida xizmat qildi. O'qish yillarida u bilimga chanqoqligi bilan ajralib turardi. Ayniqsa falsafa va tarix fanlarini o'rganishga uning ishtiyoqi baland edi. A.Gerkening qo'l ostida shug'ullanib turib, u hayriya kontsertlarida ham ishtirok etardi, ko'p vaqtini musiqa tinglashga ajratar edi. Bo'lajak kompozitor rus klassik musiqasining nodir namunalari bilan hali tanish bo'lmasa-da, lekin Motsartning «Don Juan» operasini haqiqiy opera deb tan olardi. Italian opera truppasi tomonidan ijro etiladigan musiqalarni esa ko'ngli to'lmas edi.

M.P.Musorgskiy otasining barvaqt vafot etishi oilani iqtisodiy tanqislikga olib keldi. Lekin, zodagonlar polkida xizmat qilishi tufayli uning jamiyatdagи obro' e'tibori yo'qolmadi. U tabiatdan kelishgan, xushbichim kishi edi. U yoqimli bariton ovoziga ega bo'lib, o'sha davrdagi bo'lgan romanslarni va ariyalarni maroq bilan kuylar va fortepianoda shoirona chalardi. Tarovatlari ovozi, mohirona soz chalishi xushbichim juassasi, uning kelajagi porloq bo'lishiga ham imkon berdi.

1856 yilda Musorgskiyning hayotida keskin burilish sodir bo'ldi. U A.S.Dargomijskiy bilan tanishadi va uning uyida birinchi marotaba M.I.Glinkaning go'zal musiqasini eshitib lol qoldi.

1857 yilda M.P.Musorgskinning S.Kyui va M.A.Balakirev bilan uchrashuvi uning o'z hayotini musiqaga bag'ishlashga qaror qilishiga sabab bo'ladi. Uning yangi ijodiy xayotida asosiy o'rinni Balakirev egallaydi. Balakirev undan atigi 3 yosh katta bo'lishiga qaramasdan, favqulodda xotiraga ega, serharakat va g'ayratli, har tomonlama o'qimishli inson bo'lib, mohir pianinochi va dirijyor sifatida ham mashhur edi. Musorgskiy Balakirev bilan musiqiy asarlar yarata boshlaydi. Ular rus va chet el klassiklarining fortepiano uchun qayta ishlangan simfonik va kamer asarlarining qariyib barchasini xamjixatlikda to'rt qo'l bo'lib chalardilar. Musorgskiy Glinka va Dargomijskiyning asarlarini yaqindan o'rganib chiqadi.

Uning xayotida yangi davr boshlanadi, u xarbiy xizmatdan bo'shab, keyingi hayotini musiqa ijodiga bag'ishlaydi.

M.P.Musorgskiy yoshlik chog'laridan o'z qiziqishlarining serqirraligi va qarashlarining xalqparvarligi bilan hammani lol qoldirardi. 1861 yildagi krepostnoylik islohotidan so'ng kompozitor tug'ilib o'sgan vataniga kelib, krepostnoy dehqonlarga huquqlarning berilishi aslida uning hayotiga deyarli ijobi o'zgarish kiritmaganligini ko'rdi. Krepostnoy dehqonlarini xaq to'lovlardan ozod qilish maqsadida, merosining o'ziga tegishli bo'lgan qismini akasining foydasiga hal qilib mehnati evaziga yashovchi xizmatchiga, kamtarin musiqachiga aylanadi.

1860-yillarning boshida kompozitorning musiqiy saboqlari davri ijodiy faoliyat bilan almashadi. Endi u doimo ko'tarinki kayfiyatda yashar, uning xursandchiligi boshqalarga ham yuqar edi. U bir qator fortepiano, orkestr uchun asarlar, romans va qo'shiqlar yaratadi, Sofokolning «Shox Edip» fojiasiga musiqa yozadi.

M.P.Musorgskiy katta xalq sahnalarini va kuchli, irodali shaxs xaqida opera yozishni oldindan o'yab qo'ygandi. U qadimgi Karfagen tarixiy mavzusiga yoritilgan Floberning «Salambo» romaniga murojaat qiladi va N.V.Gogolning syujetiga «Uylanish» operasini yoza boshlaydi. Ikkala asar tugatilmay qoladi, lekin tugallanmagan «Salambo» operasidagi katta xalq sahnalarida kompozitor o'ziga xosligi ko'zga yaqqol namoyon bo'ladi. O'sha yillar maboynda betinim kompozitor yaratgan asarlardan Nekrasovning so'zlariga ishlangan «Kalistrat», «Eryomushkaning allasi» nomli qo'shiqlari va xajviy «Seminarist», «Kal tog'ida bir kecha» dasturiy simfonik manzarasi kabi asarlari alohida diqkatga sazovardir.

1868-1874 yillar - M.P.Musorgskiy ijodiy faoliyatining ikkinchi davri hisoblanadi. U N.V.Gogolning «Uylanish» komedyasi matni asosida opernining birligina pardasini yozish bilan kifoyalandi. Mazkur yilda yoza boshlagan «Boris Godunov» operasi kompozitorning yorqin iste'dodi ekanligini namoyon etdi. Opera ikkinchi tahrirdan keyingina sahnada namoyish etildi.

Bu opera ulkan muvaffaqiyat qozondi. Ammo asarni yaratish jarayonida boshdan kechirgan his hayajon kechinmalari kompozitorning sog'lig'iga jiddiy putur etkazib bo'lgan edi. Do'stlarining g'amxo'rliqi, ayniqsa Rimskiy-Korsakov bilan yaqin do'stligi, Stasov bilan doimiy muloqotda bo'lishi uni qo'llab-quvvatlab turadi. Bu yillar kompozitor hayotidagi eng yorqin va yorug' damlar bo'lib, ayni paytda umrining eng qayg'uli davrining boshlanishi ham edi.

«Qudratli to'da»ning tarqalib ketishini M.P.Musorgskiy sof ideallarga nisbatan xoinlik yanglig' his qildi. Shu yillarda uning sevimli ayoli va do'stleri - rassom V.Gartman va rus qo'shiqchisi O.A.Petrovlar vafot etadilar. Sodir bo'lgan bu fojalardan ruhan ezilgan buyuk ijodkorning yolg'izligi yanada kuchayadi.

Lekin kompozitorni ijodiy alanga tark etmaydi, u «Xovanhina» operasi ustida berilib ishlaydi. Ijodga ehtiyoji, ishtiyogi baland bo'lishiga qaramasdan o'zining ijodiy faoliyati to'xtatib turishga majbur bo'ldi, chunki hayot kechirish uchun u o'rmon departamentida, har kuni minglab kantselyariya qog'ozlarini ko'chirib yozishi lozim edi.

Bu davrga kelib u o'zining asarlari bilan chet elda tanila boshlaydi. F.List uning «Bolaliknoma» qo'shiqlar turkumi notalarini ko'rib chiqib, kuyining yangiligiga qoyil qoladi. V.V.Stasovda M.P.Musorgskiy bilan birga Veymarga, F.List huzuriga borish fikri tug'iladi. U Musorgskiyni bu safarga har tomonlama ko'ndirishga qanchalik urinmasin, mag'rur va erkin kompozitordan rad javobini oladi.

M.P.Musorgskiy ijodining uchinchi davri – 1874-1881 yillarga to'g'ri keladi. Kompozitorning barcha o'y-xayollari «Xovanhina» asarida edi. Uning markazida fojiaviy obrazlar alohida o'rinni tutadi. U A.A Golenihev-Kutuzov so'zlari «Quyoshsiz», «Ajal qo'shiqlari va raqslari» vokal turkumlarinini, Verehagin qalamiga mansub bo'lgan manzara ta'sirida «Unutilgan» balladasini yozadi. Shu yillarda Musorgskiy yana bir ajoyib asarini – do'sti V.Gartmanning vafotidan so'ng o'tkazilgan rassomning rasmlari namoyish qilingan ko'rgazmadan oлган taassurotlari ostida «Ko'rgazmadan manzaralar» nomli fortepiano pesalaridan iborat turkumini yaratadi.

Umrining oxirgi yillarida kompozitor o'zining barcha yorug' hislarini Gogolning syujeti asosida yaratilgan «Sorochinskagi yarmarka» komik operasida izhor etdi. Oxirgi yillarda Musorgskiy jo'rnavoz sifatida tez-tez chiqishlar qilib, Peterburgda eng mohir sozanda sifatida tan olindi.

Bu paytlarda uning hayotida sodir bo'lgan barcha yorqin voqealar va taassurotlar 1879 yilda Mariinka teatri qo'shiqchisi D.M.Leonova hamkorligida Rossiyaning janubiy shaharlariga qilgan kontsert safarlari bilan bog'liq bo'ldi. Kompozitorning aytishicha, bu safar - yangilanish va tiklanish safaridir.

Peterburgda Musorgskiy boshpanasizlikga, yolg'izlikka duch keladi. 1881 yil, fevral oyining boshlarida uning sog'lig'i keskin yomonlashadi va u bir oy davomida kasalxonada xasta holda yotadi. Uning do'stlari N.A.Rimskiy – Korsakov, A.P.Borodin, S.Kyui, V.Stasov, I.E.Repinlar xabar olib turishadi. Stasov kompozitorning portretini chizish fikrini rassom N.E.Repinga taklif qiladi. Buyuk rassom to'rt seans davomida, betob san'atkorning to'shami yonida o'tirib, uning jismoniy xastaligiga qaramay, ijodiy kuchga to'la qudratli va buyuk shaxsnинг siy whole page

Shunday qilib, Moskvadagi Tretyakov galereyasining noyob asarlardan biri bo'lgan o'sha ajoyib, ta'sirchan ifodali, chuqur iste'dodli betakror portret yaratildi, – deb yozadi Stasov. Og'ir xastalikdan so'ng 1881 yil 16 martda buyuk san'atkor Modest Petrovich Musorgskiy vafot etadi. «Xovanhina» operasini Rimskiy-Korsakov yakuniga etkazadi, «Sorochinskagi yarmarka»ni esa S.Kyui yakunlab, muharrirlik qiladi, keyinchalik uni kompozitor V.Hebalin orkestriga moslaydi.

M.P.Musorgskiyning o'z asarlarida foydalanadigan garmoniyaning yangi usullari, yani keskin modullyatsion o'tishlari, tonnalik taqqoslashlari o'z vaqtida kompozitor mohirligining «kamchiligi» deb hisoblandi. Kompozitorning asarlari asl holicha emas, Rimskiy – Korsakovning tahririga ko'ra ijro etildi.

XX asrda Musorgskiyning muallifligi ostida tuzilgan asarlarning to'liq to'plami nashr qilindi. Leningradda (hozirgi Peterburg) 1928 yilda uning «Boris Godunov» operasi asl xolicha namoyish etildi. Keyinchalik bu operaning yana bir tahriri buyuk rus kompozitori D.Shostakovich tomonidan amalga oshirildi.

M.P.Musorgskiyning shaxsiy taqdiri fojiali tarzda kechdi. Lekin, u hech qachon o'zining ijodiy tamoyillariga xiyonat qilmadi, ularni o'zgartirmadi. Uning zamondoshi, hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan do'sti V.V.Stasov Musorgskiy haqida bir qator maqolalar, ma'lumotlar va birinchi bo'lib katta monografiya yaratdi. Kyui, Larosh uning ijodini tanqidiy baholadilar. P.I.Chaykovskiy M.P.Musorgskiyning iste'dodini tushunmadidi.

Ijodining tavsifi. Inson fe'l-atvorini teran tasvirlashda M.P.Musorgskiyning ijodiga teng keladigani yo'q. U butun hayoti davomida novator sifatida ijod qildi. Doimo musiqiy ifoda vositalarini izlab, keskin garmoniyalardan, tasodifyi tonallik siljishlari va shakl notejisligidan foydalanar edi. Uning bu odatiy bo'lman musiqiy tilni, uning o'tkirligini ko'pgina zamondoshlari tushuna olmas edilar. Ammo uning tasviriy vositalari o'sha davrga xos bo'lgan musiqa san'atidagi yangi obrazlarga mos kelar edi.

M.P.Musorgskiyning musiqiy dramalari M.I.Glinkaning «Ivan Susanin» operasi janriga quyilgan qadamining davomi edi. Operalar asosida ziddiyatlar yotadi. Musorgskiy, shuningdek Dargomijskiy an'analarining davomchisi hisoblanadi. Ijodining tanqidiy yo'naltirilganligi, oddiy insonlarning hayotiga, turmushiga xamda tabiatiga bo'lgan qiziqishi, shaxsning musiqiy tasvirini yaratishdagi mohirona san'atkorligi ularda umumiy edi. Musorgskiy asarlari qahramonlarining ruhiy holatini yanada chuqurroq tasvirlaydi. Dargomijskiyning har bir so'zni ifodalashga, chin va o'ziga xos intonatsiyalarni topishga ehtiyyotlik bilan yondashishini o'zlashtirib, Musorgskiy undan-da ilgarilab ketadi – dehqonlar talaffuzining turli xil ohanglaridan nusxa oladi. U Glinka singari xalq qo'shiqlarining ruhi hamda tuzilishiga chuqur kirib borishi bilan izohlanadigan musiqiy tilni shakllantirgan edi.

M.P.Musorgskiy - tipik vokal kompozitoridir. Keng qo'llagan variantli rivoji uning tilida rus xalq qo'shiqlarining hamda xalq nutqining naqadar ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

M.P.Musorgskiyning uslubi, faqat uning musiqiy tiliga xos bo'lgan va jonli kuylash orqali erishiladigan ohanglarning yaxlitligi bilan ajralib turadi. Musorgskiy kontrast dramaturgiyani yaratish uchun turli xil millatlarga tegishli bo'lgan manbalardan ham foydalanadi. Uning musiqiy til sohasidagi novatorligi musiqada nutqiy ifodalashni sezgir gavdalantira olishi orqali namoyon bo'ldi. 1868 yilda u: «Mening musiqam, uning barcha nozik burilishlarini ifodalagan holda, inson nutqining badiiy siyoshi bo'lshi lozim, ya'ni inson nutqining tovushlari, uning fikri va hissiyotlarining tashqi ko'rinishi sifatida, soddalashtirilmasdan, zo'ravoniksiz, aniq, lekin badiiy, yuqori badiiy haqiqat musiqasiga aylanishi zarur», deb yozgan edi. Ijodining boshqa bir bosqichida esa, «Xovanhina» ustida ishlayotgan vaqtida, u Stasovga shunday deb yozgan: «Men inson talaffuzlari ustida ishlar ekanman, ushbu talaffuz mahsuli bo'lgan kuyga, kuyda esa rechitativni gavdalantirishgacha etib bordim. Men buni ma'noli (isbotlangan) kuy deb atashni istardim».

Opera ijodi. «Boris Godunov» operasi.

Serqirra qobiliyat egasi M.P.Musorgskiy eng avvalo musiqiy solnomachi dramaturgdir. Uning «Boris Godunov» va «Xovanhina» operalari Rossiyaning o'tish davriga xos ijtimoiy hayotidagi keskin voqealarga bag'ishlangan. Dunyo musiqa san'atida bu tarix mavzusiga bag'ishlangan noyob asarlar safidan o'rinn olgan. Kompozitor bu operalarida M.I.Glinkaning «Ivan Susanin» operasidagi an'analarini davom ettirdi va ularni davrga monand yangiladi.

Bu ikki xalqchil musiqiy dramada birinchi marotaba xalqning har tomonlama isyonkor harakati ko'rsatilgan. «Boris Godunov» asarida Novodeviche monastirida ham, Qizil maydonda joylashgan Vasiliy Blajenniy Sobori oldida ham, Kroma atrofidagi o'rmonda ham – isyon ko'targan xalq qiyofasi tasvirlanadi. «Xovanshina» operasida xalq sahnalari ehtiyojsligi va isyonkorligi yanada qarama-qarshiligi bilan tasvirlangan. M.P.Musorgskiy bu operalarida tarixnavis A.S.Pushkin an'analarining davomchisi hamda V.Shekspir tajribalarini o'zlashtirgan dramaturg sifatida namoyon bo'ladi.

«Boris Godunov» operasi. Musorskiy «Boris Gordunov» operasini 1868 yildan boshlab, 1869 yilning oxirida partiturada yozuvi bilan yakunlaydi. Kompozitor bu operani haqiqatga intilib ijod qiladi. Uning hayotidagi shu yillar eng baxtli damlar hisoblanadi. Unga ilhombaxsh mehnat yanada ko'proq kuch ato qiladi.

Opera Pushkining fojiali syujeti asosida yozilgan. Librettoni Musorgskiyning o'zi yozgan. Kompozitor o'z operasiga shoir asarida bo'lman sahnalarini ham qo'shadi. Lekin, Balakirev to'garagi musiqachilarga dushmanlari qo'ygan ayblovda aytilganidek, Pushkining matnidan chetga chiqqani yo'q. U Pushkining ba'zi bir fikrlarini bir butun, yaxlit sahnalarga

aylantirdi xolos. Xalqning noroziligi qo'zg'olonga aylanganligini tasvirlash g'oyasi uning e'tiborini tortadi. Bu g'oya Shoh va xalq o'rtaсидаги kelishmovchilik ziddiyat mavzusi edi. Shuningdek, shoh Borisning yuragidan o'tayotgan, boshidan kechayotgan «vijdon fojiasi»ga ham katta e'tibor beradi. Borisning serqirra obrazi jahon opera san'atining oliv yutuqlaridan biridir. Musorgskiy yangi opera turi – xalq musiqiy dramasining kashf etdi. Opera ilk bor 1874 yilning 8 fevralida Peterburgda Mariinka teatrida sahnalashtiriladi. Voqe 1598-1605 yillarda Rossiya va Polshada kechadi.

Muqaddima. Novodeviche monastiri hovlisida xalq Boris Godunovdan podshohlikka rozi bo'lishini «o'tinib» so'ramoqda. Rus xalqining cho'ziq qo'shiqlariga yaqin bo'lgan orkestrda qayg'uli qo'shiq yangramoqda. Kuy olomon shovqinini ifodalaydigan musiqa fonida kengayib boradi. Ohang nimovozlar bilan o'ralib, ichida qolib ketadi – maydonga xalq oqib kelmoqda. Xordan ayrim luqmalar yangraydi – bu erda turli xil fe'l-atvorga ega bo'lgan turli odamlar toifasi tasvirlangan, xalq yig'lamsirab so'zlamoqda: «Bizni, otajonimiz, kimga tashlab ketmoqchisan»

Ezilgan xalq ko'rsatilgan. Nozir: «Tiz cho'k» deb baqirganida hamda xalq «Bizni, otajonimiz, kimga tashlab ketmoqchisan», deb yig'lamsirab gapirib boshlagan joyida, zo'ravonlikni mavzusi yangraydi. Xorni yakka luqmalarini ajratib, alohida guruhlarga bo'lish usulini Musorgskiy birinchi bo'lib qo'llaydi. Borisning shohlikni qabul qilishni rad etganligini ma'lum qilayotgan duma dyakining ariozosi g'amgin jaranglaydi.

Sahnaning ikkinchi qismida Moskvadagi Kreml maydonida Borisni shohlikka ko'tarish marosimi o'tkazilmoqda. Ushbu sahna tasviri birinchisiga qarama-qarshi kayfiyatda tasvirlangan. Tantanali bonglar jarangi eshitilmoqda. Xalq tiz cho'kkan holda «Shon-sharaflar» qo'shig'ini ijro etmoqda. Major ohangidagi xor nomdosh minor tonallidagi Borisning ariozosini bilan almashadi, uning o'ziga qarata bayoni ko'nglidan kechayotgan og'ir hissiyotlarini ifodalaydi.

I parda. Birinchi ko'rinish. Tun. Chudovo monastiridagi xujra. Mo'ysafid Pimen solnoma yozmoqda. Yosh monax Grigoriy Boris Godunov tomonidan shahzoda Dimitriyning o'ldirilishi xaqidagi hikoyasini eshitmoqda. Grigoriyning shahzoda bilan tengdoshligi o'zini qatl etilgan shahzoda sifatida ko'rsatish kabi shuhratparast reja tug'iladi. Ulug'lovchi musiqa yangraydi. Muqaddima qismida musiqiy vositalar orqali ravon yozayotgan qo'l harakatlari ifodalangan:

Opera davomida Pimen leytmotivi ko'p marotaba qo'llaniladi.

Ikkinci ko'rinish. Litva chegarasidagi qovoqxona. Grigoriy daydi monaxlar Misail va Varlaam bilan birga paydo bo'ladi. Daydi monax Varlaam obrazi – operadagi eng yorqin obrazlardan biridir. Varlaamning «Qozon shahrida qanday bo'lgandi» («Kak vo gorode bo'lo vo Kazani») qo'shig'i Varlaamning dovyurakligini tasvirlaydi. Qo'shiqning shakli simfonik variatsiyalar asosida kechadi. To'satdan qochoq monax Grishka Otrepevni qidirishayotgan nozirlar paydo bo'ladilar.

Grigoriy qo'riqchilar iltimosiga binoan, qidirilayotgan shaxsnинг belgilarini o'qib eshittirarkan, aslida o'zining belgilari o'rniga Varlaamning belgilarini aytadi. Ammo uning ayyorligi fosh bo'ladi. Grigoriy qochib qoladi. Bu sahna Musorgskiy asarida uchraydigan aniq va ta'sirchan ifodali rechitativ namunasidir.

II parda. Kreml saroyidagi shoh qarorgohi. Bu ko'rinish erining o'limi haqida qayg'urib fig'on chekayotgan Boris Godunovning qizi Ksenianing musibatlari yig'isi bilan boshlanadi. Enaga hazil qo'shiqni kuylaydi va bu qo'shiq o'yinga o'tadi. O'yinga shohning o'g'li Fedor qo'shiladi. Boris Godunov kirib keladi. Boris obrazi g'oyatda murakkab va ziddiyatli talqin qilingan. U nafaqat qotillik evaziga hokimiyatga ega bo'lgan shoh sifatida tasvirlanadi, balki u aqli hukmdor va farzandlariga mehribon ota hamdir. Borisning monologilari ham fojiali tusga ega bo'lib, ular minor tonalliklarida yozilgan. Musorgskiy bu tonalliklardan doimo qayg'u-hasrat, g'am-g'ussa tuyg'ularini tasvirlashda foydalanadi. Bunga Borisning «Hukmdorlikning cho'qqisiga erishdim» monologi yaqqol misoldir:

Kuychan ariya hayajonli deklamatsiya bilan almashadi. Uni jinoyat uchun jazo muqarrarligi haqidagi o'y- xayollar qiyaydi, tinchlik bermaydi. Orkestrda Borisning tungi

vahimali tushlarining, iztiroblarining leytmotivi yangraydi. Borisga qarshi turgan muholifat vakili Shuyskiy kirib keladi. U o'zini Dimitriy deb e'lon qilgan qandaydir bir muttaham paydo bo'lgani haqida xabar beradi. Boris Shuyskiydan shahzoda o'limi haqida batafsil gapirib berishini iltimos qiladi. Borisning vahimali iztiroblari davom etadi.

III parda. Birinchi ko'rinish. Sandomir sarkardasining qizi Marina Mnisekning xonasi. Qizlar uning go'zalligini ta'riflab, maqtashmoqda. Marina Moskva podshohligidagi taxt orzusida. Bunga erishishda unga o'zini Dimitriy deb tanishtirgan yigit yordam berishi mumkin. Iezuit Rangoni Marinani o'zining Dimitriya bo'lган ta'siridan foydalanishga majbur qilmoqda.

Ikkinci ko'rinish. Sandomirdagi Mnisek qal'asi. Orkestr sadolari ostida polonez raqsiga tushayotgan mehmonlar chiqib keladilar. Ulardan so'ng Marina tushib keladi. O'ziga bino qo'ygan yigit- Yolg'onshoh unga sevgi izhor qiladi. Marina uning sevgisini rad etib, u Rus podshohi bo'lib olganidan so'ng rozilik berishi mumkinligini bildiradi.

IV parda. Birinchi ko'rinish. Vasilii Blajenno'y Sobori oldidagi maydon. Och va yalang'och, qashshoq xalq Grishka Otrepevga lan'atlar aytmoqda. Xalq shoh Boris Godunovning askar qo'shinlarini yakson qilayotgan Otrepeevdan norozi. Sahnaga asosiy ishtirotchi shaxs, ona yurtining baxtsizliklarini oldindan sezib turgan Yurodiviy chiqib keladi. Uning «Oy ketmoqda, mushukcha yig'lamoqda» («Mesyats edet, kotenok plachet») mungli qo'shig'i xalqning fig'on ohanglari asosida yaratilgan:

Sobordan a'yonlari kuzatuvida podshoh tantana bilan chiqib keladi. Xalq undan non so'raydi, avval xuddi sadaqa so'raganday murojaat qilgan bo'lsa, keyinchalik xor «non, ochlarga non ber» degan xalqning fojiali nidosi talab xayqiriqlariga aylanadi.

Shoh Yurodiviydan yig'isining sababini so'raganda, Yurodiviy unga, bolalar uning tangasini o'g'irlab olib qo'yishganini aytadi va: «Kichkina shaxzodani so'yib tashlaganingdek, ularni ham so'yib tashlashni buyur», deb so'raydi. Bu bilan u: shoh Boris – jallod, degan xalq fikrini ifodalaydi.

Ikkinci ko'rinish. Moskva. Kreml. Granovitaya palatasi. Duma majlisida Grishka Otrepevni o'ldirishga hukm chiqariladi. Shoh Boris vasvasada, hayoli o'zida emas. O'ziga kelgach, u dumaning majlisida ishtirot etadi. Solnomachi Pimen shahzoda Dimitriy qabrida ro'y bergan mo'jizani hikoya qilib beradi. Hayratda qolgan Boris o'zidan ketadi va Boyarlarning qo'liga yiqlib tushadi, keyinroq shahzoda Fyodorni chaqirib, unga podshoh bo'lishiga rozilik fatvosini beradi. Boris azob – uqubatlar bilan vafot etadi.

Uchinchi ko'rinish. Qo'zg'olon ko'targan xalq barcha xo'rliklari uchun qasd olish maqsadida, boyarin Xruhovning ustidan kulib, massxara qilmoqda.

Borisning o'limini e'lon qilishayotgan Varlaam va Misailning ovozlari eshitiladi. Xalq o'zining butun kuch-qudrati bilan pahlavonlar qo'shiqlari ohanglarida yozilgan «Yosh pahlavonlar kuch-qudrati...» («Rasxodilas, razgulyalyas sila, udal molodetskaya») xorida o'zining ifodasini topadi. Bu xor ko'rinishning avji yuqori nuqtasidir.

Xorning o'rtal qismida bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo'lган mavzu yangraydi: «Kuyla, volinkam mening» («Zaigray, moya volo'nka») sho'x qo'shig'i eshitiladi, so'ng yana asosiy mavzu takror yangraydi. Podshohlik taxtiga da'vogar, muttaham talabgor o'z askarlari bilan paydo bo'ladi. Unga xalq qo'shiladi. Karnaylar yangraydi. Yurodiviy rus tuprog'iga, rus xalqining boshiga qayg'u va g'am-tashvishlar tushishini bashorat qiladi. Opera Yurodiviyning yig'isi bilan yakun topadi.

Tomoshabinlar sahnada eshitganlardan larzaga kelib, hayratdan lol qolgan edilar. Musorgskiyni sahnaga 30 marotaba chaqirib olib, olqishlaydilar. Musorgskiy shu paytda juda baxtli edi.

Operada ikkita asosiy ifoda chizig'i- xalq va shoh qiyofalarining chizig'i berilgan. Operada xalq qiyofasi turli obrazlar yordamida har tomonlama ochib berilgan. Bunga xalq nomidan Borisga hukm chiqargan solnomachi, monax Pimen; o'zlarida rus xalqiga xos bo'lган turli xil xarakterlarning qirralarini gavdalantirishgan darbadar monaxlar Varlaam va Misail; shahzodaning o'ldirilishini shohning yuziga solgan Yurodiviy va ko'pgina boshqa personajlar kompozitor tomonidan yaqqol, yorqin, yaqindan his qilinadigan darajada yoritilgan.

Bu operani hatto kompozitorga yaqin odamlarning barchasi ham birdek qabul qilishmaydi. Masalan, Kyui bergen taqrizdan, Musorgskiy operaga kiritgan yangiliklarni tushunmaganligi yaqqol ko'rinib turadi. Konservativm tarafdarlari ham operani, u monarxiyaga qarshi yo'naltirilganligi sababli, dushmanlik bilan qarshi olishdi. Bu vaziyat kompozitorni, albatta, g'am-g'ussaga soladi. Operaning keng miqyosda tan olinishi 1898 yilda F.Shalyapin bosh rolni ijro etganidan keyin boshlanadi.

«Boris Godunov», «Xovanhina» operalarida, «Quyoshsiz» hamda «Ajal qo'shiqlari va raqslari» turkumlarida va boshqa asarlarida bor murakkabligi bilan olib berilgan chuqur inson dramalari, qahramonlarning yorqin tasvirlari, ularning betakror o'ziga xosligini aniq belgilab bergen ruhiy kechinmalari juda keskinlashgan onlarida ham tiniq talqin etib berilgan.

Kompozitor bunday sahnalarda V.Shekspirdek chuqur psixologizmi hayratga solarli darajada bo'lган ta'sir qilish qudratiga erishadi.

Bu holat Musorgskiy asarlarida favqulodda yorqin bo'lган musiqiy tavsiflarni, xalq sahnalari rejasining ko'p ko'rinishliligi va serjihatlilagini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, psixologik his-tuyg'ularni olib berishdagi noziklik, nafislik, vokal uslublarining boyligi va turli xilligi kuzatiladi. Unda musiqa tilining hamma usullari – egiluvchan va ifodali rechitativ, ariozoli- deklamatsion kuylash, portret-ariyalarning barchasi asosiy g'oyaga bo'ysundirilgan va yuksak darajada badiiy etuklik kasb etadi.

«Ko'rgazmadan manzaralar» pesalar turkumi. Fortepiano uchun bu pesalar turkumini umumiyl g'oya bilan birlashgan o'nta mustaqil pesadan iborat «syuita» tashkil etadi. Har bir pesa rassom Gartmanning tasviriy asarlaridan Musorgskiy oлган taassurotlarini aks ettiruvchi o'ziga xos musiqiy manzaralardir. Bu ko'rinishlar maishiy mavzularga oid ko'rinishlar bo'lib, insonning turli xil fe'l-atvorlarini, peyzajlarni hamda rus ertak va dostonlari obrazlarini tasvirlaydi. Pesalarning nomlari ularning mazmunini ham aks ettiradi - «Sayr» («Progulka»), «Gnom», «Eski qasr» («Staro'y zamok»), «Tyuilri bog'i» («Tyuilriyskiy sad»), «Bo`dlo», «Tuxumdan chiqmagan jo'jalar baleti» («Balet nevo'lupivshixsya ptentsov») «Ikki juhud» («Dva evreya»), «Limoj bozori» («Limojskiy ro'nok»), «Katakombalar», «Tovuq oyoqchalarida turgan kulba» («Izbushka na kurix nojkax»). Miniatyuralar o'zining mazmuni va ifoda vositalari bilan biri-biridan keskin farq qiladi. Shu bilan birga ularning barchasi turkumning debochasi bo'lган hamda tinglovchilarini bir manzaradan ikkinchisiga "etaklab" boradigan "Sayr" mavzusi bilan uzvii bog'liqidir:

M.P.Musorgskiy ijodining ahamiyati. Barcha iste'dodli daholar kabi Musorgskiy ham atrofidagi vaziyatlarga hamda hodisalarga juda e'tiborli bo'lган. Bu esa unga o'sha zamonga doir bo'lган san'at, adabiyot va ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan eng yirik va ilg'or o'zgarishlarning ta'sirini anglab etishiga hamda ularni o'zining ijodiy faoliyatida aks ettirishiga yordam berdi.

Ko'pgina xozirgi zamon musiqachilarini, rassomlari va olimlari Rossiya tarixi o'rganilayotganda Surikov, Repin, Perovlar qalamiga mansub tasviriy san'at asarlari bilan bir qatorda, albatta, Musorgskiyning musiqasi bilan ham tanishish zarur deb hisoblashadi. F.Shalyapin M.P.Musorgskiy haqida shunday degan edi: «Bu buyuk inson ham Mikelandjelo Buonarotti tomonidan yaratilgan haykal kabi qudratli qilib yaratilgan edi»

Asosiy asarlar ro'yxati

- «Salambo» (1863-1866, tugallanmagan), «Uylanish» (1868, M.Ippolitov-Ivanov tomonidan 1931 yilda tugallangan); «Boris Godunov» (1869); «Sorochinsk yarmarkasi» (Ts.Kyui tomonidan 1916 yilda tugallangan), «Xovanshina» (N.Rimskiy-Korsakov tomonidan 1886 yilda tugallangan) operalari; orkestr uchun – «Kal tog'da tun» (1867), «Ko'rgazmadan manzaralar» fortepiano sikli (1874); «Bolalarga xos» (1868-1872); «Quyoshsiz» (1874); «Ulimni qo'shiqlar va raqslar» (1875-1877) ovoz va fortepiano uchun sikllar; romanslar va qo'shiqlar.

Nazorat uchun savollar

- M.P.Musorgskiyning hayotini gapirib bering.
- M.P.Musorgskiyning ijodiga tavsif bering.
- Kompozitorning «Boris Godunov» operasi haqida so‘zlab bering.
- «Boris Godunov» operasida xorning roli nimadan iborat? Operaning assosiy xor sahnalarini aytib o‘ting. Boris ariyasidan parcha kuylab bering.
- «Ko‘rgazmadan manzaralar» pesalar turkumi haqida so‘zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar.

- XIX asrning qaysi rus xonandasi Musorgskiy asarining sahma talqinini betakror namuna darajasida ijro eta olgan?

Qaysi taniqli xonanda operasida kompozitor ijodining fojiaviy holatini aks ettira olgan? Qaysi jahon teatrlarida sahnalashtirilgan opera spektakllarida ushbu xonanda kuylagan va bu buyuk ijrochining ijodini g‘arb dunyosiga kim namoyish etgan?

- M.P. Musorgskiyning ijodiyotida vokal asarlari ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Kompozitor yozgan qo‘schiqlarning nomini aytинг va asosiy mavzularini aytib bering.

- M.P. Musorgskiy «Boris Godunov» operasini yaratayotganida, «Qudratli to‘da» to‘garagi a’zolaridan qaysi bir kompozitor doimo uning yonida bo‘lib, unga mavzu yuzasidan maslahatlar bergen va ijodiy bahslar jarayonida ruhlantirib turgan? Bu kompozitor kim va o’sha davrda uning o‘zi qanday musiqa asari ustida ijodiy ish olib borayotgan edi?

A.P.BORODIN
(1833 – 1887)

Uning musiqasi kuch, bardamlik va yorug'lik tuyg'usini uyg'otadi; unda qudratli nafas, katta ko'lam, kenglik, yalanglik bor; unda uyg'un sog'lom hayot hissi, hayotni anglashdan quvonish tuyg'usi mavjud.

B. Asafev

Aleksandr Porfirevich Borodin - mashhur kompozitor, taniqli kimyogar-olim, dirijor, jamoat arbobi va musiqiy tanqidchi sifatida rus musiqasi tarixida chuqur iz qoldirgan serqirra iqtidorli shaxs.

U «Knyaz Igor» nomli operasi, qator simfoniyalari, kamer-cholg'u va fortepiano uchun asarlari, o'z so'zlariga yozgan romans va qo'shiqlari, musiqa, adabiyot va tanqid, pedagogika va ma'rifat sohasining yirik namoyondalari va musiqachilar haqida yozgan maqolalari, shuningdek, 42 ta ilmiy ish muallifi sifatida ma'lum bo'ladi. Bunday serqirra iste'dod sohiblari 1960–yillarda rus madaniyatining aksariyat buyuk namoyandalariga xos edi.

Yuqorida keltirilgan A.P.Borodin yaratgan asarlar va ilmiy ishlarning to'liq ro'yxati emas, albatta. U o'zida bir-biriga zid bo'lgan iste'dodni – olimlikning qudratli ongi, kompozitorlik daholigi va adabiy mukammallik, fikrlashda aniqlik va keng ko'lamlilikni mujassam etgan. Buyuk kompozitor go'zal tashqi qiyofasi, teran ichki dunyo sohibi, hayotga tashna va g'ayratga to'la, mehribon, zehni o'tkir, ziyrak inson edi.

Hayoti va ijodiy yo'li. Aleksandr Porfirevich Borodin 1833 yil 31 oktyabrda (12 noyabr) Peterburg shahrida tug'ilgan. Musiqaga qobiliyat, maqsadga intiluvchanlik kabi xislatlar unda bolalik davridanoq namoyon bo'la boshladi. U murabbiylari boshchiligidagi fortepiano va fleytada musiqa chalishni o'rgandi, mustaqil ravishda violonchelni ham o'zlashtirdi. Kompozitorlik iste'dodi juda erta paydo bo'ldi. Yosh kompozitor fortepiano uchun polka, fleyta uchun kontsert hamda ikkita skripka va violonchel uchun triolar yaratdi. U o'rtog'i bilan to'rt qo'lda Betxoven, Gaydn va Mendelsonlarning simfoniyalarini zo'r ishtiyoq bilan ijro etar edi.

A.P.Borodin bolaligidan ikki sohaga - musiqa va kimyo faniga qiziqlidi. Ijodiy etuklik davrida kimyogar-olimlar uning musiqa bilan chalg'iyotganidan shikoyat qilishsa, musiqachilar ilm-fan unga musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga halal berayotganidan kuyunishardi.

1850 yilda A.P.Borodin Peterburg Tibbiy-jarrohlik akademiyasiga o'qishga kirdi. Bu erda uning kimyo faniga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. U ustoz, do'sti va rahbari professor N.Zininning sevimli o'quvchisi edi. Zinin laboratoriyasida Borodin M.Butlerov bilan tanishdi, keyinchalik ularning do'stligi uzoq yillar davom etadi. Tez orada Borodin yirik olim sifatida tanildi.

Ayni paytda Borodin musiqani ham unutmaydi, ansamblida ishtirok etadi, romanslar va kamer ansambllar yaratadi, havaskor kvartetlarda ijrochilik bilan shug'ullanadi. M.I.Glinkaning «Ivan Susanin» operasini esa yoddan bilar edi. Akademiyada o'qib yurgan vaqtlarida garmoniya va polifoniyanı ham o'rgandi.

1855 yil dekabrida unga yuqori malakali tabib imtiyozli diplomi berildi va keyingi yildayoq quruqlikdagi ikkinchi harbiy gospitalga ordinotor etib tayinlandi. Shu tariqa kompozitor uchun uchinchi soha – tibbiyot tomon yo'l ochiladi. U gospitalda Modest Petrovich Musorgskiy bilan tanishadi va keyinchalik ular bir umr do'st bo'lib qoladilar.

A.P.Borodin doktorlik dissertatsiyasi uchun tanlagen mavzu tibbiyotdan ko'ra ko'proq kimyoga yaqin edi. U 1858 yilda dissertatsiyasini a'lo darajada yoqlab, tibbiyot fanlari doktori unvonini oladi va shu kundan boshlab tibbiyot bilan shug'ullanishni to'xtatib, kimyo kafedrasida assistent vazifasida ishlay boshlaydi.

Istiqbolli yosh olim sifatida Borodinni xorijga uch yillik ilmiy safarga jo'natishadi. 1859 yilda u Evropa ilmiy markazlaridan biri - Germaniyadagi qadimiy universitet shahri Geydelbergga keladi. U erda boshqa yosh rus olimlari – bo'lajak mashhur fiziolog I.M.Sehenov, shifokor S.P.Botkin, kimyogar D.I.Mendeleev bilan uchrashadi. Ularni mustahkam do'stlik, musiqaga va ilm-fanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat tuyg'ulari

birlashtiradi. Borodin chet elda ilmiy tadqiqotlar olib boradi, Parij kimyo jamiyatida ma'ruzalar o'qiydi, ilmiy safari davomida nemis, frantsuz va italyan tillarda talaygina ilmiy asarlarni nashr ettiradi.

A.P. Borodin Geydelbergda bo'lajak umr yo'ldoshi, iste'dodli rus pianinochisi Ekaterina Sergeevna Protopopova bilan tanishadi. L.Betxoven, F.Shuman va F.Listlarning fortepiano asarlarini juda mukammal bilgan E.S.Protopopova A.P.Borodinni yangi musiqa dunyosiga olib kiradi va tez orada u F.Shuman va F.Shopen musiqasining ashaddiy muxlisiga aylanadi.

A.P. Borodin 1862 yilda Rossiyaga qaytib kelgach, tibbiy jarrohlik akademiyasi kimyo kafedrasiga professor etib saylanadi va yangi kimyo tadqiqotlari bilan shug'ullana boshlaydi. Ayni shu vaqtarda u M.A.Balakirev bilan tanishib, «Qudratli to'da» to'garagiga a'zo bo'ladi.

M.A. Balakirev bilan tanishuv A.P.Borodin hayotida tub burlish yasadi. M.A.Balakirev, V.V.Stasov va «Qudratli to'da» to'garagining boshqa a'zolari ta'siri ostida kompozitor ijodiy etukligining birinchi davri boshlanadi. 60-yillarning ikkinchi yarmida «balakirevchilar» to'garagi yorqin ijodiy rivojlanish davrini boshidan kechirayotgan edi. To'garak yig'ilishlari tobora sermazmun, zavqli bo'la boshlaydi. Bunday yig'ilishlarda to'garak har bir a'zosining yangi asarları tinglanar va qizg'in muhokama qilinardi.

Mahoratli musiqachilar bilan yaqin muloqotda bo'lish, ijodkorlik muhiti, yangi yorqin taassurotlar, rus san'atiga xizmat qilishdek yuksak g'oyalar A.P.Borodinni niroyatda ilhomlantirardi. Kompozitorning musiqiy-estetik qarashlari M.I.Glinka ijodiy yo'lining davomchisi sifatida shakllana bordi.

Kompozitor ijodining erta davrida yozgan asarlarda xalq-epik, «bahodirona» uslub qirralari namoyon bo'la boshlaydi. «Qudratli to'da» to'garagiga a'zo bo'lgan davrda xalq-milliy maktabi kompozitorining o'ziga xos uslubi to'liq shakllandı.

A.P.Borodinining turmush o'rtog'i Ekaterina Sergeevna Protopopova sog'ligi yomonlashgani tufayli ular Italiyaga ketishga qaror qiladilar. Italiyada Borodinni juda yaxshi qabul qilib, unga samarali ishlash uchun sharoit yaratib berishadi. U italyan tilini tez o'rganadi, fizika bilan shug'ullandi va shu bilan birga, musiqiy asarlar ham yozadi. Italiyada u to'la baxtli hayot kechirdi, qiziqarli insonlar bilan muloqotlar unga ijodiy zavq bag'ishlaydi.

A.P. Borodin ikkita skripka, ikkita alt va violonchel uchun kvintet va fortepiano uchun to'rt qo'lda chalinadigan tarantella yozdi. Fortepiano uchun yozgan kvintet uning eng sara asarları orasida o'zining munosib o'rniiga ega bo'ldi.

A.P.Borodin 60-yillarda o'zining birinchi simfoniyasini, «Bahodirlar» fars-operasini, «Uyqudag'i knyaz qizi» («Spyahaya knyajna»), «Dengiz malikasi» («Morskaya sarevna»), «Qorong'u o'rmon qo'shig'i» («Pesn tyomnogo lesa») romanslarini, «Dengiz» («More») nomli dramatik balladasini, «Mening qo'shiqlarim og'uga to'la» («Otravoy polno' moi pesni»), «Qalbaki nota» («Falshivaya nota») kabi lirik romanslarni yozdi. 1869 yilda Balakirev rahbarligida ijro etilgan birinchi simfoniyasi katta muvaffaqiyat qozondi. Shu paytdan boshlab, Borodin zamondoshlariga nafaqat yirik olim, jamoat arbobi, balki, o'zining yorqin uslubiga ega kompozitor sifatida ham tanildi. U o'zining san'atkorlik salohiyatiga ishonch hosil qilib, «Knyaz Igor» operasini va keyinchalik V.V.Stasov tomonidan «Bahodirona» deb nomlangan ikkinchi simfoniyasini yaratishga kirishadi. Borodin kompozitorlik ijodiga o'ta jiddiy va talabchan yondoshardi. «Baxodirona» nomli simfoniyasini ikki yil mobaynida yozdi, partiturani faqat 1876 yilga kelib tugatdi. Opera ustidagi ish 18 yil davom etgan bo'lsa-da, u tugallanmay qoldi. Uning ko'p vaqtı ilmiy, pedagogik va jamoat ishlari bilan band edi.

1877 yilda Rossiyada birinchi bor kimyoviy jihozlar va preparatlar ko'rgazmasi tashkil qilindi. Ko'rgazmaga A.P.Borodin va uning shogirdlari olib borgan ilmiy ish natijalari ham taqdim qilindi. Borodin kimyo sohasida olib borgan tadqiqotlari va sermahsul professorlik faoliyati uchun Tibbiyot jarrohlik Akademiyasining akademigi unvoniga sazovor bo'ldi.

A.P. Borodin hayotining so'nggi o'n yilligida kompozitor sifatida ham mashhur bo'ldi. Endilikda uning ijodkor maqomidagi chet el safarlari boshlanadi. Xorijda kompozitorning asarları ijro etiladi, u frantsuz, nemis va belgiyalik kompozitorlar bilan yaqindan tanishadi. Uning simfoniya va kvartetlari Evropa hamda Amerikada ham mashhur bo'ldi. 1877 yilda

Borodin venger kompozitor va pianinochisi Ferents List bilan tanishdi, uning tashabbusi bilan Borodinning birinchi simfoniysi Baden-Badenda katta muvaffaqiyat bilan ijro etildi. 1886 yilda Borodin asarları Antverpenda yangradi va uni mashhurlikning yanada yuksak cho'qqisiga olib chiqdi. Borodin buyuk pianinochi F.List bilan yana ikki marotaba uchrashadi; List Borodin musiqasining shaydosi bo'lib, doimo uning asarlarini zavq bilan tinglardi.

Kompozitor 1879-1881 yillar oralig'ida «Knyaz Igor» operasining ayrim sahnalarini, birinchi torli kvartetni, «O'rta Osiyoda» simfonik asarini, romanslari va uchinchi simfoniyasini yaratdi. 1882 yilda Moskvada Rus musiqa jamiyatni tomonidan uyushtirilgan kontsertda uning ikkinchi torli kvarteti katta muvaffaqiyat bilan ijro etiladi. Uning III – «Noktyurn» deb nom olgan qismini rus lirik qo'shiqchiligining durdonasi deb atash mumkin. Kvartet keyinchalik Peterburgda ham shunday muvaffaqiyat bilan ijro etildi.

A.P. Borodin 1887 yilning 15 (27) fevralida yurak xurujidan to'satdan vafot etdi. Vaholanki shu kuni ertalab u uchinchi simfoniya finalini yozayotgan edi. Tugallanmay qolgan simfoniyani A.K.Glazunov esdalikdan tiklab, oxiriga etkazdi. «Knyaz Igor» operasi ham yakunlanmagan edi. Bu operani A.K.Glazunov va N.A.Rimskiy-Korsakovlar hamkorlikda yakuniga etkazib, orkestrga solishdi. Opera premerasi 1890 yilda Peterburg shahrida bo'lib o'tdi, Moskvada esa u 1898 yilda ijro etildi. Bu opera bugungi kunda ham opera teatrлari repertuaridagi sevimli sahna asarlaridan biri hisoblanadi.

Ijodining tavsifi. A.P.Borodin qoldirgan musiqiy merosga tavsif berishdan avval, kompozitor shaxsiga ta'rif berish o'rnlidir. U rus fani va musiqa san'ati yutuqlarini Rossiyadan tashqari xorijda ham keng targ'ib etishga harakat qildi. Unda jamiyat oldidagi ma'suliyat hissi nihoyatda kuchli edi.

1870-yillarda A.P.Borodin Xotin-qizlar Oliy shifokorlik kurslarida keng ko'lamlı pedagogik va o'quv-tashkiliy ishlarni olib bordi va uning faoliyatini yuritishga bor kuchg'ayratini sarflaydi. U Rus Kimyo jamiyatni tashkilochilaridan va ta'sischilaridan biri bo'lib, rus shifokorlari jamiyatida hamda xalq sog'lig'ini muhofaza qilish jamiyatida mehnat qildi, U rus musiqa jamiyatni direktori kengashi a'zosi, «Bilim» ilmiy-ommabop jurnalni redaktorlaridan biri edi, Peterburg musiqa shaydolari to'garagi ishlarida faol ishtirok etdi va h.k. U entsiklopedik ma'lumotli inson bo'lib, ilm-fan va san'at sohalaridagi bilimlari bilan hammani hayratga solar edi. Uning butun faoliyati o'z yurtining ilm-fani va san'ati rivojiga xizmat qilishga qaratilgandi. A.P.Borodin 60-70 yillardagi rus ma'rifati va maorifchiligining yorqin namoyandalaridan biri edi. U qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, shaxsiyatining yuksak axloqiy sifatlari albattra namoyon bo'lar edi. U har bir ishga o'zini butkul baxsh etib, muttasil ishlardi. Teran fikrlashi, keng dunyoqarashi, yuklatilgan vazifa va odamlarga bo'lgan munosabati bilan hammaga namuna bo'lardi, u bilan muloqotda bo'lish faol ko'tarinkilik muhitini yaratar edi. Borodinning ashaddiy muxlisi, unga shaxs sifatida katta xurmat bildirgan V.V.Stasov, zamondoshlari xotiralaridan foydalanib, 1889 yilda «A.P.Borodin: uning hayoti, yozmalari va musiqaga oid maqolalari» nomli kitob yozadi va nashrdan chiqaradi. Ushbu asar bugungi kunda ham kompozitorning birinchi hujjalashtirilgan biografiyasi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

A.P.Borodinning avlodlarga qoldirgan ijodiy merosi unchalik katta bo'lmasa-da, uning mazmunan boyligi, janrlarning turli-tumanligi, musiqiy mazmunlar ta'sirchanligi, yorqin tasvirlanishi, shakllarning klassik vazminligi alohida ahamiyatga ega. M.I.Glinkaning, ayniqsa uning «Ruslan va Lyudmila» operasi an'analarini davom ettirib, Borodin rus simfonizmida yangi, mustaqil epik simfonizmni, shuningdek, rus epik operasini qaror toptirdi. A.P.Borodin, A.S.Pushkin va M.I.Glinka singari, hayotni kuch-quvvat va quvonch manbaasi sifatida qabul qilardi, u shuningdek, rus xalqining ma'naviy qudratiga ishongan holda, yuksak g'oyalarni mustahkamlar edi. Bularning barchasi Borodin uchun umid va ishonch manbai bo'lib xizmat qildi. Kompozitor asarlaridagi epik obrazlar rus tarixi va xalq qaxramonlik eposlaridan olingan.

A.P.Borodin ijodiga, shuningdek, mardonavor, bosiq va ayni paytda ehtirosli lirika xos. Lirik obrazlar ham, epik obrazlar ham chuqurliligi, epik ko'tarinkiligi bilan ajralib turadi.

Uning ijod namunalarida hajviy obrazlar ham ko'p uchraydi. Misol tariqasida «Knyaz Igor» operasidagi Skula va Eroshka, simfoniya va kvartetlardagi skertso, «O'ziga bino qo'yish»

(«Spes»), «To'rt qayliqning dil rozi» («Serenada cheto'rex kavalerov») romanslarini keltirish mumkin.

Musiqiy asarlarda rus obrazlari bilan bir qatorda, Sharq dunyosiga xos obrazlar ham bor. Glinka asarlaridagidek, Borodin qalamiga mansub sharqona obrazlar ham rang-barang – mastona, nafosatga to'la va shu bilan birga, shavqatsiz va jangovordir.

A.P.Borodin ijodining mazmuni va uslubi epik xususiyatga ega. Uning musiqiy dramaturgiyasining asosiy printsipi – o'zaro ichki ziddiyatli va yaxlit, tugal obrazlarni qiyosiy tasvirlash. Uning musiqasi solnomaga o'xshaydi - voqealar, odamlar, tabiat manzaralari astasekin, ketma-ket ko'z o'ngimizdan o'tadi. Bir hissiy holatdagi bir obraz – Borodinga xos uslub. Rivojlanish sintez yoki qarama-qarshi mavzularning kontrapunkt birikmasi orqali amalga oshiriladi.

A.P.Borodin qo'llaydigan musiqiy shakllar – sonatalishakli ko'pincha rivojlovsiz, kontsentrik uch qismli bo'lib, mavzulari izchil ketma-ketlikda beriladi. Musiqaning rivojlanish jarayonida u kuylu va ritmli ostinatolik va organ punktlaridan foydalanadi. Borodin kuylari rus dehqonlari qo'shiqlari kabi vazmin, silliq va ravon.

A.P.Borodin garmoniyada o'zini novator sifatida namoyon qildi: bir nechta funktsiyalarning birikishi, turli xil ladlarning birlashuvi, asosiyakkordlarning kvarta va sekundalar bo'yicha tuzilishi, asosan diatonikadan, ayrim hollarda esa ajoyib xromatizmlardan foydalanishi natijasida rang-baranglikka erishdi.

«Knyaz Igor» operasi. A.P.Borodin butun hayoti davomida turli xil faoliyat va yumushlar bilan nihoyatda band bo'lib, ijod bilan jiddiy shug'ullanishi uchun ko'pincha vaqt etishmas edi. Uning do'stлari bundan qattiq tashvishda edilar. Ma'ruzalar, akademiyadagi laboratoriya tadqiqotlari, xotin-qizlar tibbiyot kurslaridagi ishlar, xirurgiya tibbiyot akademiyasi orkestriga hamda tibbiyot kursi tinglovchilari xoriga dirijyorlik qilish- bularning barchasi undan ko'p vaqt va g'ayrat talab etardi. Ko'ngilchan va g'amxo'r Borodin hech kimdan yordamini ayamasdi. N.A.Rimskiy – Korsakov: «Stasov jamiyatni va doirasiga kiradigan, Borodinning kompozitorlik qobiliyatiga tan bergen ayrim xonimlar, uning ajoyib badiiy-musiqiy asarlarni yaratishga sarflashi mumkin bo'lgan vaqtini yo'q qilib, turli xil homiylik qo'mitalariga shavqatsiz ravishda jalb etishlari hamda xazinachi vazifasiga «qo'shib qo'yishlari» va h.k. menga doimo g'alati ko'rinardi; lekin, aynan mana shu tashvishlar, Borodindan boshqa odam ham bajarishi mumkin bo'lgan homiylik g'alvalari sababli, uning vaqt mayda-chuyda ishlarga ketib qolardi. Uning hayotini kuzatar ekanman, mening qalbim pora-pora bo'lardi», - deya achinish bilan yozgan edi. Rimskiy-Korsakov «uning ajoyib («Knyaz Igor») operasi yaratilishiga yordam berish uchun» har qanday ishga tayyor edi.

A.P.Borodin yirik olim bo'lgani sababli, ijodi qanchalik ilhombaxsh bo'lmasin, o'z musiqasida olim ona yondashuvni ham namoyon qildi. Unga hujjalarga nisbatan chuqur diqqat-e'tiborlilik xos edi. Rus etnograflari orqali u venger tadqiqotchisi va sayohatchisi P.Xunvalfiga qipchoqlar hayot tarzi va ularning qo'shiqlari haqida savollar bilan murojaat qiladi. «Qudratli to'da»ning boshqa a'zosilari singari, Borodin ham operada tasvirlanayotgan tarixiy voqealarning haqqoniy bo'lishiga intilardi.

A.P.Borodinning «Knyaz Igor» operasi 1890 yilning 23 oktyabrida Peterburg shahrining Mariinka teatrida ilk bor sahnalashtirildi. XII asrda yozilgan qadimiylar rus adabiyoti durdonasi va yodgorligi hisoblangan «Igor polki haqida so'z» nomli badiiy asarni opera uchun syujet qilib olishni unga Stasov taklif qilgan edi. Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan Rus va ko'chmanchi Sharq orasida asrlar mobaynida davom etgan o'zaro kurash bu erda o'zining butun dramatizmi ila yorqin namoyon bo'ladi. Borodin operani haqqoniy yozish maqsadida tarixiy manbalarni sinchiklab o'rgandi. Opera musiqasi bilan birga, tarixchi va shoир sifatida, librettoni ham o'zi yozdi. «Knyaz Igor» muqaddima va 4-pardadan iborat bo'lib, unda epik opera va tarixiy xalqchil - musiqali drama xususiyatlari uyg'unlashib ketgan.

«Igor polki xaqida so'z»ning syujeti - boshqa knyazlar yordamisiz o'zi qipchoqlar ustidan g'alaba qozonishni istagan, ammo mag'lubiyatga uchragan knyaz Igor xaqidadir. Borodin

operada vatanga muhabbat mavzusini, dushmanga qarshi milliy hamjihatlik, birlashish g'oyasini katta dramatik kuch bilan ochib bergen.

Opera rus va qipchoq obrazlari qarama-qarshi qo'yilgan uvertyura bilan boshlanadi. O'rtadagi ko'rinishda beshavqat jang sahnasini tasvirlaydi.

M.I.Glinka asarlarida kuzatilganidek, Borodin operasi ham asosiy kahramon – xalq siyomisini tasvirlovchi katta xor sahnasi bilan boshlanadi. Uch-bo'limdan iborat muqaddima o'zining keng ko'lami, yaxlitligi va simmetriyasi bilan ajralib turadi. 1-bo'lim - kirish qismi va "Shon-sharaflar" xoridan tashkil topgan; 2-o'rtalbo'limni oraliq sahnalar (Igoring xalqqa murojaati, quyoshning tutilishi, askarlarning oilalari bilan xayrashuv) tashkil qiladi; 3-bo'lim - 1-bo'limning kisqartirilgan va o'zgartirilgan takroridan iborat.

Qadimgi Putivl shahrida knyaz Igor o'z drujinasi bilan qipchoqlarga qarshi yurishga otlanmoqda.

Xalq knyazni tantanavor olqishlaydi.

Muqaddimaning salobatli «Go'zal quyoshga shon-sharaflar» («Solntsu krasnomu slava») xori qadimiy epik qo'shiqlarning qat'iy-ulug'vor ohanglarini eslatadi. Kuy pentatonika bosqichlari asosida harakat qiladi:

Parda rivoji uchun alohida ahamiyat berilgan quyosh tutilish mavzusi orkestr orqali vahimali gavdalaniadi va xor sadolari jo'rлигida beriladi. Xalq epik poeziyasida odamlarga bog'liq dramatik voqealar, odatda, tabiat hodisalariga qarama-qarshi qo'yiladi. Mazkur operada ham quyosh tutilishini yovuzlik belgisi sifatida qabul qilgan xalq, boyarlar va knyazning xotini Yaroslavna Igorni bu yo'ldan qaytarishga urinadilar. Ammo, Igor hech kimga qulq solmay, xotiniga g'amxo'rlik qilishni qayinukasi Vladimir Galitskiyga topshirib, drujinasi bilan dushman tomon yo'l oladi.

I-parda. Putivl shahri knyazligini qo'lga kiritish orzusida bo'lган Galitskiy, Igor yuqligidan foydalanib, ay'yonlari bilan ichkilikbozlik va beboshlikka berilgan. Uning «Shon-shuhratga tuyassar bo'lsam edi» («Tolko b mne dojdatsya chesti») qo'shig'i o'zining bebosh va o'yinqaroq ritmi, keskin jo'rligi bilan ajralib turadi. Igor drujinasidan qochib kelgan Skula va Eroshka ichkilikbozlik va beboshliklardan iborat bazmga bosh bo'ladilar. Xalqqa har tarafdan zug'um qilayotgan Galitskiy opasi Yaroslavna so'zlariga e'tibor ham bermaydi.

Boyarlar Igor drujinasining halok bo'lganligi, o'zi esa yarador bo'lib, o'g'li bilan asirga olingenligi va Putivl shahriga dushman qo'shinlari bostirib kelayotganligi xaqida mash'um xabar olib keladilar.

2-sahnada jozibali, dilbar va nazokatli, shu bilan birga irodali Yaroslavna obrazi berilgan. «Shundan buyon ko'p vaqtlar o'tdi» («Nemalo vremeni proshlo s tex por») ariozosida sog'inch, qayg'u va tashvishli his-tuyg'ular aks etgan.

Voqealar rivoji tobora fojiaviy tus oladi va Yaroslavna bilan boyarlar tasvirlangan sahnada yanada keskinlashadi. Boyarlarning knyaginya qarata aytgan «Bardam bo'l, knyaginya» («Mujaysya, knyaginya») va «Bizga, knyaginya, birinchi bor emas» («Nam, knyaginya, ne vpervoy») xorlari mudhish, vahimali va ayni chog'da shiddatli yangraydi.

II-parda. Qipchoqlar qarorgohi. Bu parda, dirijyor Golovanovning fikricha, «Musiqqa, so'z va raqsning mislsiz birlashuvi»dir. Unda Sharq xalqlarining hayoti yorqin tasvirlangan. Borodin O'rta Osiyo va Kavkaz kuylarini sinchiklab o'rganarkan, o'z musiqasida asl Sharq kuylaridan foydalanmasdan balki ularning ohang va lad xususiyatlariga ijodiy tayanadi.

Musiqaning boshlang'ich taktlari tinglovchini yozgi cho'l oqshomining nasriy muhitiga olib kiradi. Chodirlar oldida qipchoq qizlarining bir guruhi. «Suv sizlikda, quyoshli kunda, bechora gulagina, so'lib, qurib bormoqda» («Na bezvode, dnyom na solntse, Vyanet, svetik, soxnet bedno'y») - g'amgin va nozik-titroq kuy eshitiladi. Qorong'u tushadi, osmonda yulduzlar paydo bo'ladi.

Raqs xon qizi Konchakovnaning ishorasi bilan tugaydi. Vladimirni sabrsizlik bilan kutayotgan xon qizining «Kun yorug'i so'nmoqda» («Merknet svet dnevnay») kavatinasi sharqona nozik burilishlar va ehtirosli his-tuyg'ular bilan to'la.

Uzoqdan qipchoq qo'riqchilari o'tadi. Konchakovna o'tovining yoniga ehtiyyotkorlik bilan navqiron knyaz Vladimir yaqinlashadi. Uning «Kun sekin o'tdi» («Medlenno den ugasal») kavatinasi yoshlari muhabbatining lirikasi, janub tunining tarovati bilan yo'g'rilgan. Sevishganlar noma'lum oyoq tovushlarini eshitgach, xayrlashadilar.

Igor o'yga botgan holda chiqib keladi. «Azobda qolgan qalbimga na uyqu, na dam...» («Ni sna, ni otto'xa izmuchennoy dushe»...) ariyasingin musiqiy chizgilari uning ruhiy holatini—omadsiz yurish, ona yurti haqida g'amgin fikrlari, erk va ozodlikka tashnalik, Yaroslavnaga bo'lган otashin muhabbatini aks ettiradi. Igor ariyasi – bosh qahramonning serqirra tavsifidir. Azobli o'ylari shiddatli hayajon, intilish bilan almashinadi. Ariyaning asosiy qaxramonlik mavzusi yangraydi: «O, menga erk bering, men sharmandaligimni yuva olaman» («O, dayte mne svobodu, Ya svoy pozor sumeyu iskupit»):

U Yaroslavnaga xayolan murojaat qiladi, qalb tafti singib ketgan kuy taraladi: «Faqat sen, go'zal qushim, faqat sen meni ayblamaysan» («To' odna, golubka lada, to' odna vinit ne stanesh»):

Butun ariya o'y, mushohada holati bilan yo'g'rilgan.

Nasroniy dinini qabul qilgan qipchoq Ovlur sezdirmasdan Igoring yoniga keladi va unga yashirinchha qochishni taklif qiladi. Igor bu taklifni rad etadi, chunki u knyazga qalloblik yarashmaydi, deb hisoblaydi...

Xon Konchak ovdan qaytadi. Uning «Omonmisan, knyaz» («Zdorov li, Knyaz») ariyasida «Eh, dushmaning emas sening, balki ishonchli ittifoqdoshing, chin do'sting, og'ang bo'lishni istardim men, ishon» («Ax, ne vragom bo' twoim, a soyuznikom verno'm, a drugom nadyojno'm, a bratom twoim mne xotelos bo't, pover mne») ariyasida u salobatli, muruvvatli va mard hukmdor sifatida tasvirlangan.

Xon knyazni qayg'uli o'y-xayollardan xalos etish maqsadida asira qizlarni keltirishni buyuradi va o'yin-kulgu boshlanadi. Asiralarning yiroqdagi ona yurt haqidagi ma'yus qo'shig'i yangraydi.

2-ko'rinish qipchoq raqlari bilan yakun topadi. Bu raqsli-xor sahnasida sharqona qo'shiq va raqlarning musiqiy-stistik xususiyatlari ustalik bilan namoyon etilgan. Sahna asira qizlarning «Shamol qanotlarida uchgin» deb nomlangan o'ychan so'lim qo'shig'i bilan boshlanadi:

Qizlarning ohista-vazmin raqsi erkaklarning sho'x raqsi bilan almashinadi. Xorning ritmik hayqiriqlari, doiralar jarangi, fleytalarning «hushtak» ovozi, goboylar kuyi – bularning barchasi shiddatli tezlikdagi tovush to'lqinini hosil qiladi. Sur'at tobora tezlashib, asir va asiralar hamda ular bilan birga qipchoq askarlari ham – barchasi bir bo'lib zabardast xonni ulug'laydi.

III-parda. Qipchoqlar qarorgohi. Xon Gzak qo'shinlari Rusga qarshi omadli yurish qilib, asirlar, o'ljalar bilan qaytadi va g'alabani nishonlaydi. Buni chetdan kuzatib turgan Igor boshqa asirlar hamda o'g'li bilan Rus tomon qochishga qaror qiladi. Konchakovna Vladimirning ketmasligini o'tinib so'raydi, shovqin ko'taradi va yosh knyazni olib qoladi. Igor Ovlur hamrohligida qochishga ulguradi.

Qipchoqlar Rus tomon yangi yurishga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

IV-parda. Putivl shahrining devori. Yaroslavna shahar devori ustida Igoring taqdiriga qayg'urib, achchiq ko'z yoshi to'kmoqda. U o'z nidolarini goh jilovsiz shamolga, goh keng Dneprga, goh quyoshga yo'llaydi. Olis-olislarda esa cho'ziq, g'amgin kuy aks-sado beradi. Yaroslavna yig'isi o'ziga xos urg'ulangan sekunda intonatsiyalari va nafis kuy bezaklari bilan qadimiyligi (janubiy) rus yig'ilarini eslatadi:

«Oh, bebosh shamol emas» («Ox, ne buyno'y veter») cho'zimli rus qo'shiq'i usulida yozilgan uning «Atrof qanday parishon» («Kak uno`lo vsyo krugom») ariozosi xalq xori bilan qo'shib ketadi. Bu sahna operaning eng yorqin sahifalaridan biridir. Xor ovozli mavzu bilan boshlanib, sekin-asta nim ovozlar bilan qamraladi. Navbatdagi har bir bosh misra yangi qo'shiqchi ijrochi yakkaxon «ixtiyoriga» o'tadi:

Uzoqda suvoriyalar ko'rindi. Ulardan biri Igor. Yaroslavna Igorni taniydi. Hayratda qolgan Skula va Eroshka ham ularni ko'radilar va knyazning qaytganligi haqida xalqni birinchi

bo'lib xabardor qilish maqsadida qo'ng'iroqlarga bong urishga shoshiladilar. Qo'ng'iroqlar yangraydi. Xaloyiq shod-hurramlik bilan knyazni kutib oladi. Opera xorning «Tangri iltijolarimizni eshitdi, demak» («Znat, gospod, molbo` uslo`shal») bayramona tantanasi bilan yakunlanadi.

«Knyaz Igor» operasi Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasiga o'xshaydi. Stasov yozganidek, unda ham «o'sha epik nazm qudrati, xalq sahnalari va ko'rinishlarning ulug'vorligi, shaxslar va fe'l-atvirlarning ajoyib tasviri, o'sha butun qiyofa mahobati bor».

Operada ikkinchi darajali sahifa yo'q, ikkinchi darajali qaxramonlar ham ishonarli va yorqin tasvirlab berilgan. Bunda asosiy badiiy-tasviriy sifatida kantilena yuzaga chiqadi.

Har bir musiqiy portret badiiy tugal ariyada berilgan. Shuningdek, Borodin operada dramatik dialog va rechitativning o'zgaruvchan turini qo'llagan.

Symfonik ijodi. «Bahodirona» simfoniyasi. A.P.Borodin – rus klassik simfoniyasini yaratgan ijodkorlardan biridir. Uning bиринчи simfoniyasi N.A.Rimskiy-Korsakov va P.I.Chaykovskiyning simfoniyalari bilan bir vaqtida yaratildi. U rus simfonizmining mardonavor-epik yo'naliishiga asos solgan. Borodinining simfonik fikrlash xususiyatlari uning bиринчи simfoniyasida va 1876 yilda yozilgan «Bahodirona» («Bogato'rskaya») nomli ikkinchi simfoniyasida yorqin namoyon bo'ldi. Bunda mahobatli ko'lam, xalq afsonalari va ertaklar dunyosi bilan bog'liqlik mavzularning qarama-qarshiligi va sinteziga asoslangan musiqiy dramaturgiya hamda klassik shakllar yaqqol ko'zga tashlanadi. Simfonianing asosiy obrazi 1-qismidayoq berilgan. Musiqa jilovsiz kuch va ulug'vorlikka to'la. Orkestrning baland jarangi, quyi registrlar, oktava ikkilanishlari, si- minor tonikasining takrori, xalq afsonaviy kuylariga ohangdoshlik – bularning barchasi simfonianing mardonavor qiyofasini belgilaydi. Asar ikki qarama-qarshi mavzu-rus xususiyatiga ega qo'shiqlar va Sharq ohanglariga asoslangan kuy ishlanmasidan iborat:

A.P.Borodinining simfonik musiqasiga kuychanlik xos. Cholg'ulashtirishda esa u M.I.Glinka printsiplariga sodiq qolib, ohang aniqligiga, tembr sofigiga, cholg'ularni ularning tabiatiga xos registrlarda qo'llashga, xalq sozlari va kuylari taqlidiga katta etibor berdi. Borodin musiqa ohanglarining bahodirona xarakterini kuchaytirish uchun butun orkestr unisonlaridan keng foydalandi.

Xuddi «Knyaz Igor» operasi kabi simfonik ijodidagi fikrlar va obrazlar rus xalqining vatanparvarligini, qudratini, tinch hayot uchun olib borgan kurashini tasvirlashdan, Sharq dunyo ko'rinishlarini va tabiatini kuylashdan iborat. «Qudratli to'da»ning boshqa a'zolari singari, Borodin ham ko'proq dasturiylikka amal qildi. M.Glinka operalarida va «Knyaz Igor»da aks etgan epik-musiqiy dramaturgiya printsiplarini Borodin o'zining simfonik ijodiga ko'chirdi. Uning operalari kabi simfonik asarlarining musiqiy tili ham o'ziga xosligi, yangiligi, tabiiy rang-barangligi, qolaversa xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Kamer-vokal va kamer-cholg'u ijodi. A.P.Borodin M.I.Glinkaning ijodiy an'analarini kamer-vokal janrlarda ham davom ettirib, bu borada yangi qirralarni ham kashf etdi. Borodin Pushkin, Nekrasov, A.Tolstoy, Geyne hamda o'zi ijod etgan she'rlarga asoslanib, o'n sakkizta romans va qo'shiqlarni yozgan. U vokal asarlariga Dargomijskiy yoki Musorgskiy kabi nutq intonatsiyalarini kiritishga harakat qilmaydi, balki she'rning asosiy kayfiyatini asos qilib oladi. bu asarlarida kuy oldingi jihatdan bo'lgani hamda fortepiano partiyasi ham katta ahamiyatga ega. Borodin romans janriga bиринчи bo'lib rus bahodirona eposlarida uchraydigan obrazlarni kiritdi. Ayrim romanslarda, masalan, «Qora o'rmon qo'shig'i», «Uyqudag'i knyaz qizi»da xalq eposi va ertaklari mavzularini aks ettirdi.

A.P.Borodinining «Qo'shiqlarim og'u bilan to'la», «Olis Vatan qirg'oqlari uchun» («Otravoy polno` moi pesni», «Dlya beregov otchizno` dalnoy») nomli va boshqa bir qator romanslari guruhiga psixologik holatlar va tuyg'ularni lirik ifoda etish xos. 1881 yilda Musorgskiyning bevaqt vafoti munosabati bilan yozilgan «Olis Vatan qirg'oqlari uchun» romansida chuqur fojiaviy his-tuyg'ular, bosiqlik va oliyjanoblik o'z ifodasini topgan. Romans musiqasida og'ir musibat va g'am-alam tuyg'ulari namoyon bo'lgan:

A.P.Borodinning ertak va epik mavzuli romanslari ham katta ahamiyatga ega. 1867-1870 yillar oralig'ida yozib tugatilgan yoki boshlangan asosiy asarlari mazmun jihatdan bir-biriga yaqin. Masalan, «Dengiz malikasi» va «Dengiz» nomli asarlari («Morskaya sarevna», «More»-Borodin so'zi), Birinchi, Ikkinci simfoniyalari va «Knyaz Igor» operasiga usluban o'xshashlik kasb etadi.

A.P.Borodinning epik romanslarida «qudratli kuch», «kenglik» va boshka xususiyatlar namoyon bo'lган bo'lsa, lirk romanslarda - «go'zallik», «joziba» kabi xislatlar yaqqol ko'rindi. Bu romanslar bilan «Knyaz Igor» operasi lirikasi orasida o'xshashliklar bor. Kamer janrda yaratgan asarlari Borodinga o'zining ruhiy iztiroblarini yanada nozik va chuqur izhor etish imkonini beradi.

M.P.Musorgskiydan farqli o'laroq, Borodinning romans janrida yaratgan asarlariga satira va hajviya xos bo'lmasa-da, bu yunalishda ham ma'lum bir yutuqlari bor. Misol tariqasida «O'ziga bino qo'yish» nomli romansini tilga olish mumkin.

Kamer-cholg'u ijodi. Borodin ijodida kamer-cholg'u janri katta o'rin egallamasa-da, kompozitor bu yo'nalishda ham samarali qalam tebratgan. Bunda kamer-cholg'u pesalari va ansamblari yaxshi maktab vazifasini o'tagan edi. Borodin ularda o'zining kompozitorlik mahorati hamda musiqiy uslubini rivojlantirdi. U o'z ijodining etuklik davrida yana shu musiqa janriga qaytadi va betakror kamer-cholg'u asarlarini yaratadi. Bunga misol sifatida uning ikkita kvarteti va fortepiano uchun yozilgan «Kichik syuita»sini ko'rsatish mumkin.

A.P.Borodinning kamer-cholg'u janrida yaratgan asarlarida uning operasi va dastlabki ikkita simfoniyasiga yaqin epik obrazlar uchraydi, lekin kamer cholg'u musiqasiga ko'proq lirk kayfiyat xos. Borodinning lirikaga murojaat qilishi tasodifiy emas edi. O'sha davr - 70-yillarda rus san'atining barcha yo'nalishlarida insonning ichki dunyosiga, ruhiy his-tuyg'ulariga nisbatan qiziqish kuchaygan edi.

A.P.Borodin ijodining ahamiyati. Xalq-epik yo'nalishida o'lmas asarlar yaratgan Borodinning ijodi rus hamda butun jahon musiqiy madaniyati rivojiga qo'shilgan o'ziga xos bebaҳo va betakror ulush bo'ldi. Uning ta'siri Rimskiy-Korsakovning «Sadko», «Ko'rinnmas shahar Kitej haqida afsona» nomli operalarida, Glazunovning simfoniyalarida, Kalinnikov, Lyadov va boshqa rus kompozitorlarining asarlarida ham yaqqol sezilib turadi. Borodinning ijodi chet el musiqashunoslari va musiqa shinavandalarining juda yuqori bahosiga sazovor bo'lgan. XIX- asr oxiri - XX asr boshlarida ijod qilgan frantsuz kompozitorlari, xusan, Debyussi va Ravel ijodida Musorgskiy bilan birga, Borodinning ham ta'siri sezilarlidir. Qolaversa, xalqchil bahodirona-epik san'at an'analari, xalqning buyukligi mavzusi XX-asrda rus kompozitorlarining (N.Glazunov, F.Stravinskiy, S.Prokofev, Yu.Shaporin, G.Sviridov) ijodida ham yaqqol aks etdi.

Biyuk kompozitor ijodining ahamiyatini V.Stasovning quyidagi so'zлari bilan xulosalash mumkin: «Borodinning iste'dod quvvati simfoniyada bo'lgani kabi, opera va romansda ham teng namoyon bo'ladi. Ajoyib ravonlik, nafislik hamda go'zallik ila birikkan ulkan kuch – qudrat va kenglik – unga xos bo'lgan asosiy sifatlardir».

Asosiy asarlar ro'yxati

«Knyaz Igor» (1869-1887) operasi; opera- balet «Mlada» (1872); simfoniyalari: 1- Es-dur (1867); 2 – «Bahodirona», h-moll (1876); 3 – a-moll (1887, tugallanmagan); «orkestr uchun «O'rta Osiyoda» musiqiy ko'rinishi (1880); kamer cholg'u ansamblari - torli trio, torli kvintet, torli sekstet, 2 ta torli kvartetlar fortepiano uchun ansamblar, jo'rsiz vokal kvarteti; 16 ta romanslar, shu qatorda «Qora o'rmon qo'shig'i» (1868); «Dengiz malikasi» (1868); «Dengiz» (1870); musiqa haqida maqolalar, 42 ta ilmiy ishlar.

Nazorat uchun savollar.

1. A.P.Borodinning hayot va ijod yo'li haqida so'zlab bering.
2. Kompozitorning ijodiy qiyofasini tavsiflang.
3. A.Borodinning ijodi va uslubiga tavsif bering.

4. «Knyaz Igor» operasining mazmunini so'zlab bering. Operaning asosiylari qahramonlari qaysi ariyalarida tavsif etilgan?
5. Kompozitorning simfonik ijodiga ta'rif bering.
6. A.P.Borodin ijodining rus musiqada ahamiyati qandayligi haqida so'zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar.

- A.P.Borodin o'zining asarlarida asl rus xalqi kuylaridan foydalanganmi?
- Borodin Sharq olamini tasvirlashda barcha «to'da» a'zolari kabi Glinka ijodiga izdoshlik qilgan. Kompozitor qaysi asarlarida Sharq olamini hamda uning o'ziga xos ruhini nafis tasvirlab bergen?
 - A.P.Borodin ijodiga xos bo'lgan qahramonlik-epik sahifalarga yaqinlikni kompozitorning qaysi romansida uchratish mumkin? Kompozitor ushbu romansni yozishda qaysi ta'-o'lchovidan foydalangan? Bu romans nomini ayting va uni kuylab bering.

N.A.RIMSKIY-KORSAKOV
(1844-1908)

Sinchkov aql va yuksak qalb
sohibi bo'lgan buyuk daho.
U doimo eng olivjanob
maqsadlarga intiladi.

A.K.Glazunov

Nikolay Andreevich Rimskiy- Korsakov – yirik kompozitor, pedagog, dirijyor, musiqiy jamoat arbobidir. Kompozitorning ilg'or dunyoqarashi, rus milliy madaniyati va san'ati bilan uzviy bog'liqlik, nekbinlik, chuqr etik ma'nodorlik, haqqoniylit, cholg'uchilik sohasidagi mahorat – bularning barchasi rus mumtoz musiqasi vakilining ijodiy qiyofasiga xos chizgilardir.

Vazmin inson, tahliliy tafakkur egasi bo'lgan Rimskiy-Korsakov tabiat va insoniyat olamini juda chuqr his qilar edi. Yuksak iste'dod, dunyoni shoirona idrok etish hamda maqsad sari intiluvchanlik kabi insoniy fazilatlari uning jahon musiqa san'atining yirik ustasi etib tanitdi.

Hayoti va ijodiy yo'li. Nikolay Andreevich Rimskiy-Korsakov 1844 yilning 6 (18)martida Tixvin shaharchasida dvoryan oilasida tug'ilgan. Kompozitor bolaligidan yaxshi tarbiya ko'rdi, chet tillari va musiqadan ta'lif oldi. U yoshligidan musiqaga qiziqdi. To'rt yoshga to'lganida uncha murakkab bo'limgan pesalarni chala olardi, to'qqiz yoshidan esa mustaqil ijod qila boshlaydi. Yoshligidanoq undagi ijodiy xayolot olamiga ishtiyoq fortepiano ijrochiligidan namoyon bo'ldi- u musiqa chalayotganida asarlarning g'uvillashini, yulduzlarlarning charaqlashini ifodalaydigan ohanglarni topishga harakat qilardi.

N.A.Rimskiy-Korsakovlar oilasi dengizchilar avlodiga mansub edi. Shu bois uni ham 1856 yilda imtiyozli Dengizchi kadetlar korpusiga o'qishga berishdi.

1859–1860 yillarda Rimskiy-Korsakov pianinochi F.A.Kanille rahbarligida musiqa bilan shug'ullanadi. U o'quvchisiga nafaqat musiqadan dars berardi, balki uning nozik musiqiy didini rivojlantirishga ham harakat qilardi. Ustoz musiqachi Kanille shogirdining noyob iste'dodini tez ilg'aydi. Ular birgalikda mumtoz musiqiy asarlarni sinchiklab tahlil qilishar, turli obrazlarni, har xil tabiat hodisalarini ifoda etishda orkestrning qanchalik imkoniyatga ega ekanligini o'rganib chiqishardi. O'spirinning iste'dodini ko'rgan Kanille unga musiqiy ijod bilan shug'ullanishni tavsiya etadi.

N.A.Rimskiy-Korsakov o'zining ilk asarlari – variatsiyalar va noktyurnlarni yaratadi. Ayni shu yillarda unda musiqaga ehtiroslarga to'la muhabbat uyg'ondi. Kanille Rimskiy-Korsakovni M.A.Balakirev bilan tanishtiradi. Balakirev unga garmoniya, ovoz yo'nalishi, cholg'uchilik asoslarini o'rgatdi va birinchi simfoniyasini yaratishda rahbarlik qildi. Shuningdek, Rimskiy-Korsakov 1861 yilda V.V.Stasov, M.P.Musorgskiy, S.Kyui bilan tanishib, Balakirevning «Qudratli to'da» to'garagiga a'zo bo'ldi.

Ajoyib pedagog va okeanograf, otasining vafotidan keyin Rimskiy-Korsakovga yaqin maslahatchi bo'lib qolgan akasi Voin Aleksandrovich uning musiqaga berilib ketganligini yoqtirmaganligi uchun Kanille rahbarligida musiqa bilan shug'ullanishini man etdi. Rimskiy-Korsakov korpusda o'qishni bitirgach, «Almaz» nomli kliperda dunyo bo'ylab sayohatga jo'nadi (1862-1865). Sayohat tufayli o'n sakkiz yashar Rimskiy-Korsakov Angliya, Norvegiya, Polsha, Frantsiya, Italiya, Ispaniya, AQSh, Braziliya kabi bir qator mamlakatlarda bo'ldi va turli xil xalqlarning hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu davr mobaynida u ko'p kitoblarni o'qidi, Betxovenning kvartet va simfoniyalarini, Glinkaning uvertyura va romanslarini berilib o'rgandi, ulardan ko'p taassurot oldi. Dengizdan olgan taassurotlari, keyinchalik, uning butun ijodida o'z aksini topdi. Kompozitorning orkestr uchun yozgan asarlari va operalarida tasvirlangan manzaralari butun jahon musiqa san'atida noyobligi bilan ajralib turadi.

Kema safari chog'ida, oila a'zolariga yozgan xatlarida musiqaning inson hayotida tutgan o'rni haqida teran fikrlar uchraydi: «...Inson faqat puldur bo'lismish, tinchgina eb-ichish uchun yashaydimi? Agar she'riyat yoki ilm-fan, yoki san'at uning hayotiga ruh bag'ishlamasa, u inson bo'la oladimi? Odamzotga musiqachi ham amaldor va zabit kabi bir xil foyda keltirmaydimi? Zabit va amaldor xalqning tinch hayot kechirishiga yordamlashsa, musiqachi uning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadi, ma'naviyati past odam esa insondan ko'ra ko'proq hayvonga yaqindir. Shunday ekan, musiqaning ma'naviy foydasini inkor etib bo'ladimi?»

Dengiz sayohatidan qaytganidan so'ng, Rimskiy-Korsakov yosh ximik, professor, kompozitor A.P.Borodin bilan do'stlashdi. Rimskiy-Korsakov Borodin, Dargomo`jskiy va Glinkaning opasi Lyudmila Shestakovalar bilan yakunlanish arafasidagi birinchi simfoniyasini muhokama qildi. Xuddi shu vaqtarda P.I.Chaykovskiy bilan ham tanishdi.

N.A.Rimskiy-Korsakovning birinchi simfoniyasi 1865 yilning 31 dekabrida Balakirev rahbarligida Bepul musiqa maktabi orkestri tomonidan ijro etildi. Dengiz xizmati zobiti bo'lgan simfoniya muallifiga tinglovchilar tik turib qarsak chalishdi. Shu vaqtadan e'tiboran Rimskiy-Korsakov o'z hayotini butunlay musiqaga bag'ishladi va uning ko'p yillik mashaqqatli ijodiy faoliyati boshlanadi. U «Serd fantaziysi»ni, «Sadko» nomli simfonik ko'rinishni, «Antar» simfonik syuitasini yozadi; L.Meyning tarixiy syujeti asosidagi «Pskovlik ayol» operasi ustida ish olib bordi. Bu opera bilan kompozitorning ilk davridagi ijodi yakunlanadi.

1871 yil avgust oyida Rimskiy-Korsakov Peterburg konservatoriyasiga professor lavozimiga taklif qilinadi. U amaliy ijod, cholg'uchilik va orkestr sinflarida saboqberadi. Murabbiylik faoliyatini boshlaganida, u o'ziga asosiy nazariy bilimlar etishmayotganligini tushunib, kompozitsiyadan murakkab masalalarni echadi va mustaqil ta'lif olish bilan mashg'ul bo'ladi. Lekin barcha yozganlari unga qiziqarli emasdek tuyuladi. Rimskiy-Korsakovning 60 fugasi va boshqa mashqlarini ko'rib chiqqan P.Chaykovskiy «8 yil avval «Sadko»ni yaratgan inson uchun bularning bari jasorat. Siz tom ma'nodagi artist, san'atkor bo'lib etishasiz», deb bashorat qiladi, hamda unga kontrapunkt ilmini o'rganishida yordamini ayamaydi.

1873 yilda Rimskiy-Korsakov iste'foga chiqqach, boshqarmaning Moskvadagi damli orkestriga nazoratchi etib tayinlanadi va bu vazifada 11 yil davomida ishlaydi. 1874 yilda Bepul musiqa maktabi direktori hamda dirijori etib tayinlanadi. U bir vaqtning o'zida u ko'p asarlar ustida ish olib boradi. Bu davrda uchinchi simfoniyasini, torli kvarteti va a capella xorlariini yozadi. Uning xalq og'zaki ijodi, qadimgi slavyan afsonalariga bo'lgan qiziqishi «May oyidagi tun» va «Qorqiz» operalarida o'z aksini topdi. Ayniqsa, A.N.Ostrovskiy asarining matni asosida yozilgan «Qorqiz» operasi yuksak baholandi. «Bahor ertagi»ning muallifi Ostrovskiy shunday fikr bildirgan edi: «Korsakovning «Qorqiz»imga bastalagan musiqasi juda ajoyibdir, men unga bunchalik darajada mos keladigan qadimgi rus ma'jusiylik she'riyatini hamda ertakning avvalida qor sovug'iday, keyin esa shiddat va ehtirosga boy qahramonni bu qadar maromida tasvirlay oladigan boshqa narsani hech tasavvur qilgan emasman».

1883 yildan 1894 yilgacha Rimskiy-Korsakov Saroy qo'shiqchilar kapellasi boshqaruvchisining yordamchisi lavozimida faoliyat yuritdi. Kompozitor 80 – yillarda simfonik orkestrga dirijyorlik qildi. U Belyaev to'garagini boshqardi. Boy o'rmon sanoatchisi hamda iste'dodlarni qadrlovchi Belyaev Rus simfonik kontserti jamiyatini mablag' bilan ta'minlar hamda musiqa nashriyotini boshqarardi. U ko'pgina rus musiqachilariga homiylik qildi.

1881 yilda Musorgskiy, 1887 yilda esa Borodin vafot etadi. Shu bois kompozitor ko'p vaqtini o'ziga yaqin bo'lgan bu insonlarning yakunlanmay qolgan asarlarini yozib tugatishga va ularni orkestrlashtirishga sarflaydi.

N.A.Rimskiy-Korsakov haddan ziyod band bo'lishiga qaramay, 80-yillarda «Ispan kaprichchiosi» va «Shahrizoda» nomli ikkita noyob simfonik durdonani hamda «Mlada» opera-baletini yaratdi. U 1889 yilda Parij butunjahon ko'rgazmasida ikkita orkestrga dirijyorlik qildi, keyinchalik, Bryusselda kontsertlar berdi. U erda yorqin «Ispan kaprichchiosi»ning ijrosi unga shuhrat keltirdi.

N.A.Rimskiy-Korsakov ijodiy faoliyatining samarali va sermahsul yuksalishi 90-yillarning o'rtaidan boshlandi. Bu davrda uning ijodida opera va romans janrlari etakchi o'rin egallaydi.

1905 yilda talabalar huquqini himoya qilib chiqqan Rimskiy-Korsakov konservatoriyyada egallab turgan vazifasidan ozod qilindi. U bilan hamfikr bo'lgan A.Glazunov va A. Lyadov boshchiligidagi konservatoriya o'qituvchilarining bir qismi ham ishdan bo'shab ketadi. 1905 yilning dekabrida konservatoriyyaga mustaqillik berilganidan so'ng, badiiy kengashning taklifiga binoan, Rimskiy-Korsakov yana konservatoriyyada o'z faoliyatini davom ettirdi.

N.A.Rimskiy-Korsakov yaratgan oxirgi asar Pushkinning syujetiga yozilgan «Oltin xo'rozcha» satirik ertak-operasi bo'ldi. Senzura kompozitorning bu asarini sahnalishtirishga ruxsat bermaydi. 1908 yilda kompozitor yurak xuruji tufayli o'zining oxirgi asarini sahnada ko'ra olmay vafot etadi.

Ijodi va uning nafosati. Rimskiy-Korsakovning ijodida o'ziga xoslik sezilsa ham u mumtoz an'analarga suyanadi. U o'zidan juda katta ijodiy meros qoldirgan bo'lib, ular 15ta opera, 3ta simfoniya, orkestr uchun 7 ta syuita va bir qator asarlar, 79ta romans, 3ta kantata, torli cholg'ular uchun kvartet va septet, fortepiano uchun kontsert hamda rus mavzulariga skripka uchun yozilgan fantaziyadan va bir nechta diniy mavzudagi musiqiy asarlardan iborat.

«Qudratli to'da» a'zolari kabi Rimskiy-Korsakovda ham xalq ijodiga kuchli qiziqish paydo bo'lgan. Buning natijasida «Yuzta rus xalq qo'shig'i»(1877) va «Qirqta xalq qo'shig'i»(1882) nomli ikkita to'plam tayyorlangan edi. Kompozitor o'z ijodida musiqiy folkloarning asl namunalaridan foydalandi, hamda milliy ohanglar asarlariga tadbiq etdi.

N.A.Rimskiy-Korsakovning musiqasida janrlarning bir-biriga ta'siri seziladi, operalarida simfoniyaga xos xususiyatlar, simfoniyasiga esa yorqin teatrallik unsurlari singib ketgan. Rimskiy-Korsakov ijodida go'zallik mavzusi etakchilik qiladi. Uning asarlarida muhabbat,adolat, xalq donoligiga bo'lgan ishonchga qarshi salbiy holatlar - zolimlik, nodonlik, munofiqlik kabi illatlar ifodalangan.

N.A.Rimskiy-Korsakov orkestrning rang-barang jilosidan foydalanib, tabiat manzarasini san'atkorona, uni xuddi tirik mavjudot kabi tasvirlaydi. Atrof-olamni shoirona idrok etish Rimskiy-Korsakovga echimi zarur bo'lgan muammolarning hal qilish yo'llarini topishga yordam beradi. U o'rmondag'i har bir tovushni, qushlarning sayrashi, to'lqinlarning qirg'oqqa urilishini eshitadi, tabiatdagi bor ranglarning farqini, xatto, ulardagi o'zgarishni ham payqay oladi.

N.A.Rimskiy-Korsakov garmoniyasiga aniqlik va mantiqiylik, oddiy uchovozli garmoniyalash, yondoshakkordlarni tabiiy diatonik ladlar bilan muvofiqlashtirish xos bo'lgan. U garmoniyanining rangona tasviriy imkoniyatlarini kengaytirdi. Lado-garmonik vositalar tizimi qatorida o'ziga xos ton, yarimton tovushqatori «Rimskiy-Korsakov gammasi»ni yaratdi. Rimskiy-Korsakov syujet voqeasiga bog'liq modulyatsiya rejalariga katta ahamiyat berdi. Xususan, «Qorqiz»ning kirish qismida «bahor» tonalliklari guruhiiga Lya-major, Mi-major, Re major, «qishki» tonalliklar guruhiiga esa fa minor, do minor xos.

Musiqiy mavzu materialining taraqqiyoti uchun kompozitor variatsion usullardan, ovozosti va taqlidiy polifoniya vositalaridan keng foydalandi.

Operalarida qariyb har bir personaj alohida va doimiy musiqiy tavsifga ega. Bular leytmavzu, leytgarmoniya, leyttembr, leytonallik, leytritm ko'rinishlarida keladi. «Pskovlik ayol»da sustakkordlar Olga tavsifining leytmotivi sifatida oldinga chiqsa, cho'ziq va yorqin kuy ohanglari «Shoh qaylig'i»dagi Marfaning musiqiy tavsifidir; «Qorqiz» operasida fleyta-Qorqizning, klarnet-Lelning, valtorna-Bahorning leyttembri vazifasini bajaradi.

N.A.Rimskiy-Korsakovning musiqachi – san'atkori sifatida shakllanishi XIX asrning 60-yillarda jamoatchilik fikrining o'sishi, «Yangi rus musiqa maktabi»da yuzaga kelgan estetik tamoyillar rivoji bilan bog'liq kechdi. Bu tamoyillar xalqchillikka, yuksak mazmundorlikka, san'atning insoniyatga xizmat qilishiga qaratilgan edi. Har bir asarida bosh estetik vazifani belgilash, go'zallikka intilish, dunyonи musiqa bilan uyg'unlikda idrok etish, ichki muvozanat, vazminlik, san'atkora nafislik, benuqson did, musiqiy tafakkur tiniqligi – bularning barchasi Rimskiy-Korsakovga xos bo'lgan xususiyatlardir. Odatda, muayyan vaziyatlarda janr tanlovi, dramaturgik va uslubiy tamoyillarni syujet mavzusi belgilaydi. U operani musiqiy asar deb hisoblab, adabiy uslubning umumiy va maromida bo'lishiga ham talabchanlik bilan qarar edi.

Kompozitor ijodida ertaklar, dostonlar, afsonalar hamda marosimlardan olingen salmoqli o'rinn tutadi. Bu mavzular orqali kompozitor xalqning dunyoqarashini, masalan, «Qorqiz»da Berendey sultanati fuqarolari, «Shoh Sultan haqida ertak»da Ledenets shahri fuqarolarida gavdalangan oddiy xalqning farovon hayot hamda baxt-saodat haqidagi orzu-umidlarini yorqin ochib beradi. Xalqning axloqiy-ma'naviy va estetik ideallari opera qahramonlarining qiyofalarida aks etadi («O'lmas Kashchey»da malika, «Kitej shahri va Fevroniya qizi haqida dostoni»).

N.A.Rimskiy-Korsakov dengiz manzarasini alohida ilhom bilan tasvirlaydi. Dengizning afsonaviy go'zalligi Rimskiy-Korsakovni bir umr o'ziga chorlaydi. U tasvirlagan dengiz hamisha rang-barang va har doim go'zal. Ayvazovskiyni marinist rassom deb atashgan bo'lsa, Rimskiy-Korsakov eng yaxshi marinist(kompozitorlardan biri deb tan olingen). Yuqorida aytib o'tganimizdek, «Sadko»da va shu nomli opera hamda A.Tolstoyning so'zlariga yozilgan «Dengiz oldida» romanslar turkumida dengiz mavzusi badiiy yuksak tasvirlangan.

«Shoh Sultan haqida ertak» operasida dengizning qovog'i soliq va sirli - zim-ziyo osmon bag'rida goho yulduzlar miltillaydi, to'lqinlar esa yanada uzoqroqqa intiladi. «Sadko» operasidagi musiqiy muqaddimada ko'm-ko'k dengiz ummoni tasvirlanadi. Dastur muqaddimasida shunday deyiladi: "yarovchata-guselkasi bilan dengiz shohiga o'lpon qilingan Sadkoni dengizga uloqtirishadi. Dengiz shohi qizini dengiz ummonga turmushga chiqarayotgan edi. U Sadkoni gusli chalishga majbur etadi. Suv osti sultanati shoh bilan birga raqsga tushib ketadi. «Xayqirgan» to'lqinlar esa kemalarni sindirib, cho'ktirib, dahshatlilik junbushga keladi.

Shunda Sadko gusli torlarini uzdi, raqs to'xtadi va dengiz ham tinchidi. Violonchellar ijrosidagi sust, to'lqinsimon kuy dengiz tabiatini hodisalarining nafasini ifodalaydi. Girdob tobora qorong'ulashib boradi va ba'zan girdob uzra shu'la yaraqlab chaqnaydi.

«Shahrizoda» syuitasida esa to'lqinlarning sokin chayqalib turishi goh u, goh bu tonalliklarda kuyning ko'tarilishi va pasayishi orqali yorqin ifoda etilgan.

Opera ijodi «Qorqiz» operasi. Xalq tarixi, maishiy turmush, shoirona tasavvurlar, urfodatlar, xalqning milliy ruhiy qiyofasi – bularning barchasi Rimskiy-Korsakovning operalarida yorqin ifodalangan. Bu erda doston ham, ertak va afsona ham, tarixiy-maishiy drama hamda lirik-maishiy komediya xususiyatlari ham bor. Bunda kompozitsion echimi alohida qismlardan iborat bo'lgan operalar, uzlusiz rivojli operalar, ommaviy sahnali va kamer operalar, keng, yoyiq ansambllarga ega yoki ega bo'lman operalar ham bor.

Operaga eng avvalo musiqiy asar sifatida yondoshgan Rimskiy-Korsakov operaning badiiy asosi bo'lgan librettoga katta ahamiyat beradi. Bu borada kompozitor librettonavis V.I.Belskiy bilan sermahsul hamkorlik ham qilgan.

N.A.Rimskiy-Korsakovning iste'dodi rus xalq ijodi, jumladan, ertaklar olami bilan bog'liq asarlarida to'laroq namoyon bo'ladi. Bu asarlarida musavvirlilik layoqati hamda samimiy sof lirikasi ufurib turadi. Insonning ichki dunyosidagi jarayonlarga va obrazlar ruhiyatining yoritilishiga chuqur e'tibor bilan yondoshish 1898 yilda Dargomijskiy xotirasiga bag'ishlangan (A.S.Pushkin matni) «Motsart va Saleri» kamer operasida, «Xonim Vera Sheloga» nomli bir aktli operasida hamda tarixiy-maishiy mavzudagi «Shoh qaylig'i» dramasida namoyon bo'lgan. XX asrning boshlaridagi rus madaniyatining yangi an'analari «Shoh Sultan haqida ertak», «O'lmas Kashchey» va «Oltin xo'rozcha» operalarida aks etdi. Teatrga xos shartlilik «Shoh Sultan haqida ertak» operasida, Pushkin asariga yozilgan «Motsart va Saleri»da, «O'lmas Kashchey» nomli kuzgi ertakchada ma'joziy aksini topgan. Rimskiy-Korsakovning «Ko'rinnmas shahar Kitej hamda Fevroniya ismli qiz haqida afsonasi» nomli operasida katta ma'naviy-falsafiy muammolar ko'tarilgan. Pushkin ertagi asosida yozilgan kompozitorning «Oltin xo'rozcha» kompozitorning so'nggi operasi zolim podshohga nisbatan shafqatsiz satiradir. Bu opera 1907 yilda yozilgan edi.

N.A.Rimskiy-Korsakov operaga xos bo'lgan ma'nodorlik asosini ashulachilik deb hisoblardi, orkestr ham muhim dramaturgik ahamiyatga ega bo'lib, unga mustaqil simfonik ko'rinishlar, antraktlar topshiriladi.

«Qorqiz» operasi. Rimskiy-Korsakovning xalq ashulalariga, qadimgi

asotir va marosimlarga qiziquvchanligi uning ertak operalarida aks etdi. A.N.Ostrovskiy asari asosida yaratilgan «Qorqiz» - uning sevimli operasidir. Ostrovskiy ertagini o'qib chiqqan kompozitor ezgulik, insonlarga nisbatan mehr-muhabbat, san'at qudrati va go'zalligi sharaflangan bu syujetga juda qiziqib qoladi. Shuning uchun ham kompozitor «men uchun bundan yaxshiroq syujet, Qorqiz, Lel yoki Bahordan yaxshiroq shoirona obraz, ajoyib shoh Berendey sultanatidan yaxshiroq sultanat, Yarilo-Quyosh sharafiga bosh egishdan yaxshiroq dunyoqarash, din yo'q edi», - degan edi. Rimskiy-Korsakov bu operani bir «nafasda» tovushlari maftunkor va go'zal manzarali yalang o'rmon quchog'ida joylashgan qishloqda yashab turib yozgan edi. Bularning barchasi kompozitorning ijodiga, badiiy sehrli qiyofalarni yaratishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Operada fantastik ertak va xalq turmushiga xos sahnalar bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan. Qorbobo, Go'zal Bahor, Qorqiz va Leshiyalar ertak qahramonlari bo'lsa, Kupava, Mizgir, Bobil va Bobilixalar hayotiy obrazlardir. Lel hayotiy (cho'pon) obraz bo'lishi bilan bilan birga san'atning sehrli kuchini ifoda etuvchi ramziy qahoramoni hamdir.

Opera mazmuni. Voqealar berendeylarning afsonaviy mamlakatida sodir bo'ladi. Qorbobo bilan Go'zal Bahor farzandi - Qorqiz paydo bo'lishi bilan berendeylarning farovon va sokin hayoti buziladi. Yoz mavsumida Qorqizning paydo bo'lishi azaldan qish va yoz fasllari almashinuvi tartibiga zid edi. Bundan qudratli quyosh ma'budi Yariloning qahri kelgan.

Muqaddima shunday boshlanadi. Bahor keldi. Qalin qor bilan qoplangan o'tloq. Leshiy qish tugab, bahor kelganligi haqida xabar beradi. Qushlarning chug'ur-chug'ur va chirq-chirqlari ostida Bahor erga tushib keladi. Qorbobo ham paydo bo'ladi. U Qorqizni chaqiradi. Qorqiz berendeylar orasiga borish uchun izn so'raydi. Ular qizlariga ruxsat berishadi. Uni Leshiy asrashi kerak. Tong otadi. Berendeylar qo'shiqlar kuylab, Maslenitsa qo'g'irchog'ini aravaga solib, o'rmonga ketishmoqda. Ular Maslenitsa bilan xayrlashib, Bahorni chorlashadi. Qorqiz Bobil va Bobilixalardan o'zini qiz qilib olishlarini o'tinib so'raydi.

I-parda. Iliq bahor oqshomi. Berendeylar ovulida Lel Qorqizga qo'shiq kuylamoqda. Bu ko'rkmam yigit Qorqizning ko'ngliga xush yoqadi, lekin Lel undan voz kechib, berendey qizlari yoniga ketadi. Qorqiz o'zining qayg'usi haqida go'zal Kupava bilan sirlashadi. Kupava baxtli, uning qaylig'i, boy savdogar Mizgir urf-odat bo'yicha yigit-qizlarga haq to'lab, Kupavani olib ketishi kerak. Ammo Qorqizni ko'rgan Mizgir uni sevib qoladi va ungasovchi qo'yadi.

II-parda. Berendeylar saroyi. Kupava shohga Mizgirdan arz qilmoqda. Berendeylar shohi Mizgirni muhokama qilib, hukm chiqarishga qaror qiladi. Xalq to'planadi. Qorqiz ham keladi. Shoh uning go'zalligidan, ammo sevgi tuyg'usini his qila olmasligidan hayratda qolgan. Qahri oshgan Yariloning rahmini keltirish uchun shoh Berendey Lel va Mizgirga Qorqiz qalbida muhabbat tuyg'usini uyg'otishga buyuradi.

III-parda. Ta'qiqlangan o'rmon. Yarilo kuni munosabati bilan nishonlanadigan bayram arafasida yosh-yalang davra xorovod-qo'shiq aytib o'ynaladigan qadimgi rus xalq o'yini) qurmoqda. Shoh Lelga kuylagan qo'shig'i uchun mukofot tarzida eng go'zal qizdan bo'sa olish huquqini beradi. Lel Kupavani tanlaydi. Ko'zlar yoshga to'lgan Qorqiz odamlar nazaridan uzoqqa qochib ketadi. Bayramdan so'ng o'tloq bo'shab qolgan. Qorqiz chuqur qayg'uda, chunki Lel uni sevmaydi. To'sattan Mizgir paydo bo'ladi va unga bo'lgan muhabbat haqida ishtiyoq bilan so'z boshlaydi. Qorqiz Mizgirning sevgisini rad etadi. Leshiy va jonlangan sehrli o'rmon unga yordamga kelishadi. O'tloqda Lel va Kupava paydo bo'lishadi. Ular bir-birlarini sevib qolishgan. Qorqizga rashk alami azob beradi va u onasi Bahoroya murojaat qilishga qaror qiladi.

IV-parda. Yarilo vodiysi. Gullar bilan qurshab olingen Go'zal Bahor erta tongda ko'ldan chiqib keladi. U Qorqizga sehrli gulchambar in'om etadi. Qorqiz go'yo qayta tug'iladi. Zero, oldida paydo bo'lgan Mizgirning tuyg'ulariga javob bera oladi. Mizgir uni sevishini biladi. Xalq yozning birinchi kunini kutib olish uchun vodiyya to'planadi. Sevishgan juftliklar qatorida Qorqiz va Mizgir ham donishmand shoh Berendey huzuriga kelishadi. Lekin quyosh nuri tegib ketgan. Qorqiz issiq taftidan hamda o'z muhabbatni otashidan eriy boshlaydi. Chorasizlikdan Mizgir o'zini ko'lga tashlaydi. Xalq Yarilo sha'nini sharaflaydi.

«Qorqiz» operasi Qorbobo, Leshiy va Go'zal Bahorning musiqiy obrazlari asosida tuzilgan orkestrning muxtasar muqaddimasi bilan boshlanadi. Qahrli Qorbobo - tabiatning qishki karaxtligi temsoli. Birdan xo'rozning qichqirig'i va qish tugayotganligi haqida xabar berayotgan Leshiyning ovozi eshitiladi.

Go'zal Bahorning sahnaga chiqib kelishiga qushlarning chug'ur-chug'ur sayrashi hamroh bo'ladi. Violonchellar ijrosidagi birinchi kuy – Bahoroy leytmotivi bo'lib, keyinchalik u ishtirok etadigan boshqa sahnalarda ham yangraydi. Kompozitor operaning musiqiy materialini uch xil mavzuga bo'ladi. Birinchi turga operaning leytmotiv sifatida muhim mavzu va ohanglarni kiritadi. Ikkinci turga ariyalar va qo'shiqlarini, kuychan rechitativlarni kiritadi. Bular – «xotiralar mavzusi»dir. Uchinchi turga aniq vaziyatlarni tavsiflovchi kuylar kiritiladi. Qorqiz musiqiy obrazi ikki mavzu asosida ifodalangan. Birinchi mavzu muqaddimaning yakunida fleyta orqali to'la yangraydi, uning ohanglari asosida «Dugonalar bilan rezavor mevalar tergani bormoq» ariyasi tuzilgan:

Ariya engil va nafis cholg'u kuyi xususiyatiga ega. Qorqiz nozik, sodda, ammo sovuq va hissiyotsizdir. Ariya uch qismli shaklda yozilgan bo'lib, o'rtasida yangi kantilena kuyi birmuncha samimiylashtiriladi. Qorqizni insonlar o'ziga torta boshlaydi. Qorqiz va Kupava ishtirok etgan sahnada ikkita kontrast qiyofa berilgan: Qorqiz – nozik va ta'sirchan bo'lsa, Kupava – ehtirosli va ochiq fe'l sohibasi. «Qorqiz» ariettasida insoniy tuyg'ular uzluksiz nafis kuy bilan ifodalanganadi, sol-minor tonalligi kuy sol-major tonalligiga o'zgaradi.

Operada yakkaxon nomerlarni kichik hajmli qo'shiqlar, ariozolar, arietta kavatinalar tashkil etadi. Shuningdek, ko'p sonli simfonik lavhalar hamda yakkanavoz cholg'u sololari ham uchraydi: Bahorning «Qorqiz, bolajonim, iltijolaring ne uchun» rechitativida skripka solosi; shoh Berendey kavatinasining ikkinchi qismida alt solosi; «Bahor» ariyasida, Lel ariozosida klarnet solosi va h. k. Lel sahnada paydo bo'lganida unga deyarli har gall klarnet ijrosidagi asl xalq kuylari yo'ldosh bo'ladi. Lelning ravon, cho'ziq, xalqona lad almashinuvni kabi bo'lgan uchinchi qo'shig'i operaning eng yaxshi nomerlaridan biridir:

Qorqiz obrazining avis nuqtasi «erish» sahnasida namoyon bo'ladi. Bu yaxlit rivojlanuvchi lirik monologdir. Asosiy mavzu sifatida «Shoirona tuyg'ular» kuyi ikki marotaba berilgan. Sahnaning tonal rivoji nomdosh lad va kontrast ohanglar qiyosiga qurilgan: do diez-minor – re bemol- major.

Sahnadagi erkin ariozo, bir-biriga uzviy bog'liq bir necha lavhalardan tashkil topgan. Bunda kompozitor yarim chin, yarim afsonaviy bo'lgan mavjudotni tasvirlashda avvalgi motivlardan foydalangan. Muqaddima qismidan so'ng, («Buyuk shoh» so'zlari aytilishi bilan), IV-pardadagi Qorqiz va Mizgir duetidagi birinchi mavzu va qahrli Yariloning leytmotivi beriladi. Erish sahnasi «Menga ne bo'ldi? Rohatmi yo mamot? Qanday zavq! Qanday tuyg'ular lazzati!» so'zlari bilan boshlanadi:

Mavzusi do diez-minor, sol diez-minor, mi-major tonalliklarining dominanseptakkordi bilan yakunlanadigan ikki taktli motivga bo'linadi. Bu musiqada huzurbaxsh qyinoq va o'lim sharpasini oldindan his etish tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. Qorqizning oxirgi: «O, azizim, senikiman ...» so'zlari ta'sirchan va yorqin tuyg'ularga to'la. Mizgir choraszlikdan o'zini ko'lga tashlaydi. Yarilo–Quyosh berendeylarning go'zal zamini uzra tantanali, ulug'vor nur sochadi. Ularning erlarida endi uyg'unlik va tinchlik hukmron. Opera qudratli Berendeylar xori Lel boshchiligida Yarilo – Quyosh sharafiga ulug'lovchi, sharafovchi qo'shiq ijro etadi va opera tantanali madhiya bilan yakun topadi. Xor va orkestr yorqin, shodiyona yangraydi.

«Uch mo'jiza» simfonik manzarasi.

N.A.Rimskiy- Korsakovning operalarida orkestr katta ahamiyat kasb etadi. Kompozitor operaga dam-badam simfonik lavhalarni kiritgan. Bu akt oldi qisqa kirish tuzilmalari yoki butun simfonik antraktlaridir. Kompozitorning eng yorqin simfonik operalaridan biri «Shoh Sultan xaqida ertak» operasıdır. 1899 yilda A.S.Pushkin tavalludining yuz yilligiga bag'ishlab yozilgan bu opera shoir syujetiga asoslangan bo'lib, undagi cholg'u musiqa parchalari dasturli xarakterga ega. Ular sahnada ko'rsatilgan syujetning ayrim holatlarini tasvirlaydi. Operaning partiturasida

ertakdan she'riy parchalar berilgan. Libretto mualifi - V.Belskiy. Bu opera Pushkinning ertagidek shodiyona xarakterga ega.

IV sahnaning ikkinchi ko'rinishi oldidan berilgan cholg'u muqaddimasi «Uch mo'jiza» o'ziga xos simfonik asardir. Uning kirish tuzilmasi – go'zal tilsimlarga boy Ledenets shahrining musiqiy obrazidir.

Sahna ko'rinishning keyingi qismlari birin-ketin vujudga keladi. Yangi mo'jiza yuzaga kelishi truba sadolari orqali «bildiriladi».

Birinchi mo'jiza – oltin yong'oq chaqayotgan sehrli olmaxon. Bu obraz «Bog'damikin, polizdamikin» deb nomlangan rus xalq o'yinli qo'shig'i bilan tasvirlangan bo'lib, fleyta-pikkolo cholg'usida jaranglaydi, jo'rnavozlik vazifasi esa damli va torli cholg'uga topshirilgan. Ksilofon va chelesta cholg'ularining kiritilishi musiqaga ajoyib xarakter bag'ishlaydi:

Ikkinci mo'jiza – dengiz to'lqinlaridan o'ttiz uch pahlavonning kelib chiqishidir. Pahlavonlar obrazi quyi registrdagi akkordli marsh mavzusi bilan ifodalangan. Bu mavzu asosan damli cholg'uga topshiriladi:

Uchinchi mo'jiza – oqqushning sohibjamol shoh qiziga aylanishi. Uning ariyasida turli xil mavzular eshitib turiladi – cho'zimli va erkin taralayotgan kuy mo'jizaviy sehrli musiqa bilan almashinib turadi. Birinchi bor bu kuychan mavzu goboy damli cholg'usida eshitiladi:

Fragmentning oxirgi ikki qismida dengiz tasviri turlicha ko'rsatilgan - pahlavonlar sahnasida dengiz shiddatlari va jo'shqin bo'lsa, shoh qizi sahnasida esa dengiz mayin va tinch. Bu operaning simfonik ko'rinishida biz Rimskiy – Korsakov asarlariga xos bo'lgan uslub xususiyatlarini ko'ramiz. Bu erda leytmotivlarning etakchi roli, mavzularni mohirlik bilan o'zgartirish, garmonik va tembr rang-barangligi, shakllarning aniqligi aks etadi. «Uch mo'jiza» simfonik ko'rinishi «Shoh Sultan haqida ertak» operasidan avval alohida ijro etilgan bo'lib, juda katta muvaffaqiyat qozongan edi.

Simfonik ijodi. «Shahrizoda» N.A.Rimskiy-Korsakovning simfonik asarlari uning ijodida muhim yo'nalishni tashkil etadi. Simfonik asarlarining qariyb barchasi 90-yillarning boshiga qadar ijod etilgan edi. Kompozitor turli xildagi dasturli va nodasturiy asarlar yaratdi, Shular qatoriga uchta simfoniya, simfonietta, syuitalar, bir qismli pesalar, turli xil cholg'ular va orkestr uchun kontsert asarlari xamda uchta kantata kiradi. Kompozitorning simfonik ijodi uning operalaridagi orkestr fragmentlari hisobiga ham boyib borgan.

N.A.Rimskiy-Korsakovning simfonik uslubi M.Glinka va M. Balakirevning musiqiy shuningdek, romantizm namoyandalari bo'lgan G.Berlioz va F.Listning ta'siri ostida shakllandi.

N.A.Rimskiy-Korsakovning orkestr uslubi faktura unsurlarining vazminligi, orkestr to'qimasining shaffof va engilligi, ohanglarning to'laqonligi va yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Uning so'nmas ijodiy xayolida musiqaning tembrlar aro eshitilishi orkestrdagi o'ziga xoslikning siridir. Rimskiy-Korsakov simfonizm janri chizig'ini uchta rus qo'shig'i mavzusiga yozgan uvertyurasida, birinchi simfoniyasida, fortepiano uchun kontsertida, skripka va orkestr uchun yaratgan fantaziyasida, «Serb fantaziysi», hamda «Ispan kaprichchiosi»da taqdim etdi. U Glinka an'analarini davom ettirib, «Kaprichchio»da Ispaniya hayotining yorqin chizgilarini berdi, milliy fe'l-atvor belgilarini, ispan musiqasining alohida xususiyatlarini ko'rsatdi. Yorqinlik, ohanglar yangrashidagi turfa rangdorlik, ritmlar jilosi – bularning barchasi bu asar uchun xos. «Kaprichchio»ni orkestr uchun o'ziga xos kontsert, deb atash ham mumkin. Uning tarkibiy besh qismi beto'xtov ijro etilib, IV qismi alohida ajralib turadi. Uning kadentsiyalarida orkestrning turli cholg'ulari uchun yozilgan sololar berilgan. Rimskiy-Korsakov orkestr «xati»ning ustasi sifatida cholg'u cholg'ulari tembri va virtuoz imkoniyatlarini keng ochib beradi. Uning dasturli asarlari rus simfonizmining go'zal namunalari sifatida namoyon bo'lib, ular asosan manzarali epik xarakterga ega. Bunda ma'lum dastur sifatida ertak, afsona, tabiat hamda turmush manzaralari namoyon bo'ladi. Kompozitor: «xalq qo'shiqlari asosida ham dastur yotadi», deb hisoblar edi.

N.A.Rimskiy-Korsakov simfonik ertak janrini yaratdi. «Sadko» va «Antar» nomli musiqiy ko'rinishlari simfonik usulning tashkil topishida muhim o'ringa ega.

«Sadko» musiqiy ko'rinishida qo'shiqchi hamda yangi erlar kashfiyotchisi haqidagi qadimiy rus afsonasining bir lavhasi haqida so'z boradi. Novgorodlik guslyar o'zining guslisida raqs ijro etadi. Shijoatli, chaqqon musiqa sadolari ostida dengiz shohi, dengiz malikasi, oltin baliqchalar – barcha raqsga tushadi. Suv osti sultanati aysh-ishratga beriladi, to'lqinlar qaynab chiqadi va bundan bir damda go'yo kemalar cho'kib ketganday bo'ladi. Shunda Sadko gusli torlarini uzib yuboradi, dengiz sathi yana mavjlanib tinchlanadi. Shu sahna orqali san'atning qudratli sehri namoyish etilgan.

Bu musiqiy asar birinchi bor 1867 yilning dekabrida Rus musiqa jamiyatining kontsertida Balakirev rahbarligida ijro etildi va katta muvaffaqiyat qozondi. «Sadko»dan boshlab Rimskiy-Korsakov ijodida dengiz mavzusi muhim o'rinni tuta boshlaydi. Kompozitor va tanqidchi Z.Serov bu haqda shunday yozgan edi: «Bu musiqa bizni haqiqatdan ham to'lqinlar qa'rige olib ketadi, biror narsani unga monand so'zlar bilan ifoda etib bo'lmaydi... Bu asar musiqa vositasida ulkan san'at bilan tasvirlay oladigan iste'dod sohibiga tegishlidir.» Rimskiy-Korsakov o'ttiz yil o'tgach 1897 yilda ushbu simfonik ko'rinishning ko'pgina fragmentlaridan foydalanib, «Sadko» nomli operasini yozdi.

«Antar» nomli musiqiy ko'rinish ajoyib, shoirona sharq afsonasi asosida yozilgan. Uzoq cho'llarda yosh arabi Antarni sarson-sargardon va darbadar kezmoqda. Odamlardan va hayotdan uning ko'ngli sovgagan. U e兹gulik timsoli bo'lgan sehrgar Gul-Nazarni qutqaradi, Gul-Nazar esa minnatdorchiligini izhor etib, unga hayotning uch asosiy lazzatini – qasos, hukmdorlik va muhabbatni tuhfa etadi. Syuitada turfa rangli ko'rinishlar va obrazlar berilgan. Kompozitor ba'zi bir asl arab kuylaridan ham foydalangan.

N.A.Rimskiy-Korsakov keyinchalik ham bir qator asarini Sharq mavzusiga bag'ishlaydi. Ular orasida «Ming bir kecha» syujetiga yozilgan «Shahrizoda» nomli musiqiy ertak simfonik syuita ham bor. Kompozitor bu asarni ikki oy davomida yozib tugatadi. Muallif o'zining «Mening musiqiy hayotim solnomalari»da shunday deb yozgan edi: «Shahrizoda»ni yozayotganimda menga – «Ming bir kecha»dan olingan alohida, bir-biri bilan bog'liq bo'limgan va syuitaning to'rt qismiga tarqatib tashlangan epizodlar va ko'rinishlarda dastur – asos bo'lgan edi.

Syuita musiqiy mavzulari uzviy birlashgan to'rt qismdan iborat. Kompozitor dastlab har bir qismni alohida o'zining nomi bilan atagan edi. 1-qism – «Dengiz va Sindbod kemasi», 2-qism – «Qalandar-shahzoda hikoyasi», 3-qism – «Shahzoda va malika», 4-qism – «Bag'dod bayrami va mis suvoriy turgan qoyaga urilib cho'kayotgan kema» deb atalgan edi. Keyinchalik esa kompozitor barcha nomlarni olib tashlaydi.

Syuitada arab Sharqi manzaralari va obrazlari, sharqona san'at, Sharq tabiatini va turmush tarzi shoirona ranglarda tasvirlangan bo'lib, bularning barchasida sharqona ertak nafasi ufurib turadi.

Arab ertaklari asosida tuzilgan «Ming bir kecha»ning umumiy dasturi qo'yidagilardan iborat: «Barcha ayollarning makkoraligiga hamda bevafoligiga ishonchi komil bo'lgan Shahriyor o'ziga xotinlarining har birini nikohning birinchi kechasidan so'ng qatl etishga so'z beradi; lekin 1001 kecha davomida aytib bergen ertaklari bilan uni qiziqtira olgan malika Shahrizoda o'z hayotini saqlab qoladi, ertaklarga qiziqib qolgan Shahriyor qatlni doim ertaga qoldirib boradi va, oxir-oqibat, o'z fikridan mutloqa voz kechadi. Shahrizoda unga shoirlarning she'rlarini hamda qo'shiqlarning so'zlarini misol keltirib, ertakni ertakka, hikoyani hikoyaga ulab, juda ko'p ajoyibotlar haqida so'zlab beradi. Afsonada aytiganidek, shu tarzda ming va yana bir kecha o'tib ketadi. Ertak so'ngida Shahriyor xotinini afv etadi.

«Shahrizoda» syuitasi turli xarakterdagi mustaqil lavhalarni o'zaro taqqoslash asosiga qurilgan. Syuitaning barcha qismlarida Shahrizodaning musiqiy obrazi yangraydi va doimo ustuvor qoladi.

Barcha qismda kontrast xarakterga ega ikki asosiy mavzu – Shahriyor va Shahrizoda mavzulari birlashgan. Shahrizoda mavzusi barcha qismlarda etakchilik qiladi. Syuita yakunida avvalgi qismlar mavzusi takror paydo bo'ladi.

Syuitaning har bir qismi alohida musiqiy ko'rnishni tashkil qiladi. Rimskiy-Korsakovning ertak operalari kabi «Shahrizoda»da ham musiqiy dramaturgiyaning epik tamoyillari (kontrast, taqqoslash) namoyon bo'lgan. Mavzularining variatsion rivoji va jumjimadorligi asosiy usul bo'lib hisoblanadi.

Sekin-asta ijro etiladigan kirish qismi butun asar uchun muqadimma bo'lib xizmat qiladi. Unda asarning ertakka xos va sharqona ko'lami to'liq belgilab berilgan. Kirish qismida o'zaro qarama-qarshi ikki mavzu yangraydi. Bo'rttirib berilgan Sulton Shahriyor mavzusi ifodali va ta'sirchan. Sulton mavzusi:

Torli va damli cholg'ular bu mavzuni o'rta va quyi registrda ijro etadi (miminor). Shiddatli ritm asosiga ega kirish ohangi bilan qahrli, hukmdor sulton obrazni namoyon bo'ladi.

Shahrizoda mavzusini skripka ijro etadi, unga arfa jo'r bo'ladi. Mavzu mi-doriyda yozilgan bo'lib, uning kuylanuvchan surati sharqona naqshlarni eslatadi.

Shahrizoda mavzusi:

Keyingi bayonda mavzular erkin tarzda qaytadan ma'no kasb etib boradi. Masalan, muqaddimaning ikkala mavzusi ham syuitaning birlinchi qismida dengiz mavzusiga aylanadi (mi major). Syuitaning o'ziga xos mavzuli yaxlitligi va to'g'ridan-to'g'ri simfonik rivojlanishi uni simfoniya janriga yaqinlashtiradi.

Shahrizoda va Shahriyor mavzulari syuitada leytmotiv vazifasini bajaradi. Mavzularning mohirona variatsion o'zgarib borishi oqibatida turli xil obrazlar yaratildi. «Shahrizoda»ning o'ziga xosligi ham shunda bo'lib, Rimskiy-Korsakovning o'zi bu haqda shunday degan edi: «Mening syuitamdan doimo bir xil shoirona g'oyalar va tasavvurlar bilan bog'liq leytmotivlarni bekor izlashadi. Barcha ko'rinish turgan leytmotivlar, ko'p hollarda, toza musiqiy material yoki simfonik rivojga berilgan ohanglardan boshqa narsa emas». Mavzular yaqqol bo'rttirib berilgani uchun mazkur asar yorqin tusga ega. Kompozitor asl Sharq musiqalaridan qariyb foydalanmasada, musiqada sharqona uslubdagi mavzu ohanglari yangraydi. Shu jihatlari bilan «Shahrizoda» o'ziga xos betakror va yorqin asardir.

Diniy mavzudagi musiqa. N.A.Rimskiy-Korsakov saroy qoshidagi kapella boshqaruvchisining yordamchisi vazifasida 11 yil davomida faoliyat yuritdi. U kapellaning regentlik va cholg'uchilik sinflarini tashkil etishda faol ishtirok etib, o'quv dasturlarini ishlab chiqdi. Shuningdek, cherkovda kuylash sohasida amalga oshirilgan islohotlarda ham qatnashdi. Kapellaga yangi Obixodni(tuzish va uni garmoniyalashtirish topshirilgan edi. Rimskiy - Korsakov va A.K.Lyadov etakchiligidagi bir guruh kapella o'qituvchilarini «Tungi amallar vaqtida qadimgi qo'shiqlarni kuylash» nomli risolani nashri ustida ish olib bordilar. Dastlab 1883 yilda «Tungi amallar vaqtida qadimiy qo'shiqlarni kuylash»ni bir ovozli ko'rinishda tayyorlab tugatishadi, 1888 yilda esa risolaning ko'p ovozli ko'rinishi tayyorlanadi. Bu ijodiy ishning ahamiyati haqida Rimskiy - Korsakov shunday degan edi: «Biz risolani nashr etib, Sinod Obixodi maqomlarini tabiiy va to'g'ri garmoniyalashtirish orqali barchaning ko'zini ochdik». Bular diatonikaga tayanishdan, asosiyakkord vositasi sifatida uch tovushlikni, doimiy to'rttovushlik akkord tuzilishini qo'llashdan iborat.

N.A.Rimskiy - Korsakov 1883-1885 yillar mobaynida qirqta qo'shiq yaratgan bo'lib, ulardan o'n sakkiztas o'zi yaratgan musiqa namunalari sirasiga kiradi. Musiqashunos tanqidchilar ularda kuy va garmoniya go'zalligini topmasalar ham, melodik va garmonik uslublarning tashqi effektlardan tozalash vazifasi mohirona bajarilganligini aniqlashgan edi. Kompozitor qadimiy monodiyalarini ko'p ovozli qayta ishslashning yangi yo'llarini ochib berdi. Diniy aqidalarga chuqur e'tiqodiy oilada o'sib ulg'aygan kompozitor o'z xotiralarida shunday yozgan edi: «otam har kuni Evangelie hamda diniy va axloqiy mazmunga ega bo'lgan turli xil kitoblarni mutolaa qilib, ulardan doimo turli xil ko'chirmalar olardi».

Onasi uchun esa «din - qalb ehtiyoji» edi. Rimskiy-Korsakovlarning uyi Tixvin daryosi qirg'og'ida joylashgan bo'lib, uning ro'parasida Tixvin erkaklar monastiri ham bor edi. Monastirdan olgan taassurotlari Rimskiy - Korsakovning asarlarida ma'lum aks etgan. Masalan, kompozitor rus mavzularida yozilgan «Monastirda» nomli torli kvarteti finalida cherkov mavzusidan foydalangan; Belyaev xotirasiga bag'ishlab yozgan orkestr uchun «Qabr ustida»

prelyudiysi xotiralarida yozilganidek: «Tixvinda o'tgan bolalik chog'laridan xotiramda qolgan monaxlarning dafn marosimiga taqlidan Obixoddan olingen panixida mavzulari» asosida yozilgan; 1888 yilda Obixod mavzulariga yozilgan «Yorug' bayram» yakshanba uvertyurasi ham cherkov kuylariga asoslangan.

N.A.Rimskiy – Korsakov yaratgan diniy musiqalar Sinod xori repertuariga kiritilgan edi. A.V.Preobrajenskiyning fikricha, Rimskiy – Korsakovning ishlanmalari «ko'pgina yangiliklarni yaratdi, xatto avvalgi cherkov arboblari orzu qilgan, cherkov musiqiy asarlariga zarur, yangi, ma'lum ma'noda sog'lom, o'ziga xos rus unsurini kiritdi».

Chaykovskiy ham, Taneev ham o'z ijodlarida qo'shiq-kuylarni yaratishda diniy mavzularga murojaat qilishgan. Rus mumtoz kompozitorlari cherkov kuylariga milliylik olib kirishga va uning madaniy saviyasini ko'tarishga muvaffaq bo'lishdi.

N.A.Rimskiy-Korsakov ijodining ahamiyati. N.A.Rimskiy – Korsakovning ijodi XIX asrga doir bo'lgan rus klassik musiqasining taraqqiyotiga bir qadar yakun yasadi. Shu bilan birga uning ijodi XX asr boshidagi rus klassik musiqasining yangi tarixiy bosqichini ham boshlab berdi. Rimskiy – Korsakov tom ma'noda, yosh zamondoshlari I.K.Glazunov, A.K. Lyadov va I.F.Stravinskylarning ilk ijodiy davrida, ma'lum darajada A.N.Skryabin hamda S.V.Raxmaninovning orkestr sohasidagi tafakkuriga ijobiy ta'sir o'tkazdi, musiqada yangi yo'llar kashf etdi. Rimskiy- Korsakovning koloristik (ranga-rang) fikrlari, operalarining sehrli ohanglari sahna rassomchiligi taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Rimskiy- Korsakov operalarining sahnalarini bezatishda Vrubel, Vasnetsov, Korovin kabi musavvirlar ishtirok etishgan.

N.A.Rimskiy-Korsakovning dirijyorlik faoliyati ham katta ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, u rus kompozitorlari asarlarini targ'ib qilardi.

XIX asrda ko'pgina kompozitorlarning musiqiy asarlari uning muharrirligi ostida nashr qilingan va ijro etilgan edi. Rimskiy-Korsakov Musorgskiyning qalamiga mansub «Boris Godunov», «Xovanhina» operalarini qayta ishlab, orkestrga soldi; Borodinning «Knyaz Igor» operasini yakunladi, Dargomijskiyning «Tosh mehmon» operasini orkestrga soldi. Shuningdek, Balakirev hamda Lyadov bilan hamkorlikda Glinka operalarining partitularini tayyorlab nashr ettirdi.

N.A.Rimskiy- Korsakov qariyb 40 yil davomida pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. 200ta kompozitor, dirijyor va musiqashunoslarni tarbiyalab, voyaga etkazdi. Uning shogirdlari qatoriga A.K.Glazunov, A.K.Lyadov, A.S.Arenskiy, M.M.Ippolitov-Ivanov, I.F.Stravinskiy, Ya.Myaskovskiy, S.S.Prokofev va boshqalar kiradi.

N.A.Rimskiy – Korsakovning «Garmoniyadan amaliy ko'rsatmalar» va «Cholg'ulashtirishning asoslari» nomli olgan fundamental asarlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. «Musiqiy hayotim solnomasi» deb nom olgan avtobiografik kitobi qimmatli tarixiy hujjat hisoblanadi.

N.A.Rimskiy- Korsakovning asarlari mumtoz musiqiy meros oltin xazinasidan munosib o'rin olgan.

Asosiy asarlarni ro'yxati

Opera: (15). Shu qatorda «Pskovlik» ayol (1873), «Qorqiz» (1882), «Sadko» (1897), «Shoh malikasi» (1898), «Shoh Sultan haqida ertak» (1900), «O'lmas Kashchey» (1902), «Oltin xo'rozcha» (1909),

Orkestr uchun: 3-simfoniyalar, «Uchta rus xalq qo'shiqlari mavzulariga uvertyurasi», (1880), «Sadko» musiqa ko'rinishi (1892), «Ispan kaprichchio» (1887), «Shaxrizoda» syuita (1888), «Serb fantaziya» (1889).

Kantata: «Svitezyanka» (1897).

Cholg'u orkestr uchun: Fortepiano uchun kontsert (1883), skripka uchun fantaziya (1886), violonchel uchun serenada, trombon va damli orkestr uchun kontsert (1877).

Kamer – cholg'u ansambillar.

Orkestr bilan kamer-vokal ansambilari.

Romanslar – 79.

Kitoblar: «Garmoniyadan amaliy darsligi», «Cholg'ulashtirishning asoslari», «Mening musiqiy hayotim».

Nazorat uchun savollar

- N.A.Rimskiy – Korsakovning hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
2. N.A.Rimskiy- Korsakov ijodining estetik tamoyillari haqida so'zlab bering.
3. Kompozitorning opera ijodiga ta'rif bering.
4. «Qorqiz» operasi haqida so'zlab bering.
5. «Shahrizoda» simfonik syuitasi haqida so'zlang va undagi asosiy ikki mavzuni chalib bering.
6. N.A.Rimskiy – Korsakov ijodining rus musiqa madaniyatidagi ahamiyati haqida gapirib bering.

Ijodiy topshiriqlar

- Kompozitor ijodining ilk davrlarida yaratilgan «Sadko» musiqasi ta'sirchanligi, ifoda tarzining ravnligi, tasviriy vositalarning boyligi bilan tinglovchini lol qoldiradi; Sadkoning dengiz tubiga tushib ketish daqiqasida tovushlar ajoyib, g'alati gammasi uzra sirpanayotgan kuy bilan tasvirlangan. Bu gamma «Rimskiy-Korsakov gammasi» nomini olgan. Ushbu gamma tuzilishini aytib bering.

- «Qorqiz» operasining kirish qismi qanday mavzular asosida qurilgan?
- Lelning uchinchi: «Bulut momaqaldiroq ila maslahat qilardi» qo'shig'ini ijro etib bering. Bu mualliflik qo'shig'imi yoki xalq qo'shig'imi?

- «Qorqiz» operada shoh Berendey timsolida xalq donishmandligi tasvirlangan. U dono va adolatli bo'lib, go'zallik nimalarga qodir ekanligini biladi. Qorqizni ko'rib, uning go'zallidan hayratda lol qoladi. Berendey kavatinasining kuyi «Qudratli tabiat favqulodda go'zal ajoyibotlar ila limmo-lim to'la». Operaning ikkinchi pardasidagi Berendey kavatinasini eshitin va kuylab bering.

N.A.Rimskiy-Korsakovning «Shox Sultan haqida ertak» operasining oxirgi pardasi muqaddimasini tinglang. Ajoyib olmaxon, dengiz suvlaridan o'ttiz uch pahlavonning chiqib kelishi, Oqqushning suvdan ko'rinishi va uning go'zal malikaga aylanishi manzaralari qaysi janr, shakl va cholg'ular vositasida ifodalangan?

P.I.ChAYKOVSKIY
(1840-1893)

«Agar men rus musiqasi shuhratining keng yoyilishiga ko'mak berishim mumkin ekan - hamma narsani tashlab, vatanim va san'atim uchun foydam tegishi mumkin bo'lган joyga bormoqlik mening asosiy burchim emasmi»?

P. Chaykovskiy.

XIX asrning yirik kompozitorlari orasida Petr Ilich Chaykovskiy o'zining iste'dodi bilan alohida ajralib turadi. U kompozitor, dirijor, musiqiy tanqidchi, jamoat arbobi bo'lib, M.I.Glinka va A.S.Dargomo`jskiy an'analarining davomchisi sifatida rus klassik kompozitorlari qatoridan munosib joy olgan.

P.I.Chaykovskiyning estetik tamoyillari XIX asrning 60-70-yillarda rus jamoatchiligi madaniyati va badiiyatining yuksalishi, adabiyot, rassomchilik va musiqa san'atining gullab yashnagan davrida shakllandi. Dunyoni o'tkir fojaviy tuyg'u bilan his qilish ehtiyojini ertangi hayotga bo'lган qat'iy ishonch bilan uyg'un holatda idrok etish Chaykovskiyning muhim sifatlaridan biri edi.

Mohir ruhshunos-san'atkor sifatida u hayotiy haqiqatni, zamondoshlarining murakkab va ziddiyatl olamini ulkan emotsiyal kuch bilan o'z asarlarida aks ettirdi. O'z davri uchun xos bo'lган umumlashma qahramonlar obrazini yaratdi. Qalb tug'yonlarini tadqiq qiluvchi favqulotda ulkan iste'dodi, ruhiy jarayonning rivojlanishini, undagi sir-sinoatlar, hissiyotlarning nozik qatlamlarini mohirlik bilan tasvirlashi uni F.Dostoevskiy, L.Tolstoy, A.Chekhov kabi yirik rus ruhshunos adiblari bilan yaqinlashtiradi. U o'zining operalarida, Turgenev yaratgani kabi, ayollarning bir qator shoirona obrazlarini yaratdi. Tolstoy singari muhabbat g'oyasi uni ham o'limga qarshi turadigan yuksak hayotbaxsh kuch sifatida o'ziga jalb qildi. Ijodkorlik dahosi, hayratomuz ichki g'ayrat va zahmatkashlik hislatlari bois Chaykovskiy yuksak darajaga ko'tarildi.

P.I.Chaykovskiy insonparvar va taraqqiyparvar ijodkor sifatida kishilarning erkinligi va baxtga intilishini musiqada yorqin ifoda etdi va tarixda muhabbat va tabiat go'zalligining otashin kuylovchisi sifatida o'lmas iz qoldirdi. Chaykovskiyning ijodida aks etgan asosiy tamoyillar insonga mehr-muhabbat, rahm-shafqat, bag'rikenglik va samimiylidkan iborat edi.

Hayoti va ijodiy yo'lli. Petr Ilich Chaykovskiy 1840 yilning 25 apreli (7 may)da Votkinsk shahrida tog' injeneri, keyinchalik Alapaevsk va Nijnekamsk zavodlarining boshqaruvchisi, Peterburgdagi texnologik institut direktorining oilasida tavallud topdi. Chaykovskiyning bolalik davrlari Votkinsk shahrida, keyinchalik esa Volopaevskda o'tadi. Musiqaga qiziqish unda juda erta boshlangan. Uning quloqlarida doimo musiqa tovushlari yangrab turar edi. Musiqa haqidagi ilk taassurotni u onasidan oladi. Onasi Alyabevning «Bulbul» romansini kuylagani umrbod yodidan chiqmaydi. Oilada qatt'iy tartib o'rnatilgan va vazifalar taqsimlangan bo'lib, unga hamma rioya qilar edi. Mashg'ulotlar, sayrlar, ko'ngil ochar tadbirlar uchun ham aniq bir vaqt ajratilgan edi. Chaykovskiy 4 yoshga to'lganidan so'ng farang va nemis tillarini, 5 yoshida u fortepianova chalishni o'rgana boshlaydi. Bo'lajak kompozitor fortepiano ijrochiligi murakkabliklarini tezda o'zlashtirib oladi. Musiqa cholq'usi uning barcha ermak - ovunchoqlarining o'rnini bosadi. 10 yoshga to'lgach, Chaykovskiy Peterburgdagi huquqshunoslik bilim yurtiga o'qishga qabul qilinadi. Bilim yurtida xohlovchilar uchun musiqadan saboq berilar edi. Aynan shu erda Chaykovskiy musiqa bilan jiddiy shug'ullanadi.

P.I.Chaykovskiy simfonik kontsertlarga qatnashib, rus va G?arb kompozitorlarining asarlari bilan tanishadi, M.I.Glinkaning «Ivan Susanin», V.A.Motsartning «Don Juan» operalari unda juda katta taassurot qoldiradi. Keyinroq, u Glinkaning opera partiturasini o'rganib, uni rus operasining etuk namunasi deb hisoblaydi.

1854 yili onasining vabo kasalligi bilan to'satdan vafot etishi Chaykovskiy uchun kutilmagan zarba bo'ldi. Otasi bu vaqtida keksayib, kuchsiz qolgan edi. Ukalari va singlisining tashvishlarini u o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi.

1859 yilda Chaykovskiy huquqshunoslik bilim yurtini tugatib, titulyar maslahatchi unvonil bilan Adliya Vazirligida xizmat qilsada, musiqa uning qismati ekanligini tobora anglay boradi.

O'z xotiralarida: «Men musiqa nazariyasi bilan juda ko'p shug'ullangan edim va ertami-kechmi, albatta, kasbimni almashtirishimga ishonch hosil qildim», deb yozgan edi.

21 yoshida u A.Rubinshteyn tomonidan tashkil etilgan Rus musiqa jamiyatini qoshidagi musiqa sinflarida dars bera boshlaydi. Har qanday topshiriqni tez va sinchkovlik bilan bajarish ko'nikmasi unga bu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishga imkon berdi.

P.I.Chaykovskiy 1862 yilda Peterburg konservatoriyaning ikkinchi bosqichiga qabul qilinadi. Unga cholg'uchilik hamda musiqa yozish darslari bo'yicha taniqli pedagog A.Rubinshteyn, garmoniya va kontrapunkt darslaridan Zaremba ustozlik qiladilar. Peterburgdagi konservatoriya hamda rus musiqa jamiyatini ochilishida tashabbus ko'rsatgan kompozitor Anton Grigorevich Rubinshteyn erishayotgan muvaffaqiyatlari uchun Chaykovskiyi o'z stipendianti qilib tayinlaydi, hatto garmoniya darsida o'rniga mashg'ulotlar o'tishini ham ishonib topshiradi. Keyinchalik, Chaykovskiy o'zining fortepiano uchun oltita pesalarini, ekspromtini va xor uchun «A.G.Rubinshteynga salom» nomli asarini ustoziga bag'ishlaydi va A.Rubinshteyning «Iblis» operasiga, «Bobil minorasi» oratoriyasiga, bir qator simfonik asarlariga dirijyorlik qiladi.

P.I.Chaykovskiy boshqa cholg'ularni ham amaliy o'zlashtirgan edi. Professor Genrix Shtile qo'lida organni, mashhur virtuozi Sezar Chiardi rahbarligida esa fleyta chalishni o'rganadi. Chiardining kontsertlarida yosh kompozitor fortepianoda jo'rlik qiladi. Kontsert, opera va balet spektakllariga tez-tez qilgan tashrifi uning uchun amaliyot vazifasini o'taydi. Ayniqsa, Rixard Wagner dirijyorlik qilgan Betxovenning simfoniyalari uning xotirasida o'chmas iz qoldirdi.

1865 yilda Chaykovskiy xor va orkestr uchun kantatasi bilan Peterburg konservatoriyanini muvaffaqiyatli tugatgani uchun katta kumush medali sohibi bo'ladi.

1866 yilda Moskva konservatoriysi ochiladi. Tantanali ochilishda Chaykovskiy fortepianoda Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasidan uvertyurani chalib beradi. Konservatoriya direktori Nikolay Grigorevich Rubinshteynning taklifi bilan Chaykovskiy o'zining pedagogik faoliyatini boshlaydi va kompozitsiya, garmoniya, musiqa nazariyasi hamda cholg'uchilik fanlaridan talabalarga dars beradi. Keyinroq, u o'zining pedagogik tajribalari asosida 1872 yilda nashr etilgan «Garmoniyani amaliy o'rganish bo'yicha qo'llanma» o'quv darsligini yaratadi. Bu darslik keyinchalik nemis va ingliz tillariga tarjima qilingan edi. 1866 – 1870 yillarda belgiyalik musiqashunos va kompozitor Fransua Gevarning «Cholg'ulashtirish bo'yicha qo'llanma»sini farang tilidan, Robert Shumannning «Yosh musiqachilarga hayot qoidalari va maslahatlari»ni hamda I.Lobening «Musiqiy katekizis» larini nemis tilidan rus tiliga tarjima qiladi. Chaykovskiy Gevar qo'llanmasining tarjimasida Glinkaning asarlaridan misollar kiritganligini alohida ta'kidlash lozim.

Moskvada Chaykovskiy musiqiy hayotning markaziga tushib qoladi. Bu erda u bir qator musiqachilar, shoir va artistlar bilan tanishadi. Dramaturg A.N.Ostrovskiy, shoir A.N.Pleshcheev, V.F.Odoevskiy bilan yaqinligi, N.G.Rubinshteyn hamda musiqiy tanqidchi N.D.Kashkin bilan do'stligi, L.N.Tolstoy va V.V.Stasov bilan uchrashuvlari Chaykovskiyning realistik tamoyillari mustahkamlanishida ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

1868 yilda P.I.Chaykovskiyning «Qudratli to'da» guruhi kompozitorlari bilan tanishuvi alohida ahamiyatga ega. Bu kompozitorlar fikri bilan Chaykovskiyning qarashlarida tafovut bo'lsa ham, bu narsa ularning ijodiy hamkorligiga xalal bermadi, aksincha, unda dasturli musiqaga qiziqishni kuchaytirdi.

P.I.Chaykovskiy musiqiy tanqidchi sifatida ham ko'zga ko'rindi. 1869 yilda M.I.Glinka ijodining mazmuni haqida maqolalar yozadi. U «Milliy musiqanining rivojlanishi boshlangan yo'lidan ketishi kerak» deb hisoblaydi, ijodiy yo'lini endi boshlayotgan N.A.Rimskiy-Korsakovning yorqin kelajagini oldindan ko'ra bildi, norvegiyalik E.Grigning faoliyati xalq ijodiyoti bilan mushtarakligini ma'qulladi.

P.I.Chaykovskiy XIX asrning 70-yillarida ijod bilan astoydil shug'ullanadi. Bu davr uning uchun juda samarali va sermahsul yillar edi. Qisqa vaqt ichida 3 simfoniya, fortepiano va orkestr uchun birinchi kontsert, violonchel uchun «Rokoko mavzusidagi variatsiyalar», «Sarkarda», «Oprichnik», «Undina», «Temirchi Vakula» nomli 4 ta opera, uchta kvartet, «Oqqush ko'li»

baleti, fortepiano uchun «Yil fasllari» turkumini yaratadi. Musiqiy asarlarining targ'iboti bilan shug'ullangan dirijyor va pianinochi N.G.Rubinshteyn, nashriyotchi P.I.Yurgenson, sinfdoshi musiqiy tanqidchi G.A.Larosh doimo kompozitorni qo'llab turishadi. Bu davrda kompozitorning ijodi zavq-shavq, shodlik va kelajakka bo'lган umid bilan to'la edi.

Mashaqqatli mehnat, charchoqlar va nihoyat, 1877 yil oilasining buzilishi Chaykovskiyda asab kasalligini keltirib chiqaradi. Do'stlar maslahatiga bilan kompozitor chet elga jo'nab ketadi. Safarga chiqishida unga do'stlari, ayniqsa, kompozitor iste'dodining ashaddiy muxlisi N.F. fon Mekk ulkan moddiy yordam ko'rsatadi. N.F.fon Mekk bilan bo'lган ko'p yillik yozishmalari o'ziga xos kundalikdir.

Ijodga berilish Chaykovskiyi tushkun kayfiyatdan xalos qiladi. «Evgeniy Onegin» operasi va to'rtinchi simfoniyasi kompozitorning o'sha davrda yaratgan buyuk asarlarlaridandir. Bu asarlardan keyin Chaykovskiy ijodida fojiaviy chizgilar yaqqolroq namoyon bo'la boshlaydi. Endi uning asarlarida samimiy lirika o'rnini fojiaviy mohiyat egallay boshlaydi.

XIX asrning 70-yillari oxiri, 80-yillari boshlarida Chaykovskiy «Orlean qizi», «Mazepa» operalari, «Moskva» kantatasи, «Uyqudagi go'zal» baleti, «Torli orkestr uchun serenada», «Italian kaprichchiosi», «Tantanali 1812 yil uvertyurasi», skripka va orkestr uchun, fortepiano va orkestr uchun kontsertlar, «Mashhur ijodkor xotirasiga» triosini yozdi.

P.I.Chaykovskiy bir paytning o'zida musiqa jamoatchiligi ishlari bilan ham shug'ullanadi. 1885 yilda u rus musiqa jamoasi direktori sifatida Moskvadagi musiqiy hayotni yuksaltirishga katta hissa qo'shdi.

Umrining so'nggi yillarida Chaykovskiy Moskva, Peterburg, Tbilisi, Xarkov, Odessa shaharlarida o'zining asarlariga dirijyorlik qiladi. Shuningdek, 80-yillar oxirida Germaniya, Chexiya, Frantsiya, Angliyada, 1891 yilda esa AQShda dirijyor sifatida muvaffaqiyatlil kontsertlar ham beradi. Shunday qilib, Chaykovskiyning ijodi chet ellarda ham juda ovoza bo'lib ketadi. 1892 yilda Parijdagi Nozik San'at Akademiyasining muxbir a'zosi etib tayinlanishi, 1893 yilda unga Kembridj universitetining faxriy doktori unvonining berilishi Chaykovskiyning mashhurligidan dalolat beradi.

Kompozitorning so'nggi asarlarida yorug'lik va zulmat, ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim to'qnashuvi keskin tus oladi. Uning etuk asarlari qatorida «Afsungar qiz», «Piki xonim», «Iolanta» operalari, «Uyqudagi go'zal» va «Qarsildoq» baletlari, «Manfred» simfoniyasi, beshinchchi hamda fojiali oltinchi simfoniyalari, «Gamlet» uvertyura fantaziysi va boshqalar bor edi. «Manfred» (1885) simfoniyasidan boshlab Chaykovskiyning ijodiga dramatik mavzu kirib keladi va bu mavzular falsafiy qarashlar bilan to'yingan edi. Shu bilan birga musiqanining ruhiy jo'shqinligi ham ortib boradi. Uning oxirgi oltinchi simfoniyasi favqulodda ta'sir kuchiga egaligi bilan ajralib turadi.

Kompozitor umrining oxirgi yillarini Moskva ostida joylashgan Maydanovka va Klinda yashab o'tkazadi. Bu erga tez-tez kompozitorning do'stlari va shogirdlari – N.D.Kashkin, S.I. Taneev va boshqalar kelib turishar edi. Ular musiqiy yangiliklarni birga ko'rib chiqar va bahslashar edilar. Moskva va Peterburg shaharlaridan uzozda yashaganida, Chaykovskiyning o'ziga xos bo'lган xislati – bir kecha-kunduzda 14 soatlab ishlash qobiliyati namoyon bo'ladi. U «ilhom parisi – dangasalar qoshiga tashrif buyurishni yoqtirmaydigan va o'zini chorlaydiganlar qoshida paydo bo'ladigan mehmon» shiori ostida jonbozlik bilan ijodiy ishlarini davom ettirar edi.

Oltinchi simfoniya Chaykovskiyning muvaffaqiyatlil chiqqan oxirgi asaridir. 1893 yilning 21 oktyabrda Peterburgda kompozitor bu simfonianing ijrosiga o'zi dirijyorlik qiladi, shu yilning 29 oktyabrda esa kutilmaganda og'ir kasallikdan ulug' kompozitor vafot etadi. Hozir Klin shahrida Chaykovskiyning uy-muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu erda buyuk kompozitorning kitoblar, qo'lyozmalar, manzillar rus madaniyatining bebafo nodir narsalari yig'ilgan. Chaykovskiyning uy-muzeyi butun dunyoga ma'lum bo'lib, yiliga ikki yuz minggacha keluvchilarni qabul qiladi. Har yili ikki marotaba – tug'ilish kuni va xotira kunida shinamgina mehmonxonasi qadimgi Bekker royalini sehrli tovushlari bilan to'ldiriladi. Dunyodagi eng zo'r musiqachilar ijro etadilar.

Ijodining tavsifi. P.I.Chaykovskiy ijodiy merosining ko'lami nihoyatda kengdir.

Kompozitor rus va G?arbiy Evropa musiqa madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib olgani holda, rus xalq ijodiga va XIX asr shahar romansi ohanglariga tayanib, rus milliy musiqa san'atining mumtoz namunalarini yaratadi. P.I.Chaykovskiy lirk opera va rus mumtoz baletining yaratuvchisidir, uning fortepiano va skripka uchun kontsertlari jahon kamer-cholg'u musiqasiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Fortepiano uchun yozgan miniyaturlari va lirk romanslari ham o'zgacha jaranglaydi, o'ziga xos ohanglar kashf etadi.

P.I.Chaykovskiyning musiqasi lirk ko'rinishga ega. Kengaytirilgan kuy assosiif ifoda vositasi bo'lib, rus xalq qo'shiqchiligiga xos bo'lgan keng kuylash hamda inson nutqining jonli ifodali kuylovchanligi kabi xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oladi. P.I.Chaykovskiyning musiqasi yuqori saviyaga egaligi, shu bilan birga oddiyligi va ommabopligi jihatidan farqlanadi. Uning musiqiy asarlariga xos bo'lgan garmoniya va shakl musiqaning mazmunidan kelib chiqadi. Rangdor badiiy tafsilotlarga boy bo'lmasa ham, garmoniyaning turli-tumanligi, asarning barcha ifoda vositalari keskinlik va jo'shqinlikka hamda uning uzluksiz rivojiga bo'ysundirilgan, asarlarida sekventsiya usullaridan keng foydalanilgan. Faqat baletlarida emas, balki simfoniya, opera, kamer-cholgi va vokal musiqasida ham tez-tez raqs ritmlari, ayniqsa vals ritmi yangraydi. Glinka kabi u ham boshqa xalqlar – ukrain, italyan, farang xalqlarining qo'shiq va raqs kuylarini nozik his qiladi.

B.V.Asafev P.I.Chaykovskiyning musiqasini shunday talqin qiladi: «Tinglovchi go'yo shularni his etadi: musiqa ham unib-o'sadi, gullaydi, hissiyotlar ham xuddi o'zining qaramaqshiliga murojaat etib yana o'zining tanish qiyofasini qabul qilganidek boyiydi, unda qayg'u va shodlik, yorug'lik va zulmat, sevgi va nafrat o'zaro qiyoslanadi, asta-sekin rivojlanish jiddiylik bilan bog'lanadi».

Opera kompozitori sifatida P.I.Chaykovskiyning ijodiy yo'li murakkab va mashaqqatli kechdi. U tashqi harakatning maroqli bo'lishini talab qiladigan, reallikdan uzoq, ideallashtirilgan romantik qahramonlarni emas, balki o'zining zamondoshlariga yaqin bo'lgan odamlarni tasvirlaydigan, hayotni boricha qabul qilishga asoslangan realistik lirk operani yaratishga intiladi. U bunday badiiy natijaga faqat beshinch, ya'nii «Evgeniy Onegin» operasidagina erishadi.

P.I.Chaykovskiy, operalaridan farqli o'laroq, ilk simfonik asarlarida o'ziga xos bo'lgan til va uslubni belgilab oladi. Simfonik turkumning yangi talqini, cholg'uchilikdagi yangi uslub hamda garmonik rejalaridagi qat'iylik birinchi simfoniyasidayoq tug'iladi va shu tariqa u o'zigagina xos bo'lgan musiqa uslubini yaratadi.

P.I.Chaykovskiy ijodining tadqiqotchisi bo'lgan I.V.Tumanina shunday deb yozadi: «Hayot va mamotning azaliy kurashi mavzusi turli davrlarda yaratilgan bir qator badiiy asarlarda o'z aksini topgan. Onasidan erta ayriqan P.I.Chaykovskiy nazarida o'lim doimo insonlarning hayotini va ular uchun qadrli bo'lgan narsalarni shafqatsiz yakson qiladigan mash'um taqdir edi. U butun vujudi bilan o'limdan nafratlanardi. Barcha tirik mavjudot qachondir o'limga mahkum ekanligi, tabiat qonuniga binoan uning bag'rida yashayotgan jonzotlarning o'limi boshqalariga hayot baxsh etishi haqidagi fikrga xotirjam va faylasufona munosabatda bo'la olmasdi. U hayotni o'zining butun borlig'i, butun qalb qo'ri bilan sevardi, hayot jomini qizg'anchiqlik bilan sipqoradi. Tiriklik va o'limning abadiy, murosasiz kurashidan yuzaga kelgan fojia, hayot va mamot mavzusi ijodining ilk davridan boshlab fojiaviy xarakterdagi asarlarida aks etgan».

Simfonik ijodi. Oltinchi simfoniya.

P.I.Chaykovskiyning simfonik musiqasi hayoti davomida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ostrovskiy dramasiga asoslangan «Momaqaldoq» uvertyurasi birinchi simfonik asari bo'lsa, oltinchi simfoniysi va fortepiano uchun yozilgan uchinchi kontserti ijodidagi oxirgi asarlari bo'lib qoladi. Simfonik janrga mansub turli xil asarlarining orasida kompozitorning oltita simfoniysi alohida o'ringa ega bo'lib, bular qatoriga «Manfred» simfoniysi va bir qismli dasturli uvertyura fantaziya hamda poema va fantaziyalari – «Romeo va Julietta», «Fatum», «Bo'ron», «Francheska da Rimini», «Gamlet», «Sarkarda» nomli asarlari kiradi.

P.I.Chaykovskiy yaratgan to'rtinchi va beshinchi simfoniyalar uning ijodiy xazinasidan o'rinni organ mashhur asarlaridan hisoblanadi.

Kompozitor falsafiy izlanishlari orasida asosiy masala-inson hayoti va uning mohiyati simfoniya janrida aks etadi. Simfonik janr badiiy g'oyalarning rivojlanish jarayonini erkin va hech qanday chegarasiz ifoda qilishda katta imkoniyat yaratishiga kompozitorning ishonchi komil edi. Xaqiqiy dramaturg sifatida u asosiy ziddiyatlarni yaxlit holda, musiqiy obrazlarning to'qnashuvi va rivojlanishi orqali tasvirlab berishga intilar edi. Musiqada bularning barchasi turli xil musiqiy mavzularning qayta ishlanishida, bir-biri bilan taqqoslanishida, hamda ularning o'zaro harakatda, uzviylikda yoritib berilishida aks etadi. Mavzular orasidagi kontrastlar kuyda, garmoniyada hamda orkestr tembrlarida ham namoyon bo'ladi.

P.I.Chaykovskiyning ko'pgina simfonik asarlari dasturiy xususiyatga ega. Asarlari yoki asar qismalarining nomlanishida dastur yaqqol ko'rinadi. Misol tariqasida «Qish orzu-xayollari» simfoniyasi hamda «Romeo va Julietta» uvertyurasini keltirishimiz mumkin. «Manfred» simfoniyasida bayon qilingan dastur so'z orqali ifodalangan. Oltinchi fojiaviy simfonianing dasturi rasman e'lon qilinmagan bo'lsa ham, ammo ijod jarayonida kompozitor uchun u juda katta ahamiyatga ega bo'lган. Kompozitor bu simfoniyaga «Hayajonli» («Pateticheskaya») degan nom beradi. Ushbu simfoniyada hayot va mamotning azaliy kurashi umumlashma holda berilgan desak xato qilmaymiz.

Kompozitorning tabiatan dramatik xarakterga egaligi dasturli asarlari uchun badiiy syujetlarni tanlanishida ham o'z aksini topadi. Adabiy asarning bosh g'oyasini, to'qnashuvini gavdalantirish asosiy masala bo'lib qoladi. P.I.Chaykovskiy lirik-dramatik, lirik-fojiaviy simfonik asarlarning yaratuvchisi sifatida jahon simfonizmi tarixida o'z nomini qoldirdi. U katta simfonik o'lchamdagagi g'oyalarni va obrazlarni umumlashtirish kabi betxovencha tamoyillarni o'zining cholg'u asarlarida qayta tikladi.

XIX asrning rus musiqasi tarixida simfoniyani, Asafevning so'zi bilan aytganda, «tovushlarda aks etgan hissiy falsafa» darajasiga ko'tarish faqat P.I.Chaykovskiya nasib etdi. Uning simfonizmiga xos bo'lgan lirik holat, psixologizm, asar obrazlarining janriga ko'ra ajralib turishi, umumiyligida dasturga intilish – bularning barchasi simfonik uslubning harakatchan hamda shiddatli tasvirlanadigan vositalari orqali aniq namoyon bo'ladi.

Taneevga yozgan xatida P.I.Chaykovskiy simfoniyani – «musiqiy shakllar orasida eng lirik» shakl deb atagan, fon Mekkga yozgan xatida esa simfonianing ustun tomonlarini ochib berib, unda ijodiy xayol uchun imkoniyatlar kengligini ta'kidlagan edi. O'zaro kurash, keskin ixtilof va ziddiyatlarni gavdalantirish P.I.Chaykovskiyning dasturiy hamda nodasturiy cholg'u musiqalarini o'zaro yaqinlashtirib turadi.

P.I.Chaykovskiyning simfonik musiqasining eng muhim belgisi – simfoniya va opera janrlariga xos usullarning bir-biriga o'tishidir. Simfonik tizimi syujet rivojlanishiga ega bo'lib, obrazlar ziddiyati unda aniq ifodalanganadi. Ayniqsa, dramatik va fojiaviy xususiyatlarga ega bo'lgan avj qismida opera dramaturgiyasiga xos usullarning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Ayni shu uslub vositasida to'rtinchi va oltinchi simfoniyalarning birinchi qismlaridagi kulminatsion o'rnlari, beshinchi simfonianing esa sust harakatlanadigan ornida mash'um taqdir mavzusi ifodalangan. Operaning simfoniyaga bo'lgan ta'siri mavzularning tanlanishida va ularning rivojlanish xususiyatlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bu ta'sir keng kuy rivojiga ega bo'lgan lirik turdagи mavzularda ham, bir vaqtning o'zida opera so'zlashuvining nutqiy ifodasiga yaqin bo'lgan deklamatsiya ohanglarida ham yaqqol aks etadi.

Kompozitor hayotining so'nggi yillarda yozilgan asarlarda atrofidagi real hayotiy mavzular hamda mayjud sharoitdan qoniqmaslik, xavotir olish kabi tuyg'ular ifodalanganadi.

Hayotning fojiali ekanligi «Piki xonim» nomli operasida hamda oltinchi simfoniyasida aniq namoyon bo'ladi, shu g'oya rivojlantiriladi va mustahkamlanadi.

Oltinchi simfoniya. O'z davridagi kompozitorlar orasida eng zamонавији san'atkori darajasiga chiqqan P.I.Chaykovskiy, simfoniyadagi mumtoz hamda romantik san'atning muhim oqimlarini faylasuf va hissiyot egasi sifatida anglab etadi va o'zining oltinchi simfoniyasi bilan XIX asr simfonizmiga ma'lum ma'noda yakun yasaydi. Oltinchi simfoniya musiqasi hissiy

tuyg'ularga juda boy bo'lib, keskin kontrastli hamda yorqin obrazlari bilan ajralib turadi. P.I.Chaykovskiy bu simfoniyasida hamda to'rtinchchi va beshinchchi simfoniyalarida qo'llagan leytmotiv usullaridan voz kechgan bo'lsa-da, lekin unda mavzularni o'zaro ohangdorlik bilan bog'lab turuvchi ichki yaxlitlik mavjud.

Oltinchi simfoniyani (si minor) P.I.Chaykovskiy zo'r ilhom bilan «bir nafas»da yozadi. 1893 yilning fevralida yozib boshlangan simfonianing ilk ijrosi Peterburgda oktyabr oyida bylib etadi.

Sinfoniya tyrt qismdan iborat. I qism adajio tempida g'amgin xarakterdag'i muqaddima bilan boshlanadi. Fagot soloda pianissimo yangraydigan bu mavzu butun jarayonning negizini tashkil etadi:

Kyrinishini yzgartirib borib, bu mavzu alt va violonchel ijrosidagi I qismning (allegro non troppo) asosiy mavzusiga aylanadi:

Impulsiv birinchi mavzuga kuylanuvchan, sokin, dildan chiquvchi andante sur'tidagi (re-major) ikkinchi mavzu qarama-qarshi beriladi. Bu mavzu skripka va violonchellarda ijro etiladi:

Keng diapazonli bu mavzu fa diez, mi, re, si, lya – pentatonika davrasidan boshlanadi. Mavzuning kuchsiz hissadan boshlanishi P.I.Chaykovskiyning kypgina asarlariga xosdir. Qismning ycta bylimi asosan birinchi mavzuning ishlanmasiga qurilgan. Yuqori hayajonli daqiqalardan birida trombonlar «Avliyolar qatorida tinchitgin» motivi, ya'ni ylim motivini ijro etishadi.

I va II qismlar qarama-qarshi mavzularga ega, I qism-dramatik, II qism-lirk xarakterdadir. II qism (re major) – bu yorug' lirk besh hissali valsi. Bunga ovozlar uyg'unligidagi ritmik erkinlik va torli cholq'u ijrosidagi akkompanement engilligi sabab bo'ladi. Shu tufayli simfoniya mavzusi turlanuvchan va ko'ngilochardir:

Vals murakkab 3-qismli shaklda yozilgan. Uning ycta episodi I qismning asosiy fojiali obrazini eslatadi.

III qism – skertso-marsh. U o'z ichida skertso nafisligi va marshning qat'iy qadamlarini birlashtiradi. Torli-kamonli cholq'uning yumshoq shivir-shivir tovushlari ohangida marsh mavzusi kirib keladi:

IV qism – adajio. Uning ikkita bosh mavzusi deyarli bir xil bylib, ular g'am va alam bilan tyla. Finalda kurash yyq. Simfoniya mazmuni uning shaklini belgilab beradi:

Garchand bu musiqiy asar g'amgin yakunlansada, biroq butun simfoniya pessimistik kayfiyatdangina iborat deb bylmaydi; unda hayotga ishonch ruhi ham bor. Simfonianing qayg'uli yakuni simfoniya janri uchun yangilik edi. Oltinchi simfoniya va «Piki xonim» operasida P.I.Chaykovskiy musiqasida mavjud bylgan opera va simfonik janrga xos uzviy aloqadordik yorqin aks etadi. Oltinchi simfoniyani yakunlaganidan so'ng, P.I.Chaykovskiy: «Men unga o'zimning butun qalbimi bag'ishladim», degan edi.

Kompozitorning simfonik orkestr uchun syuitalarida, torli orkestr uchun serenadasida va «Italyan kaprichchiosi»da turli xil janrga mansub xususiyatlar mavjud.

P.I.Chaykovskiy kontsert janrida ham barakali ijod qilgan. Bu janrda yaratilgan jahon musiqiy adabiyotining eng yaxshi namunalari qatoriga uning fortepiano va orkestr uchun kontsertlari, skripka va orkestr uchun kontserti, rokoko mavzusidagi violonchel va orkestr uchun yozgan variatsiyalari kiradi.

Opera ijodi. «Evgeniy Onegin», «Piki xonim» operalari. «Opera, aynan, opera sizni odamlar bilan, musiqangizni esa haqiqiy tinglovchilar jamoasi bilan yaqinlashtiradi. Sizni alohida kichik bir to'garaklarning emas, balki qulay sharoitlarda butun xalq bisotiga ham aylantiradi», - deb yozgan edi P.I.Chaykovskiy.

Kompozitor tomonidan 10 opera yozilgan bo'lib, ular «Sarkarda», «Undina» (uning talabiga javob bermaganligi sababli yo'qotilan), «Cherevichki», keyinchalik «Temirchi Vakula» nomlangan opera, tarixiy mavzuda yozilgan «Oprichnik», «Mazepa», «Orlean qizi» nomli 3ta operasi, «Afsungar qiz» operasi; yorug', hayotbaxsh ruhga ega «Iolanta» operalaridan iborat. P.I.Chaykovskiyning opera ijodiyoti cho'qqisi sifatida tan olingan «Evgeniy Onegin» va «Piki xonim» operalari yuksak darajada hisoblanadi.

Kompozitorning ko'pgina operalari inson hayoti, uning o'y-fikrlari va his-tuyg'ulari asosiga qurilgan lirik-psixologik drama janrida yozilgan. P.I.Chaykovskiyning diqqat-e'tiborini «xuddi men kabi his qiladigan, haqiqiy, tirik inson kabi harakatlanuvchi syujetlar» jalg qiladi. Kompozitor opera janriga xos tamoyillarga izchil rivoja qilar edi. Evropa va rus musiqasining turli xil uslubi va yo'nalişlarini o'ziga singdirib olgan P.I.Chaykovskiy realistik operaning yangi turini yaratadi. U musiqiy obrazlardagi xarakter hamda vaziyatlarning haqqoniy bo'lishini operaning muhim sharti deb hisoblar edi. Kompozitor syujet muhabbat, rashk, vatanparvarlik kabi umumiy bir tuyg'uni aks ettirishi, libretto esa lo'nda va rivoj va operaning tutash shakllari – ariyalar, duetlar, xorlar, ansamblar uyg'un holda birikadi.

P.I.Chaykovskiy qahramonlariga yorqin individual tavsif berishga, obrazlarni harakatda tasvirlashga ahamiyat berar edi. Operalaridagi vokal partiyalarning boyligi va ta'sirchanligi ruhiy holatlarni dinamik darajaga ko'taradigan shiddatli simfonik rivoj bilan qo'shilib ketadi. Shu bilan birga u sahna qonuniyatlariga diqqat bilan e'tibor qiladi, operani «eshitibgina qolmasdan, balki ko'rish ham kerak» deb hisoblaydi, tarixiy mavzu yoki maishiy turmushga oid bo'lган ko'rinishlarni sinchiklab tasvirlashga erishadi.

P.I.Chaykovskiy opera idealini tugal holatda gavdalantirib berishga birdan erishgan emas. 1878 yilda A.S.Pushkin poemasining syujeti asosida yozgan «Evgeniy Onegin» operasida ilk bor haqqoniy hayotiy asar yaratishga, oddiy odamlar hayotining «sirdoshi bo'lgani holda, kuchli dramasi bo'lgan» estetik ideal yaratishning uddasidan chiqadi.

A.S.Pushkinnning «Evgeniy Onegin» she'riy romanini P.I.Chaykovskiyiga opera syujeti sifatida opera xonandasini E.A.Lavrovskaya tavsija qiladi. P.I.Chaykovskiy A.S.Pushkin she'riyatining muxlisi edi. U A.S.Pushkinnning she'riy satrlari musiqiyligi va obrazlar mazmundorligidan lol qolgan edi. Kompozitor o'zi uchun yaxshi tanish bo'lган roman boblarini zo'r ishtyoq bilan mutolaa qilib, tez orada opera stsenariysini yaratdi.

Opera librettosini P.I.Chaykovskiy teatr akteri, musiqachi va shoir K.S.Shilovskiy bilan hamkorlikda yaratib, unga o'z she'rlarini ham kiritdi. Kompozitor syujet haqida shunday yozadi: «Ushbu operada sahna effektlari va harakatlar kamligini men aniq bilaman, biroq syujetning soddaligi, umumiy shoirona ruhi, insoniyligi A.S.Pushkinnning genial matni bilan uyg'unlashganda bu kamchiliklar mutlaqo sezilmaydi».

P.I.Chaykovskiy zo'r ko'tarinkilik bilan, zavq-shavqqa to'lib opera asari ustida tunu-kun ishladi. A.S. Pushkinnning she'rlari va obrazlari uni sehrlagandi go'yo. Kompozitor o'z akasiga «... Men Pushkin she'rlariga maftun bo'lib, Tatyana obrazini sevib qoldim va shu she'rlarga musiqa bastalayapman... nimadir meni shunga da'vat qilyapti, chorlayapti», - deb ma'lum qilgan.

Opera ustida ish jadal sur'atlar bilan borardi. Na kompozitorning omadsiz nikohi bois og'ir ruhiy zARBALAR, na ular bilan bog'liq uzoq muddatli kasallik, na bir yil davom etgan xorij safari bu ishga xalal bera olmadi. U boshidan kechirganlarini tezda unutib, o'zini o'ngalb oldi va avvalgidek zo'r ishtyoq bilan opera yozishga kirishdi va uni qisqa fursatda tugalladi. Kompozitorning S.I.Taneevga 1878 yilning 2 yanvarida bitgan maktubida «...Mening yozganlarim tom ma'noda ich-ichimdan quyilib kelardi, men ularni o'ylab topmadim, ularni zo'rma-zo'raki bitganim yo'q» degan so'zlarni o'qishimiz mumkin. Ma'lum muddat o'tib, P.I.Chaykovskiy buni yana bir bor tasdiqladi: «...agar qachondir chin dildan, syujet va qahramonlarga muhabbat bilan musiqa yaratilgan bo'lsa, bu «Onegin»dir. Men uni yozganimda huzurlanib, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan rohatdan titrardim».

«Onegin» kompozitorning io'rtinchi operasi va beshinsi yirik dramatik asari edi. Bu davrda P.I.Chaykovskiy ijodining eng yorqin va jo'shqin pallasiga kirgan edi. Konservatoriyanı tamomlaganidan keyin o'tgan 12 yillik davr mobaynida uning nafis didi va intilishlari aniq namoyon bo'lib ulgurgandi.

P.I.Chaykovskiyning mashhurligi, uning romanslari, simfonik asarlari va operalari yuksak saviyada yaratilgani tanqidchilar tomonidan chuqur e'tirof etildi. Kompozitorning «Onegin»gacha bo'lган opera faoliyatini qator yutuqlarga erishganiga qaramasdan, muvaffaqiyatli deyin mushkul. Avval yaratilgan operalaridan birortasi sahnada yashab

qololmadi, ularga bo'lgan qiziqish tezda so'nardi, lekin shu bilan birga u keskin tanqidga ham uchramagandi.

«Evgeniy Onegin» operasining premerasi 1879 yilning 17 martida N.G.Rubinshteyn rahbarligida bo'lib o'tdi.

«Evgeniy Onegin» romani janr xususiyatlariga ko'ra XIX asr rus psixologik nasriga xos. P.I.Chaykovskiy uni «lirk sahnalar» deb nomlagan. Unga qadar rus operasida bu kabi janr bo'limgan. O'sha davr opera adabiyotida faqat ikkita asargina o'sha davr hayotini aks ettirgan. Bular: Verdining «Traviata» va Bezening «Karmen»i edi.

A.S.Pushkin romanida dialoglar muhim o'rinni tutadi, so'shlashuv uslubi: luqmalar, savollar, murojaatlar yordamida sahna ko'rinishi tutib turiladi. Bu uslubiy o'ziga xoslik, tabiiyki, operaning musiqiy uslubiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Syujet mazmuni. Opera 3 parda, 7 ko'rinishdan iborat. Voqealar XIX asrda pomeshchik usadbasi (qo'rg'onida) va Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tadi.

I parda. Birinchi ko'rinish. Larinlarning qishloqdagi qo'rg'onchasi. O'y bekasi va enaga murabbo tayyorlashmoqda. Uydan Larinning qizlari Tatyana va Olganining qo'shig'i eshitiladi. Kech tushyapti. Dahqonlar o'rimni tugatib, an'anaga ko'ra, o'z xo'jayiniga bo'yalgan pichan bog'ini keltirishadi. Kutilmaganda mehmonlar: Olganining qallig'i Lenskiy va uning Peterburglik do'sti Onegin kirib kelishadi. Hamma yangi mehmonni quvонch va qiziqish bilan kutib oladi. Yoshlar sayr qilgani boqqa chiqishadi. Olga Lenskiy bilan dildan suhbatlashadi. Tatyana Oneginning e'tiboridan xijolat tortadi.

Ikkinchi ko'rinish. Tun. Tatyananing xonasi. Qiz allanechuk tuyg'ular og'ushida. Enagasi Filipevna uni eski hikoyalari bilan chalg'itishga urinadi, lekin Tatyananing xayolini Onegin band etgan. U sevib qoldi. Onegin Tatyana bir umr orzu qilgan insondir. Tatyana Oneginga sevgi maktubini bitadi: «Sen tushlarimga kirar eding, xayollarimda sen menga sevimli eding». Tatyana qalbida sirli kechinmalar tug'yon uradi. Tong otadi. Tatyana Oneginga xatini jo'natadi...

Uchinchi ko'rinish. Larinning qo'rg'onida meva terayotgan qizlarning qo'shig'i yangraydi. Tatyana yugurib keladi. U qattiq hayajonda – Onegin keldi. U Tatyananing xatini olgan! Qiz qattiq afsusda. Biroq endi kech! Onegin sovuqqina ohangda Tatyana saboq beradi: «O'zingizni idora qilishga o'rganing, har kim ham sizni mendek tushuna olmaydi. Tajribasizligingiz falokatga olib kelishi mumkin».

II parda. Birinchi ko'rinish. Larinlarning uyida bal. Tatyananing tug'ilgan kuni. Mehmonlarning liboslari, raqsulari, g'iybatlari shahar dabdabasiga o'rgangan Oneginning g'ashiga tegadi. U o'z achchig'ini Lenskiyga to'kib soladi va uning iztirobidan zavq olgan ko'yib butun oqshom Olga bilan raqs tushadi. Haqoratlangan Lenskiy Oneginning duelga chaqiradi.

Ikkinchi ko'rinish. Ayozli nahorda Lenskiy duel joyiga kelib, sekundanti Zaretskiy bilan Oneginning kutmoqda. Nihoyat, Onegin keladi. Do'stlar bir-biriga quroq o'qtalgani holda, buning bema'nilik ekanini anglab etishadi. Sekundant Zaretskiy duelga ishora beradi. Birinchi bo'lib Onegin o'q uzadi. Lenskiy yiqiladi. Onegin do'stining o'lganligini ko'rib, dahshatga tushadi.

III parda. Birinchi ko'rinish. Peterburgdagi aslzodalardan birining uyida bal. Mehmonlardan biri urush faxriysi Gremin eski do'sti Oneginning uchratib qoladi. Yaqinda xorijdan qaytgan Onegin Greminning Tatyana uylanganini bilmaydi. Knyaz Gremin do'stiga xotinini tanishtiradi. Onegin hayratda - uning qarshisida o'z qadr-qimmatini biladigan ayol turardi. Tatyana endi tarbiyaga muhtoj soddadil qiz emas. Oneginning tuyg'ulari junbushga keladi.

Ikkinchi ko'rinish. Onegin Tatyana bilan uchrashishga ko'p bora urinadi. Unga ishqiy nomalar bitadi. Javob bo'lavermagach, Tatyananing uyiga borgan Onegin uni o'zi yozgan xatlar ustida yig'lab o'tirgan holda ko'radi. Onegin hayajonda Tatyana qarshisida tiz cho'kib, unga sevgisini izhor qiladi. Ammo Tatyananing javobi qat'iy: «Men o'zgaga tegishliman, taqdirim hal bo'lgan. Men unga bir umr sodiqman!»

P.I.Chaykovskiy operasida qahramonlarning psixologik holati, ularning chiki iztiroblarini ifoda etishga alohida e'tibor qaratadi. Musiqiy obrazlarning dinamikasi, mavzularning uzviy rivojlanib va yangilanib borishi simfonizmni ta'minlaydi.

Har bir qahramonning obrazi o'ziga xos intonatsiyalar jamligida tavsiflanadi.

Asarda barcha harakatlar markaziy masala – xayolot va voqelik, ideallar va hayot o'rtasidagi nizoni yoritishga bo'y sundiriladi. Yosh Tatyana ning pok tuyg'ularini Onegin javobsiz qoldiradi. Hayot qonunlari beshafqat – u o'zini sevgan knyaz Gremin ga tur mushga chiqadi... Yuksak axloqiy tuyg'u – burchiga sodiq qolgan Tatyana, garchi unga bo'lган tuyg'ulari so'n magan bo'lsa-da, Oneginning sevgisini rad etadi.

Olgani ehtiros bilan sevgan, uni ideallashtirgan Lenskiy muhabbati navolariga pastkashlik raxna solganini payqaydi. Bu pastkashlikka qarshi isyon ko'tarib, Oneginni duelga chaqiradi va do'stining qo'lidan xalok bo'ladi.

Tatyana ni balda uchratgan Onegin ehtiroslarga beriladi, biroq u bilan vidolashishga majbur, zero o'rtalarida burch atalmish tuyg'u to'siq bo'ladi. Uchala pardada ham asosiy mavzu bosh qahramonlardan biri tomonidan ifoda etiladi. Birinchi pardada – Tatyana, ikkinchisida – Lenskiy, uchinchisida – Onegin. Tatyana va Lenskiy obrazlari Pushkin romanidagiga qaraganda dramatikroq.

Operaning musiqiy rivoji asosini mantiqan kengayib boradigan dramaturgiya tashkil qiladi.

Har bir personaj uzlusiz musiqiy rivojlanishda ochib beriladi. Har bir qahramon o'zining individuallashtirilgan musiqiy tavsifiga ega.

Opera sekvensiya (sol-minor) ko'rinishida bayon qilingan orkestr introduktsiyasi bilan boshlanadi. Bu elegik ohang operaning lirik muhitiga olib kiradi va Tatyana ning baxt haqidagi orzulari obrazi sifatida ta'riflanadi:

Keyinchalik bu mavzu operaning birinchi, ikkinchi va ettinchi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Birinchi pardada lirik harakat ekspozitsiyasi ro'y beradi. Ko'rinish Tatyana va Olganining XIX asr romansi uslubida yaratilgan «Slo xali 1 vo» (Eshitganmisiz) elegik dueti bilan boshlanadi. So'ng Larina va enaganing ovozlari qo'shilib, duet ohista, sokin kvartetga aylanadi.

Dehqonlar paydo bo'ladi. Ular xalq qo'shiqlariga yaqin bo'lgan hazin «Bolyat moi skoro nojenki» (Chaqqa oyoqlarim og'riyapti) va raqsbop ohangdag'i «Uj kak po mostu-mostochku» (Ko'prik-ko'prikcha bo'y lab) qo'shiqlarini kuylashadi.

Soddadil, serg'ayrat Olganining musiqiy portreti uning «Ya ne sposobna k grusti temnou» (Men qora qayg'uga qodir emasman) ariyasida beriladi. Olga ishtirokidagi keyingi dialoglar, ansamblarda uning obrazi o'zgarmaydi.

Lenskiy va Onegin paydo bo'lishi bilan musiqaning ohista maromi o'zgaradi. Operaning barcha yosh qahramonlari ishtirok etadigan kvartet har birining tuyg'ularini ifoda etadi: Tatyana hayajonda, «Ya dojdolas, otkro'lis ochi, dusha skazala: eto on!» (Men kutganimni topdim, ko'zlarim ochildi, yurak aytdi: bu o'sha!) hayajonli ohangi unga tegishli. Onegin sovuqqon, befarq. Olga va Lenskiy baxtiyor. Ko'rinishning lirik markazini Lenskiyning qahramonning shoironaligi va hayratini ifoda etgan «Ya lyublyu vas, Olga» (Men sizni sevaman, Olga) ariozosi tashkil qiladi.

Ko'rinish oxirida Lenskiyning «Moy dyadya samo'x chestno'x pravil» (Eng halol amakim) kichik ariozosi menuet ohangida jarang sochadi. U muloyim, befarq yigitning obrazini aks ettiradi. Ko'rinish g'aroyib ohang – Tatyana ning mavzusi bilan yakun topadi.

Ekspozitsiyali birinchi parda misolida ko'ramizki, P.I.Chaykovskiyda barcha asosiy opera shakllari musiqiy-sahna harakatining uzlusiz musiqiy rivojlanishida uyg'unlashadi, yaxlitlik hosil qiladi. Bu kabi yondashuv operaning barcha ko'rinishlari uchun xos.

Ikkinci ko'rinish to'laligicha Tatyana ga bag'ishlanadi. Ko'rinish Tatyana ning enagasi bilan dialogi, maktub sahnasi va enaga ishtirokidagi ikkinchi sahnadan iborat. Tatyana Oneginning maktub bitadi...

Maktub sahnasi rus va jahon musiqa adabiyotida eng ta'sirchan sahnalardan biri. U erkin rivojlanadigan monolog shaklida yozilgan. Unda qahramonning bir ruhiy holatdan boshqasiga o'tishi shoirona va haqqoni yaksiladi. Sahnada effektli xatti-harakatlar mavjud. P.I.Chaykovskiyning qahramon ichki tug'yonini shunday ifoda etadiki, uni bee'tibor ko'rish va tinglash sira mumkin emas. Odatda, operalarda monolog lirik chekinish sanaladi.

P.I.Chaykovskiyning novatorligi maktub sahnasining dinamikligi va uning lirik harakatning juda muhim qismi ekanida namoyon bo'ladi.

Maktub sahnasi orkestrda jarang sochadigan Tatyananing muhabbat mavzusi bilan boshlanadi:

Maktubning birinchi bo'limi – Tatyananing «Puskay pogibnu ya» (Mayli, o'lay men) ariozosi. Sekstali harakat bilan yuqoriga jadal rivojlanadigan ohang, kuzatuvning sinkopa ritmi – bularning hammasi musiqaga hayajonli tus beradi (re bemol major):

Keyin bu mavzuga kontrast tarzda yana Tatyananing orzulari mavzusi jaranglaydi. Mavzu-sekvensiya g'amgin xarakter kasb etadi. Tatyana hayratda. U Oneginiga iqrorlik maktubini yozishga qaror qiladi. Uning tuyg'ular va fikrlar murakkab harakati, ikkilanishlar bir-biri bilan ketma-ketlikda jarang sochadigan uchta sodda bo'limda o'z ifodasini topadi. Ularning har biri 3 qismli shaklda bayon qilingan. Goboy ijrosida jaranglaydigan lirik mavzu fonida rechitativ-deklamatsiya frazalar yangraydi: «Ya vam pishu. Chego je bole? Chto ya ehe mogu skazat? Teper ya znayu, v vashey vole, menya prezrenem nakazat» (Sizga yozyapman, nima uchun? Yana nima ham der edim. Bilaman, ixtiyorlingizda, meni nafrat-la jazolash). Bu mavzu orkestrdag'i ifodali mavzu bilan ulanib ketadi (re minor):

Mavzu rivojlanishining keskinlashishi yangi bo'limga olib keladi. Tatyana mahbubi bilan xayolan suhbat quradi. Monolog rivojidagi yangi to'lqin «Net, nikomu na svete ne otdala bo'serdtsya ya» (Yo'q, dunyoda hech kimga yuragimni bermasdim) so'zlari bilan boshlanadi (do major):

Keyin bu mavzu yorqin, orzuli «To` v snovedenyax mne yavlyalsya, nezrimo`y to` uje bo'l mne mil» (Sen tushlarimga kirarding, ko'rinasim menga sevimli eding) mavzusi bilan almashinadi:

Bu mavzu asta-sekinlik bilan lirik sokin-xayolchan mavzuga aylanadi, u bir necha bor keltiriladi, baland tovushdan boshlanib, asta-sekinlik bilan pasayib boradi. Kuy dastlab orkestrda (re bemol major), keyin ovozda «Kto to`, moy angel li xranitel» (Kimsan, mening farishtam va xaloskorim) so'zlarida jarang sochadi:

Ohangning bu kabi yuqoridan pastga tomon asta-sekinlik bilan pasayishini Lenskiyning birinchi ko'rinishdagi ariozosida va uning beshinchchi ko'rinishdagi «Chto den gryaduhiy mne gotovit?» (Kelayotgan kun menga nima hozirlar?) mavzusida kuzatamiz.

Har biri 3 qismli epizodning tematik materiali yangi, va ayni paytda bu epizodlar bir-biri bilan nozik intonatsion va tonal bog'lanish hosil qilgan.

Maktub sahnasining so'nggi qismida P.I.Chaykovskiy chinakam simfoniya ustasiga xos mahorat bilan yangi lirik mavzuni kiritadi. U dastlab orkestrda, keyin vokal partiyasida jarang sochadi, o'sib boradi, sevgi madhiyasi sifatida yangraydi:

Sahnaning dramatik keskinligi tong sahnasidagi cho'pon rojoki (nayi) ning sokin ohangi bilan almashadi. Tatyananing enagasi bilan duetinosi va muhabbat mavzusidagi orkestr yakuni yosh qizning muhabbati kuchidan dalolat beradi va uning obraz - kuchli, qobiliyatli naturasiga so'nggi chizgilar sanaladi.

Ikkinci ko'rinish kompozitor tomonidan bir-biridan o'sib chiqadigan o'zaro bog'liq mavzular asosida o'tuvchan intonatsion rivojlanish tamoyilidan foydalanganiga yorqin misol bo'la oladi.

Uchinchi ko'rinish – Oneginning Tatyana bilan suhbat. Ko'rinish meva terayotgan qizlarning «Devitso`-krasavitso`» (Qizlar-suluvar) xori bilan boshlanadi va yakun topadi:

Xor musiqasining yorqin xarakteri Tatyana va Oneginning vokal partiyalari bilan kontrast hosil qiladi. Orkestr Tatyananing sarosimasini ifoda etadi, uning qisqa vokal partiyasi pasayib boradigan intonatsiyalarga, kichraytirilgan septima intervaliga qurilgan, ular Tatyananing iztiroblarini ifoda etadi. Oneginning sovuqnligi va manmanligi «Kogda bo` jizn domashnim krugom ya ogranicshit zaxotel» (Qachon hayotimni oila davrasi bilan cheklashni istardim) ohanging hirgoyi, sokin, bir me'yordagi ritmi bilan ko'rsatib beriladi.

To'rtinchi ko'rinish – Larinlar xonardonidagi bal orkestr kirishi bilan boshlanadi, unda o'tadigan mavzular Tatyananing dramasini eslatadi. Betashvish bayram muhiti bal raqlari: vals,

mazurka orqali aks etadi. Vals davomida Lenskiy bilan Oneginning to'qnashuvi ro'y beradi. Lirik vals ohangi dramalashadi. Sahna kulminatsiyasi – Lenskiyning Onegin bilan janjali mazurka fonida sodir bo'ladi. Mazurkada Lenskiyning beshinchisi ko'rinishdagi o'limoldi ariyasi intonatsiyalari eshitiladi. Larinlar xonadonini tark etayotib, Lenskiy baxtini yo'qotganidan sokin qayg'uga to'la «V vashem dome» (Sizning uyingizda) elegik ariozosini ijro etadi. Arioza Tatyana, Olga, Larina, Lenskiy va Oneginning kvintetiga ulanadi. Kvintetda qahramonlarning har biri bo'lib o'tgan voqeaga o'z munosabatini bildiradi.

Beshinchisi ko'rinishda Lenskiy obrazi tobora yorqin ochib beriladi. P.I.Chaykovskiy Lenskiyni muhabbat bilan tasvirlaydi. Opera boshida Lenskiy – shoir, hayotni ideallashtirgan yigit. Lenskiy dramasini ham kompozitor jamiyatga qarshi chiqa olgan shoir dramasi sifatida ochib beradi. Lenskiy «sha'n va do'stlik shunchaki so'z» ekaniga toqat qila olmaydi. Sahna markazi o'limoldi ariya – monolog sanaladi. Undan oldin duelning fojiali intihosidan ogoh etuvchi g'amgin (kichraytirilgan va subdominant) akkordlar bilan boshlangan kirishni tinglaymiz. Unga maktub sahnasidagi mavzulardan birini yodga soladigan lirik ohang qarshi qo'yiladi. U Lenskiy ariyasining asosi sanaladi. Kirish boshlanishdagi g'amgin akkordlar takrori bilan yakun topadi. Lenskiy ariyasi ta'sirli «Kuda, kuda vo' udalilis?» (Siz qaerga g'oyib bo'ldingiz?) frazasi bilan boshlanadi. Keyin kirish qismidan bizga tanish mayin-lirik katta nafas kuyi jarang sochadi. Ichki hayajon taassuroti sinkopalangan ritm va orkestrdagagi o'sib boradigan melodik ovozlar bilan ta'minlanadi. Lenskiyning «Chto den gryaduhim mne gotovit?» ariyasi uch bo'limdan iborat bo'lib, ma'nан pok, o'z o'limini oldindan his etib turgan shoir obrazini to'laqonli ochib beradi:

Ariya oxirida lirik musiqa tragik xarakter kasb etadi. Bu ariya – operaning asosiy lirik kulminatsiyalaridan biri. Lenskiyning lirik obrazi o'z qahramoni xarakterini yorqin lirkadan dramatizmga va beshinchisi ko'rinishda fojialilikka olib kelgan P.I.Chaykovskiyning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Onegin keladi. Lenskiy va Oneginning «Vragi! Davno li drug ot druga nas jajda krovi otvela?» (G?animlar! Bir-birimizdan bizni qachon qon to'kish ishtiyobi olislashtirdi?) dueti yangraydi. Duet kanon shaklida yozilgan. Har ikala qahramon aynan bir ohangni kuylaydi va ayni bir xil so'zlarni aytadi, zero har ikkisi bir xil hislarni tuyadi. Ular yarashishni istaydi. Biroq jamiyatda o'rnatilgan tartibga ko'ra duel muqarrar! Litavralarning bir maromdagagi zarblari musiqafojiali sarosima tusini beradi. O'q uzish vaziyati musiqada litavraning tremolosi va kichraytirilgan septakkordlar garmoniyasi bilan beriladi. Ko'rinish Lenskiy ariyasidan mavzuning orkestrda g'amgin va hazin ijrosi bilan yakunlanadi.

Oltinchi ko'rinish. Peterburg xonadonlaridan birida ajoyib bal. Yorqin, tantanavor polonez o'zga obrazlar olamiga etaklaydi. Birinchi bo'lib ko'z oldimizda Onegin gavdalanadi. Xatto unda ham befarqlik va soxtalik kuzatilmaydi. Uning kichik «I zdes mne skuchno» (Bu erda ham men uchun zerikarli) ariozosi notinch yangraydi. Unda hayotning maqsadsizligidan g'am-alam va do'stining qotili ekanidan tavba mujassam.

Vals sadolari ostida Tatyana, endilikda grafinya Gremina kirib keladi. Uni tinch, samimiy musiqa hamda uning go'zalligi va butun qiyofasidan lol qolgan mehmonlarning xor replikalari tavsiflaydi. Vals ohangi engil ohista harakatlar baxsh etadi:

Nazokatga, qadr-qimmatga to'la xonimni – Tatyanani ko'rgan Onegin hayratda qoladi. Uning ko'nglida ehtiroslar junbushga keladi. Gremin Oneginni Tatyanaga tanishtirgan vaziyatda orkestrda maktub sahnasi boshlanishdagi muhabbat mavzusi jaranglaydi. Onegin partiyasida Tatyananing oldindi mavzulari ohanglari jarang sochadi. Gremminning Tatyanaga, o'z rafiqasiga muhabbatli izhori - «Ona blistaet kak zvezda vo mrake noch, v nebe chistom» (U tun qorong'isida, toza osmonda yulduz misol porlaydi) ariyasi Tatyananing bilvosita tavsifi sanaladi:

Ettinchi ko'rinish operaning dramatik kulminatsiyasi sanaladi. Unda Tatyana va Onegin obrazlarining yangi qirralari namoyon bo'ladi. Onegin ishtirokidagi sahnada Tatyananing iztirob va ma'naviy jasorati mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yangi musiqiy mavzu, dastlab orkestr kirishida, keyin Tatyana bilan Oneginning duetida yangraydi:

Onegin muhabbat izhor qilganida Tatyana o'z tuyg'ularini yashirmaydi. «Yashirish nechun, yolg'on nechun...» deydi u. Biroq burch hissi hammasidan ustun... Tatyananing oxirgi sahnadagi ulug'vor mavzusi dramatik jarang sochadi:

Opera Oneginning «Pozor! Toska! O jalkiy jrebiy moy!» (Isnod! Alam! Oh, mening ayanchli taqdirim) degan xitobi bilan yakun topadi.

Operaning musiqiy tili jozibadorligi va dilkashligi bilan ajralib turadi. Xatto rechitativlar ham kuychan, ularning asosida turli sahna-dialoglar yaratiladi.

Operaning o'tuvchan dramatik rivojlanishiga tugal vokal nomerlar (ariya, ariozo, duet, kvartet, kvintetlar), rechitativ sahnalar, tugal xor nomerlari, harakat rivojlanishi davomidagi xor rechitativ-replikalari, raqlar (vals, polonez, ekossez, mazurka) kiritilgan.

Kuyda lirik romansga xos bo'lган qirralarni: seksta oborotlari, ayniqsa V pog'onadan III pog'onaga yuqori, subdominantaning alteratsiyalanganakkordlari; turmush sahnalarida – dehqon qo'shiqlari qirralarini kuzatish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, P.I.Chaykovskiy operasi uchun emotsiyal kuchayishning ulkan to'lqinlari va yaxlitlik xos. Bunga melodik harakatning ko'plab tiplari va vokal hamda orkestrni uyg'unlashtirish hisobiga erishiladi. Bular orasida operada keng foydalilanilgan o'sib va pasayib boradigan sekventsiyalarni, shuningdek, mavzuning ovozdan orkestrga va, aksincha, orkestrdan ovozga erkin ko'chishini ta'kidlash mumkin. Orkestrda torli cholg'ular guruhi etakchi o'rinn tutadi.

“Evgeniy Onegin” operasi sahnada birinchi marta qo'yilganidanoq tinglovchilar muhabbatini qozondi. Opera bugun ham dunyoning eng mashhur teatr sahnalarida muvaffaqiyat bilan ijro etilmoqda.

A.S.Pushkinning «Evgeniy Onegin» she'r tarzida yozilgan romanini Chaykovskiyga opera syujeti sifatida opera qo'shiqchisi E.A.Lavrovskaya taklif etdi. Chaykovskiy Pushkin poeziyasini xamisha yoqtirardi. Uni Pushkinning shoirona satrlari musiqaviyligi va obrazlari mazmundorligi qoyil qoldirardi. Kompozitor o'ziga allaqachon tanish roman boblarini o'qib chiqib, ishtiyoq bilan tez orada opera stsenariysini yaratdi. Chaykovskiy opera librettosini teatr aktyori, musiqachi va shoir K.S.Shilovskiy bilan birgalikda yozib chiqib, unga o'z she'rlarini ham kiritdi. Syujet xaqida kompozitor shunday deb yozgan edi: «Ushbu operada sahnaviy samaralar va harakatlar kamligini men aniq bilaman, lekin syujetning oddiyligi, umumiy shoironaligi, insoniyligi Pushkinning buyuk matni bilan qo'shilganda ushbu kamchiliklar ortig'i bilan bosiladi».

P.I.Chaykovskiy opera asari ustida kun bo'yi ilhomlanib ijod qilardi, Pushkin she'rlari va obrazlari bilan sehrlangandek yashardi. U «...Men Pushkin she'rlariga maftun bo'lib, Tatyana obrazini sevib qoldim va shu she'rlarga musiqa yozyapman... chunki nimadir meni shunga tortayapti» - deb akasiga xabar bergandi. Operaning yozilishi tez olg'a siljidi.

Bu ishning qat'iyligiga na kompozitorning omadsiz uylanishidan kelib chiqqan og'ir ruhiy zarbalar, na bu zerbalar bilan bog'liq uzoq muddatlari kasallik, na bir yillik chet el safari halaqit bera oldi. Boshdan kechirganlaridan so'ng o'ziga kelib, u avvalgi ishtiyoq bilan opera yozishga kirishdi va uni nihoyat qisqa muddatda tugatdi - 1878 yil noyabrida partitura tayyor bo'ldi. «...Mening yozganlarim tom ma'noda ichimdan otilib chiqdi, ular o'ylab topilmagan, zo'rmazo'raki emas», - deb u 1878 yil 2 yanvar kuni S.I.Taneevga yozgandi va bir qancha vaqt o'tib, buni yana bir bor tasdiqladi: «...agar qachondir chin dildan, syujet va qahramonlarni sevib musiqa yoziladigan bo'lsa, bu «Onegindir», men uni yozganimda xuzurlanib, ifodalab bo'lmas darajadagi rohatdan titrardim». «Onegin» kompozitorning to'rtinchi operasi va hisob bo'yicha beshinchi yirik dramatik ishi edi. Bu vaqtida Chaykovskiy o'zining eng yaxshi yorqin davriga keldi, konservatoriyanı bitirgandan so'ng o'tgan 12 yil mobaynida uning didi va intilishlari ko'zga aniq tashlandi.

P.I.Chaykovskiyning mashxurligi, uning romanslari, simfonik asarlari, operalari yuqori darajaga etganligi tanqidchilar tomonidan e'tirof etildi. «Onegin»ga qadar bo'lган opera faoliyatini esa bir qancha ayrim muvaffaqiyatlarga qaramay, omadli deyish qiyin edi. Avvalgi operalaridan birontasi ham sahnada tura olmadi, ularga nisbatan qiziqish tez so'nardi, ammo shu

bilan birga ular salbiy tanqidga ham uchramadi. Operaning premerasi 1879 yil 17 martda N.G.Rubinshteyn rahbarligi ostida bo'lib o'tdi.

Janr jihatidan «Evgeniy Onegin» romani XIX asrning rus psixologik prozasiga mos keladi. Chaykovskiy bu operani «lirik sahnalar» deb nomlagan. Rus operasida bunday janr bo'limgan edi. Zamonaviy opera adabiyotida faqat ikkitagina asar bugungi hayotni aks ettirgan. Bulardan: Verdining «Traviata» va Bezening «Karmen» operalardir.

A.S.Pushkin romanida muhim o'rinni dialoglar egallaydi, so'zlashuv uslubi – luqmalar, savollarga murojaat qilishlar, so'roqlar yordamida sahna ko'rinishi ushlab turiladi.. Bu uslubiy holat operaning musiqaviy uslubiga ta'sir ko'rsatadi.

Syujetni mazmuni. Opera 3 parda, 7 ko'rinishdan iborat. Voqeя XIX asrda Peterburg va qishloqda bo'lib o'tadi.

I parda. Birinchi ko'rinish. Qishloqdagi Larinlarning qo'rg'onchasi. Uyning bekasi va enagasi murabbo tayyorlashmoqda. Uydan Larinning qizlari, Tatyana va Olganining qo'shig'i eshitilyapti. Kech tushayapti. Dehqonlar, o'rimni tugatib, eski an'anaga ko'ra, o'z xo'jayiniga bo'yagan pichan bog'ini keltirishadi. Kutilmaganda mehmonlar kelishadi: Olgani qallig'i Lenskiy va Peterburgdan kelgan uning do'sti Onegin. Xammalari yangi mexmonni quvonch va qiziqish bilan kutib oladilar. Yoshlar bog' sayriga chiqishadi, Olga Lenskiy bilan berilib suxbatlashadi, Tatyana Oneginning etibordan xijolat tortadi.

Ikkinci ko'rinish. Tun. Tatyananing xonasi. Qiz yangi tuyg'ular og'ushida. Enaga Filipevna eski zamon xikoyalar bilan Tatyana chalg'itmoqchi. Lekin Tatyananing xayollarini Onegin bilan band. U sevib qoldi. Onegin Tatyana bir umr orzu qilgan insondir. Tatyana Oneginga sevgi xatini yozadi: «Sen tushlarimga kirar eding, xayollarimda sen menga sevimli eding». Turli kechinmalar Tatyananing qalbida kechadi. Tong otadi. Tatyana Oneginga xatini jo'natadi.

Uchinchi ko'rinish. Larinlarning qo'rg'onida mevalar terayotgan qizlarning qo'shig'i yangramoqda. Xayajon bilan Tatyana yugurib keladi - Onegin keldi, u Tatyananing xatini olgan! Qiz qattiq afsusda. Lekin endi kech. Onegin sovuq munosabat bilan Tatyana tarbiya beradi: «O'zingizni idora qilishni o'rganing, har kim ham sizni mendek tushuna olmaydi, tajribasizligingiz falokatga yo'liqishi mumkin».

Ikkinci parda. Birinchi ko'rinish. Larinlarning uyida bal. Tatyananing tug'ilgan kuni. Shahar dabdabasiga o'rgangan Oneginni bu erda mehmonlarning liboslari, raqslari, g'iybatlari achchig'ini keltiradi. U o'z achchig'ini Lenskiyga ko'rsatadi va uni istirobidan rohatlangan xolda, butun oqshom Olga bilan raqsga tushadi. Xaqratlangan Lenskiy Oneginni duelga chaqiradi.

Ikkinci ko'rinish. Ayozli erta tongda Lenskiy duel joyiga keladi. U bilan birga sekundant Zaretskiy Oneginni kutishmoqda. Nihoyat, Onegin keldi. Do'stlar bir-biriga qurol o'qtalgan holda, bu holat be'maniligini tushunishadi. Sekundant Zaretskiy duel belgisini beradi. Birinchi bo'lib, Onegin otadi. Lenskiy qulaydi. Onegin daxshat bilan o'z do'sti o'lganligini ko'radi.

Uchinchi parda. Birinchi ko'rinish. Peterburgdagi oqsuyaklar uylarining birida bal bo'lyapti. Taklif qilinganlar orasida urush veterani knyaz Gremin shu erda eski do'sti Oneginni uchratib qoladi. Chet eldan yaqinda qaytgan Onegin Greminning Tatyana uylanganini bilmaydi. Knyaz Gremin do'stiga xotinini tanishtiradi. Onegin xayratda. Uning qarshisida o'z qadr-qimmatini bilgan go'zal ayol turardi. Endi, Tatyana oldingi sodda tarbiyaga muhtoj bo'lган qiz emas. Oneginning tuyg'ulari jumbushga keladi. Ikkinci ko'rinish. Onegin Tatyana bilan uchrashishga ko'p bora harakat qildi, sevgi xatlari yozdi. Javob bo'limgach, Onegin Tatyana uyg'a borib, uni Oneginning xatlari ustida yig'lab o'tirgan holatda topadi. Xayajonli Onegin Tatyana qarshisida tiz cho'kib, unga o'zining sevgisini izzor etadi. Ammo, Tatyana «Men o'zgaga tegishliman, mening taqdirim hal bo'lgan, unga bir umr sodiqman» deydi.

P.I.Chaykovskiy bu operasida qaxramonlarining psixologik kayfiyatini ko'rsatishida ularning ichki dramatik izardorlariga diqqat qaratdi. Musiqiy obrazlarni dinamikada ochib borishi, mavzularni uzlusiz rivojlanishi va yangilanib borishida musiqasining simfonizmligini ifoda etadi.

Har bir qaxramonlarning obrazlari o'ziga xos intonatsiyalar yig'indisi yordamida ta'riflanadi.

P.I.Chaykovskiy ijodining so'nggi yillarida opera sohasida yaratilgan asarlari musiqiy teatr tarixining yangi sahifalarini ochib beradi. «Evgeniy Onegin»dan so'ng dunyoga kelgan «Orlean qizi», «Mazepa», «Afsungar qiz» kabi operalarida ko'pgina o'xshash bo'lgan belgilar mavjud. Endilikda operating mazmuni ziddiyatlar, to'satdan sodir bo'ladijan o'zgarishlar, parallel syujet chiziqlari bilan to'yingan. Operada xalq ishtirok etadigan ommaviy sahnalarining roli oshadi. Shaxsning dramatik holatlari xalqqa xos drama bilan o'zaro bog'langan. Bu davrga oid operalar dramaturgiyasiga xos bo'lgan belgilar qatoriga qahramonlar xarakterining serqirraligi, epizodik shaxslarning ishtiroki hamda ziddiyatlar jarayonida obrazlarning o'zaro qiyoslanishi kabi yangi xususiyatlar kiradi. Butun parda harakati davomida markaziy obraz tavsifi oldinga chiqadi. Bunday holat Pushkin asarining syujeti asosida 1890 yilda yozilgan «Piki xonim» operasida ko'zga tashlanadi. «Piki xonim» operasi «Evgeniy Onegin» shu jihatdan operasiga yaqin turadi. Qizg'in ish jarayoni natijasida opera klaviri 44 kun ichida nihoyasiga etadi. P.I.Chaykovskiy samimi sirdoshlik dramasini tasvirlashga moyildek ko'rinsa ham, uni fofaviylik kontseptsiyasi nuqtai nazaridan kelib chiqib aks ettiradi.

Operating mazmuni: 1-saxna: 1-ko'rinish: Voqealar Peterburgda sodir bo'ladi. Bahorning yorqin kuni. Peterburgdagi Yozgi bog'da sayr kilib yurgan odamlar orasida zabitlar Surin va Chekalinskiy ko'rindilar. Ularning suxbatidan shu narsa ayon bo'ladiki, German kambag'alli tufayli qimorxonadagi o'yinda ishtirok etmasa ham o'yinni tomosha qiladi. Tomskiy hamrohligida German kiradi. German g'amgin kayfiyatda. Undan Tomskiy g'amgin sababini so'raydi. German unga notanish zodagon oilasining qizini sevib qolganiligini, ammo uning ismini bilmasligini aytadi. Shu payt grafinya knyaz Eletskiy hamrohligida paydo bo'ladi. German Lizani taniydi va Eletskiyning qaylig'i ekanligi to'g'risida xabar topadi. Grafinya va uning xamrohlari ketgandan so'ng Tomskiy Grafinyaga ma'lum bo'lgan 3 karta siri xaqida gapiradi. Germanni ushbu sirni bilgisi keladi. Jala quya boshlaydi. Odamlar bog'ni tark etishadi. German yolg'iz qoladi va Lizaning muhabbatiga erishishga qasam ichadi.

2-ko'rinish: Grafinyaning uyi. Lizaning dugonalari uning knyaz bilan unashtirilganligini nishonlashmoqda. Lekin Lizaning hayolida German. Mehmonlar tarqalishadi. Kutilmaganda German paydo bo'lib, uni sevishini aytadi. Eshik taqillaydi, shovqin-suron bilan Grafinya kirib keladi va German 3 karta siri xaqida eslaydi. Grafinya ketgandan so'ng Liza va German o'rtasidaga sevgi izhorlari davom etadi.

2-saxna: 3-ko'rinish: Peterburglik boyning uyida maskarad bali bo'lmoqda, bunda Grafinya, Liza, German, Eletskiy, Tomskiy, Surin va Chekalinskiy qatnashmoqda. Liza Germanga uchrashuv tayinlaydi va unga Grafinya uyining kalitini beradi. German kampirni uchratish va undan uch karta sirini bilish ishtiyoqi yonadi. German Grafinyaning xonasiga kirishga jazm qiladi.

4-ko'rinish: Grafinyaning yotoqxonasi. Germanning asablari taranglashgan. Qadam tovushlari eshitilib, German berkinadi. Grafinya o'z xizmatkorlari bilan kiradi. Liza German bilan bo'ladijan uchrashuvdan hayajonda. Grafinya kresloga o'tirib, o'z yoshligini eslaydi va Gretra operasidan romansni kuylab, uxbab qoladi. Xamma chiqib ketadi. Burchakdan German chiqadi. Uning uch karta sirini ochib berish yuzasidan qilgan tahdididan so'ng Grafinya qo'rqib ketib, o'sha zaxotiyoy o'lib qoladi. To'polon ovozini eshitib Liza yugurib keladi va Germanni haydar yuboradi.

3-sahna: 5-ko'rinish: Kazarma. Germanning xonasi. Tun. German Lizadan kelgan xatni o'qiydi. Bir lahzada uning qalbida Lizaga nisbatan muhabbat va achinish paydo bo'ladi. Uning bemor qalbi Grafinya o'limi to'g'risidagi xotiralardan larzaga keladi. Shamol ovozi, derazaning tigirlashi uni yanada cho'chitadi. Grafinya arvohi paydo bo'ladi. U uch karta nomini aytadi: «Uch..., etti..., tuz...» German uni hayajon bilan qaytaradi.

6-ko'rinish: Nevaning qirg'og'ida Liza hayajon va tashvishda Germanni kutmoqda. U Grafinya o'limida Germanning aybi yo'qligiga ishonch hosil qilmoqchi. German kelib, Lizani

ko'rishi bilan uning ongi biroz tiniqlashadi. Lekin tez orada uni yana «oltin tog'i» fikri qamrab oladi. Liza German endi uni tan olmasligi tushunib, tushkun kayfiyatda o'zini daryoga tashlaydi.

7-ko'rinish: Qimorxona. Tomskiy boshchiligidagi to'planganlar vaqtini quvnoq o'tkazmoqdalar. O'yinda ishtirok etish niyatida German kirib keladi. Uning hamroxi bo'lishga knyaz Eletskiy rozilik beradi. Germanga ikkita yutuqli karta chiqadi, lekin uchinchi karta tuz emas, balki «qarg'a xonim» bo'lib chiqadi. Germanning ko'z oldida Grafinyaning arvoxi paydo bo'ladi. German talvasada. Liza nomini tilga olgan xolda German vafot etadi.

«Piki xonim» mahorati, yaxlitligi, umumiy rivojlanishi bilan noyob hodisa bo'ldi. Kompozitor Pushkin yaratgan obrazlarni o'zgartirgan bo'lsa-da, uning pushkincha mohiyatini saqlab qolgan – qissa ham, opera ham ichki ziddiyatlar, qahramon va jamiyatning munosabatlari asosiga qurilgan. Biroq Germanning fe'l-atvori, atrofdagilar bilan munosabati, qartaga ashaddiy ishqibozlik va Lizaga bo'lgan otashin muhabbat, ya'ni ikki tuyg'uning o'zaro kurashi P.I.Chaykovskiy talqinida mutlaqo boshqacha tus oladi.

P.I.Chaykovskiy umumiy ziddiyatli ohangdorlik, bir nechta bosqichlardan o'tuvchi to'lqinsimon rivojlanadigan shaklning uzoq vaqt harakati, dinamik repriza usullarida namoyon bo'ladigan dramatik simfoniya tamoyillarini mazkur operada mustahkamlaydi.

Opera dramaturgiyasining yangi turi o'zgacha mavzularni talab qiladi. «Piki xonim» operasi orkestr muqaddimasidan boshlanadi. Bunda operaning asosiy mavzulari Tomskiy balladasining ilk ohang asosi, Piki xonim mavzusi, muhabbat mavzusi va grafinyaning xarakterini belgilaydigan seloton gammalar yangraydi.

Dastlab, Tomskiy balladasining sirli kuyi yangraydi. U ikkita iboradan iborat bo'lib, birinchi kvinta diapazonidagi birovozli kuyni klarnet va fagotlar ijro etishadi, ikkinchi iboraning xasratliakkordlari torli cholq'ular ijrosida si minor tonalligida eshitiladi.

Introduktsiyaning birinchi qismiga hikoya uslubi xos:

Introduktsiyaning ikkinchi qismi taqdir mavzusi bilan aloqador, Germanning miyasiga o'rashib qolgan g'oya aks etgan. Kvarta diapazonining uchtovushli mavzusi sekventsianing asosi tashkil etadi. Akkordlar kuzatuvida damli mis cholq'ularining keskin ohangi jiddiylik kasb etadi. Sekventsya bo'yicha taqdir mavzusining rivoji bilan trombonlar ijrosidagi dramatik kulminatsiyada seloton gammasi paydo byladi. U mash'um xarakterga ega bo'lib, operaning beshinchi ko'rinishida Grafinya timsoliga tavsif beradi. Seloton gammasi rus musiqasida hamisha yovuz kuchlarning ifodasi bo'lgan:

Introduktsiyaning uchinchi bo'limida German muhabbatining yorqin lirik mavzusi ijro etiladi, bu mavzu re major tonalligida dominantali organ punkti fonida yangraydi. Bu bo'limda keskin qarama-qarshiliklar namoyon bo'ladi:

Opera go'zal lirik sevgi mavzusining variantli berilishi bilan yakunlanadi. Ushbu muqaddimadagi mavzular butun opera rivojiga asos bo'lib xizmat qiladi. Qisqa introduktsiya keskin, shiddatli tusga ega.

Baletlar. P.I.Chaykovskiy dahosiga musiqaning nozik tovlanishlarini chuqur his eta olish xos bo'lib, u yaratgan opera, simfoniya va romanslarda raqs ritmlari muhim ahamiyat kasb etadi. P.I.Chaykovskiy baletlari rus klassik baleti tarixini ochib beradi. Unga qadar balet janrida musiqa yordamchi ahamiyatga ega edi. Uning baletlarida esa musiqa bilan raqs aynan yaxlitlikda asar mazmunining ifodasini ochishga xizmat qiladi. P.I.Chaykovskiy yaratgan baletlar - asl dramatik asarlardir. Har bir raqs faqat musiqa bilan, ular orasidagi orkestr epizodlari esa bir-biri bilan mexanik tarzdagina emas, balki mazmun mohiyatiga ko'ra ham bog'langan. P.I.Chaykovskiy baletda mavjud bo'lgan an'analarni buzmagan holda, musiqaning mohiyatini tubdan o'zgartiradi.

Kompozitor balet janriga yangilik kiritadi, ya'ni baletga dasturli simfonik asar sifatida yondoshadi. U an'anaga aylangan «mumtoz baletning divertisment turini uzluksiz simfonik rivojlanish bilan boyitib» qayta shakllantirdi, ya'ni baletni simfoniyalashtirish bobida islohot o'tkazdi. «Axir, balet – simfoniyaning o'zi-ku», - deb yozgan edi kompozitor. To'g'ridan-to'g'ri

musiqiy rivojlanish, yorqin individual xarakter, leytmotivga egalik, yaxlitlik kabi opera hamda simfoniyaga xos bo'lgan dramatik tamoyillar baletga ham olib kirildi.

P.I.Chaykovskiyning fikricha, operaning mazmunini haqiqiylik va haqqoniylilik tashkil etadigan bo'lsa, balet mazmuni ertak va sehrli uydirmalardan iborat bo'lishi zarur edi.

P.I.Chaykovskiy «Oqqush ko'li», «Uyqudag'i go'zal», «Qarsildoq» baletlarini yaratgan. Ularning barchasida ertakka xos syujetlar mavjud. «Oqqush ko'li» nomli birinchi balet teatr arbobi Begichev hamda xoreograf Geltser tomonidan 1877 yilda sahnalashtiriladi.

Monumental xoreografik simfoniyaning namunasi bo'lgan «Uyqudag'i go'zal» nomli ikkinchi balet Sh.Perro ertagi asosida 1889 yilda, «Qarsildoq» nomli uchinchi balet 1892 yilda Gofman ertagi asosida yozilgan. Barcha baletlarni yovuzlik ustidan ezgulikning muqarrar g'alaba qozonishi haqidagi yagona g'oya birlashtirib turadi. P.I.Chaykovskiy 70-yillarda yaratilgan sara sarlari qatoriga «Evgeniy Onegin» operasi hamda to'rtinchisi simfoniyasi va romantik «Oqqush ko'li» baleti ham kiradi. Musiqa tanqidchisi G.A. Larosh «Oqqush ko'li» baleti haqida shunday yozgan edi: «Bir-biridan nafis kuylar seroblik mo'gizidan to'kilganday quyilib keladi». Shoirona asar mazmuni hamda ilhombahsh musiqa baletning yildan-yilga omma orasida mashhurligiga sabab bo'ldi.

P.I.Chaykovskiy baletda ba'zi bir alohida olingen lavhalarning, raqlarning an'anaviy tutashganligiga qaramasdan, yagona lirik mazmun-mohiyat singib ketgan musiqa yaratdi. Asosiy fojiaviy mavzuning, Odetta leytmotivining izchil o'tkazilishi uzlusiz rivoj va simfonik yaxlitlikni barpo etadi. Ushbu mavzu nafis, lirik yorqinlikdan fojiaviylikkacha o'zgarib boradi va baletning turli o'rinalarda paydo bo'ladi:

Kamer-cholg'u asarlari. Kamer-cholg'u va vokal musiqasining barcha janrlarida dramatik holat milliy kuy tili, rus xalq qo'shiqchiligi va maishiy romanslarning mushtarakligi, raqs unsurlaridan foydalanish, go'zal ona-tabiatga muhabbat, insonning ichki ruhiy olamini tasvirlash kabi umumiy chizgilarni ko'rishimiz mumkin.

P.I.Chaykovskiy kamer-cholg'uchilik sohasida o'zining 3 kvartetini yaratgan. N.G.Rubinshteynning vafoti munosabati bilan kompozitor yaratgan trio diqqatga sazovor bo'lgan kamer asari hisoblanadi. P.I.Chaykovskiy fortepiano uchun juda ko'p sonli asarlar yozgan. Bular qatoriga uchta kontsert, fantaziya, sonata va fortepiano uchun yozilgan 100ta asarlari kiradi.

P.I.Chaykovskiy bu asarlarida o'zining lirik tuyg'ularini ifodalaydi, go'zal tabiat manzaralari va xalq maishiy sahnalariga xos bo'lgan chizgilarni ta'sirchan tarzda tasvirlab beradi. Uning «Bolalar albomi», «Yil fasllari» pesalar turkumi, «Nata-vals», «Sentimental vals», «Romans» kabi pesalari eng mashhur musiqiy asarlari qatoriga kiradi.

«Yil fasllari» fortepiano turkumi 1876 yilda yozilgan. Bu vaqtga kelib, P.I.Chaykovskiy uchta simfoniya, uchta simfonik poema, to'rtta opera va bitta fortepiano uchun kontsert muallifi edi.

«Yil fasllari» turkumiga, yil oylariga muvofiq 12 ta pesa kiradi. Bunda rus tabiat manzaralari va obratzlari P.I.Chaykovskiy uslubiga xos bo'lgan lirik talqinda berilgan. Turkumda faqat tabiat manzaralarigina emas, balki insoniy his-tuyg'ular ham musiqa vositasida ifodali tasvirlab berildi. Har bir pesa uchun she'riy epigraf tanlangan. Epigraflar Pushkin, Tolstoy, Vyazemskiy, Fet, Maykov kabi mashhur rus shoirlarining ijodidan olingen. Pesalarning nomlanishi ham o'zgacha. Masalan, qish fasli mavzusidagi pesalarga «O'choq yonida», «Maslenitsa» kabi xordiq chiqarish hamda bayram sayli bilan bog'liq nomlar berilgan bo'lsa, yoz fasli mavzusida yozilgan pesalarda «Hosil o'rmi», «O'roqchi qo'shig'i» kabi dehqonlarning mehnati bilan bog'liq nomlar berilgan. Umuman olganda, turkumdagi pesalarda ma'yus, elegik kayfiyat aks etadi. Pesalarda P.I.Chaykovskiyning fortepiano uslubiga xos bo'lgan turli xil chizgilar uchrasa-da, qo'shiq tuzilishiga ega keng ko'lamdagi kuy asosiy o'rinni tutadi, rus romansi va xalq qo'shiqlarining ohanglari his etiladi.

Jahon fortepiano adabiyotida oylar ketma-ketligi, tabiat va inson hayotida muntazam almashinayotgan voqealari-hodisalar charxpalagi bunchalik mahorat bilan oddiy va sodda tasvirlab berilgan boshqa birorta asar uchramaydi.

P.I.Chaykovskiy tabiatni juda nozik his qiladi. Kompozitor o'rmon, dalalar bo'ylab o'zini tabiatning bir bo'lagi sifatida his etib qilgan sayrlari unga huzur bag'ishlaganini tez-tez gapirar edi.

Chuqur mazmun va yorqin tasvirga ega «Uch tulporda» nomli pesasi ham juda ajoyib asar. Nekrasovning «Uch tulpor» she'rinning misrasi unga epigraf qilib olingan. Pesada keng kuylanuvchan, xalqona tuzilishga ega mavzu va o'tkir ritm bilan qo'ng'iroqchalarini jiringlatib uchib kelayotgan uchta uchqur tulpor obrazi tasvirlangan. S.Raxmaninov bu pesani ijro etganimda, ko'z o'ngimizda quyidagi manzaralar namoyon bo'ladi: «go'yo uzoqdan aravakash qo'shig'i eshitiladi, qo'shiq tobora yaqinroq yangraydi, birdan qo'ng'iroqchalarini quvnoq jaranglatib uchib kelayotgan uch tulpor namoyon bo'ladi. Sekin-asta qo'ng'iroqlar jarangi pasayib boradi va biz uzoqlashib borayotgan uch tulporni go'yo ko'rayotgandek hamda uzoqda tinib borayotgan qo'ng'iroqchalar jarangini ham eshitayotgandek bo'lamiz», - debyozgan edi..

P.I.Chaykovskiyning «Bolalar albomi» turkumi ham alohida ahamiyatga ega. Bolalarni juda yaxshi ko'rgan kompozitor albomni jiyani Volodya Davidovga bag'ishlaydi. «Bolalar albomi» mavzu jihatidan rang-barang 24 pesadan iborat. Bu erda bolalar hayotining turli xil manzaralari - ertaklar, o'yinlar, ashula va raqlar dunyosi yaqqol o'z aksini topgan. “Bolalar albomi” yosh pianinochilar tomonidan ijro etish uchun mo'ljallangan.

Romans ijodi. Romanslar P.I.Chaykovskiy ijodining muhim qismini tashkil etib, unda ham kompozitorning novatorlik fazilati namoyon bo'ladi. P.I.Chaykovskiy romans janrini opera va simfonik musiqaga xos rivojlanish usullari bilan boyitdi. Bu holatga lirk oddiy shakkardagi miniyaturlar va keng rivojdagi lirk romanslar xos. P.I.Chaykovskiy 100dan ziyod romans yozgan. Ular mazmun kayfiyati bilan qarab bir-biridan farq qiladi: «Erta bahorda sodir bo'lgan edi», «Kunmi hukmron» romanslari yorqin va quvnoq bo'lsa, «Tun», «Ilgarigidek, yana yolg'iz» romanslari dramatik holatga ega. «Duo qilurman sizni, o'rmonlar», «Derazani men ochdim» kabi bir qator romanslari tabiat mavzusi bilan bog'liq.

Romans matnlari A.Tolstoy, Pushkin, Fet, Maykov va boshqa rus shoirlarining qalamiga mansub lirikaga asoslanga bo'lib, ularda turli his-tuyg'u va kayfiyatlar haqqoniy va ta'sirchan ochib berilgan. Bunga, masalan, “Suronli ba'zm ichra” (“Sred' shumnogo bala”) lirk romansi misoldir:

A.Tolstoyning so'zlariga yozilgan «Suronli bazm ichra» romansi nozik lirk miniyaturlaga ega bo'lib, vals ritmida, uch qismli shakldagi muqaddima va xotimadan iborat. Butun asar intonatsion yaxlitligi bilan ajralib turadi.

Ifodali nutq va keng ko'lamdag'i kuyning o'zaro birikib ketishi, shuningdek, butun asar davomida ritmning bir maromda ustuvorligi P.I.Chaykovskiy uslubiga xos bo'lgan belgilardir. Yorqin, yaxlit obrazga ega kayfiyatni hosil etuvchi hamda vokal partiyani to'ldirib boruvchi fortepiano partiyasi romanslarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Romanslar bilan bir qatorda, P.I.Chaykovskiy bolalar uchun ham 16ta qo'shiq yozgan. Ular orasida «Maysa ko'karmoqda» («Travka zeleneet»), «Bo'ronda aytilgan alla» («Kolo'belnaya v buryu»), «Mening bog'cham» («Moy sadik») kabi qo'shiqlari ma'lum va mashhurdir.

Shoir Ratgauz she'rlariga ijod etilgan romanslar turkumidagi «Ilgarigidek, yana yolg'iz» («Kak prejde odin») romansi P.I.Chaykovskiy hayotining oxirgi yillarida yozilgan asarlari orasida eng fojialisidir. Musiqa yolg'iz inson qalbidagi qayg'u-hasratni ochib beradi. Bu histuyg'ular oddiy va qisqa ifoda etilgan. P.I.Chaykovskiy, vokal ijodida kuzatilgani kabi, «Ilgarigidek, yana yolg'iz» romansida ham ovoz va fortepianoning uyg'unlashuviga erishadi. Fortepiano partiyasi ovoz bilan qariyb teng mA- teng ahamiyat kasb etadi.

P.I.Chaykovskiy ijodining ahamiyati. Jahon musiqa adabiyotida P.I.Chaykovskiy asarlari klassika darajasiga yuksalgan. Operalari ko'plab dunyo tillarida ijro etilmoqda. Har to'rt yilda bir marotaba Moskvada butun dunyo musiqachilari P.I.Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlovda ishtirok etadilar.

P.I.Chaykovskiy hali hayotligidayoq ijodiy merosi jahon san'atining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Chaykovskiyini taniganlar nafaqat uning ijodiga, balki unga xos bo'lgan insoniy sifatlarga ham alohida bir mehr bilan munosabatda bo'lganlar. Fikrimizning isboti sifatida

S.V.Raxmaninovning so'zlarini keltirib o'tamiz: «Men uchrashishga muyassar bo'lgan barcha insonlar orasida, Chaykovskiy - eng dilbari edi. U betakror nozik qalb egasi, buyuk insonlar kabi juda kamtar, oddiy va sodda edi».

P.I.Chaykovskiy musiqa san'atining deyarli barcha sohalariga ijodiy yangiliklar kiritgan. Simfonizm tamoyillarining ta'siri musiqiy asarlarning g'oyaviy - obrazli mazmundorligida ham, kompozitorlarning ijodiy uslubida ham, musiqiy dramaturgiyaning va ifoda vositalarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarida ham aks etdi.

P.I.Chaykovskiy ijodi XX asr ijrochilik madaniyatining, musiqiy teatr, dirijyorlik va ijrochilik mahoratining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. P.I.Chaykovskiy qoldirgan musiqiy meros insoniyat madaniyati tarixida doimiy ahamiyatga ega betakror san'at mo'jizalari qatoriga kiradi.

Asosiy asarlar ro'yxati

Opera: (10 ta) «Sarkarda» (1868), «Oprichnik» (1872), «Evgeniy Onegin» (1878), «Mazepa» (1883), «Piki xonim» (1890), «Iolanta» (1891) va boshqalar.

Ballet: (3 ta) «Oqqush ko'li» (1876), «Uyqudag'i go'zal» (1889), «Qarsildoq» (1892).

Simfoniya: (6 ta – 1866, 1872, 1880, 1875, 1888, 1893) «Manfred» simfoniyasi (1885).

Uvertyura-fantaziya: «Romeo va Julietta» (1869-1880), «Gamlet» (1888), «Italian kaprichchiosi» (1880).

Fantaziya: «Fatum» (1868), «Bo'ron» (1873), «Francheska da Rimini» (1876).

Kamer-cholg'u va kamer-vokal asarlar: 3 ta kontsertlar, 3 ta torli kvartet (1871, 1874, 1876), «Buyuk san'atkor xotirasiga» trio (1882), fortepiano uchun 106 ta pesalar, shu qatorda 2 ta sonata, «Bolalar albomi» (1878), «Yil fasllari» (1876).

Romans: (100 dan ortiq), 6 ta duet.

Kitob: «Garmoniyani o'rganish uchun amaliyotdagi qo'llanma», maqolalar.

Nazorat uchun savollar

- P.I.Chaykovskiyning ijodidagi asosiy bosqichlarni sanab o'ting.
- P.I.Chaykovskiyning ijodiga xos estetik tamoyillarni gapiring.
- P.I.Chaykovskiyning simfonik ijodi haqida so'zlab bering.
- P.I.Chaykovskiyning opera dramaturgiyasiga xos bo'lgan qanday asosiy tamoyillarini bilasiz?
- P.I.Chaykovskiy baletlaridagi novatorlik haqida so'zlab bering.
- Kompozitorning romanslaridan namunalar ijro eting.
- P.I.Chaykovskiy ijodining ahamiyati haqida so'zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar

- P.I.Chaykovskiy Lev Tolstoy ishtirokida o'tgan torli kvartet uchun yozgan birinchi kontsertidan so'ng o'z kundaligiga shuni qayd etadi: «...yonimda o'tirgan L.Tolstoyning birinchi kvartetimdag'i andante ni eshitayotib ko'z yoshlari quyilib kelganini ko'rgan vaqtimdagidek hech qachon xursand bo'lman va muallifligimdan g'ururlanib taskin topmagan bo'lsam kerak». Yozuvchi va kompozitor san'atning qaysi masalalari yuzasidan suhbatlar qurgani hamda yozishmalar olib olib borgani haqida so'zlab bering.

- P.I.Chaykovskiy A.S.Pushkinning qanday syujetlari asosida asarlar yaratgan?
- P.I.Chaykovskiyning «Uyqudag'i go'zal» nomli baletining xoreografi kim edi?
- P.I.Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin» operasining oltinchi ko'rinishidagi Lenskiyning «Kelayotgan kun menga nelar tayyorlar?» ariyasini va Tatyananing ikkinchi ko'rinishdagi «Mening tushlarimga kirar eding sen» ariyasidan namunalar ijro etib bering. Bu ikki mavzuning ohangi va ritmida qanday bog'liqlik bor?

- P.I.Chaykovskiy qaysi maqolalarida Rubinshteynning pianinochilik mahorati haqida qanday fikr bildirgan edi?

- «Yil fasllari» turkumidan «Boychechak» «Aprel» pesasini va «Kuz qo'shig'i»ni «Oktyabr» tinglang. Asarlarda berilgan musiqiy obrazlarni taqqoslang va ularga ta'rif bering.
- A.S.Pushkinning «Evgeniy Onegin» poemasi va P.I.Chaykovskiyning shu nomli operasidagi bosh qahramonlar obrazini qiyoslang.
- P.I.Chaykovskiyning «Yil fasllari» turkumidagi qaysi pesalarida bahorni kutish, gullab-yashnayotgan tabiatdan zavqlanish kayfiyatları tasvirlanadi?
- P.I.Chaykovskiyning «Bolalar albomi» deb nomlangan turkumidagi pesalar nomini ayting va ikkita raqs pesasini ijro eting.
- 1958 yilda Moskvada P.I.Chaykovskiy nomidagi Xalqaro tanlov ta'sis etilgan edi. Tanlovda ijro etiladigan asarlarning majburiy dasturiga P.I.Chaykovskiyning fortepiano va orkestr uchun yozgan asari kiritilgan. Bu asarning nomini ayting. 1958 yildagi tanlovda bu asarning eng yaxshi ijrochisi kim bo'lgan edi?

**S.I.TANEEV
(1856-1915)**

Har bir inson, uning kuchlari
qanchalik chegaralangan bo'lmasin, o'zi
mansub bo'lgan jamiyatning man'aviy
yuksalishiga ko'mak berishi lozim.

S.I.Taneev

Sergey Ivanovich Taneev – kompozitor, olim, pianinochi, pedagog va musiqa jamoat arbobidir. U XIX asr oxiri XX asr boshida rus musiqasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. S.I.Taneev badiiy jihatdan etuk asarlarning, «Oresteya» operasi, simfoniya va kantatalar, romanslar va qayta ishlangan xalq qo'shiqlarining jumlasidan. Polifoniya sohasidagi izlanishlari ayni damda zamonaviy musiqashunoslik rivojida muhim o'rinni egallaydi. Mahoratlari pianinochi Taneev ko'plab rus kompozitorlari musiqiy asarlari ijrochisidir; Chaykovskiyning barcha yirik asarlarini Taneev ilk marotaba ijro etgan; oliv ma'lumotli pedagog Taneev A.N.Skryabin, S.V.Raxmaninov va N.K.Metner kabi shogirdlarni ham tarbiyalab, voyaga etkazdi. Keng aql-zakovat va xushxulq sohibi Taneev Moskva simfonik kapellasida doimiy maslahatchi sifatida muntazam qatnashdi. Rus musiqanining xavaskorlari to'garagida, turli musiqiy ko'rgazma va musiqiy etnografiya ishlarining xay'at-a'zosi kengashida faol ishtirok etib, o'z davrining ziyoli mashhur odamlari chuqur hurmatga sazovor bo'lishga va konservatoriya uchun juda ko'p boshqa jamoatchilik ishlarini ham amalga oshirishiga imkon berdi. Taneev ijodiy qiyofasining serqirraligi uning har tomonlama yorqin iqtidori ayni damda yuksak man'aviy sifatlari bilan ham izohlanadi.

S.I.Taneevning shaxsiyati ko'plab olimlar, yozuvchilar va assomlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etar edi. Kompozitorni ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy bilan alohida do'stlik bog'lab turgan. Belyaevchilar to'garagining a'zolari bo'lgan kompozitorlardan I.Glazunov va Rimskiy-Korsakovlar bilan ham uni juda yaqin do'stlik rishtalari bog'lab turgandi.

S.I.Taneev jamiyatda ulkan obro'-e'tiborga ega edi. Uning yoniga nafaqat maslahat izlab, balki yorug' qalb, ochiq ko'ngil inson bilan muloqotda bo'lish maqsadida ham kelishardi. O'zining shogirdlari bilan u qattiqko'l va talabchan munosabatda bo'lgani bilan, shogirdlari erishgan muvaffaqiyatlaridan samimiy xursand bo'lardi. Ko'pchilik uchun u umuminsoniy ijobiy sifatlar namunasi bo'lib, odamlar bilan bo'lgan muloqotda oddiy va samimiy, kamtarin va printsipli edi.

Hayoti va ijodiy yo'li. S.I.Taneev 1856 yilning 13 (25) noyabrida Vladimir shahrida tug'ilgan. U 5 yoshidan boshlab, fortepiano chalishni o'rgana boshlaydi. Bo'lajak kompozitorning yoshligi yuqori bilim hamda yuksak ma'naviy sifatlar shakllanishiga ko'maklashadigan muhitda o'tdi. Kitoblarga nihoyatda boy uy kutubxonasi, uch tilda olib boriladigan muloqot, oilada hukm surgan yuksak axloqiy - ruhiy muhit va oila a'zolarining baland intellektual savyasi, uylarida muntazam o'tkazilgan adabiy va musiqiy kechalar - bolaning 9 yoshidan Moskva konservatoriyasiga qabul qilinishiga va uning iqtidorining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ldi.

S.I.Taneev konservatoriyada fortepiano sinfi bo'yicha N.Rubinshteyn, kompozitsiya bo'yicha Chaykovskiy kabi ulug' pedagoglarning qo'li ostida tahsil oladi. Ustozlarining ikkalasi ham o'z o'quvchilariga yorqin kelajakni bashorat qilishadi. «Taneev juda kam sonli, eng sara musiqachilar safiga kiradi – u shavkatli pianinochi va ajoyib kompozitor bo'lib etishadi», deb yozgan edi N.G.Rubinshteyn. Konservatoriyada o'qib yurgan kezlarida yozilgan musiqiy asarlarida Chaykovskiyning ta'siri bilinib tursa-da, yosh kompozitorning o'ziga xos xususiyatlari ham sezila boshlaydi. uning iqtidorini Chaykovskiy ham yuqori baholar edi.

Chaykovskiy: «Men nazarimda, chin yurakdan bo'lgan munosabatimga Taneevdan ustunroq turadigan insonni bilmayman», - Deya e'tirof etgan hamda o'zining eng yaxshi

asarlaridan biri – «Francheska da Rimini» nomli simfonik fantaziyasini unga bag'ishlagan edi. Taneev 1875 yilda konservatoriyaning fortepiano va kompozitsiya sinfini oltin medal bilan tamomlaydi, uning nomi a'lochilarning marmar hurmat taxtasiga yoziladi.

Hayotining keyingi yillarini ijrochilikka bag'ishlagan Taneev kontsertlari dasturidan Bax, Motsart, Betxoven, Shopen, Shuman asarlari, 1875 yil noyabrdan to 1914 yilga qadar Chaykovskiyning ham asarlari o'rinni oladi. Chaykovskiyning mashhur Birinchi kontserti ilk bor Taneev tomonidan Moskva shahrida ijro etilgan edi. Bu ijroni Chaykovskiyning o'zi shunday ta'riflaydi: «Kuchli texnika, ajoyib ohang, nozik va xushbichim batafsillikdan tashqari, Taneev yana bir noyob sifatga ega- u muallif maqsadining eng mayda tafsilotlariga ham nafislik bilan kirib boradi, hamda ularni aynan muallif orzu qilgan ruh va sharoitda tinglovchilarga etkaza oladi».

O'sha davrlarda aka-uka Anton va Nikolay Rubinshteynlar, ularning shogirdlari - A.I.Zilotti, A.N.Esipov kabi ajoyib pianistlar mashhur edi. XIX asrning oxirida esa bu borada S.V.Raxmaninov va A.N.Skryabinlarning nomlari yuksaldi. Barcha mashhur kompozitorlarning orasida Taneevning nomi o'zining sharvfli o'rniga ega edi.

Kompozitorning kontsertlari Moskva, Peterburg, Nijniy Novgorod kabi shaharlarda katta muvaffaqiyatlar bilan o'tadi. 1875y. -1877y. va 1880 yillari chet ellarga sayohat qilgan. Taneev Parijda I.Turgenev, G.Flober, E.Zolya, Sh.Guno, K.Sen-Sanslar bilan yaqindan muloqotda bo'ldi, impressionistlarning ijodi bilan yaqindan tanishdi, Sorbonnada lektsiyalarga qatnashdi.

S.I.Taneev 1878 yilda P.Chaykovskiy va N.Rubinshteynlarning iltimosiga binoan Moskva Konservatoriyasida ishlay boshlaydi va 27 yil davomida u erda pedagogik faoliyat ko'rsatadi. U garmoniya, instrumentovka, kompozitsiya kurslaridan dars berar, N.G.Rubinshteynnning vafotidan so'ng esa, 1881 yildan boshlab 7 yil davomida fortepiano sinfini ham olib bordi. 1881 yildan – professor, 1885-1889 yillari - konservatoriyaning direktori vazifasida ishlaydi. Pedagogik kasbiga berilib ketgan kompozitor shogirdlariga mehri baland bo'lib, ko'pincha ular bilan bepul mashg'ulotlar olib borar va kezi kelganda asarlarini nashr ettirish tashvishlari bilan band bo'ladi.

Moskva konservatoriyasining direktori lavozimiga, kompozitor uzoq vaqt rozi bo'lmaydi, chunki ma'muriy ishlarga nisbatan o'zida ishtiyoq his etmasdi. Lekin N.G.Rubinshteyn vafotidan so'ng konservatoriyaning ijodiy va ijrochilik faoliyati sezilarli darajada pasayib ketadi. Amaldagi direktorlik qo'mitasining faoliyati ham yuzaga kelgan holatning yaxshilanishiga yo'l bermasdi. Jamoatchilik ma'suliyatini chuqur his etgan Taneev direktor lavozimini egallahsga rozi bo'lib, konservatoriya yana o'zining avvalgi yo'nalishi va mavqeini tiklab olishi, N.Rubinshteyn xotirasiga loyiq bo'lishi uchun juda ko'p ishlarni amalga oshirdi.

S.I.Taneev butun umri davomida xalq musiqa ijodi tadqiqoti bilan shug'ullanadi: rus xalq qo'shiqlarini o'rganadi, ularni yozib oladi va qayta ishlaydi. 27 ta ukrain qo'shiqlarini, Svanetiyyaga qilgan safari davomida Shimoliy Kavkaz xalqlarining qo'shiq va cholg'u kuylarini yozib oladi.

Parijda vafot etgan N.Rubinshteynnning xotirasiga bag'ishlab yozilgan «Ioann Damaskin» nomli kantatasi kompozitorning 80-yillarda yozilgan asarlari orasida alohida o'rinda turadi. «Ioann Damaskin» kantatasida hayot va mamot mavzusi, hayotning qachondir muqarrar nihoya topishi haqidagi fikrlar aks etgan.

S.I. Taneev 1990-yillari o'zining shoh asarlari – «Oresteya» operasi, do-minor simfoniyasi, romanslari, kamer ansamblari Vatoritsa eng sara asarlaridan biri - to'rtta torli cholg'u va fortepiano uchun yozgan sol-minor kvintetini ijod qiladi. Bularda shoirona musiqiy obrazlar yuksak ilhom va polifonik mohirlilik bilan yaratilgan. Hayotining so'nggi o'n yilida Taneev ijodiy ish bilan juda ko'p mashg'ul bo'ladi. «Jiddiy xatning harakatchan kontrapunkti» («Podvijnoy kontrapunkt strogogo pisma») ilmiy asarini nashr qiladi, vafotidan sal ilgariroq solistlar, xor va orkestr uchun «Psalom o'qilganidan so'ng» («Po prochtenii psalma») kantatasini yaratdi. U Moskva, Peterburg, Avstriya, Germaniya va Chexiyalarda pianinochi sifatida kontsertlar beradi, o'zining kamer ansamblarida fortepiano partiyalarini ijro etadi. Ansamblda uning ijrosi juda yuqori baholanardi. Taneev ansamblda pianinochi G.Zilotti bilan birga ijrochilik qiladi, mashhur

chex musiqachilari kvarteti, mashhur skripkachi G.Venyavskiy, violonchelistlar- A.Verjbilovich va K.Davidovlar bilan birgalikda kontsertlar beradi.

S.I.Taneev 1915 yil 6 iyunda vafot etdi. Bu vaqtga kelib uning «Kanon haqida ta'limot» («Uchenie o kanone») nomli ilmiy ishi tugallanmay qolgan edi.

Ijodining tavsifi. S.I.Taneev o'zining ijodida Glinka, Chaykovskiy, Bax, Motsart, Betxoven an'analariga amal qilgani holda, XX asrning musiqa san'atida etakchi o'rirlarni egallaydigan g'oyalarni oldindan ko'ra bildi. Uning ijodida falsafiy-muammoli ibtido etakchi o'rinda turadi. Inson his-hayajonlariga xos bo'lган dramatizm uning musiqasida umumiyl holda, yumshoq aks ettiriladi. Kompozitor chuqur falsafiy g'oyalarni yirik turkumli asarlarida, ayniqsa sonata shaklida namoyon qiladi. Asarlarning alohida qismlari esa monotematizm tamoyili asosida o'zaro birlashadi. Taneev turkumning ohang yaxlitligiga birinchi marta dominor simfoniyasida erishadi. Ushbu falsafiy yo'nalishdagi mahobatli asar kompozitor simfonik ijodining cho'qqisi hisoblanadi.

Taneev o'zining ijodiy ishlarida qat'iy tartibga amal qilar edi. U doimiy ravishda yozuv texnikasini takomillashtirish ustida ish olib boradi, polifoniyanı har tomonlama mukammal bilishini - texnikaning assosi, deb hisoblar edi. Buning uchun u Bax, Palestrina, Orlando Lasso ijodini chuqur o'rganadi.

S.I.Taneev tayyorlangan mavzularni turli xil o'zgarishlarga, kombinatsiyalarga solar va natijada ularning orasidan «chiroyli, tushunarli, foydali eshitiladigan»larini tanlab olardi. U juda ko'p miqdorda rus xalq qo'shiqlarini va qadimiyl diniy kuylarini «qatt'iy uslub»da qayta ishlaydi, juda ko'p miqdorda ko'povozli ishlanmalarni yaratadi, shu bilan birga, mustaqil musiqiy asarlarda kontrapunkt yozuvni usulini ham qo'llaydi.

S.I.Taneevning ijodida polifoniya usuli, musiqiy materialni rivojlantiruvchi uslub sifatida, alohida ahamiyatga ega. Bu qudratli shakllantiruvchi vosita uning asarlarida variatsionlik bilan birikadi. Uning ijodida fuga ham alohida ahamiyat kasb etdi, hatto ikkitalik, uchtalik fugalar qo'llandi. Fuga mustaqil asar yoki biron-bir turkumning qismi bo'lib kelishi kuzatiladi. Kompozitorning asarlarida kontrast polifoniya katta o'rinni egallaydi. Bunda bir necha kuy chizgilarining chambarchas birikib ketishi natijasida garmoniya hosil bo'ladi. Kompozitorning chuqur mazmunli, tematik rivojlanishga boy mavzuli hamda mahorat ila tugallangan asarlari uni etuk kompozitorlar qatoridan o'rin olishiga sabab bo'ldi. Ammo polifonik rivojning murakkabligi uning vazmin asarlarini idrok etishni bir qadar qiyinlashtiradi.

S.I.Taneev ijodida turli janrlar qamrab olingan. Asosiy o'rinni cholg'u musiqasi egallaydi. Ammo orkestrga ko'plab oid asarları hanuzgacha chop etilmagan, uchta simfonika orasidan faqat do- minor simfoniyasi nashr qilingan. Taneevning simfonik asarları qatoriga skripka va orkestr uchun yozilgan Syuitasi ham kiradi.

S.I.Taneev opera janri sohasida «Oresteya» opera-trilogiyasi yaratdi. Bu operaning yaratilishi kompozitorning ijodida etuklik davri boshlanganligini daraklaydi.

Taneev butun ijodiy yo'li davomida kamer ansamblga murojaat qilgan. Uning qalamiga 14 ta ansambl, fortepiano va torli cholg'ular uchun, 4 ta asarlar mansubdir. Ularning musiqiy tiliga detallashtirish, polifonik yozuvning nafisligi, barcha cholg'u partiyalarining murakkabligi, shakl xushbichimligi va aniqligi xos.

Taneev o'zining ijodida xor janriga ham katta e'tibor berdi va bu janrda ko'pgina a capella xorlari qatorida xor, solistlar orkestr uchun uchta kantata yaratdi. Kompozitorning vokal-xor mahorati shakllanishida Bax va Gendelning ijodini o'rganishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning xor asarlarida polifonik rivojning boyligi ham shundan kelib chiqadi. «Ioann Damaskin», «Psalom o'qilgandan so'ng» kantatalari uning iste'dodi xor san'atida o'zining cho'qqisiga yuksalganligini ko'rsatadi. Unda kantata umumlashtirilgan falsafiy-lirik asar sifatida talqin qilinadi. Aynan S.I.Taneev ijodidan rus musiqasida lirik-falsafiy kantata janri boshlangan edi.

«Ioann Damaskin» kantata. «Ioann Damaskin» kantatasi S.I.Taneevning ilhombaxsh lirik asarlaridan biridir. A.K.Tolstoyning shu nomdag'i poemasi matniga yozilgan kantata Vizantiyada VIII asrda yashab o'tgan shoir va kompozitor Ioann Damaskin diniy madhiyalarning ijodkorı,

bo'lgan 1884 yilda yakunlangan edi. Bu lirik-dramatik asar umuman olganda g'amgin-shiddatli emotsiyal tusga ega.

Bax kantatalarining turiga yaqin rus kantatasini yaratish va bunda qadimiy rus kuylaridan hamda «kontrapunkt uslubi»dan foydalanish – kompozitorning bosh g'oyalaridan biri bo'lgan.

S.I.Taneev rus musiqasida birinchi bo'lib falsafiy-lirik kantatalarning muallifi sifatida ijod qildi. U A.K.Tolstoy she'rlaridan kanonik matnga nazm yo'li bilan ishlov berish uchun foydalandi. Bundan esa kompozitorning bosh badiiy intilishi bo'lgan qadimgi rus qo'shiqlarning kuylanish yo'llaridan foydalanishning to'g'ridan-to'g'ri oqlanganligi kelib chiqadi. Poemadan kantata uchun olingan she'riy parcha insonparvarlik, hayotbahsh ruh va ma'noin bilan sug'orilgan.

Rus kasbiy musiqasida birinchi bor qadimiy rus xalq kuyi - bu «Avliyolar qatorida tinchitgin» («So svyato'mi upokoy») kuyi butun bir asarning asosi sifatida olingan. Taneevni har tomonlama qoniqtirardi: kuylanayotgan so'zlar A.K.Tolstoyning poemasi ma'nosiga to'g'ri kelar; muhim esa – u musiqiy «mavzu» sifatida u ifodali va go'zal edi.

S.I.Taneevning muxarrirligida ushbu kuyning barcha xususiyatlari, asl holida saqlanib qolgan. Bunda qadimiy rus qo'shiqlari kuylanishiga xos bo'lgan pog'onama-pog'ona harakat ustunligi, hamda kuy boshi va yakunidagi tovushlarning aynan o'xhashligi ham saqlangan edi. Kompozitor kuyni sakkizt taktli an'anaviy mumtoz musiqa ko'rinishiga olib kelgan bo'lsa-da, ajoyib tuzilma hosil qilishga erishgan. Davriya assimmetrik bo'lib, notejis 3-5 taktlarga bo'linadi. Bunda kompozitor asl nusxani o'ta ziyraklik bilan yozganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Asosiy mavzuni ko'povozli bayonda yozarkan, Taneev bir ovozli kuyni garmoniyalashtirish kabi murakkab muammoni hal qiladi. U iloji boricha xromatikadan qochadi, tabiiy minor, plagallikning ustunligi, subdominanta bilan yakunlash - bularning barchasi kuya qat'iy asllik ruhiyatini bag'ishlaydi.

«Ioann Damaskin» kantatasi muqaddima va yakuniy qismlar bilan qamrab, 3 qismdan iborat. I qism – hayajonli, dramatik tusga ega. II qism – lirik xarakterda berilgan. U bayonning ravon, shaklning oddiy va qisqaligi bilan ajralib turadi. III qism – irodali, shiddatli va tantanali final. Muqaddima va xulosa «Avliyolar qatorida tinchitgin» g'amgin mavzusi asosida 4-ovoziylik bayonda yozilgan. Muqaddimani orkestr, yakuniy qismni esa a capella xori ijro etadi. Kantataning yakunlanish lavhasi lirik xarakterda yangraydi. 1 va 3 qismlar fa diez minor tonalligida yozilgan fugalardan iborat.

Kantataning dramaturgiyasi monotematik asosga ega. «Avliyolar qatorida tinchitgin» kuyi bir necha marotaba paydo bo'lib, kantataga qariyb to'liq singib ketadi. Shu bilan birga har bir asosiy mavzu qadimgi kuy bilan bir vaqtning o'zida yangraydi.

Bu xususit muhim bosqichlarning drammatugik munosabatida aks etadi.

Bu erda variatsiya qilishning rus musiqasida an'anaviy bo'lgan usullaridan foydalanilgan: tembrler o'zgaradi, ovozosti polifoniya qo'llaniladi. Butun kantatani Avliyolar qatorida tinchitgin” kuyi ohanglarining turli xil melodik, garmonik, faktura, tembr, kontrast-polifonik variatsiyalari sifatida ham talqin qilish mumkin.

«Ioann Damaskin» asari bilan rus musiqasida lirik – falsafiy kantataga asos solindi. Bu kantata chinakam «rus rekviem»idir. Mazmunning boyligi va hayotiyligi, abadiy hayot-mamot mavzusiga murojaat qilinganligi hamda uning insonparvarlik nuqtai nazaridan talqin etilishi, qolaversa chuqur simfonizm asosi bois Taneev ham kantatasi rus musiqasining eng sara asarlari qatoridan joy oldi.

S.I.Taneev opera janri sohasida ham o'z so'zini aytdi. Uning «Oresteya» nomli trilogiyasi rus musiqasi tarixida antik syujetni ulug'vor jiddiy musiqiy qiyofalarda gavdalantirgan yagona tajriba bo'lib qoldi.

Do-minor simfoniya – falsafiy xarakterdagi jiddiy asardir. Simfoniyaning tonal rejası Betxovenning 5-simfoniyasiga o'xshaydi. Bunda ham simfonianing negizi asarning birinchi taktlaridanoq ko'rinib turadi. Bu simfoniya qarama-qarshi (dramatik va lirik) obrazlarning

taqqoslanishi asosida tuzilgan bo'lib, dramatizm bilan to'yingan, ammo bo'lib, uning g'oyasi optimistik asardir.

S.I.Taneev asarning intonatsion birligiga katta ahamiyat beradi. To'rt qismli simfoniya qismlarining kontrastligiga qaramay, ular monotematzm usuli asosida yaxlit turkumga uyg'unlashdi. Birinchi qismi sonata allegro shaklida yozilgan bo'lib, uning kirish qismi simfoniyada etakchi o'rın tutgan. Unda uch tovushli motiv ikki marotaba takrorlanadi. Birinchi va uchinchi tovushlar orasida ortirilgan kvarta eshitiladi. Bu kvartaning echilmaganligi, aniq o'tkir ritmik sur'ati, tonika asosida torli- cholg'u, valtornalar va trombonlarning unisonli yangrashi pirovardida asosiy mavzu shiddatli, irodali va shu bilan birga xavotirli tus oladi:

Bu mavzu simfoniyaning boshqa qismlarida ham paydo bo'lib, boshqa mavzularning ham ohang asosi tarzida xizmat qiladi (masalan, I-qismning bosh partiyasida). Ritmik jihatdan kengaytirilgan holda u bosh partiyaning rivojiga, ekspozitsiyaning xulosasiga qo'shilib ketadi. Falsafiy- mushohada tusiga ega bo'lgan II-qismning (Adagio) boshlang'ich ikki taktli davrada jumlasida I-qismdagi muqaddimaning muhim «chizgilarini» eshitamiz. Simfoniyaning ikkinchi etakchi obrazi bo'lib I- qismning yondosh partiyasi yuzaga – bosh partiyaga zid lirik vals xarakteriga ega bu mavzuning uni muqaddima mavzusi bilan ohang bog'liqligini ta'minlaydi.

III-qismdagi skertso xalq janridagi sahna chizgilariga ega. U ham I- qismdagi mavzular bilan ohang jihatidan bog'liqdir. Finalda bosh partiya mavzusi ritmik o'zgargan holda namoyon bo'ladi. IV-qismi tantanali koda bilan tugaydi. Bunda asosiy musiqiy mavzular polifonik usullar bilan o'zaro birikib, do major tonalligida ulug' vor va tantanali yangraydi.

Sinfoniyaning rivojlanish yo'nalishi o'zining uzluksizligi, hamda yaxlitligi bilan ajralib turadi. 1896 yildan 1898 yilgacha shug'ullandi. Birinchi marotaba simfoniya Peterburgda ijro etildi, unga I.M.Glazunov dirijyorlik qilgan edi.

Romans ijodi. Bu janrda ham Taneev samarali ijod qilgan bo'lsada, afsuski, kompozitorning bor-yo'g'i faqat 40 romansi nashr etilgan. Uning barcha musiqiy asarlari kabi, romanslari ham turli xil obrazlarga, falsafiy mushohadalarga, lirik kayfiyat va tabiat manzaralariga boy. Taneevning mashhur romanslari qatoriga «Odamlar uplashmoqda» («Lyudi spyat»), «Ko'rinas tutun ichra» («V do'mke-nevidimke»), «Notinch yurak urmoqda» («Byotsya serdtse bespokoynoe»), «Menuet», «Kuz barglari aylanib...» («Kogda, krujas, osennie listya»), «Mudrotsi o'rmonlar» («Lesa dremuchie»), «Arfaning yaralishi» («Rojdenie arfo»)lar kiradi.

Shoir N.A.Nekrasov so'zlariga yozilgan «Notinch yurak urmoqda» romansi o'zining yorqinligi bilan ajralib turadi. Kompozitor bu romans ijrosini appasionata atamasi bilan belgilaydi. Ritmik puls bosimi, qisqa tovush luqmalarining fortepiano partiyasi jumllari bilan almashinuvni dramatik obrazni yuzaga keltiradi.

S.I.Taneev romanslarning she'riy matnlari sifatida Fet, Nekrasov, (Ellis tarjimasida) Steketti, Polonskiy so'zlaridan foydalangan. Kompozitor, odatda, romanslar kuyini yaratishda shoir «belgilab» bergen yo'ldan bormasdan, o'zi umumlashtirgan qiyofalarni yaratadi.

S.I.Taneev san'ati yaxlit bo'lgan yuksak axloqiy fazilatlarni, olivjanoblik va insonparvarlik tuyg'ularini o'yg'otadi hamda tarbiyalaydi.

S.I.Taneev ijodining ahamiyati. Taneev ilg'or kompozitorlik mifiktabini yaratdi, ko'plab pianinochilarini, musiqashunoslarni, dirijor va pedagoglarni tarbiyalab etishtirishga muyassar bo'ldi. Uning shogirdlaridan - K.N.Igumnov, A.V.Goldenveyzer, L.V.Nikolaev, S.V.Raxmaninov, A.N.Skryabin, N.Metner, S.P.Lyapunov, Z.P.Paliashvili, R.M.Glier, B.L.Yavorskiy, G.E.Konyus va boshqalar musiqa tarixida mashhur musiqachilar qatoridan munosib o'rın oladilar.

S.I.Taneev vafotidan bir necha kun o'tgandan so'ng, Raxmaninov Finlyandiyadan nekrolog yuborgan edi. U o'z ustozining qiyofasini mehr-muhabbat hislari ila to'la samimiy so'zlar bilan tasvirlab, shunday hayajonli so'zlarni yozgan edi: «Sergey Ivanovich Taneev - mohir kompozitor, zamonasining o'qimishli musiqachisi, o'ziga xos noyob inson, ajoyib ruhiy sifatlar egasi. Moskva musiqasiga bosh-qosh edi. U har bir faoliyatda barchaga namuna edi, qanday

ishga qo'l urmasin, faqat yaxshi bajarar edi. U o'zining shaxsiy namunasi bilan u bizga qanday yashash, qanday fikrlash, qanday ishlash, va hatto, qanday qilib gapirish haqida ibrat bo'ldi. O'zining idrok yuragi, qobiliyatining kuchi bilan o'z yo'lini topdi keng va to'g'ri cho'qqiga yo'nalishni ko'rsatdi, u yondirgan yorqin yoritqich hamisha nur sochib turadi».

Asosiy ro'yxat asarlari:

Opera: «Oresteya» (1985).

Kantata: «Ioann Damaskin» (1884); «Psalom o'qilgandan so'ng» (1915);

Orkestr uchun: 4 ta simfoniyalar (1874, 1877, 1884, 1898); Rus mavzularga uvertyurasi (1882), «Oresteya» uvertyurasi (1889); skripka va orkestr uchun kontsertli syuitasi (1909);

Kamer asarlari: 2 torli kvintet, 10 torli kvartet, romanslar.

Nazorat uchun savollar.

S.I.Taneev ijodiy qiyofasining serqirraligini izohlab bering.

Kompozitorning hayoti va ijodiy yo'lini ko'rib chiqing.

S.I.Taneev o'z asarlari ustida qanday usullar asosida ish olib borganligi haqida so'zlang.

4. S.I.Taneev musiqiy asarlarining alohida qismlari qanday asosiy tamoyillar asosida birikadi?

5. S.I.Taneev asarlarida musiqiy material rivojlanishining asosiy polifonik usuli nimadan iborat?

6. «Ioann Damaskin» kantatasining mazmunini, «Avliyolar qatorida tinchitgin» kuyi va uning ishlanmalari haqida so'zlab bering.

7. Kompozitorning do- minor simfoniyasiga ta'rif bering.

8. S.I. Taneevning romanslari haqida so'zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar

- Ikkita yirik kompozitor - Taneev va Chaykovskiy o'zlarining tabiatlari va ijodiy qarashlari bilan bir-birlariga to'g'ri kelmaydigan kompozitorlar edi. Ammo, bu ularning ma'nnaviy yaqin bo'lishiga xalaqit bermaydi. Biz bu haqida ularning faol bo'lgan yozishmalaridan bilishimiz mumkin. Ularning jadal va to'liq yozishmalar qanday ijodiy savollar borasida olib borilganligi ayтиб bering, ular o'zlarining yozishmalarida qanday fundamental estetik muammolarni bahs qilishgan?

- S.I.Taneevning «Oresteya» operasini kim nashr ettirgan?

- S.I.Taneev o'zining ilmiy ishlarida, musiqa nazariyasida polifoniyanidan tashqari qanday masalalarni ko'rib chiqqan?

- S.I.Taneevning do- minor simfoniyasi monotematizm tamoyiliga asoslangan. Kompozitorning ushbu tamoyil asosida yozgan yana qanday asarlarini bilasiz?

A.N.SKRYABIN
(1872-1915)

Biz kamdan - kam uchraydigan shaxsga,
zo'r kompozitor va pianinochiga,
o'ziga xoslik hamda faylasuflikka duch
keldik. U - butkul hayajon, hayrat va
muqaddas alangadir.
(Skryabin kontsertiga berilgan taqrizdan)

Aleksandr Nikolaevich Skryabin – yirik kompozitor, pianinochi va pedagog, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida yashab ijod etgan san'atkorlarning yirik namoyandalaridan biridir.

A.N.Skryabin o'z zamondoshlaridan ijodiy qiyofasining o'zgachaligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Uning ko'plab asarlarida, ayniqsa, XIX asrning 90-yillarida va XX asr boshlarida yozgan asarlarida, siyosiy ijtimoiy kurashlar keskin tus olgan davrning qizg'in muhiti yorqin aks etgan. Uning ijodiy g'oyalari ko'lami benihoya keng. Ijodiy faoliyati davomida Skryabin jiddiy rivojlanish davrlarini bosib o'tdi. Xususan, ijodiy yo'slining boshlanish davri klassik an'analarga bog'liq kechdi. Keyinchalik asar XX asrning boshlariga xos bo'lgan yo'nalishlar - impressionizm hamda ekspressionizm ruhida ijod qilgan, kechki, ijodiy davrida esa simvolizm deb nom olgan adabiy-badiiy oqim yo'nalishi bilan uzviy bog'liqlik kuzatiladi.

Shunga qaramay, kompozitor asarlarining musiqiy tili yangi g'oyalari ifodasi o'loroq o'ziga xosligi va yangiligi bilan, ob'ektiv voqelikni qanday qabul qilsa, shunday ifodalashga intilishi bilan tavsiflanadi.

A.N.Skryabin o'zining falsafiy dunyoqarashini ijodi uchun asos qilib olishga musiqada esa falsafiy g'oyalari ifodalashga intildi. Shu bois ham muallif qator asarlarining g'oyaviy mazmunini falsafiy ta'llimotlar bayoni orqali sharhlab o'tgan. Uning ijodida Betxoven asarlarida ham kuzatilganidek kuchli bunyodkor shaxs tantanasi, inson irodasining g'alabasi, hayot azob-uqubatlarini engish va ertangi kunga ishonch, optimizm mavzulari ustuvordir. Skryabin shunday yozgan edi: «Tom ma'noda optimist bo'lish uchun tushkunlikni boshdan kechirish hamda uni engish kerak». U san'atning ma'rifiy kuchi va yangilovchi qudratiga chuqur ishonar edi.

Hayoti va ijodiy yo'li. Aleksandr Nikolaevich Skryabin 1871 yil 25 dekabrda (1872 y. 6 yanvar) Moskva shahrida tug'ildi. Uning otasi diplomat, onasi esa pianinochi bo'lgan. U nimjon, vazmin, ta'sirchan hamda nozik qalb egasi bo'lib o'sdi. U ko'proq o'zining ichki dunyosi bilan yasharkan, yoshligidan bukilmas iroda va fe'l-atvorida qat'iyilik namoyon bo'ldi. Yaqinlari uning juda erta va yaqqol namoyon bo'lgan musiqiy iqtidoriga nihoyatda ehtiyyotkorlik va ziyraklik bilan munosabatda bo'ldilar. Bo'lajak kompozitor o'n yoshga to'lganida, oila an'anasi ko'ra, Moskva kadetlar korpusiga o'qishga yuborildi.

Skryabin G.E. Konyus va N.S. Zverevdan fortepiano ijrochiligi bo'yicha dars oldi. Zverev pansionida ko'plab pianinochilar bilan, jumladan S.V.Raxmaninov bilan yaqindan tanishdi. 1888 yilda Moskva konservatoriyasiga o'qishga kirib, bu erda V.I.Safonovdan fortepiano sinfi bo'yicha, S.I.Taneevdan nazariya bo'yicha, A.S.Arenskiydan ijod bo'yicha ta'lim oladi. 20 yoshida Skryabin konservatoriyanı pianinochi sifatida oltin medal bilan tugatadi. Ushbu dargohda o'qib yurgan kezlar u fortepiano uchun etyud-pesalar, prelyudiylar, ekspromtlar va mazurkalar yozgan edi. U katta ishtiyoq va zavq-shavq bilan ishlar edi. O'sha davrda o'zi uchun juda qadrli va sevimli F.Shopenning ijodidan zavqlangan Skryabin polyase kompozitorining fortepiano uchun miniatyura asarlariga ergashib, shu janrda qator miniatyurlar yaratadi. Kompozitor asarlari Rossiya sahnalarida tez-tez ijro etila boshlaydi. U juda tez el nazarga tushdi. N.A.Rimskiy-Korsakov uning iste'dodini «birinchi darajali yulduz», deb baholagan edi.

Kompozitorning ijodiy faoliyatini shartli ravishda 3 davrga bo'lish qabul qilingan. Ijodining ilk davri – 80-yillar oxiri – 90-yillarni tashkil etadi. 1894 yilda Skryabin Moskva konservatoriyasining fortepiano sinfi bo'yicha professorlik ilmiy darajasiga erishdi va o'zini

iste'dodli pedagog sifatida namoyon etdi. Shu davrlarda Skryabin juda ko'p ijod qiladi, hamda taqlidlar orqali o'z yo'lini izlash jarayonini nisbatan tez bosib o'tadi. 90-yillarning boshiga kelib, u yaratgan va o'zi ijro etgan musiqiy asarlar katta muvafaqqiyat qozona boshlaydi. Metsenat(M.P.Belyaev yosh Skryabindan yordamini ayamadi, bu esa uning keyingi hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kompozitor iste'dodini juda yuqori baholagan Belyaev uning asarlarini nashr ettiradi va barcha kontsert safarlarini mablag' bilan ta'minlaydi. Shu alfozda Skryabin nafaqat Rossiyada balki Germaniya, Belgiya, Italiya, Shveytsariya, Gollandiya, Frantsiya kabi xorijiy mamlakatlarda ham kontsertlar beradi.

1890-yillarda Skryabinning ijodi yanada gullab-yashnaydi. Bu hol uning fortepiano kontserti, Uchinchi sonatasi, bir qator prelyudiyalari va etyudlarida yorqin namoyon bo'ldi.

1890-yillar ijodining ikkinchi davri hisoblanadi. Bu davrda Skryabin eng avvalo «Ilohiy poema» («Bojestvennaya poema», 1904y.) asari bilan tinglovchilar e'tiborini qozondi. Ayni damda u o'zining fortepiano uchun to'rtinch sonatasini, shuningdek, «Fojiali poema» («Tragicheskaya poema»), «Iblisona poema» («Sataninskaya poema») hamda prelyudiya kabi mashhur asarlarini yaratadi.

Ijodining uchinchi davri 1904-1910 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda kompozitor Shveytsariya, Italiya, Frantsiya, hamda AQShda yashab ijod qildi. Skryabin orkestr uchun «Vadj poemasi» («Poema ekstaza») va fortepiano uchun Beshinchi sonata kabi mashhur asarlarini yozdi.

Ijodiy etuklik davrida yaratilgan asarlarida kompozitor ijodini tadrijiy rivoji o'z aksini topgan. 1910-1915 yillarni - hayoti va ijodining oxirgi davrini Skryabin Moskvada o'tkazdi. Uning musiqasida optimizm bilan bezovtalanish, xavotirlanish tuyg'ulari hamda mistik qiyofalar tasviri tobora kuchayib boradi. Bu davr uning samimiyl dil izhorlari davri bo'ldi.

Kompozitor Rossiya, Gollandiya va Angliya shaharlari bo'ylab kontsert safarlarida bo'ldi. Bu paytdagi uning ijodiy faoliyati rus musiqiy hayotida yanada yuqoriroq o'rinn egallaydi. Bu o'rinda kompozitorning orkestr, fortepiano va so'zsiz xor uchun «Prometey» («Olov poemasi») poemasi, fortepiano uchun «Alanga sari» («K plameni») poemasi, Beshinchi sonata va pesalarini alohida qiyamatlidir.

Kompozitor «Prometey» partiturasiga alohida nota qatorini qo'shimcha qiladiki, u hali mavjud bo'limgan yorug'lik asbobi uchun mo'ljallangan edi. Asarning muayyan musiqiy mavzulari va garmoniyalariga muvofiq sariq, qizil, ko'k va boshqa rangdagi yorug'lik to'lqinlari bilan yoritilishi ko'zda tutilgan edi.

Bu davrda unda turli san'atlarini o'zida yaxlit mujassam etuvchi ajoyib asar – «Misteriya» yaratishdek ajoyib fikr tug'iladi; u san'at turlarini sintez qilishni orzu qiladi. Ammo 43 yoshida labi ustining yallig'lanishi bois, to'satdan vafot etadi. Musiqa jamoatchiligi Skryabinning o'limidan larzaga keldi, chunki bu davr kompozitor ijodi va iste'dodining ayni gullagan vaqt edi.

A.N.Skryabin asarlarining musiqiy tili. Skryabinning ijodiy faoliyati yangi va ta'sirchan ifoda vositalarini muntazam izlashdan iborat bo'ldi. U jasur novator sifatida o'z tovushlar olamini, o'z obrazlari va ifoda vositalari tizimini yaratdi. Uning musiqasida bir vaqtning o'zida yorqin kontrastlar - isyonkor jo'shqinlik va inkor etish mushohadasi, hissiy azoblar va amrona xitoblar mavjud. Uning musiqiy tilida paydo bo'la boshlagan yangi chizgilar garmoniyada juda yorqin seziladi. U Rimskiy-Korsakov va boshqa bir qator kompozitorlar (ayniqsa, List va Wagner)ning uslublarini rivojlantirishi natijasida faqat o'z uslubiga xos bo'lgan chizgilarni shakllantirdi, o'tkir va sermazmun uyg'unlikni yarata oldi. Nonakkordlarning, aksariyat alteratsiyalangan dominantali va qisman subdominantaliakkordlarning keng qo'llanilishi Skryabin musiqiy tilining muhim xususiyatiga aylandi. Bunday alteratsiyalangan garmoniyalar Skryabin musiqasiga butun tovushqatori unsurlarini olib kiradi. Bu unsurlar kompozitor ijodining ikkinchi davrida, faqat major-minor lad tizimi doirasidagina rivojlangan edi. Kompozitor so'nggi davrdagi asarlaridan major-minorlar tizimiakkordlari yangi, o'ziga xos ohangdoshliklar va murakkab lndlari bilan asta-sekin siqib chiqadi. «Prometeyakkordi» nomini olgan kvarta bo'yicha tuzilgan oltita tovushliakkord «Prometey» asarining garmoniyasi bo'lib qoladi. Vazn-o'Ichov jihatidan Skryabin musiqasi nihoyatda o'zgaruvchandir. Keskin urg'udorli

variantlarining benihoya ko'pligi kuyning yangi vazn va tembr tuslanishlarida takrorlanishi - bularning barchasi uning musiqasiga notinchlik va hayajon kayfiyatini bag'ishlaydi.

Uning novatorligi – dadil va jur'atlari fikrlari uyg'unligida - klassik aniqlik, cheklangan «kvadratli» bo'limlarning shakl yorqinligida namoyon bo'ladi. Skryabin doim mavzuni yuqori kayfiyatda yakunlashga, uning shakli aniq va ravon bo'lishiga, uslubni esa har tomonlama puxta ishslashga intilgan.

Fortepiano ijodi. Skryabin istedodli pianinochi edi. Uning pianino ijrosi ranglarning boyligi va turli-tumanligi bilan ajralib turadiki, bunga faqat kuchli asabiy hayajon va shu bilan birga, yuksak ko'tarinkilik, nyuanslar harakatchanligi, musiqa sur'ati va vazn o'zgaruvchanligi, ohanglarning nafis almashinuvi va pedalni mohirona qo'llash orqali erishish mumkin. Pianinochi M.A. Pressman shunday deb xotirlaydi: «Unda go'zalligi va mayinligi bo'yicha nihoyatda nafis, yoqimli tovush, barmoqlarining harakatlarida engillik va aniqlik bor edi. Kichik passajlarda royal betakror va ajoyib jaranglar edi. Royaldan u juda ko'p nafosatlarni chiqara olgan».

A.N.Skryabin ijrosining jozibadorligiga taqrizchilardan biri shunday tavsif bergan edi: «Skryabin musiqani qandaydir ichki tuyg'u bilan, xuddi improvizatsiya qilayotganday ijro etadi. Uning texnikasini ta'riflashga so'z ojiz. Uning ijrosidagi musiqani tinglar ekansan, texnika haqida o'ylamaysan ham. Faqat unga qulqoq tutib, ijodkor irodasi bilan eshitishga va his etishga majbur qilgan narsani sezasan – bu juda buyuk san'atdir!».

A.N.Skryabinning ijrochilik san'ati uning fortepiano ijodi bilan chambarchas bog'liq, zero fortepiano asarlari uning ijodining eng katta qismini tashkil qiladi. Bunday katta hajmdagi asarlar qatoriga – kontsert, o'nta sonata, Si- minor fantaziysi, «Fojiali», «Iblis», «Alangaga» poemalari, noktyurn-poemasi kiradi. Lekin, eng ko'p sonli guruhni miniatyurlar – prelyudiyalar, etyudlar, noktyurnlar, mazurkalar, ekspromtlar, valsler tashkil qiladi. Kompozitorning falsafiy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi poemalar antiqa va sirli nomlarga ega – «Topishmoq», «Kinoya», «Niqob» («Maska»), «G?alatilik». Birinchi uchta sonata an'anaviy sonata turkumida qolgan sonatalari esa bir qismidan iborat.

A.N.Skryabinning fortepiano uchun yozilgan asarlari uning uslubi shakllanishining asosiy tadrijiy bosqichlari borasida to'liq tasavvur beradi. Erta davrda yaratilgan asarlari yoqimli ohangdorligi va kuy tilining go'zalligi bilan ajralib turadi. Uning lirik musiqasi o'zgaruvchan va egiluvchan bo'lib, ko'pincha ko'ngil kechinmalarining nozik torlarini aniq etkazib bera oladigan, o'ziga xos bo'lgan notejis sur'atga ega. Kompozitorning musiqasi ohangdor bo'lishiga qaramasdan, cholg'ulik xarakteriga ega. Bu sifat, ayniqsa, uning musiqasining dramatik lavhalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning ifodasi, Skryabin musiqasiga xos bo'lgan keskin burilishlar, uzilishlar va sakrashlar bilan yanada kuchaytirilgan.

Vazn noturg'unligi.

Metric siljishlar, sinkopalar, punktir ritmlar, pauzalar Skryabinga xos bo'lgan hayajonlanish, to'lqinlanish, notinch ko'tarinkilik va ta'sirlanish kabi kechinmalarni nozik ifodalaydi. U fuga, fugato kabi taqlid polifoniyasiga deyarli murojaat qilmagan. Biroq u polifonik tarzda fikrlaydi. Murakkab, figuratsiyalar bilan boyitilgan, kuya solingan bayon kompozitorning fortepiano cholg'u ifoda vositalarini chuqur tushunish bilan belgilangan fortepiano uslubiga juda xosdir.

Kompozitor tomonidan hayotining turli davrlarida yaratilgan prelyudiyalar - uning fortepiano ijodining katta qismni tashkil etadi.

A.N.Skryabinning fortepiano uchun «24 prelyudiyalari» ijodiy to'plami juda mashhur. Bu to'plam kompozitor ijodining birinchi davriga xos obrazlar va kayfiyatlarining birikuvi bo'lib, barcha prelyudiyalar katta ifodaviy jihatlari bilan ajralib turadi. Bu nozik nafosatli musiqa dunyosidir.

Do-diez minor prelyudiyasi dramatik asarlar qatoriga kiradi. Prelyudiya lo'nda, klassik aniq reprizali ikki qismidan iborat shaklda bayon etilgan. Unda dramatik keskinlik, kuchli shiddat ustunlik qiladi.

Boshlang'ich taktning kuchli hissasidagi pauzadan keyin kuchsiz hissadan boshlanadigan qisqa kuy tuzilmalari, birinchi taktning oxiri – ikkinchi taktning boshidagi sekundali jumla (re

diez-mi) - asosiy ifoda vazifasini bajaradi. Shunday tuzilishiga qaramasdan, prelyudiyani kuya solish mumkin. Akkordlar alteratsiyalanganligi sababli ularning ta'sir kuchi yanada ortgan:

Kompozitor ikkinchi davriyani Mi- majorda yaratgan. U ancha tashvishli, ammo intiluvchan xususiyatga ega material bilan boshlanadi. Reprizada esa boshlang'ich mavzu kuchaytirilgan: dinamik tuslar almashinadi, faktura zalvorliroq. Mana shular hisobiga musiqiy obraz fojiali – ta'sirli xususiyat kasb etgan.

Mi- bemol minor prelyudiyasi hayajonli, irodali xarakterga ega. Bunga basdag'i kvartali yo'nalishlarda yuqori tovushga urg'u berish, to'yigan zinch faktura, g'aroyib vazn (15G`8) va uzlusiz harakat orqali erishiladi. Butun pesa jadal balandlanadigan va yana pasayadigan basning kvartaga sakramalariga, ildamlik sur'atlariga, harakatlarning almashinuviga asoslangan. Kamdan-kam uchraydigan vazn, o'ta to'yigan faktura – bularning barchasi isyon, g'alayon hissini ifodalashga xizmat qiladi.

Simfonik ijodi. «Zavq poemasi». Skryabin o'z simfoniyalarida inson yo'lida turgan og'ir to'siqlarni engib o'tish uchun hayotda kurashish zarurligi haqidagi mavzuni ilgari suradi. Uning simfonik asarlarida mardonavor, jasoratlari, faol va irodali obrazlar hamda shodlik va yorqinlik tuyg'ulari markaziy o'r'in egallagan. Skryabinning «Men odamlarga ular naqadar kuchli va qudratli ekanliklarini aytmoqchiman», degan so'zlarini Uchinchi simfoniyasi va «Zavq poemasi»ga debocha o'rnida olish mumkin.

1990-yillarda kompozitorning falsafiy kontseptsiyasi, ta'limoti uzil-kesil shakllandi. Uning ulkan g'oyalarini hayotga tadbiq etish uchun musiqa, she'riyat, raqs, arxitektura, shuningdek, yorug'lik nuri kabi barcha san'at turlarini birlashtirishga zarur edi. San'atning qudrati o'laroq dunyoni o'zgartirishga intilish g'oyalari Birinchi, Uchinchi simfoniyalarida («Ilohiy poema»), bir qismli «Zavq poemasi» (1907) va «Prometey» (1910) poemalarida o'z ifodasini topgan.

A.N.Skryabinning «Ilohiy poemasi» inson kuch-qudratiga o'ziga xos madhiya bo'lib yangraydi. Bu simfoniya - dasturli asardir. Uchala qismi ham tanaffussiz ijro qilinadi. Simfonianing har bir qismi o'z nomiga ega: 1-qism – «Kurash»; 2-qism – «Rohat»; 3-qism – «Ilohiy ijro». Simfoniyada kompozitorning shaxsiy uslubi yorqin gavdalangan.

Skryabinning simfonik asarlarida uning o'ziga xos his-tuyg'ular ziddiyati, qarama-qarshiliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning o'zi ularga «oliy nazokat va oliv tantanavorlik» deb ta'rif bergan edi. Ushbu ikki sifat bir qismli «Zavq poemasi»da o'zining yorqin ifodasini topgan. Simfoniya musiqasi «Ilohiy poema»ga yaqin bo'lgani bilan, yanada keskinroqdir. «Zavq poemasi» yorqin kontrast qiyofalarda tuzilgani bo'lsada, o'zining yaxlitligi bilan ajralib turadi. Bunda ikki asosiy mavzu qiyosini farqlash mumkin – orzular va faoliyat sohasi: «azoblar» «orzular», «parvoz» mavzulari. Muqaddima mavzusida hayol surish, kuzatish, mushohada qilish his-tuyg'ulari yangraydi.

«O'z mavqeini mustahkamlash», «xavotir», «iroda», «isyon» mavzulari dinamik xarakterga ega.

Asar 10ta mavzudan iborat. «Zavq poemasi»da cho'ziq kuylar yo'q, balki har bir mavzu qisqa, yorqin o'ziga xos musiqali iboradir. Unda lirika bilan iste'dodlilikning, shaffof tovush ohanglarining ilhombaxsh, butkul zabit etuvchi, his-hayajonli, uzlusiz simfonik rivojlanish sahifalarining birikishi yo'q.

N.A.Skryabin o'z simfoniyalarida oliy «tantanavorlikka» intilib, uning asosiy qismlariga organ va bonglarni kiritadi, orkestr tarkibini kengaytirdi, «Prometey» poemasida orkestr jarangi goh tiniq, goh butun orkestr quvvati (tutti) bilan yangraydi. Chiroqli vositasida mazkur asari ilk marotaba Nyu-York shahrida 1915 yilda, 1916 yilda London va Moskvada ijro etilgan. Kompozitor asarları «san'at dunyoni o'zgartirib yuborishga qodir»ligi haqidagi g'oyani, notanish kosmik olamga intilishni, zavqlanish va oromlanish g'oyalarini o'zida aks etirgan. Bunday ijod namunalarining shoh asari, A.N. Skryabin fikricha, musiqa, she'riyat, raqs, arxitektura va shuningdek, yorug'lik nuri kabi barcha san'at turlarini o'zida birlashtirgan asar – «Misteriya» bo'lishi kerak edi.

A.N.Skryabin ijodining ahamiyati. Skryabinning asarları yuksak darajada badiiy umumlashmasi, kuchli hissiy ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Yuqori keskinlikka ega garmoniyalar Skryabinning buyuk kashfiyotidir.

Uning fortepiano ijrochiligi ma'naviyligi, romantik ruhlanganligi bilan ham rus san'atida o'ziga xos kashfiyotdir.

An'anaviy musiqiy shakllarning talqini ham yangiligi bilan e'tiborga molik.

A.N. Skryabinning ijodi XX asr fortepiano va simfonik musiqa janrlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Musiqa va yorug'lik sintezi haqidagi uning g'oyasi keyinchalik yanada rivoj topdi.

Asosiy yozgan asarlar ro'yxati

Orkestr uchun: 1-simfoniya, E dur, finalda xor katnashish bilan (1990); «Iloxiy poemasi», s-moll (1903-1904); «Tilaklar» poemasi (1989), «Zavq» poemasi (1905-1907); fortepiano va xor qatnashish bilan «Prometey» («Olov poemasi»), (1909-1910);

Fortepiano va orkestr uchun kontsert, fis moll (1897);

Fortepiano uchun: 10 sonata, 90 prelyudiya, 19 poema, 21 mazurka, ekspromtlar, valslar va boshqalar.

Nazorat uchun savollar.

A.N.Skryabinning hayoti va ijodiy yo'li haqida so'zlab bering.

A.N.Skryabin asarlarining musiqiy tilini ta'riflang.

A.N.Skryabinning fortepiano ijodiga tavsif bering.

A.N.Skryabin simfoniyalarining mazmunini so'zlab bering.

Kompozitor o'zining qaysi asarlarida maxsus chiroqlar partiyasini kiritdi?

6. «Prometeyakkordi»ning tuzilishini aytib bering.

Ijodiy topshiriqlar

- 1890 yillarning oxiri — 1900 yillarning boshida A.N.Skryabinning kelgusi ijodida muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyaviy, badiiy va falsafiy fikrlarining shakllanish jarayoni yakun topdi. Kompozitorning qaysi asarlarida ushbu falsafiy-estetik g'oyalar o'z aksini topgan?

- A.N.Skryabinning ilk asarlarida uning ijodiga xos bo'lgan - mazmunning lirik xarakteri, rang-barang ichki qalb kechinmalarini tinglovchilarga etkazib berishga intilish kabi qirralar aniq belgilangan. Bu asarlarning ko'pchiligi musiqiy miniyatyrularning «kichik shakl» deb nom olgan turlarini -prelyudiyalar, etyudlar, ekspromtlar, noktyurnlar raqs xarakteriga ega vals-pesalarni, mazurkalarni o'zida mujassamlashtiradi. Do-diez minor va Mi-major prelyudiyalaridan parchalar ijro eting.

- A.N.Skryabin do'stlari yaxshi tushunishlari uchun o'z asarlariga izohlar berib ijro etishni yaxshi ko'rardi. O'ziga yaqin insonlari bilan baham ko'rgan orzulari orasida fantastik «Misteriya» muhim o'rinn tutgan. Gohida ularga «Misteriya» uchun yozilgan musiqadan parchalar ijro etib berardi. U «Misteriya»da san'atning turli yo'nalishlarini birlashtirishga harakat qilganini ko'p ta'kidlar edi. Skryabin ushbu fantastik asarda qanday san'at turlarini birlashtirishni va uni qay tarzda yaratishni rejalashtirgan edi?

- A.N.Skryabin – iste'dodli kompozitor va pianinochi edi. Zamondoshlari uning ijrosi haqida qanday fikrlar bildirishgan?

- A.N.Skryabinning biron-bir simfoniyasidan mavzu ijro etib bering.

S.V.RAXMANINOV
(1873 – 1943)

«U kompozitor, pianinochi va dirijyor sifatida bir xil darajada mohir usta bo'lib – o'zining barcha ko'rinishida asosan musiqiy unsurlarga jon, tovushlarga esa yuksak ruh bag'ishlashi bilan bizlarni hayratda qoldiradi».

N.K.Metner

Buyuk pianinochi, yirik dirijyor Sergey Vasilevich Raxmaninov butun jahon musiqachilarining kontsert repertuaridan o'rin olgan yorqin va hissiyotlarga boy asarlarning ijodkoridir.

S.V.Raxmaninov ijodiy faoliyatining gullab-yashnashi hayotining 1917 yilning oxirida Rossiyadan emigratsiya qilguniga qadar kechgan «rus davri» yillariga to'g'ri keladi. Uning musiqiy asarlari mashhurligini faqat P.I.Chaykovskiy asarlarining mashhurligi bilan taqqoslash mumkin.

Hayoti va ijodiy yo'li. Sergey Vasilevich Raxmaninov 1873 yilning 20 martida (1 aprel) Novgorod guberniyasining Oneg mulkida dvoryanlar oilasida dunyoga keldi. Bu o'lka yuksak xalq musiqa madaniyati, keng rivojlangan jamoali kuylash va bong jaranglari bilan mashhur edi.

Bo'lajak kompozitor yoshlik va o'spirinlik yillaridan boshlab shoirona rus tabiatiga mehr qo'yadi. U Buyuk Novgorod atrofini o'rab turgan o'rmonlarni va ko'm-ko'k ko'llarni butun umri davomida xotirasidan chiqarmay, doimo o'zining ijodida tabiat mavzusiga murojaat qilgan.

Yoshlik chog'laridan rus xalq qo'shiqlariga qiziqib, buvisi bilan Novgorod monastirlari va cherkovlariga borgan chog'larida, u mashhur Novgorodlik bonglar jarangini, qadimiy marosimlardagi kuy va rus qo'shiqlarini e'tibor bilan tinglar edi.

Erta yoshligidanoq Raxmaninov kasbiy musiqa san'ati bilan ham tanishadi. Uning ajdodlari orasida iqtidorli qo'shiqchi, skripkachi va pianinochilar bor edi. Ota-onasi fortepianoda chalar, otasi esa musiqiy ijodkorlik bilan ham shug'ullanib, asarlari XIX asr o'rtalarida nashr qilingan edi. Mashhur Jon Fildning shogirdi bo'lgan bobosi esa, ajoyib pianinochi va kompozitor sifatida musiqa shinavandalariga yaxshi tanish bo'lgan.

S.I.Raxmaninovning musiqa bilan shug'ullanish orzusi erta boshlandi. Unga birinchi musiqiy saboqlarni onasi va o'qituvchisi A.D.Ornatskaya bergan. Bo'lajak kompozitor to'rt yoshidan boshlab, bobosi bilan birgalikda fortepianoda to'rt qo'llab chalar edi.

80-yillarning boshlarida Raxmaninovlarning oilasi Peterburgga ko'chib o'tadi, ota-onasi bolaning mislsiz qobiliyatini ko'rib, 7 yoshligidan uni konservatoriya o'qituvchi V.V.Demyanskiy sinfiga topshiradilar. O'z holiga tashlab qo'yilgan bolaning darslarini qunt bilan o'qimaganligi sababli, musiqiy qobiliyati rivoj topmaydi. N.G.Rubinshteyn va F.Listning yosh shogirdi, taniqli musiqachi bo'lgan katta amakivachchasi A.I.Zilotti maslahatiga binoan, Raxmaninov 1885 yilda Moskva konservatoriyasiga, intizomi kuchli professor N.S.Zverev pansioniga o'tkaziladi. Zverev ko'p pianinochilarga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, o'zining o'quvchilarida doimo yuksak man'aviy sifatlarni va mehnat madaniyatini tarbiyalar edi. U o'quvchilarining har bir fanni o'zlashtirayotganliklarini nazorat qilib, mashhur rus san'atkorlari, rassomlari, aktyorlari va musiqachilar bilan uchrashuvlarni tashkil qilar, ularning musiqiy dunyoqarashlarini va saviyalarini oshirish intilar edi. Zverevning uyida uyushtirilgan musiqiy kechalarda taniqli musiqachilardan P.I.Chaykovskiy, A.G.Rubinshteyn kabi mashhur san'atkorlar ham ishtirok etishgan. Bu tadbirlarning barchasi qat'iy tizimga solingan mashg'ulotlar bilan birga, bo'lajak kompozitorning tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

S.V.Raxmaninov 15 yoshida konservatoriyaning yuqori bo'limiga, professor A.I.Zilotti sinfiga o'tadi. Shuningdek u garmoniya, cholg'uchilik, erkin ijod va polifoniya fanlaridan A.S.Arenskiydan qat'iy yozuv kontrapunktidan esa S.I.Taneevdan dars oladi. 1889 yili

Raxmaninov hayotida muhim voqealari sodir bo'ldi. P.I.Chaykovskiy u yaratgan asarlarni, shuningdek, ijrochilik mahoratini tinglab ko'rib, unga kompozitsiya bilan astoydil shug'ullanishini maslaxat beradi. Konservatoriya talabalari orasida Raxmaninov eng iqtidorli o'quvchilardan biri sifatida ajralib turar edi. Shu yillarda Raxmaninovning kelgusida etuk musiqachi bo'lib etishishi uchun muhim belgilari namoyon bo'ladi. Unda kompozitorlik iqtidori, noyob xotira va eshitish qobiliyati shu darajada ediki, qaerda nimaiki eshitmasin, aynan shu narsani xuddi uzoq vaqt o'rganib, mashq qilib yurgandek qaytarishi mumkin edi. U o'zining bir yarim oktavani qamrab oladigan barmoqlari mahoratini rivojlantirish uchun soatlab maxsus mashqlar bajarardi.

Konservatoriyada Raxmaninov iste'dodli pianinochi A.Skryabin bilan tanishadi. Ular yaqin do'st bo'lib, bir vaqtning o'zida ham fortepiano ijrochiligi, ham ijodkorlik bobida o'zaro musobaqalashishni yaxshi ko'rар edilar.

Pansionda talabalarning doimo fortepianoda chalishlari Raxmaninovning ijodiy faoliyatiga xalaqit berardi. Shu sababli ham u tez orada otasining opasi, Varvara Arkadevna Satinaning uyiga ko'chib o'tadi, unga royalda shug'ullanishi uchun bir xona ajratib beriladi. U tez orada Satinlarning katta va ahil oila muhitiga ko'nikpb qoladi.

18 yoshida Raxmaninov Moskva konservatoriyasini fortepiano sinfi va keyingi 1892 yilda esa kompozitsiya bo'yicha Katta oltin medal bilan tugatadi. Uning nomi a'lochilarning marmar taxtasiga kiritiladi.

Talabalik davrida Raxmaninov bir qator vokal va cholg'u asarlarni yaratgan bo'lib, ularning ichida, keyinchalik 1917 yilda qayta ishlangan, fortepiano va orkestr uchun yozilgan fa diez minor kontserti alohida e'tiborga loyiq. O'n etti kunda A.S.Pushkinning «Lo'lilar» poemasi syujetiga yozilgan bir aktli «Aleko» operasi uning bitiruv diplom ishi bo'lgan. Opera uning premerasi 1893 yilning aprelida katta muvaffaqiyat bilan o'tadi. Shu yilning oxirida Raxmaninovning ilk bor dirijyor maqomidagi kontsertlari bo'lib o'tadi va u Kievdagagi opera teatriga «Aleko» operasiga dirijyorlik qilish uchun taklif etiladi.

Konservatoriyani tugatganidan so'ng, yosh Raxmaninov kontsert faoliyati va ijod bilan shug'ullanadi. Moskva, Peterburg va boshqa shaharlarda Chaykovskiy, Motsart, Betxoven, Shopen, List asarlari qatorida o'zining ham asarlari o'ren olgan dasturlar bilan kontsertlar beradi. O'sha vaqtarda kompozitorning kontsert va ijodiy faoliyati etarli mablag' keltirmaganligi sababli, moddiy sharoiti og'ir avvolda edi. Shunga qaramay u o'z qadrini yo'qotmadni. Ishlab topgan mablag'inining yarmini doimiy ravishda onasiga jo'natib turar, qo'shimcha mablag' topish maqsadida esa timmay dars berardi. Chaykovskiy Raxmaninovda to'g'ri yo'lni tanlaganiga bo'lgan ishonch so'nmasligi uchun, uni doimo qo'llab-quvvatlardi – unga buyurtmalar topib, xolis yordam berar, ilgariroq esa «Aleko» operasini Moskva va Kiev shaharlarida sahnalashtirishiga ham ko'maklashgan edi.

Kutilmaganda Chaykovskiy vafot etadi. Bu og'ir zarba Raxmaninovni iztirobga soladi va u buyuk kompozitorning xotirasiga bag'ishlab fortepiano, skripka va violonchel uchun «Buyuk san'atkorning xotirasiga elegik trio»ni yaratadi.

Kontsertlar berish bilan birga Raxmaninov turli xil janrdagi asarlar ustida ishlaydi. Bular qatoriga «Beshta fantaziya pesalari» (3-or), «Salon pesalari», fortepiano uchun ansambllar, ikkita suita va boshqa asarlari kiradi. Uning romanslari 90-yillarning o'zidayoq tan olingan edi. Taniqli qo'shiqchilar F.I.Shalyapin, L.V.Sobinov, A.V.Nejdanovalar odatda kontsertlarda Raxmaninov romanslarini uning o'zi bilan birga ijro etar edilar. Orkestr uchun yozilgan «Qoya» fantaziysi tinglovchilar tomonidan juda yaxshi qabul qilindi.

1897 yilda Birinchi simfoniyasi bilan bog'liq bo'lgan og'ir damlar boshlanadi. A.K.Glazunov dirijyorlik qilgan orkestr tomonidan e'tiborsizlik bilan ijro etilgan Birinchi simfoniya tinglovchilar orasida muvaffaqiyat qozonmadni. Kompozitor simfoniyaning mag'lubiyatini juda og'ir o'tkazadi va hatto bir necha yillar davomida mutlaqo ijod qilmay qo'yadi.

1897-98 yillarda Raxmaninov Mamontovning opera teatrida ikkinchi dirijyor lavozimida ishlay boshlaydi. Teatrda u asl dirijyorlik mahoratini egallaydi va yaxshi dirijyor degan nomga

ega bo'ladi. Teatrda bir yillik faoliyati davomida Raxmaninov o'sha davrning eng sara artistik iste'dod egalari bilan tanishadi. Iste'dodli qo'shiqchi F.I.Shalyapin bilan bo'lgan do'stligini «o'zining hayotidagi eng kuchli, chuqur va nozik badiiy his tuyg'ulardan biri», - deb hisoblaydi.

1899 yilda Raxmaninov pianinochi va kompozitor sifatida birinchi marta Angliyaga safar qiladi. Bu erda uning fortepiano uchun asarlari va «Qoya» simfonik poemasi unga shuhrat keltirgan edi. U 1899 yilning oxirida Peterburgda sahnalashtirilgan «Aleko» operasiga dirijyorlik qilib, muvaffaqiyat qozonadi. Bu operada bosh rolni F.Shalyapin ijro etadi.

1901 yilda Raxmaninov fortepiano va orkestr uchun Ikkinch kontsertini tugatadi. Shu yildan uning ijodida yangi yuksalish davri boshlanadi. F.Shopen mavzulariga fortepiano uchun variatsiyalar, N.A.Nekrasovning «Yashil shovqin» she'riga «Bahor» kantatasi, violonchel uchun sonata va yangi romanslar turkumini yaratadi. Raxmaninov o'zining asarlarida etuk ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Fortepiano uchun yozilgan Ikkinch kontserti tinglovchilarda hayratomuz taassurot o'yg'otadi. Bu kontsert tezlik bilan rus va chet el pianinochilar repertuaridan joy oladi. Endilikda uning romanslari ham tinglovchilar orasida tanilib, shinavandalarning e'tiborini qozona boshlaydi.

1902 yilda Raxmaninovning hayotida katta o'zgarish sodir bo'ldi – u ammasining qizi, N.Satinaga uylanadi, ular umrlarining oxirigacha birga bo'lib, ikki ajoyib qiz farzandlarni voyaga etkazdilar.

1903-1917 yillar – Raxmaninovning ijodiy va ijrochilik faoliyatida eng gullab-yashnagan davridir. 1904 yilda u Katta teatrda dirijyorlik qilib, kasbining etuk ustasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. S.V.Raxmaninov rus kompozitorlaridan M.I.Glinka, A.P.Borodin, M.P.Musorgskiy, N.A.Rimskiy-Korsakov, P.I.Chaykovskiy asarlarining tengi yo'q talqinchisidir. M.I.Glinkaning «Shoh uchun hayot», A.S.Dargomijskiyning «Suv parisi», M.P.Musorgskiyning «Boris Godunov», A.P.Borodinining «Knyaz Igor», P.I.Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin», «Piki xonim» kabi asarlar uning talqinida butunlay boshqacha ohangda yangradi. Shuningdek, o'zining asarlarini ayniqsa «Qoya» simfonik poemasi ham shuxrat keltirgan edi.

1906 yilda Raxmaninov teatrda o'zining – «Xasis bahodir» va «Francheska da Rimini» kamer operalarini sahnalashtirdi.

1906 yildan 1909 yilgacha Raxmaninovning oilasi asosan Drezdenda yashaydi. Raxmaninov kontsertlarga va opera teatrlariga tashrif buyurib, Bax, Gendel, Betxoven va Vagner asarlarini tinglaydi, S.P.Dyagilevning Rus kontsertlari mavsumida ishtirot etadi.

1907 yilda kompozitor o'zining fortepiano va orkestr uchun Ikkinch kontsertini ijro etadi, hamda «Bahor» kantatasiga dirijyorlik qiladi. Shu yillarda kompozitor «O'liklar oroli» simfonik poemasini, fortepiano uchun Birinchi sonata va Ikkinch simfoniyasini yaratadi.

1909-1910 yilda Raxmaninovning Amerika va Kanada bo'ylab birinchi kontsert safari bo'lib o'tadi. 1909–1918 yillarning orasida «Bonglar» kantatasi, fortepiano uchun Uchinchi kontsert, fortepiano uchun Ikkinch sonata, 32-or. prelyudiyalari, ikki turkumli etyud– manzara va romanslar turkumini yaratadi. Uning bu davrga tegishli asarlarida his-tuyg'ularning bosiqligi, xavotirlik, chuqur falsafiy hayol surish paydo bo'ladi. Shunda ham musiqasida yorug'lik kayfiyati ustun bo'ladi. Shu bilan birga musiqiy tili tobora murakkablashib boradi. Kuyga esa nutq deklamatsiyasini kiritadi.

1917 yilning 25 martida Raxmaninov Moskvada oxirgi kontsertini beradi. Kontsert dasturi keng qamrovli bo'lib, Chaykovskiyning fortepiano va orkestr uchun Birinchi kontserti, F.Listning Birinchi kontserti va Raxmaninovning fortepiano va orkestr uchun Ikkinch kontsertlaridan tuzilgan edi. 1917 yil dekabr oyining oxirida Raxmaninov oilasi bilan Shvetsiya, Daniya va undan so'ng Amerikaga gastrollarga boradi. Amerikada dirijyorlar L.Stokovskiy, A.Toskanini, Yu.Ormandi, violonchelist Kazals va boshqa ajoyib artistlar bilan birligida kontsertlarda qatnashadi. Hayotining chet elda o'tgan davrida uning kontsert faoliyati nihoyatda shiddatli bo'ldi. Kontsertlar jadvali juda tig'iz tuzilgan edi. Misol uchun 1922-23 yillarda Raxmaninov birgina mavsumning o'zida 70 ta kontsert bergan. Shu yillar ichida Raxmaninov yaratgan asarlarining miqdori katta emas. U o'zining Uchinchi simfoniyasini, «Xor va orkestr uchun uchta rus qo'shig'i»ni yakunlaydi, fortepiano va orkestr uchun To'rtinchi kontsertni

yozadi. 1935 yilgacha «Korelli mavzulariga variatsiyalar»ni, hamda «Paganini mavzusiga rapsodiya»ni va 1940 yilda so'nggi asari - orkestr uchun «Simfonik raqslar»ni yaratdi.

Raxmaninov 1935 yildan boshlab Amerikada butunlay yashab qoladi va chet elga faqat dam olishga va gastrollarga chiqar edi.

Buyuk kompozitor Vatanini hech qachon yodidan chiqarmaydi. Turli yillarda qator kontsertlaridan tushgan mablag' yig'imlarini urushda yarador bo'lган vatandosh askarlar ehtiyoji uchun o'tkazib turadi. «Rus xalqining dushmaniga qarshi bo'lган kurashiga bitta rusdan imkon qadar ko'mak. Ishonishni istayman, to'liq g'alabaga ishonaman», - deb yozgan edi ulug' kompozitor.

Umrining so'nggi yillarida kompozitor og'ir xastalikka chalinadi. Kuch-quvvati qolmagan bo'lsa ham, barmoqlaridagi jarohatlardan qon tomchilasa ham u kontsert berishdan to'xtamasdi. Kompozitor shunday der edi: «...faqat kontsert vaqtida men o'zimni kuchli va boshqalarga kerakli ekanligimni his qilaman. Agar ishlab turmasam, unda men halok bo'laman, nobud bo'laman».

Butun jahon uning yubileyini nishonlash arafasida turgan bir vaqtida Raxmaninov 1943 yilning 28 martida 70 yoshga to'lishiga bir necha kun qolganida vafot etadi.

Ijodining tavsifi. Raxmaninov – asl rus kompozitoridir. Musiqiy ijod mazmuni nimadan iborat bo'lishi zarurligi haqida fikr yuritib, u shunday yozgan edi: «...musiqada kompozitorning Vatani, uning muhabbatni, imon-e'tiqodi, unda taassurot qoldirgan kitoblari, sevimli manzaralari aks etishi lozim. ...Men rus kompozitoriman, mening Vatanim mening tabiatimni, shijoatimni va dunyoqarashimni belgilaydi, mening musiqam esa – mening tabiatimning farzandidir, shu sababli ham u – rus musiqasidir».

Kompozitor turli janrlarda ijod qilgan. U opera va simfoniyalar, orkestr uchun pesalar, vokal- simfonik asarlar, kamer- cholg'u va fortepiano uchun asarlar, romanslar va xorlar yozgan. Uning asarlarini eshitganda birinchi taktlardanoq Raxmaninovning musiqasini tanib olish mumkin. Iste'dodining xususiyatiga ko'ra, Raxmaninov tug'ma simfoniyachidir. Simfonik ibtido nafaqat uning orkestr uchun yozilgan asarlariga, balki operalari hamda fortepiano uchun yozgan asarlari va romanslariga ham singib ketgan.

Raxmaninovning musiqiy asarlari jonli va tabiiydir. Ularni birinchi bor tinglashda xuddi badiha qilinayotgandek, lekin asarning barcha detallari o'ylab chiqilgani, shaklning aniq va ixchamligi, haqida taassurot qoladi. Uning asarlarida bir qator kichik motivlar birlashib, kengaytirilgan yaxlit kuylanuvchan mavzuni tashkil qiladi. Musiqiy obrazning sekin-asta rivojlanishi - Raxmaninovning uslubining xos jihatidir.

Kompozitorning musiqasi polifonik xususiyatlar bilan to'yintirilgan bo'lib, mavzular uzlusizligi, kengligi va rivojlanishga egiluvchanligi bilan tavsiflanadi. Uning musiqasi hayotbaxsh ohanglarda aks etadi. Hatto, kompozitorning kechki ijodiy davridagi asarlarining ko'pchiligidagi g'amgin obrazlar ustunlik qilgan bo'lsa ham, ular pessimistik taassurot qoldirmaydi.

Raxmaninov XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida faol namoyon bo'lган modernizm g'oyalariga qarshi chiqdi. «Men modernistlarni ijro etmayman», - deb yozgan edi Raxmaninov do'stlaridan biriga.

Dekadentlik ta'sirlarga berilib ketgan ko'pchilik kompozitorlar kuydan yuz o'girishganida ham, Raxmaninov kuyni, xalq qo'shiqchiligining himoyachilaridan biri bo'lib qoldi.

«Buyuk kompozitorlar, - yozgan edi Raxmaninov, - avvalo va doimo musiqaning etakchi ibtidosi bo'lган kuyga e'tibor berishgan. Kuy – bu musiqadir, barcha musiqaning muhim asosidir. Chunki, mukammal musiqa o'zining garmonik tartibga solinishini nazarda tutadi va hayotga keltiradi. ...Melodik kashfiyotchilik, bu so'zning tom ma'nosida - kompozitor hayotining asosiy maqsadidir. Agar u uzoq vaqt davomida yashash xuquqiga ega bo'lган kuy yaratishga qodir bo'lmas ekan, bu holda kompozitorlik mahoratini egallahsga uning imkonini kamdir. Shu sababli ham, o'tmishning buyuk kompozitorlari o'z mamlakatlarining xalq kuylariga katta qiziqish bildirishar edi. Rimskiy-Korsakov, Dvorjak, Grig va boshqalar uchun xalq eposi ilhomning tabiiy manbasidir. Men shovqin va dissonanslar suroniga cho'mishni o'zlarining

oldilariga maqsad qilib, kuy va garmoniyadan voz kechadiganlarni juda kam hurmat qilaman». «Bir nechta modernistlarni hisobga olmaganda, barcha rus kompozitorlari o'zlariga rus xalq qo'shig'i ruhini chuqur singdirib olishgan», - deydi Raxmaninov.

S.V.Raxmaninovning vokal-simfonik asarlari va xor uchun kompozitsiyalari ko'p emas. Bolalar yoki ixlosmandlar jamoasi uchun yozgan kichik pesalaridan tashqari, u «Bahor» kantatasi, xor, orkestr va yakkaxon ovozlar uchun «Bonglar» poemasi, simfonik orkestr va xor uchun «Uchta rus qo'shig'i», hamda a'capella xor uchun «Avliyo Ioann Zlatoust liturgiyasi» va «Tungi amallar» nomli ikkita yirik turkumni yozgan.

So'nggi ikki asari cherkovning kanonik matnlari asosida yaratilgan. Lekin ular cherkov amaliy musiqasi doirasidan ko'ra ko'proq tugallangan yirik xor kantatasiga yaqinroq. Ularni garmonik qayta ishslashda Raxmaninov qadimgi qo'shiqchilik ohanglarga suyangan holda, mardanovar va erkin usullardan foydalanib, opera va simfoniya dramaturgiyasi usullarini qo'llagan.

S.V.Raxmaninovning simfonik ijodida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus musiqasiga xos bo'lgan Chaykovskiyning lirik-dramatik simfonizmi va «Qudratli to'da» kompozitorlarining epik simfonizmiga xos unsurlar sintezi o'z aksini topadi. Kompozitor tomonidan 3 ta simfoniya va dasturiy simfonik asarlar - M.Yu.Lermontovning she'ri asosida «Qoya» A.Byoklinning surati ta'sirida «Marhumlar oroli» hamda «Simfonik raqslar» ijod qilingan.

Fortepiano ijodi. Fortepiano va orkestr uchun Ikkinch kontsert. Raxmaninov jahon fortepiano adabiyotiga ham o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Uning fortepiano asarlarining nafaqat miqdori, balki fortepiano san'atiga kiritgan badiiy g'oyalari qoyil qoldiradi. Raxmaninovning fortepiano uchun yozgan asarlarida, uning pianinochi san'ati to'kisroq aks etadi, uning asarları hajm kengligi va kuylanuvchanligi bilan alohida ajralib turadi. Asarlarida ritmika ham katta o'rın tutadi. Raxmaninov pianino ijrochiligiga yuksak darajada mardonavor, «qahrli va mard» ritmika irodali tarzda aks etganligi xos bo'lgan Fortepiano uchun yozilgan asarlarning bayoniga zichlik, to'latovushli faktura va fortepiano ohangining shiradorligiga xos.

Raxmaninov yirik shakl janrida yozilgan asarları quyidagi: ikkita sonata, ikkita variatsion turkum fortepiano va orkestr uchun beshta kontsert (shu jumladan, «Paganini mavzusiga rapsodiya»). Ularning orasida Ikkinch va Uchinchi kontsertlar ajralib turadi. F.List, I.Brams, I.P.Chaykovskiyarning izdoshi bo'lib, ayniqsa, I.P.Chaykovskiy an'analarini kungliga yaqin bo'lgan. Mazkur kompozitorning Si bemol- minor kontserti singari, Raxmaninovning fortepiano va orkestr uchun kontserclarini simfoniyalar deb hisoblash mumkin.

Ikkinch kontsertidan so'ng, kompozitorning ijodida eng samarali davr boshlanadi. Kontsert ilk bor Moskvada 1902 yilning dekabrida Zilotti dirijyorligi ostida ijro etilib, xayratli taassurotlar qoldirdi. Kontsert noyob badiiy yaxlitligi bilan ajralib turadiki, bunga ayrim qismlarning ohng va ritmik birligi sababdir. Musiqa shoirona va yorug' kayfiyati bilan tinglovchilarni butunlay qamrab olib, o'ziga asir etadi.

Ushbu kontsert fortepiano ijrosida solo partiyasi bilan boshlanadi. Bu solo bosh partiyaning kirish qismidir. Ketma-ket kelgan subdominantali septakkordlar, bas ovozida takrorlanadigan «fa» tovushi,akkordlarni zikh joylashuvi - hammasi bonglar jarangini eslatib, sergaklantiradi.

Garmonik tusi o'zgargan holda ohang asta-sekin ulg'ayib, ff ohang kuchlanishida orkestr jo'rli ostida bosh partiya paydo bo'ladi. Bu qahrli mavzu fortepianoning jadal passajlari ostida yangraydi. Bosh partiya mavzusi keng davriya shaklda yozilgan bo'lib, torli va puflama cholg'ulariga topshirilgan:

Simfoniyaning bosh hamda, yondosh partiyalari o'zining keng kuychanligi bilan ajralib turadi. Ular bir-biriga zid bo'lib, bunda minoradi majorga almashtiriladi.

Lekin, kuychanlik xususiyati har ikkala bu mavzuni o'zaro birlashtirib turadi. «Iste'dodning buyuk kuchga ega bo'lgan ruh» - deb ta'riflagan edi asarni B.Asafev.

Yondosh (mi bemol- major) partiyasi nafis, badihasimon kuy bo'lsada, uning shakli aniq reprizalari oddiy ikki qismli shaklga ega:

Bunda shoirona orzularning namoyon bo'lishini ko'ramiz. Kuy yuksalib, asta-sekin pastlashib boradi. Kuy zavq-shavq bilan to'yingan. Ikkala partiya rivojlov qismida o'zgartirilgan

ko'rinishda berilib, unda yana yangi kuy ohangi paydo bo'ladi. Birinchi qismning reprizasi avj sifatida ko'rindi, II-qismda (mi major) fleyta tovushlari sokin, mushohada kayfiyatiga egadir. Fortepiano partiyasining mayin figuratsiyalari ostida kuyning dastlab fleyta, keyin klarnet ijrosida betashvish, xotirjamlik harakteri ko'rsatib beriladi:

Finalda hayot zavqi ifoda etilgan. Ikkinci kontsert qo'shiqchilik, hayajon, zavqli dramatizm kabi xususiyatlar bilan sug'orilgan bo'lib, tantanali, shodli madhiya bilan tugallanadi.

S.V.Raxmaninov bu kontserti uchun metsenat Belyaev tomonidan ta'sis etilgan Glinka nomidagi mukofotga sazovor bo'lgan edi.

S.V.Raxmaninovning fortepiano va orkestr uchun Uchinchi re- minor kontserti ham hayajonga to'yiganligi, kuya boyligi va fortepiano uslubidagi mukamalligi bilan e'tiborlidir. Uchinchi kontsert 1809 yilda yozilgan.

S.V.Raxmaninov ijodida kichik shaklidagi asarlar katta o'rin egallaydi. Shular jumlasiga 24 ta prelyudiya, 6 ta musiqiy lahzalar, 15 ta etyud-manzaralar, qator pesalar va transkriptsiyalar kiradi.

S.V.Raxmaninovning «24 prelyudiya»lari negizida major-minorning ketma-ket almashinishi va shunga muvofiq musiqiy obrazlarning kontrast qiyoslanish tamoyili yotadi. Tushkun, dramatik prelyudiyalar quvonchga to'la, hayotbaxsh prelyudiyalar bilan almashinib turadi. Kompozitorning nomini butun dunyoga taratgan bиринчи asari - bu mashxur do diez minor prelyudiyasidir. Prelyudiya 1892 yilning 26 sentyabrida ilk bor ijro etildi. Uning taqdiri juda ajoyib bo'lib chiqdi. 1898 yilda A.I.Ziloti Evropa va Amerika shaharlarda bergen kontsertlarining dasturiga kiritilgan bu prelyudiya favqulodda muvaffaqiyatga erishadi. Angliya va Amerikada prelyudiya bir necha nashriyotlar tomonidan chop etildi. Keyinchalik, Raxmaninov endi taniqli pianinochi va dirijyor sifatida Evropa hamda Amerika shaharlari bo'ylab qilingan gastrollarda do-diez- minor Prelyudiyasi uning kontsertlarida ijro etilishi shart bo'lgan asarga aylanadi.

Bu pesa asosiga quyi registrda berilgan qisqacha mavzu olingan. Uning ohangi bong ohangiga o'xshab, butun musiqa davomida keldi. Bu mavzuga rahm keltiradigan qarama-qarshi kuy yangraydi:

S.V.Raxmaninov uslubining o'ziga xos belgilari namoyon bo'lgan dastlabki pesalar qatoriga «Pesa-fantaziyalar» kiradi. 19 yoshida yozgan pesalari tezda mashxur bo'ldi va pianinochilar dasturidan mustaxkam o'rin egallay oldi. «Pesa-fantaziyalar» nomi ostida beshta pesa, mashhur do-diez- minor prelyudiyasi, «Elegiya», «Melodiya», «Polishinel» va «Serenada»si birlashtirilgan.

Kichik shaklidagi pesalari sirasiga uning 23-or. o'nta fortepiano prelyudiyalari kiradi. Pesalarning g'oyasi yaxlit bir turkum sifatida o'ylab chiqilib, «zulmatdan yorug'lik sari» tamoyili asosida joylashgan. Bunda beshta dramatik minor prelyudiyasi beshta yorug' kayfiyatga ega bo'lgan major prelyudiyasi bilan almashinib turadi.

Sol- minor Prelyudiyasi katta ma'lumlikka ega bo'ldi. Uch qismli murakkab shaklda yozilgan bu asarda ikkita qarama-qarshi musiqiy obrazlar berilgan. 1-3-qismlari – zarbdor va egiluvchan ritmli, keskin urg'uli, akkordli faktura orqali ifodalangan marshdir.

O'rta qismda keng nafasli kuylanuvchan mavzu va taqlidiy - ovoz osti polifonik fakturasini orqali lirk obraz ko'rsatilgan. Bu mavzu chetdagi mavzularga qarama-qarshi bo'lib, ularni qaxramonona timsolini yanada yorqinroq ifodalaydi.

Umuman olganda, bu Prelyudiya hayotbaxsh, optimistik asar bo'lib, uni . Raxmaninovning o'zi sevib ijro etar edi. «Raxmaninov bu Prelyudiyani ijro etganida men doimo vahimaga tushardim, - deb eslaydi Z.Pribitkova o'zining xotiralarida. - U sekin, juda qo'rqinchli darajada sekin ijro eta boshlar edi. Keyin creshendo shunchalik bahaybat kuch bilan o'sar ediki, xuddi vahimali tovushlarning ulkan to'lqini, qudratli kuch va qahr-g'azab ko'chkisiday yopirilganday tuyulardi... go'yo o'zanidan chiqib ketgan to'g'ondek edi».

Raxmaninov tomonidan 1934 yilda chet elda yaratilgan «Paganini mavzusiga Rapsodiya» ham eng sara va mashhur asar bo'lib, bunda variatsion shakllar keng simfonik ko'lamgacha etib boradi.

Opera ijodi. Raxmaninov ajoyib va yuksak iste'dodli dirijyor edi. U Mamontovning xususiy teatrda, keyinchalik esa Katta teatrda dirijyorlik faoliyatini yuritgan paytlarida mumtoz opera partituralarini puxta o'rganib chiqar edi. Ish jarayonida u buyuk ijrochilar F.Shalyapin, L.V.Sobinov, A.V.Nejdanova, N.N.Zabela-Vrubel, rassomlar V.M.Vasnetsov, K.A.Korovin, M.A.Vrubellar bilan ijodiy munosabatda bo'lган, operalarni saxnalashtirilayotganida Rimskiy-Korsakov bilan doimiy ijodiy hamkorlikda bo'lib turar edi. Bu ijodiy muloqotlar natijasida, Raxmaninovda ham opera yozish istagi paydo bo'ladi. «Aleko»dan tashqari u yana «Xasis bahodir» va «Franceska da Rimini» fojiali operalarini yaratdi. «Aleko» va «Franceska da Rimini» operalarida sevgi-muhabbat tuyg'usi insонning eng yaxshi xislat-fazilatlari sifatida namoyon bo'ladi. Aleko va Lanchettoni rashk qyinoqlarida azob chekayotgan, jafokash qahramonlar sifatida tasvirlagan. Ularning salbiy sifatlari xudbinlik va qasoskorlik o'sha davrda hukmronlik qilgan ijtimoiy-axloqiy tartibsizliklar natijasida shakllangan edi.

S.V.Raxmaninov «Xasis bahodir» operasida, Pushkin asaridagi asosiy fikrni saqlab qolgani holda, odamlar taqdirini hal qiluvchi shumlik ramzi sifatida oltin mavzusini bo'rttirib ko'rsatgan. Raxmaninov o'z qaxramonlariga rahm-shavqat bilan qaraydi. Uning operalari lirk-psixologik xarakterga egadir. Ular Chaykovskiyning operalariga ma'naviy jihatdan yaqin bo'lib, qahramonlarning qalb dramasini tasvirlab berishga qaratilgan.

S.V.Raxmaninovning uchta operasidan «Aleko» operasi mumtozligi bilan ajralib turadi. Bu erda kompozitor ariya, vokal ansambl, xor, rechitativ, orkestr lavhalari kabi an'anaviy opera shakllaridan foydalangan. Shu bilan birga, bu operada monologlar ham katta rol o'ynaydi.

S.V.Raxmaninov operalarining lirk dramaсини musiqiy-psixologik tomondan ochib beradi. Kompozitor uchun opera syujetining maishiy, tarixiy, milliy taraflari uncha muhim emas edi. U ko'proq qahramonlarning ruhiy hayotiga urg'u beradi. Operada voqeанинg sekin-asta rivoji berilmagan. Asar to'qnashuvli vaziyatlardan boshlanadi.

S.V.Raxmaninovning opera sohasidagi ilk «Aleko» asarida tugallangan opera shakllari va keng kuy-ohanglari ustunlik qiladi. «Aleko» operasidan Zemfira ariyasini ko'rib chiqamiz:

Zemfiraning qo'shig'i yosh lo'li ayolning ixtiyoriy xulq-atvorini ta'riflaydi. Birinchi musiqiy parchada biz Zemfiraning istexzoli muomala ohangini eshitamiz. Ikkinci parchada esa katta dramatizm bilan nafrat va g'azab tuyg'ulari ko'tarilishini namoyon qiladi. «Elegiya» janrida yozilgan. «Aleko» kavatinasi operaning dramaturgik markazi hisoblanadi. Aleko og'ir azob chekadi, chunki Zemfira boshqa lo'li yigitini sevib qolgan. «Aleko»ning ruhiy dramasini kompozitor keng rivojlangan vazmin-g'amgin vokal lavhada ko'rsatgan.

Raxmaninovning etuk operalarida, uning rechitativ-arioza tarzida ifodalangan vokal yozuviga xos yorqin misollar ko'plab uchraydi. Kompozitor opera janrini orkestr uchun poema yoki kantata bilan yaqinlashtiradi. Ularda, orkestr partiysi vokal partiyanı qo'llaydi va to'ldiradi.

Romans ijodi. S.V.Raxmaninov tomonidan rus va chet el shoirlarining so'zlariga jami 80 dan ziyod romanslar yozilgan. Yorqin kuy va shu bilan birga, she'r matnini nafis nutqdosh (so'zdosh) yo'llar bilan etkazib berishga intilish, obrazlardagi go'zal daqiqalarning serjiloligi uning romanslarini alohida ajratib turadi. Sinchiklab ishlab chiqilgan fortepiano jo'rligi vokal partiylar bilan teng huquqga ega bo'lib, ba'zida oldingi o'ringa ham chiqadi. Kompozitor rus vokal lirkasi sohasida nodir durdonalar yaratgan bo'lib, bularning qatoriga: «Sehrli tun sukutida» («V molchanii nochи taynoi»), «Men yana yolg'iz» («Ya opyat odinok»), «Bahor suvlari» («Vesennie vodo'»), «Uyqu» («Son») romanslari kiradi.

Eng mashhur romanslarida tabiat obrazlari bilan birga his tuyg'ulari o'zaro uyg'unlikda keladi. Bu romanslar o'ziga xos mohironaligi, ruhiy parvozligi bilan alohida o'ringa ega. «Nastarin» romansining kuyi oddiy va samimiyyidir. Fortepiano partiyasidagi ifodali figuralaridan birin-ketin vokal iboralar kelib chiqadi. Bularning barchasi pentatonika ladi bilan birga xotirjamlik holatini yaratadi.

Romans oddiy ikki qismli shaklda yozilgan, asar davomida tonallik va fortepiano jo'rning sur'ati saqlanib qoladi, ovoz partiyasi esa o'zgaradi.

Kompozitorning melodik iste'dodi ajoyib tarzga ega bo'lган «Vokaliz»da ham o'z ifodasini topgan.

Mashhur «Vokaliz» uning birinchi ijrochisi A.V.Nejdanovaga bag'ishlangan (1915) Asarining rus qo'shiqlari singari erkin taralayotgan kuy vokali tinglovchi e'tiborini darhol jalb etadi. Jumlalar, iboralar, davralarning takroriyligi va simmetrililigi yo'q. Asar davomida metroritm va o'lchov o'zgarib turadi. O'ziga xos cheksiz kuyda va italyancha «bel canto»ning nafis egiluvchanligi sezilib turadi. Bu asar oddiy ikki qismli shaklda bayon etilgan:

Ushbu «Vokaliz»ni kompozitor ovoz bilan torli orkestr uchun, shuningdek, skripka, violonchel bilan orkestr uchun bir necha bor qayta ishlagan.

S.V.Raxmaninovning ijrochilik mahorati. Biz S.V.Raxmaninovning pianinochi nomini F.List va A.G.Rubinshteyn nomlari bilan bir qatorda tilga olamiz. Raxmaninovning ijrochiligi, o'ta mohir imkoniyatlari cheksiz bo'lsa-da, u ijrochilik texnikasidagi mohirlikni, asarning texnik tomonini hech qachon birinchi o'ringa qo'yagan, aksincha, uni butunlay badiiy mazmunga bo'ysundirar edi. S.V.Raxmaninov ijrochiligi bo'rtib turishi, tezligi, shiddati va alohida, «rakhmaninovcha» keskin va g'ayratli, o'ziga xos ritm bilan erishiladigan yuksak ifodali kuchga egaligi bilan tinglovchilarni o'ziga asir qilar edi. Yaxlitlikni buzmagan holda, har bir ovozning alohida ajratib berilishi, tembr tuslarining turli-tumanligi shunchalik yuqori darajada ediki, Rakhmaninov ijrosida orkestrning naqadar boyligi yaqqol eshitilib, sezilib turar edi.

Taniqli kompozitor har kuni royalda mashq qilar edi. Bu xususda u shunday deydi: «Go'zal ijro nafaqat klaviaturani mukammal egallashni, balki, juda ko'p chuqur mushohadalarni ham talab qiladi. Barcha notalar chalib bo'lingan bo'lsa, endi maqsadimga erishdim, deb o'ylamaslik lozim. Haqiqatda hamma narsa endi boshlanadi», degan edi u.

Kompozitor va dirijyor Yu.S.Nikolskiy Rakhmaninovning pianizmi haqida shunday yozgan edi: «Naqadar katta qudrat, ajoyib shijoat, kulminatsiyalarni yorqinligi. Uning palitrasи bo'yoqlarining turli-tumanligini tasvirlash juda qiyin. Va eng muhimmi-tovush. Hech kim Rakhmaninov kabi klaviaturadan bunchalik egiluvchan, go'zal va ifodali tovush chiqara olmas edi. Bu «rakhmaninovcha» tovushni hech qachon takrorlab ham, unutib ham bo'lmaydi».

Ijrochilik g'oyasining qat'iy o'ylab chiqilganligi, yaxlitlik va tugallanganlik- Rakhmaninov-pianinochi, Rakhmaninov- dirijyor uchun xos xususiyatlardir, u orkestrdagи musiqachilarga hamda tinglovchilarni rom etadigan darajada katta ta'sir kuchiga ega edi. «Pult ortida Rakhmaninov turganida, har birimiz mutlaqo xotirjam bo'lishimiz mumkin edi. U orkestrni boshqarayotgan vaqtida qo'shiqni men o'zim emas, balki biz birgalikda kuylayotgandek o'zimni his qilar edim: u meni qanonlarida ko'targandek, yuksaltirib borar edi»; degan edi F.Shalyapin. Unga xos bo'lgan sezilmas artistizm va insoniy jozibadorlik hamda yuksak kasb mahorati orkestrantlarni o'ziga tobe' qilib, bo'ysundirar edi. Rakhmaninov dirijyorlik talqinlari orasida Chaykovskiyning 4-5-simfoniyalari, Borodinining «Bahodirona» 2-simfoniyasi, Grigning «Per Gyunt» syuitasi, teatrda - Glinkaning «Ivan Susanin», Chaykovskiyning «Piki xonim» operalarining talqini alohida ajralib turardi. «Rakhmaninovning dirijorligi o'ziga xos rom qilar edi. Uning ijrosi qudratli iste'dodning engilmas kuchi ila turli yoshdagi tinglovchilarni o'ziga maftun etib, musiqaga o'zi bergen talqinni ularning dillariga jo qilar edi, ularni tobora kuchayib borayotgan zavq-shavq bilan tyaldirib, badiiy rohatning unutilmas cho'qqilarini yaratari edi».

S.V.Rakhmaninov ijodining ahamiyati. S.Rakhmaninov butun jahon miqyosida mashhurlilikka erisha olgan kompozitor va pianinochidir. Uning musiqiy asarlari jahondagi eng yaxshi pianinochilarning repertuaridan o'rinn olgan. Uning beqiyos ijrochilik maxoratiga u tomonidan ijro etilgan va afsuski, faqat gramyozuvlarda saqlanib qolning kontsertlar, prelyudiylar, etyud-manzaralar va boshqa asarlarning ijrosi guvohlik beradi. Rakhmaninov rus musiqasi an'analarini rivojlantirib, rus san'atining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hayotga tadbiq etdi hamda Chaykovskiy, Musorgskiy, Borodin va Rimskiy-Korsakovlarning izdoshi sifatida shuhrat qozondi.

Hozirgi vaqtida uning yorqin ijodiy merosi barcha musiqa o'quv yurtlarida, talabalar tomonidan o'rganilishi uchun o'quv dasturiga kiritilgan. Shuningdek, muntazam ravishda S.V.Raxmaninov nomidagi xalqaro konkurslar o'tkazilib kelinmoqda.

Uning zamondoshi bo'lgan Z.S.Pribitkova shunday xotirlaydi: «Raxmaninov – buyuk hodisa edi. U yuksak man'aviyatga ega inson byalib, etika va vijdon tushunchasining asl mohiyatiga mos kelardi. Nixoyatda aqli, shuningdek, juda keng bilimli inson edi. Buyuk inson, ulkan istedodli musiqachi». Uning butun hayoti san'atga fidokorona xizmat qilish namunasi sifatida tarixda iz qoldirdi.

Asosiy asarlar ruyxati

Fortepiano uchun asarlar: ko'p sonli fortepiano uchun pesalar, shu qatorda 2 ta sonata (1907, 1913), Shopen mavzusiga variatsiyasi (1892), Korelli mavzusiga variatsiyasi (1931), "Fantaziya - pesalar", 10 musikiy momentlar, 2 siklli 24 ta prelyudiyalar (1902-1910), etyud-ko'rinishlar (15ta); o'zining romanslari va boshqa kompozitorlarning asarlariga fortepiano uchun transkriptsiyalar.

Fortepiano va orkestr uchun asarlar: kontsertlar – 1-fis moll (1891); 2- c moll (1901); 3-d moll (1914, 3-tahrir 1941), "Paganini movzusiga rapsodiya" (1934).

Opera: (3 ta) «Aleko» (1892), «Xasis bahodir» (1894), «Fancheska da Rimini» (1904).

Orkestr uchun asarlar: 3 ta simfoniya, (1895, 1907, 1936), «Qoya» fantaziysi (1893), «O'liklar oroli» (1909), «Simfonik raqlar» (1940).

Kamer-cholg'u va kamer-vokal ansambllar: fortepiano, skripka, violonchel uchun «Elegik trio» (1893), 4 qo'lga mo'ljallangan fortepiano uchun 6 ta pesa, violonchel uchun sonata, 2 fortepiano uchun rus mavzulariga rapsodiya, xor va fortepiano uchun «Tun», «Qarag'ay», a capella xor uchun «Ioann Zlatoust» liturgiyasi (1910).

Romanslar: 71 ta.

Xor va orkestr uchun asarlar: «Bahor» kantatasi (1902), «3 ta rus qo'shiqlar»; bariton, xor va orkestr uchun «Qo'ng'iroqlar» poemasi (1913)

Nazorat uchun savollar.

1. S.V.Raxmaninovning hayoti va ijodiy yo'lini so'zlab bering.
2. Kompozitorning ijodiga tavsif bering.
3. S.V.Raxmaninovning fortepiano ijodi haqida so'zlang.
4. S.V.Raxmaninovning ijrochilik uslublarini aniqlang.
5. Kompozitorning opera ijodi haqida so'zlab bering.

Ijodiy topshiriqlar.

- Moskva Katta teatri tarixida 1904–1906 yillarda S.V.Raxmaninovning dirijyorlik qilgan davri yorqin sahfalar sifatida qolgan. U nafaqat qo'shiqchilarga, balki orkestrga ham o'z ta'sirini ko'rsatishga, ularni o'zining ortidan etaklash uchun ish uslubiga qanday yangiliklarni kiritadi? O'sha davr rus kompozitorlarining bir qator asarlari yangi talqinda ijro etilgan. Bu asarlarni aytib o'ting.

- «Kuy - bu musiqa, butun musiqaning asosidir... Melodik ijodkorlik, masalaning eng yuqori mazmunini yoritish – kompozitorning bosh maqsadi», - degan edi Raxmaninov. Uning kuy usullari xaqida gapirib bering.

- Keyinchalik S.V.Raxmaninov «Vokaliz»ni ovoz va torli orkestr uchun, skripka va fortepiano uchun, violonchel va fortepiano uchun, shuningdek, skripka uchun qayta bastalagan edi. Siz ham «Vokaliz»ni o'zbek milliy cholg'usida ijro etib bering.

- S.V.Raxmaninov romanslaridan ijro etib bering.

SO'NGSO'Z

XIX hamda XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan kompozitorlarning ijodiy merosi rus klassik musiqasining dunyo musiqasi rivojidagi ahamiyati mustahkamlanishiga xizmat qildi va musiqa san'atining keyingi rivojlanish yo'llarini belgilab berdi.

M.I.Glinka, A.S.Dargomijskiy, M.P.Musorgskiy, A.P.Borodin, N.A.Rimskiy-Korsakov, P.I.Chaykovskiy, S.I.Taneev, N.Skryabin, S.A.Raxmaninov – yorqin, betakror individual kompozitorlar, rus va dunyo madaniyati tarixini ularning ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning mislsiz qobiliyati va yuksak intellekti rang-barang qiziqishlar va ma'naviy izlanishlarni keltirib chiqargan va ijodida yorqin namoyon bo'lgan.

Tarixan shakllangan janrlar rus kompozitorlari ijodida yangi turlar bilan boyidi. Bular - M.P.Musorgskiyning xalq musiqiy dramalari, M.I.Glinka, A.P.Borodin, N.A.Rimskiy-Korsakovning epik operalari, P.I.Chaykovskiy va N.A.Rimskiy-Korsakovning ertak-balet va ertak-operalari, P.I.Chaykovskiyning lirik-psixologik operalari; S.A.Raxmaninovning dunyo fortepiano san'ati cho'qqisi sanalmish kontsertlari; A.S.Dargomijskiy va M.P.Musorgskiyning dramatik, satirik, ijtimoiy-fosh qiluvchi sahnalari, A.P.Borodinning epik-ertak romanslari, P.I.Chaykovskiy va S.A.Raxmaninovning ilhombaxsh romanslari, N.Skryabinning dadil simfonik polotnolari.

Kompozitorlar millat tarixi va zamona hayotiga qiziqish, Vatanga sadoqat va insoniyligi bilan ajralib turadi.

Boshqa: ukrain, polyak, chech, Sharq, Kavkaz, Zakavkaze, Markaziy Osiyo xalqlari musiqasiga murojaat rus klassikasining an'anasiga aylandi. M.I.Glinkadan keyin ko'plab kompozitorlar ispan, italyan xalq musiqasiga murojaat qilgan.

Hamma kompozitorlar adabiyot, rangtasvir va haykaltaroshlikni chuqur tushuna bilgan. Rus musiqasi ilg'or rus adabiyoti bilan parallel ravishda rivojlanib bordi. Kompozitorlar rus shoir va adiblari: A.S.Pushkin, N.V.Gogol, M.Yu.Lermontov, N.Nekrasov va boshqalarining asarlaridan obraz va syujetlar olib o'lmas asarlar yaratgan. Ayniqsa A.S.Pushkinniň ta'siri beqiyosdir. Rus kompozitorlari A.S.Pushkin she'rleriga ko'plab buyuk romans, opera va qo'shiqlar bastalagan.

Ilk klassik operalar M.I.Glinka tomonidan yaratilgan. Uning operalari rus musiqasining keyingi rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Rus simfonizmi ildizlari uning ikkita operasiga uvertyuralar, operalardagi balet sahnalari, ispan uvertyuralari va g'aroyib "Kamarinchcha" bo'ldi.

M.I.Glinka asos solgan halqehillik, realizm tamoyillari keyingi kompozitorlar ijodida rivojlantirildi. Rus kompozitorlarining ijodiy tafakkuri asosiy sifatlaridan biri simfonizm bo'ldi. Xatto ko'plab rus operalarining simfonizmi haqida gap yuritish mumkin.

Rus musiqasining milliy o'ziga xosligi va badiiy qimmati turli mamlakatlar musiqachilarini e'tiborini o'ziga tortdi. XIX asr va XX asr boshlariga kelib, rus musiqasining ko'plab xorij kompozitorlari ijodiga ta'siri ko'zga tashlanadi. Bu davrga kelib ijrochilik ham tom ma'noda yuksaklikka erishdi. F.Shalyapin, S.Raxmaninov kabi ijrochilarni butun dunyo tan oldi va olqishladi.

Rus klassiklarining ijodiy tajribasi dunyoning ko'plab xalqlari musiqiy madaniyati uchun katta ahamiyat kasb etdi.

TAYANCH TUSHUNCHALARI

A'kapella – cholg'u jo'rligisiz xor yoki yakkaxon kuylash jarayoni.

Ansambl – ikki va undan ortiq ijrochilarning birgalikdagi kuylashi yoki turli cholg'urlardagi ijrosi.

Arietta - kuychan ohangi va bayonning oddiyiligi bilan ajralib turuvchi ikki qisqli kichik ariya.

Arioso - shakl jihatidan erkin tuzilgan kuychan- deklamatsion xarakterga ega kichik ariya.

Ariya – cholg'u jo'rligida yakkaxon ovoz uchun yozilgan opera, kantata, oratoriya, operettadagi tugallangan musiqiy qism. U asosan asar qaxramonlarining harakterini ochib berishda qo'llaniladi.

Ballada – musiqaning romantik yo'nalishi bo'yicha she'riy matn mazmunini ketma-ket tasvirlovchi yakkaxon vokal asari.

Ballet – sahna san'atining bir turi. Balet o'zida musiqa, xoreografiya (raqs va pantomima) va tasviriy san'atni (saxna ko'rinishi, sahna liboslari, chiroq va b.q.) mujassam etadi.

Barkarolla – ilgaridan Venetsiya qayiqchilarining qo'shig'i bo'lib, to'lqinlar o'yiniga o'xshaydigan jo'rliji bilan lirik kuya ega vokal yoki cholg'u musiqiy asar.

Vals - mayin harakatlarga asoslangan raqs. Musiqiy o'Ichovi uch hissali – 3G`4, 3G`8, 6G`8. Vals fortepiano yoki orkestr uchun mustaqil pesa hamda yirik simfonik asarning bir qismi sifatida qo'llanilanishi mumkin.

Variatsiya – musiqiy shakl – mavzuning faktura, lad, tonallik, garmoniya, cholg'ulashtirishda o'zgartirilgan holda takrorlanishi. Variatsiyalar ba'zan ikkita, kamdan-kam uch mavzuga yoziladi.

Virtuozi - ijo texnikasini mohirona egallagan ijrochi.

Vokaliz – so'zsiz, unli tovushlarga kuylanadigan asar, vokal texnikasini rivojlantiruvchi mashq.

Gomofonik musiqa - ko'p ovozlilikning bir turi. Unda birinchi ovoz asosi, boshqa ovozlar esa ikkinchi darajali jo'r ovozlar hisoblanadi. Aynan shu xususiyati bilan gomofonik musiqa - polifonik musiqadan farq qiladi (polifoniyada barcha ovozlar teng).

Diatonika – tovushlari kvinta bo'yicha joylashishi mumkin etti pog'onali musiqiy tizim.

Diniy musika - diniy matnlarga yozilgan vokal yoki vokal-cholg'u asarlar.

Dirijor – orkestr, xor va ansambl boshqaruvchisi.

Duet – 1) Ikki ijrochidan iborat bo'lgan ansambl.

2) Cholg'ular jo'rligida ikki ovoz uchun mo'ljallangan vokal p'esasi.

Imitatсиya (taqlid) – musiqiy mavzuning boshqa ovozda aniq yoki qisman qaytarilishi.

Impressionizm – XIX asrning 70 yillarda rassomchilikda, keyinchalik musiqada, teatr va adabiyotda paydo bo'lган ijodiy yo'nalish. Musiqada impressionist kompozitorlarning asosi maqsadi - tashqi dunyo natijasida hosil bo'lgan, deyarli payqab bo'lmaydigan psixologik holatlar, kayfiyatnik uzatib namoyon etishdir.

Improvizatsiya – (badiha) ijo etishning bir turi bo'lib, musiqani ijo etish paytida musiqa yaratilishi sodir bo'ladi.

Introduksiya - 1) Cholg'u asarida muqaddima vazifasini bajaruvchi birinchi qism. 2) Uvertyuradan so'ng pardani ochib berilgan xor sahnasi yoki vokal ansamblı.

Kavatina - xususiyatlari opera ariyasi. Ba'zan kuychan cholg'u p'esa ham shunday deb nomlanadi.

Kantata - yakkaxonlar, xor va orkestr uchun mo'ljallangan yirik vokal-cholg'u asari.

Kvartet – to'tta ijrochi (sozanda yoki xonanda)dan tartib topgan ansamblidir. Cholg'u kvartet - bir turli yoki aralash cholg'ulardan iborat. Cholg'u kvartetlardan torli kamonli (2 skripka, alt, violonchel) va fortepiano kvarteti (fortepiano, skripka, alt, violonchel) ko'p uchrab turadi.

- to'rtta sozanda yoki to'rtta xonanda uchun yozilgan asar.

Leytmotiv - asar davomida ko'p marotaba takrorlanadigan mavzu. Bu mavzu obrazlarni, his-tuyg'ularni tasvirlab, aniq ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

Miniatyura - katta bo'lмаган мусиқи p'esa bo'lib, asosan fortepiano, shuningdek boshqa cholg'ular, kamer ansambllar, orkestr uchun ham yoziladi. Ko'pincha miniatyuraning nomlanishi asarning janrini ko'rsatadi.

Musiqiy dramaturgiya - musiqiy dramaturgiyaning asosida dramaning umumiy qonun-qoidalari yotadi - ifodalangan ziddiyatning mavjudligi, dramatik g'oya bosqichlarining aniq ketma-ketligi (ekspozitsiya, ziddiyatni kelib chiqishi, rivojlov, avj, echilish). Musiqiy dramaturgiya tushunchasi cholg'u asarlariga ham nisbatan qo'llaniladi.

Opera - so'zlar, saxna ko'rinishlar va musiqaning birgaligi asosida tuzilgan musiqiy-dramatik asardir. Opera dramaturgiyasining shakllari - rechitativ, aria, arioso, arietta, ansambllarning turli xillari, xorlar.

Oratoriya - yakka ijrochilar, xor va simfonik orkestri uchun dramatik syujet asosida, kontsert uchun yirik shaklda yozilgan asar.

Ostinatnost - musiqa asarida muayyan kuy yoki faqat ritmik yoki garmonik davrani ko'p marotaba takrorlanishi, bir vatqning o'zida boshqa ovozlarda mustaqil rivoji mavjudligi. Shakllantirish vazifasini bajaradi.

Polifonik musiqa - ko'p ovozlilik turi, unda kuylar yoki kuylar birlashmasi o'zining alohida rivoji va mustaqil ahamiyatiga ega.

Rechitativ - kuylash jarayonida so'zlashuv ritmini yaratuvchi vokal shakldir. Rechitativ emotsiyal bezaklar hisoblanishi - ovoz ko'tarilishi yoki pasayishi, aktsentlar va pauzalarga asoslanadi.

«Rimskiy-Korsakov gammasi» - ton va yarim tonlarni navbatma-navbatligini hosil qiluvchi tovushqator (ton - yarim ton yoki yarim ton-ton). Shunday tovushlar tizimi birlashib, kamaytirilgan ladni ifodalaydi.

Romans - mustaqil shoirona matn asosida, cholg'u jo'rligi bilan yozilgan lirik-vokal asardir. Romans atamasi rus musiqasida XIX asrning eng boshlarida tashkil topdi.

Romantizm - badiiy oqim bo'lib, XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida dastlab adabiyotda, keyinchalik musiqa va san'atning boshqa yo'naliшlarida shakllangan. Romantizm insonning ichki dunyosini ochib berish bilan harakterlanadi.

Trio – uchta ijrochi (sozanda yoki xonanda)dan tarkib topgan ansamblidir. Trio turlari: vokal, cholg'u, vokal-cholg'u ansambllar.

- uchta sozanda yoki xonanda uchun yozilgan musiqiy asar.
- musiqiy asar ichidagi o'rta qismning shakli.

«Chernomor gammasi» - tovushqator bo'lib, bunda butun tonlar ketma-ketligi hosil bo'ladi va ular butuntonli gamma deb ataladi. Shunday tovushlar tizimi birlashib, orttirilgan ladni ifodalaydi.

Epilog - asar davomida berilgan musiqiy obrazlar mazmunini umumlashtirib beruvchi oxirgi sahnasi, xotimasi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.A.Asafev. M.I.Glinka. L. 1978
- 2.I.Belza. Aleksandr Nikolaevich Skryabin. M.: 1985
- 3.A.P.Borodin v vospominaniyax sovremennikov. M. 1985
- 4.V.A.Vasina – Grossman. Mixail Ivanovich Glinka M.1982
5. Vospominaniya o Raxmaninove. I, II toma, M. 1988
6. Vospominaniya o Chaykovskom M. 1973
7. M.I.Glinka. Chelovek. Sobo`tiya. Vremya. M. 1988
8. E.M.Gordeeva. Kompozitoro` moguchey kuchki. M. 1986
- 9.A.P.Zorina. Aleksandr Porfirevich Borodin. M., 1987
10. Yu.V.Keldo`sh, T.V.Korjenyants, E.M.Levashov, O.E.Listova,
11. A.M.Sokolova. Istorya russkoy muzo`ki. M. 1988
12. Yu.V.Keldo`sh, L.Z.Korabelnikova, E.M.Levashov,V.N.Romanova tom 6. M. 1989
13. I.F.Kunin. Nikolay Andreevich Rimskiy-Korsakov. M.,1979
14. M.R.Musorgskiy i muzo`ka XX veka. M. 1990
15. Operno`e libretto. M. 1982
16. Pribegina. Petr Ilich Chaykovskiy. M. 1990
17. Yu.A.Rozanova. istoriya russkoy muzo`ki. t. 2 M.,1986
18. Russkaya muzo`kalnaya literatura Vo`p. II, III. Red. E.L.Frid. L. 1989, 1984
19. N.A.Rimskiy-Korsakov. Letopis moey muzo`kalnoy jizni. M. 1980
20. S.I.Savenko. Sergey Ivanovich Taneev M. 1985
21. A.I.Soxor A.P. Borodin, L. 1980
22. O.I.Sokolova Sergey Vasilevich Raxmaninov. M. 1987
23. E.Frid. M.P.Musorgskiy. Problemo` tvorchestva M. 1981
- 24.P.I.Chaykovskiy. O muzo`ke, o jizni, o sebe. M. 1986
25. P.I.Chaykovskiy. Chelovek. Sobo`tiya. Vremya. M. 1985
26. F.Shalyapin. Stranitso` iz moey jizni. M. 1990
27. Shlifstejn S.Ya. Musorgskiy M.P. Xudojnik. Vremya. Sudba. M. 1975

Musiqiy asarlarining audioilovasi:

M.I.Glinka.

«Shox uchun hayot» («Ivan Susanin») opera.

2 rus mavzusida simfoniya (V.Shebalin muxarrir).

«Aragon ovi».

«Madriddagi tun haqida xotiralar».

«Ruslan va Lyudmila» operasidan parchalar.

«Chuxon fantaziyasi».

«Boris Godunov» opera.

«Ko'rgazmadan manzaralar» (M.Ravel cholg'ulashtirish)

«Ajal qo'shiq va raqlar». Golenihev-Kutuzov she'rlari

yozilgan vokal tarkumi. (D.Shostakovich orkestrga solgan).

«Hovanhina» operadan parchalar.

«Quyoshsiz». Golenihev – Kutuzov so'ziga yozilgan vokal tarkumi.

«Kal tog'da bir kecha»

A.P.Borodin.

«Baxodirona». Simfoniya №2

«O'rta Osiyoda». Musiqiy manzara.

P.I.Chaykovskiy.

«Ma'shum taqdir». Simfonik poema yoz. 77

«Yil fasllari» (12 xarakterli p'esalar) yoz. 37

Torli orkestr uchun serenada. Do major. Yoz. 48

N.A.Rimskiy-Korsakov.

«Shoh Sultan haqida ertak» opera.

«Qorqiz» opera.

«Sadko» opera.

A.S.Skryabin.

Do minor simfoniyasi

«Vajd poemasi».

S.V.Raxmaninov.

Simfoniya №3. Lya major. Yoz. 44.

«Vokal» yoz. 34 № 14.

«Marhumlar oroli». (Byoklin surati asosida yozilgan simfonik poema. yoz. 29)

«Simfonik raqlar».

«Aleko» nomli operadan parchalar.

«Bonglar». Orkestr, xor va solistlar uchun simfonik poema.

Prelyudiya Re major. yoz. 23 №4

«Elegiya». yoz. 3 №1.